

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

N.S. ISMAILOVA, U.A.DADABAYEV, S.A.RAHMONOV

“JAHON IQTISODIYOTI VA GLOBALIZATSIYA”

FANI BO‘YICHA

(KREDIT-MODUL UCHUN)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI TOMONIDAN DARSLIK SIFATIDA TAVSIYA ETILADI**

TOSHKENT - 2022

UO‘K: 33M:327M(575.1)

KBK:

N.S.Ismailova, U.A.Dadabayev, S.A.Rahmonov. Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022 y. – 261 b.

“Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya” fanidan darslik “Jahon iqtisodiyoti” (mintaqalar va faoliyat turlari bo‘yicha) magistratura mutaxassiligi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalari uchun mo‘ljallangan. Mazkur darslikda “Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya” fani bo‘yicha silabbus birinchi semestr uchun belgilangan mavzularning asosiy mazmuni yoritilgan, nazorat savollari va tayanch iboralar keltirilgan. Mazkur darslik magistrarga “Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya” fanini yanada chuqurroq o‘zlashtirish uchun hamda ma’ruzalar davomida olingan bilimlarni chuqurlashtirish uchun qo‘shimcha adabiyot sifatida ishlatilishi mumkin.

Taqrizchilar: – TDIU professori, i.f.d. R.R.Nazarova
 – O‘zXIA, Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi
 kafedrasi dotsenti, i.f.n. Z.R.Sodikov

Mazkur darslik Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2022 yil 2 iyun kunidagi O‘quv-uslubiy kengashining №10-sonli qarorida muhokama qilingan va nashr uchun tavsiya etilgan

KIRISH

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim bir jihatlaridan biri bu ochiq iqtisodiyotni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan siyosiy, huquqiy va iqtisodiy masalalarni xal qilish va o‘zaro keng qamrovli jahon xo‘jaligiga integratsiyalashuv, hamda xalqaro moliyaviy – iqtisodiy tashkilotlar, chet davlatlar bilan o‘zaro ikkitomonlama va ko‘ptomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va chuqurlashtirish bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga o‘zining salmoqli ta’sirini o‘tkazadigan jahon iqtisodiyoti rivojlanishining muhim tendensiyasi bu uning globallashtirishidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son farmoniga asosan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi (PF-60,29.01.2022). Strategiyaning 21-maqsadida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o‘sinh sur‘atlarini ta‘minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1.6 baravar va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadni 4 ming AQSH dollardan oshirish hamda “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish belgilab olingan. Taraqqiyot strategiyaning maqsadi mamlakatimizni globallashtirish sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirokchi sifatida qatnashish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

«Jahon iqtisodiyoti globallashtirish» fani ixtisoslik fanlari qatoriga kiradi. Ushbu fan bugungi kundagi butun dunyodagi fenomen ya‘ni globallashtirish jarayonining davlatlar iqtisodiyotiga ta’siri, iqtisodiy jug‘rofiya sohasidagi global iqtisodiyotning turli jihatlar va uning resurslar, rivojlanish, xalqaro biznes va savdo bilan bog‘liq masalalarini ko‘rib chiqishga qaratilgan.

Fanda globallashtirish fenomenini o‘rganiladi va bugungi kunda tobora ko‘proq o‘zaro bog‘liqlik, dunyo iqtisodiyoti o‘zgarishi haqida tushuncha berishni maqsad qiladi. Ushbu kurs iqtisodiyotni boshqa ijtimoiy tadqiqotlar sohalaridan ajratib bo‘lmashligini tan oladi, shuning uchun siyosiy iqtisodiy nazariyalar va modellar, tarixiy kontekst, iste‘mol tendensiyalari, telekommunikatsiyalarning roli va boshqalar muhokama qilinadi. Shuningdek, jahon iqtisodiyotining globallashtirishining xususiyatlari va rivojlanish omillari, jahon iqtisodiyoti global muammolari mohiyati, transmilliy korporatsiyalar va ularning globallashtirish jarayonlardagi tutgan o‘rni, jahon iqtisodiyoti globallashtirishdagi ziddiyatlar va tahdidlar, baynalminallashuv, transmilliylashuv va globallashtirish jarayonlari, jahon iqtisodiyoti globallashtirishining rivojlanish indikatorlari, jahon iqtisodiyoti globallashtirish rivojlanishining ekologik va innovatsion omillari o‘rganiladi.

Kursning asosiy maqsadi – jahon iqtisodiyotini shakllanishi va globallizatsiya jarayonlarining asosiy qonuniyatlari va tendensiyalarini, global va mintaqaviy iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini tahlil etish asosida

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvini chuqurlashtirish omillari va istiqbollarini o'rgatishdan iborat.

“Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya” fani magistrantlarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalalar, iqtisodiy xodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Shu nuqtai nazardan, darslik tarkibi mantiqan uning maqsadidan kelib chiqqan holda mazkur fanning predmetining asoslarini, nazariy va amaliy jihatlarini uzviy bog'liq holda yoritishga qaratilgan.

I-Bob “Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya” faniga kirish

1.1. “Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

1.2. “Jahon iqtisodiyoti globallasuvi” tushunchalari va ularning tasnifi

1.3. Xalqaro mehnat taqsimoti jahon iqtisodiyoti globallasuvining asosi sifatida

1.4. Jahon iqtisodiyoti globallasuvining asosiy sub'yektlari.

1.1. “Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Zamonaviy globallasuv jarayonida davlatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy rivojlanishning muhim bir jihatlaridan biri ochiq iqtisodiyotni shakllantirish uchun zarur bo'lgan siyosiy, huquqiy va tashkiliy masalalarni hal qilish va global iqtisodiyotdagi xizmatlar sohasi bilan keng qamrovli aloqalarni rivojlantirish va chuqurlashtirishdan iborat.

“Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya” fani global muamomlar, globallasuv jarayonlarning mohiyati, rivojlanish omillari va uning qayd etilgan.

«Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya» fanining asosiy maqsadi – talabalarda Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya jarayonlari bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirish.

«Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya» fanining asosiy vazifalari talabalarda global muammolari mohiyati, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar va ularning mintaqaviy va tarmoqlararo oqimlari, transmilliy korporatsiyalar va ularning globallasuv jarayonlardagi tutgan o'rni, xalqaro savdo va jahon xo'jaligi erkinlashuvi, jahon savdo tashkiloti va unga a'zo bo'lish jarayonlari, globallasuv sharoitida global va milliy iqtisodiy xavfsizlik to'g'risida ilmiy tushunchalarni shakllantirishdan iborat.

«Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya» o'quv fani doirasida magistrant jahon iqtisodiyotining global muammolarini, jahon iqtisodiyoti globallasuvining xususiyatlari va rivojlanish omillarini, uning rivojlanish tarixiy davrlari: baynalmilallashuv va transmilliylashuv jarayonlarini, iqtisodiyotning globallasuv jarayonlarida transmilliy kompaniyalar (TMK)lar faoliyatini, ekologik va innovatsion omillarni, «global va milliy iqtisodiy xavfsizlik» va oziq-ovqat xavfsizligi tushunchalari va mohiyati, ko'rsatkichlari va miqdoriy chegaralarini o'zlashtirishi kerak.

«Jahon iqtisodiyoti va globalizatsiya» fani asosiy ixtisoslik fani xisoblanib, 1-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan ixtisoslik

(jahon iqtisodiyoti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari va x.k.) fanlaridan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvida, ochiq iqtisodiyotni barpo etishda va tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda, eksport va import operatsiyalarini bajaruvchi milliy muassasalar, tashkilotlar, korxonalarni xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonlarini yaxshi o'rgangan bo'lishlari lozim.

1.2. “Jahon iqtisodiyoti globallashuvi” tushunchalari va ularning tasnifi

A.Vahobov ta'kidlashicha, jahon iqtisodiyotiga keng va tor ma'nolarda ta'rif berish mumkin. Keng ma'noda jahon iqtisodiyoti - bu milliy iqtisodiyotlar yig'indisi sifatidagi tizim hisoblansa, tor ma'noda - bu milliy iqtisodiyotlarning tashqi dunyoga tovarlar, xizmatlar va iqtisodiy resurslar yetkazib beruvchi qismlarini qamrab oluvchi tizimdir.

Jahon iqtisodiyotiga berilgan tor ma'nodagi ta'rif iqtisodiy nazariyadagi sotiladigan mahsulotlar va omillar tushunchasiga mos keladi. Ma'lumki, sotiladigan mahsulotlar va omillarga asoslangan xo'jalik aloqalari yuzlab milliy xo'jaliklarni “jahon iqtisodiyoti” deb ataladigan bir tizimga birlashtirishini e'tiborga olish lozim.

Ilmiy va o'quv adabiyotlarda “Jahon iqtisodiyoti” yoki “Jahon xo'jaligi” tushunchalari mustahkam kirib bo'ldi, biroq uning mazmuni turlicha talqin qilinadi.

Ayrim mutaxassislar jahon iqtisodiyotini barcha mamlakatlarning o'zaro bog'langan milliy xo'jaliklari majmui sifatida ifodalaydi, boshqa mutaxassislar esa “bu o'ziga xos funksiyalariga, maxsus institutlariga ega organizmdir va biz jahon xo'jaligi haqida ayrim mamlakatlar xo'jaliklari yig'indisidan farq qiladigan xo'jalik deb so'z yuritishga to'la haqlimiz”, deb aytadi. Bu ta'rif shakllanayotgan global iqtisodiyot mohiyatini aniqroq aks ettiradi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyasi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi kuchayadi.

Bu hodisa iqtisodiyotning baynalminallashuvi deb ataladi.

Iqtisodiyotning baynalminallashuvi – bu ayrim mamlakatlar iqtisodiyotlarining o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi kuchayishidir.

Globallashuv jarayoni turlicha qabul qilinadi va baholanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda unga turlicha munosabatda bo'lishadi. Bir tarafdin,

xorijiy raqobat uchun bozorlarning ochilishi, xalqaro savdo, kapital va mehnat resurslari ko'chib yurishining kuchayishi jahon ishlab chiqarish omillaridan samaraliroq foydalanish, jahon ishlab chiqarishini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va unda ishtirok etuvchi mamlakatlar uchun yutuq deb atash mumkin.

Boshqa tarafdin, global bozorlarda raqobatning kuchayishi, xo'jalik faoliyatining keng erkinlashuvi mamlakatlar uchun xavf-xatarlar tug'dirishi muqarrardir.

Rivojlangan mamlakatlar uchun buning foydali jihatlari aniq ko'rinib turibdi, biroq rivojlanayotgan mamlakatlar haqida, ayrim hollarda, bunday deb bo'lmaydi. Ularning ko'pchiligi baynalminallashuvda xomashyo va mehnat resurslari yetkazib beruvchilar sifatida ishtirok etib, rivojlangan va qudratliroq davlatlarga qaram bo'lib qolishini e'tirof etish mumkin.

Sobiq AQSH Prezidenti B. Klinton huzurida iqtisodiy maslahatchilar guruhiga rahbarlik qilgan J. Stiglis iqtisodiy siyosat xususiyatlarini ta'riflayotib, davlat va bozor munosabatlar o'zaro hamkorlikka qaratilgan bo'lishi kerakligini hamda davlat bozordagi muvaffaqiyatsizliklarni yumshatishda va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynashi kerakligini qayd etgan. U ochliq, hayot standartlari pasayishi, ishsizlikni globallashtiruvning salbiy oqibatlari qatoriga kiritgan .

“Jahon iqtisodiyoti globallashtiruv” tushunchasi bilan birga “global iqtisodiyot” tushunchasi keng qo'llanib kelinmoqda. Hozirda, yagona yaxlit bir “global iqtisodiyot” tushunchasi shakllanmagan bo'lib, murakkab tizim sifatida e'tirof etilib kelinmoqda va ayniqsa, so'nggi yillarda bu tizimda katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: ishlab chiqarish kuchlarining baynalminallashuvi va globallashtiruv; xalqaro iqtisodiy munosabatlarning global tus olishi va jahon moliya bozorining tez sur'atlarda rivojlanishi; jahon va mintaqaviy inqirozlarning kelib chiqishi; turli mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida farqlarning chuqurlashuvi, shuningdek, ahborot-kommunikasion texnologiyalarning rivojlanishi va “raqamli”, “yangi” iqtisodiyot tushunchalari kirib kelishi.

“Global iqtisodiy tizim real voqeaga aylangan va uning qonunlari hamda rivojlanish shakllari jiddiy o'zgarishni talab qiladi” va “Global iqtisodiyot taraqqiyotimizning ko'p jihatlari ta'sir ko'rsatadigan hozirgi zamonning eng muhim fenomenini ifodalashini isbotlaydigan qo'shimcha dalillar kerak emas”, deb qayd etadi O. Bogomolov .

Globallashtiruv jarayonlarning hozirga kelib bir qator xususiyatlarini e'tirof etish mumkin.

Birinchidan, globallashtiruvning muqobilligi – globallashtiruvning ichki qarama-qarshiligini aks ettiruvchi globallashtiruv jarayonlarining turli variantlaridir . Globallashtiruv muqobilligi globallashtiruv jarayonlarining o'rnini bosadigan biror narsa taklif qilmay, ularning ichki variabelligini ifodalaydi. Bu, eng avvalo, globallashtiruv

ro'yobga chiqariladigan quyidagi modellarga taalluqli: liberal model (ba'zida "neoliberal" terminidan foydalaniladi) yoki ijtimoiy mo'ljal olgan model.

Ikkinchidan, globallashuv muqobillari mintaqalarga bo'linishda namoyon bo'ladi, unga muayyan izchillik beradigan va uning eng salbiy oqibatlarini kamaytiradigan o'ziga xos shakli sifatida qaraladi. Globallashuvning muqobilligining borligi jahon globallashib borayotgan bir paytda globallashuvning o'zi uchun salbiy oqibatlarini kamaytirib va bu jarayonlardan imkon qadar ko'p foyda olib, inson uchun globallashuv jarayonlariga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini yaratadi.

Globallashuv jarayonlari to'liqinsimon rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lib, uning rivojlanishida bir qator to'liqlarni keltirish mumkin.

XIX va XX asrlarda globallashuvning birinchi to'liqini nazariyachilari (R. Kobden va J. Brayt) erkin savdo shubhasiz iqtisodiy o'sishga olib kelishi va misli ko'rilmagan taraqqiyot tufayli xalqlar o'zaro adovatni unutishi haqidagi qoidani ishonch bilan asoslab berishdi. Britaniya o'zining dengizdagi, sanoatdagi va moliyaviy quvvati bilan globallashuvning birinchi to'liqiniga kafil bo'ldi.

Globallashuvning jahondagi nizoli muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqidagi g'oya N. Eynjelning "Buyuk illyuziya" nomli kitobida (1909) ishonchli ta'riflab berildi. Asarda muallif jahon mamlakatlarining bir-biriga iqtisodiy bog'liqligi natijasida global nizolar paydo bo'lishi mumkin emasligini isbotlab berdi: 1914 yil arafasida Britaniya va Germaniya (asosiy tashqi siyosiy antago-nistlar) bir-biri uchun ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan savdo hamkorlari edi. Britaniya va Germaniya yalpi milliy mahsulotining tegishli ravishda 52 foizi va 38 foizi tashqi savdoga to'g'ri kelardi. Biroq 1914 yil avgustda millatlarning global yaqinlashuvi muqarrarligi haqidagi taxmin asossizligini ko'rsatdi. Birinchi jahon urushi millatlarning iqtisodiy-axborot-aloqaviy yaqinlashuviga qattiq zarba berdi.

Jarayonni jonlashtirish uchun ko'p vaqt talab etildi. XX asrning oxirgi o'n yilligidagina (ikkita jahon urushi, Buyuk turg'unlik va ko'p sonli ijtimoiy sinovlardan keyin) XX asrda yaratilgan liberal iqtisodiy tartib jahon amaliyotiga qaytadan joriy etila boshlandi. Rejali iqtisodiyot bilan raqobatlashishda G'arbning bozor iqtisodiyoti tizimi jahonni yagona bozor iqtisodiyotiga aylantirib, g'olib bo'lib chiqdi.

Globallashuvning ikkinchi bosqichi (tiklanish) 1970-yillarning oxirida axborot va telekommunikatsiyalarda yuz bergan inqilob asosida boshlandi va globallashuv jarayonlarining yangi xususiyati yaqqol namoyon bo'ldi. Transmilliy korporatsiyalar va nohukumat tashkilotlar milliy chegaralarni osonlik bilan yorib o'tib, barcha mamlakatlarda faoliyat yurita boshladi.

Hozirga kelib, ko'pchilik mualliflar globallashuv tushunchasini "global" so'zi etimologiyasiga yaqin ma'noda, ya'ni yaxlit, umumiy, umumjahon ma'nosida talqin etadi va qo'llaydi. Jahon hamjamiyati uchun umumiy ahamiyatga ega bo'lgan, umuminsoniy hisoblangan, barcha xalqlar va fuqarolar, mamlakatlar hamda

madaniyatlar manfaatlariga daxl qiladigan va ehtiyojini ifodalaydigan omillar, tendensiyalar va jarayonlar global hisoblanadi hamda shunday qabul qilinadi va baholanadi .

Global muammolar bu umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog‘liq, hozirgi zamon muammolaridir. Global muammolar avvalo jahonda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keldi.

Global muammolarni 4 guruxga ajratish mumkin:


Birinchidan, xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan global muammolar – jahonda rivojlangan, rivojlanib kelayotgan va qoloq mamlakatlarning mavjudligi. Hozirgi kunda jahon siyosiy tartibotini belgilashda dunyodagi 7 rivojlangan mamlakatning mavqei katta. Bu mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar orasidagi tafovut g‘oyat kuchaydi. Taraqqiy qilgan mamlakatlarda demokratik qadriyatlar rivojlangan bo‘lsa, qoloq mamlakatlarda avtoritarizm, demokratiyaga zid bo‘lgan ijtimoiy munosabatlar avj oldi, xalqaro xavfsizlikka qarshi tahdidlar paydo bo‘ldi. Buni terrorchilik, ekstremizm ko‘rinishlari vujudga kelganligi tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bulgan global muammolar – jahon xo‘jalik tizimi vujudga kelib, unda asosan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ustunligi qaror topdi. Iqtisodiyoti haddan tashqari rivojlangan mamlakatlar, transmilliy korporatsiyalar jahon iqtisodiyotini boshqarayotgan bir paytda, ikkinchi tomonda ularga qaram, iqtisodiyoti juda ham past darajadagi mamlakatlar mavjuddir. Jahonda iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlariga qaramasdan boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi farq o‘shib bormoqda. XX asr oxirida rivojlangan mamlakatlar jahon yalpi milliy mahsulotining 86 foizini ishlab chiqargan bo‘lsa, kambag‘al davlatlar atigi 1 foizni ishlab chiqardi. Ayrim mamlakatlar rivojlangan davlatlardan juda katta miqdorda qarzga botdi. Natijada ular siyosiy jihatdan mustaqil bo‘lsa-da, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga qaramdir. Jahon iqtisodiy munosabatlaridagi globallashuvning salbiy oqibatlar ham mavjud. Masalan, milliy bozorni siqib qo‘yadi, ishsizlikni, fermerlarning sinishini kuchaytiradi. Bu globallashuvga qarshi harakatni keltirib chiqardi.

Uchinchidan, ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolar – jahon aholisi muttasil ko‘payib borishi natijasida Osiyo va Afrika mamlakatlarida oziq-ovqat, ichimlik suv tanqisligi kuchayib, bu hol boshqa mamlakatlarda ham kuzatilayotgani, jahon aholisining muayyan qismi ocharchilikni boshdan kechirayotgani, savodsiz ekanligi, axborot-texnologiya va umuman fan-texnika inqilobi samaralaridan bahramand emasligi, butun insoniyatga xavf tug‘diruvchi kasalliklar tez tarqalayotganligi shunday muammolar sirasiga kiradi.

To‘rtinchidan, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga kelgan global muammolar - ular qatoriga dengiz va suv havzalarining

bulgʻanishi, oʻrmon maydonlarining tobora qisqarishi, atmosfera ozon qatlamining yoʻqolib borishi kabilar kiradi. Xatarli kimyoviy moddalarning haddan tashqari koʻp ishlatilishi natijasida qishloq xoʻjaligida ekin ekiladigan yerlarning katta qismi yaroqsiz holatga kelish xavfi kuchaydi. Orol dengizi suvi kamayib, gʻoyat mushkul ekologik muammolarni keltirib chiqardi.



Jahon iqtisodiyoti globallashuvining makro va mikro darajalari.

Hozirgi vaqtda globallashuv jarayoni, yaʼni uzviy ravishda oʻzaro bogʻlangan bir butun jahon xoʻjaligining shakllanishi tez surʼatlarda rivojlanmoqda. Mazkur jarayonning ibtidosi asrlar tubida yashirinib yotibdi.

Bu oʻzgarishlar xalqaro infratuzilmada iqtisodiyot globallashuvining makro va mikro darajalariga olib keldi. Globallashuvning mikro darajasi kompaniyaning milliy chegaralardan tashqarida ishlab chiqarishni va bozorni kengaytirish strategiyasi bilan belgilanadi.

Globallashuvning makro darajasida milliy iqtisodiyotni xalqaro xamjamiyatga boshlovchi kuchlarning birligi tushuniladi. Bu kuchlarga birinchi darajada toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy sarmoyalarni, texnologiyalarning almashinuvi, tovarlar va xizmat savdosining oʻsishiga aytishimiz mumkin.

Makroiqtisodiy darajadagi globallashuv davlatlar va integrasiya uyushmalarining iqtisodiy faollikka tortib, savdo va investisiya toʻsiqlarini olib tashlaydi, erkin savdo xududlarini tashkil kilish asosda paydo buladi.

Mikroiqtisodiy darajadagi globallashuv kompaniyalar faoliyatining ichki bozordan tashkarida kengayishi natijasida paydo boʻladi. Koʻpgina yirik TMK lar global miqyosda xarakat qiladi. TMKlar globallashuv jarayonining sub'yekti boʻlib, globallashuvning asosini, yaʼni uni xarakatga keltiruvchi asosiy kuchidir.

Globallashuvning mikro darajasiga zamonaviy informasion texnologiyalar sabab boʻlishi bilan bir qatorda, koʻpgina firmalar tomonidan raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida qilingan saʼiy xarakatlari, standartlashtirish tizimini ishlab chiqish va joriy etish, oʻlchash, ishlab chiqarilayotgan tovarning sifatini tekshirish va nazorat qilish, xalqaro savdoning tez oʻsishiga yordam beradi.

Zamonaviy jahon xo'jaligi - bu nafaqat jahon ishlab chiqarish kuchlarining globallashuv natijasidir, balki ularning o'zi global moliya-kredit va valyuta to'lovlarining yaqin aloqasidir.

Barcha ob'yektiv o'zgarishlar, ishlab chiqarish, kommunikasiya, savdo, xorijiy sarmoyalar va moliya soxalarida jahon iqtisodiyotini butun bir yaxlit organizmga aylantirdi.

Shu o'rinda globallashuvning ijobiy va salbiy oqibatlari to'g'ri aniqlash ham maqsadga molikdir. Globallashuv jarayonining ijobiy tomonlari quyidagilardan iboratdir:

globallashuv natijasida xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashish chuqurlashib boradi. Bunda mablag' va resurslar samarali sarflanadi;

globallashuv jarayonining asosiy ustunliklaridan yana biri xarajatlarning qisqarishi, narxlarning pasayishi va barkaror o'sishni ta'minlab berishi;

globallashuvning ijobiy jihatlaridan yana biri erkin savdodan keladigan yutuq barcha mamlakatlarni qanoatlantiradi;

globallashuv rakobatning kuchayishini yangi texnologiyalarni yaratilishini, shuningdek mamlakatlar o'rtasida keng tarqalishini ta'minlashi;

xorijiy davlatlarnig ilg'or ilmiy-texnik, texnologik yangiliklarini amaliyotga tatbiq etish natijasida iqtisodiy qulaylikka erishilishi;

Globallashuv jahon xamjamiyatini turli soxalarda xarakatlarini faollashtirib, insoniyat uchun umumiy muammolarni, eng avvalo ekologik muammolarni xal etish uchun jiddiy asos yaratadi.

Xullas, ko'pchilik mutaxassislar, globallashuvning pirovard natijasi jahondagi mamlakatlarda farovonlikning oshishiga olib keladi, deb umid qiladilar.

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlar rivojlangan mamlakatlarda xayrixoxlik bilan, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xavotir bilan qabul qilinmokda. Buning sababi shundaki, globallashuv jarayondaing afzalliklari barcha mamlakatlarga

teng taqsimlanmaydi. Shuning uchun ham globallashuvdan kim foyda ko‘radi, degan savol turli munozaralarga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari eng avvalo sanoati rivojlangan mamlakatlar mavqeini mustahkamlab, ularga qo‘shimcha afzalliklar beradi. Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida globallashuv jarayonining kengayishi iqtisodiy kam rivojlangan mamlakatlar mavqei salbiy o‘zgarishiga sabab bo‘lib, ularni globallashuv jarayoni sub’yektlariga emas, balki ob’yektlariga aylantirishi mumkin.

1.3. Xalqaro mehnat taqsimoti jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosi sifatida

Milliy iqtisodiyotning yaxlit bir jahon xo‘jaligiga birlashishi, shuningdek xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mazmunini ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri xalqaro mehnat taqsimotidir.

Mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishda u yoki bu jihatlari bilan birga mehnat taqsimoti (XMT) katta ahamiyatga ega . Uning chuqurlashuvi esa-ilmiy-texnikaviy inqilobning (ITI) ta’siri ostida bo‘lgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishidan kelib chiqadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti to‘g‘risidagi qarashlar konsepsiyasi XVIII asrning oxiri va XIX asr boshlarida yashab o‘tgan ingliz klassik ta’limotchilari A. Smit va D. Rikardo ishlarida asoslanib, rivojlantirilgan edi. A. Smit “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari” kitobida (1776 y.) xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasini tahlil qilib, savdo va tadbirkorlikda erkinlik zarurligini isbotlagan. Uning fikricha, savdo erkinligida ro‘y berayotgan turli to‘siqlar butun bir davlatlar o‘rtasida ro‘y berayotgan xalqaro mehnat taqsimoti chuqurlashuviga xalaqit beradi. To‘siqlarning tugatilishi va xalqaro almashuv maydonlarining kengayishi natijasida milliy iqtisodiyotning ixtisoslashuvi va o‘zaro bog‘liqligi kengayishi, umumjahon xo‘jaligi yuzaga kelishi ro‘y beradi.

A. Smit keyinchalik o‘zining juda mashxur bo‘lgan erkin savdo shiorini olg‘a surgan edi. Uning konsepsiyasini esa keyinchalik ingliz iqtisodchilari D. Rikardo, R. Torrens va Jon Styuart Mill rivojlantirdi. Ushbu klassiklarning xalqaro mehnat taqsimoti to‘g‘risidagi ilmiy nazariyasi asosiy yutuqlarini biz ishlab chiqarishning nisbiy xarajatlar nazariyasida ko‘ramiz. Bu nazariya xalqaro savdo to‘g‘risidagi iqtisodiy ta’limotning “klassik” asosi hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotda xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishiga qanday omillar ta’sir qilishini bir ko‘rib chiqadigan bo‘lsak. Birinchidan, ishlab chiqarish unumdorligini oshirish, ikkinchidan, ishlab chiqarishda samaradorlikni ko‘tarish, uchinchidan, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga intilish zarurati kabi omillar ta’sir qiladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining asosiy yo'nalishi – ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi bilan chambarchas bog'liq. **Xalqaro kooperatsiya va xalqaro ixtisoslashuv** xalqaro mehnat taqsimotining asosiy shakllari hisoblanadi.

Turli davlatlardagi korxonalarning ma'lum bir tovarlarni chiqarishga ixtisoslashuvi zamonaviy ilmiy-texnika inqilobiga chambarchas bog'liq. Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi ikkita yo'nalish (ishlab chiqarish va hududiy yo'nalish) bo'yicha rivojlanib boradi, o'z navbatida ishlab chiqarish yo'nalishi:

- a) sohalararo;
- b) davlatlararo;
- v) alohida korxonalarning ixtisoslashuviga bo'linadi.

Xalqaro mehnat taqsimotining boshqa bir shakli – xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasidir. Uning ob'yektiv asosi, ishlab chiqarish rivojlanishining o'sib borayotgan darajasi xamda mamlakat tashqarisida ro'y berishidan qati nazar, mustaqil korxonalar o'rtasida ro'y berayotgan barqaror ishlab chiqarishdagi aloqalar jarayoni hisoblanadi.

Ishlab chiqarish kooperatsiyasi ma'lum bir munosabatlar tizimi sifatida xizmat ko'rsatayotgan faoliyatning sohasi va hamkorlikning usuli hisoblanadi. Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi o'zining rivojlangan shakllarida hamkorlikning turli sohalarini qamrab olgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi (YUNKTAD) ma'lumotlariga qaraganda, global qo'shilgan qiymat zanjirlari (GQQZ) xalqaro mehnat taqsimotida borgan sari rivojlanib bormoqda. Jahon iqtisodiyotida korxonalarning GQQZga ulanishini nazarda tutuvchi jarayonlarini jadallashtirish katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Hozirga kelib, xalqaro savdoning 80 foizi GQQZ orqali amalga oshirilib, mazkur jarayonda transmilliy korporatsiyalar yetakchi rol o'ynamoqda.

1.4. Jahon iqtisodiyoti globallashtirishining asosiy sub'yektlari.

Jahon iqtisodiyotini uning tarkibiy qismlari yoki asosiy qatnashchilari – sub'yektlaridan iborat mexanizm ko'rinishida ifodalash mumkin. Ushbu sub'yektlarning asosiylari milliy iqtisodiyotlar, transmilliy korporatsiyalar (TMK),

transmilliy banklar (TMB), integrasion birlashmalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotlar jahon iqtisodiyotining asosiy sub'yekti sanaladi. Milliy iqtisodiyotlarga xos asosiy xususiyat shundaki, dunyoning aksariyat mamlakatlari iqtisodiy suverenitetni saqlab kelishmoqda. Globallashuv jarayoni tufayli tashqi bosimning kuchayishiga qaramasdan, mamlakatlarda eng muhim iqtisodiy qarorlar tashqaridan emas, balki milliy hukumatlar tomonidan qabul qilinmoqda. Shuning uchun ham jahon iqtisodiyotini tahlil etishda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda mavjud iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga tayanish lozim. Ba'zi integratsion birlashmalarda iqtisodiy suverenitet qarorlar qabul qilishning umumiy mexanizmi bilan uyg'unlashib ketmoqda.

Oxirgi o'n yilliklarda TMKlar darajasi ko'tarildi va butun dunyo ularning faoliyat (savdo, sanoat, moliya) yuritish maydoniga aylandi.

Natijada TMKlar global iqtisodiyotining muhim mustaqil tarkibiy qismiga aylanishdi va ular hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 1/5—1/4 qismi to'g'ri kelmoqda. TMKlarning aksariyat qismi o'z mamlakatlari ichki bozori uchun ishlashiga qaramasdan, globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchi hisoblashadi. Globallashuv jahonni yagona bozorga aylantirish vositasi sifatida TMKlar uchun manfaatli hisoblanadi, chunki ular ushbu bozorda eng kuchli xo'jalik sub'yektlari sanaladi.

Shu bilan birga, TMKlarning manfaatlari doimo milliy iqtisodiyot manfaatlari bilan mos kelavermaydi. Shunga qaramasdan, globallashuv jarayonining chuqurlashuvi natijasida TMKlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rnini va jahon xo'jaligining boshqa sub'yektlariga ta'siri ortib bormoqda.

Transmilliy banklar (TMB) hozirgi davrga kelib katta moliyaviy salohiyatga va bank xizmatlari bozorida yetakchi universal tijorat banklariga aylanishdi va TMKlar bilan birga jahon iqtisodiyotining asosiy sub'yektlariga aylandi.

Ular jahon moliya bozorlarida yetakchi mavqeiga va murakkab va samarali boshqaruv tizimiga ega bo'lib, dunyoning bir nechta mamlakatlarida faoliyat yuritadi. A.Bulatovning fikriga ko'ra, tashqi iqtisodiy faoliyat transmilliy banklarning muhim yo'nalishiga aylandi. Masalan, 1960 yilda faqat 8 ta AQSH banki xorijiy davlatlarda o'z filiallariga ega bo'lgan bo'lsa, XX asrning 90-yillarining oxiriga kelib, ularning soni 100 tadan oshdi.

AQSH, Germaniya va Yaponiyaning yirik tijorat banklari turli mamlakatlardagi ko'p sonli korporativ mijozlarga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish hajmini tobora oshirmoqdalar.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab moliya bozorlarining globallashuv jarayoni kuchaydi. Bu holat moliyaviy oqimlarning universallashtirishida, moliyaviy hamkorlikning yagona tamoyillarini ishlab chiqilishi va qabul qilinishida, moliya mexanizmlari va instrumentlarining unifikatsiyalashuvida namoyon bo'ldi.

Transmilliy banklar xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga xilma-xil moliyaviy xizmatlar ko'rsatadi. Lekin shu bilan birga, transmilliy banklar tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar ichida quyidagi xizmatlar yuqori salmoqni egallaydi:

- yevrovalyuta bozorlari va xorijiy bozorlardan depozitlar jalb qilish;
- xorijiy valyutalar bilan xalqaro diling operatsiyalarini amalga oshirish;
- boshqa banklarga kreditlar berish;
- nodir metallar bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
- xalqaro savdoni moliyalashtirish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
- qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan xalqaro investitsion bank xizmatlarini ko'rsatish;
- kompaniyalarga muddatli kreditlar berish;
- trust xizmatlarini ko'rsatish.

TMBlarining kredit operatsiyalariga xos bo'lgan quyidagi xususiyatlarni e'tirof etish mumkin: birinchidan, transmilliy korporatsiyalar faoliyatining rivojlanishi yirik miqdordagi moliyaviy resurslarni talab qiladi, bu mablag'larni esa, faqat TMB bera oladi; ikkinchidan, TMB diversifikatsiyalashgan depozit bazasiga ega bo'lganliklari sababli uzoq muddatli kapital qo'yilmalarni amalga oshirish imkoniyatiga egadir.

TMB faoliyatining yo'nalishlari, ularning mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'rnini, xalqaro moliya operatsiyalarini rivojlantirishdagi roli ular aktivlarining tarkibi va dinamikasida namoyon bo'ladi.

Transmilliy banklar (TMB) hozirgi davrga kelib katta moliyaviy salohiyatga va bank xizmatlari bozorida yetakchi universal tijorat banklariga aylanishdi va TMKlar bilan birga jahon iqtisodiyotining asosiy sub'yektlariga aylandi.

TMB faoliyatining rivojlanishi bevosita ularni yetarli darajada resurs bazasi bilan ta'minlanganligiga bog'liq.

TMB va TMKlar faoliyati natijasida aksariyat mamlakatlar iqtisodiyoti o'zaro birlashib, xalqaro hududiy iqtisodiy birlashmalarni tashkil etmoqda. Ushbu

birlashmalar jahon xo‘jaligining muhim mexanizmiga aylandi, ba’zilari, jumladan Yevropa Ittifoqi (YeI) tashqi dunyoda o‘z a’zolari nomidan faoliyat olib bormoqda.

Ammo ko‘pchilik mintaqaviy integrasion birlashmalar (YeI va Shimoliy Amerika Erkin savdo assosiasiyasidan (NAFTA) tashqari) o‘z a’zolari milliy iqtisodiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatmaydi. Hozircha xalqaro iqtisodiy integratsiya jahonning nisbatan rivojlangan hududlarida muvaffaqiyatli amalga oshmoqda, boshqa hududlarda esa ushbu jarayon ularning rivojlanish darajasining ortishi bilan chuqurlashib boradi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning soni va ahamiyati tubdan oshdi. Ushbu tashkilotlarda jahon iqtisodiyotidagi ulushi katta mamlakatlar hal qiluvchi rolga ega. Ayrim hollarda, boshqa mamlakatlar tovarlar, xizmatlar, kapital va texnologiya jihatdan qayd etib o‘tilgan mamlakatlarga bog‘liqligi sababli xalqaro tashkilotlarda ularning fikrini qabul qilishga majbur bo‘lmoqda.

Shu bilan bir vaqtda, globallashuv jarayoni milliy iqtisodiyotlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu sababli milliy iqtisodiyotlarning xalqaro tashkilotlarga a’zo bo‘lishga intilishi kuchayib bormoqda va ushbu tashkilotlarga a’zolik ko‘plab iqtisodiy muammolarni ko‘p tomonlama kelishuvlar asosida hal etish imkonini beradi. Natijada xalqaro tashkilotlar jahon iqtisodiyotining (avvalo, rivojlanayotgan kichik va o‘rta mamlakatlarga nisbatan) kuchli sub’yektlariga aylanib bormoqda.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning muhim vazifalaridan biri global iqtisodiyotining rivojlanishi to‘g‘risida statistik tahlillar, hisobotlar tayyorlashdan iborat. Amaliyotda Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ), Umumjahon banki guruhi, YUNKTAD, Umumjahon savdo tashkiloti va boshqa tashkilotlarning nashrlaridan keng foydalaniladi.

Tayanch so‘zlar: global iqtisodiyot, jahon iqtisodiyoti, jahon bozori, xalqaro mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv, kooperasiya, transmilliy korporatsiyalar.

Nazorat savollari:

1. Jahon iqtisodiyotining tor va keng ma’nolaridagi tavsifi nima bilan farqlanadi?
2. Jahon iqtisodiyoti tizim sifatida nimani ifoda etadi?
3. Jahon iqtisodiyotining sub’yektlariga nimalar kiradi?
4. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning qanday shakllari mavjud?
5. Jahon iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichi qanday xususiyatlarga ega va global iqtisodiyot bilan nimalar bilan farqlanadi?
6. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi nima va uning qanday belgilari mavjud?
7. Xalqaro mehnat taqsimotining mazmuni va mohiyati nimadan iborat?

8. Xalqaro mexnat taqsimoti rivojlanishigata'sir etuvchi qanday omillarni bilasiz?
9. Xalqaro mehnat taqsimoti rivojlanishining o'ziga xos tomonlarini xarakterlab bering.
10. Xalqaro ixtisoslashuv nima?
11. Ishlab chiqarish kooperatsiyasining mazmuni va mohiyatini tavsiflab bering.

II- bob. JAHON IQTISODIYOTINING GLOBALLASHUVINING XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH OMILLARI

- 2.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.**
- 2.2. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining obyektiv manbalari va asosiy omillari**
- 2.3. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining rivojlanish bosqichlari**

2.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.

Zamonaviy jahon xo'jaligini rivojlanishining muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan jahon iqtisodiyotining globallashuvi milliy iqtisodiyotlarni o'zaro bog'liqligini kuchayishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda butun dunyoni yetakchi transmilliy korporatsiyalar faoliyati maydoniga aylanishi, xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashuvi, xalqaro iqtisodiy aloqalar va tashqi savdoni ahamiyati, hajmi, dinamikasi oshib borishi kuzatilmoqda.

Evolutsion jarayonda zamonaviy jahon iqtisodiyoti bir necha bosqichlarga ajratiladi:

1. XIX asr oxiri–birinchi jahon urushigacha bo'lgan davr. Bu bosqichda jahon iqtisodiyotini ochiqqligini kuchayish va xom–ashyo yo'nalishdagi xalqaro savdo ustun bo'lsada, biroq eksport hajmi doimiy o'sib borgan.

2. Birinchi va ikkinchi jahon urushi o'rtasidagi davr. Bunda jahon iqtisodiyotni rivojlanishi beqarorlik va krizislar bilan xarakterlanadi. Milliy iqtisodiyotda avtarkiya va proteksionizm tendensiyasi kuchaygan, shuningdek esportni roli pasaygan.

3. XX asrning 50–90 yillar davri. Bu bosqich jahon xo'jaligini shakllantirishga qaratilgan tendensiyani tiklanishi bilan xarakterlanadi. Xalqaro xo'jalik aloqalarining muhim subyekti bo'lgan transmilliy korporatsiyalar mahsulotni yaratish, uni realizatsiyasi, kreditlashni ichiga olgan ishlab chiqarishning internatsionallashgan kompleksini shakllantirdi. XX asrning 60 yillari o'rtasidagi kolonial sistemadagi krizis jahon xo'jaligini yangi ishtirokchilari bo'lgan katta gruppadagi rivojlanayotgan mamlakatlarni paydo bo'lishiga olib keldi.

4. XX asr oxiri–XXI asrni boshlanishi – zamonaviy jahon xo'jaligini shakllanish bosqichi. Xalqaro ishlab chiqarish kuchlarini shakllanishi, iqtisodiy o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlikni kuchayishi va boshqalar. Jahon xo'jaligi rivojlanishida integratsiyalashuv jarayonning yangi yuqori bosqichi–jahon iqtisodiyotining globallashuvidir. Jahon xo'jaligining iqtisodiy tahlil qilishda, qoida bo'yicha zamonaviy jahon xo'jaligini xolatini va dinamikasini xarakterlovchi ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bularga mamlakatni milliy boyligi va uni aholi jon boshiga ulushi, YaIM, xalqaro iqtisodiy aloqalarda ishtiroki (tashqi savdo kvota, aholi jon boshiga tashqi savdo oboroti va boshqa ko'rsatkichlar) ifodalovchi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Mamlakatlarni jahon xo'jaligi tizimida ishtirokini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi:

Eksport kvotasi–alohida mahsulot turi yoki tarmoq va butun iqtisodiyotda eksportni ulushini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich ma'lum davrga eksport qiymatini YaIM qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi. $K_E=(E/VVP)*100\%$.

1. Import kvotasi–alohida mahsulot turi yoki tarmoq va xalq xo'jaligidaimportni ulushini ifodalovchi miqdoriy ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich ma'lum davrga eksport qiymatini YaIM qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi. $K_I=(I/VVP)*100\%$.

2. Tashqi savdo kvotasi–eksport va importni yalpi qiymatini $\frac{1}{2}$ YaIM qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi. $K_V=\frac{\frac{1}{2}(E+I)*100\%}{\text{ЯИМ}}$

3. Mamlakatni tashqi savdo oboroti–eksport va importning jahon tovar oborotidagi ulushi.

4. Aholi jon boshiga tashqi savdo oboroti.

5. Malakatni kapital xalqaro migratsiyasi jarayonidagi ulushi(kapital eksport–import)

6. Malakatni mehnat resurslari xalqaro migratsiyasi jarayonidagi ulushi.

Iqtisodiy mohiyati jihatidan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishining yangi darajasi asosida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashuvini bildiradi. Globallashuv jarayoni jahon iqtisodiyotining faoliyat ko'rsatish xarakteriga kuchli ta'sir ko'rsatib, alohida davlatlar iqtisodiy tizimini ochiqqligiga va regional integratsiyalashuv jarayonlarini intensivfikatsiyalashuviga olib keldi².

Jahon xo'jaligining globallashuvi–nisbatan yangi tushuncha bo'lib, XX asrning 1980-yil oxiri va 90–yillarning boshlab ilmiy adabiyotlarda keng qo'lananila boshlangan. Bungacha bo'lgan davrda globalizatsiya tushunchasi zamonaviy iqtisodiyotda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar–yirik xalqaro kompaniyalarning ta'minot mahsulotlari alohidagi bozorlarini qo'shilishi ya'ni global masshtabdagi faoliyatini mohiyatini tushuntirishda ishlatilgan.

Globalizatsiya tushunchasi ilk marotaba amerkalik olim T.Levit tomonidan 1980 yillar boshida kiritilgan bo'lib, bunda u yirik transmilliy korporatsiyalartomonidan ishlab chiqarilgan alohidagi mahsulotlar bozorini qo'shilishi fenomenni sifatida tushungan³. XX asrning 1990- yillarga kelib, globalizatsiya tushunchasi yangi mazmundagi termin sifatida qo'llanilgan. Taniqli amerkalik olim K.Omedan(kniga –Mir bez granits, 1990) keyin bu termin jahon xo'jaligi rivojlanishining yangi kirralari va xarakteristkasi, uni o'tgan davrdagi evolyutsion rivojlanish bosqichidan farqlanadigan zamonaviy holatini ifodalovchi termin sifatida keng qo'llanila boshlandi.

Globallashuv deganda ko'pchilik xolatlarida iqtisodiyotni ochiqqligini o'sishi, savdo, xalqaro kapitalni liberalizatsiyalashuvi ma'nosida tushuniladi.

G.Kolodko tomonidan –globallashuv atamasiga quyidagicha tushuncha berilgan. **“Globallashuv** – bu yagona jahon bozorida ma'lum darajadagi cheklovlarda faoliyat ko'rsatayotgan tovar, kapital hamda mehnat bozorlari liberalizatsiyalashuv va integratsiyalashuvining tarixiy jarayonidir.

Boshqa olimlar esa globallashuvni XX asrdagi iqtisodiy internatsionallashuv rivojlanishi natijasida nafaqat alohida mamlaktlar, balki regionlar iqtisodiyoti ham o'zaro bog'liqligi kuchayganligi bilan bog'lashgan. M.Intrilligeytorning fikricha,

–globallashuv xalqaro iqtisodiyotda chegaralarni mavjud emasligi va integratsiyani ochiqligi tendensiyasida jahon savdo va barcha turdagi almashinuvlarni sezilarli kengashidir.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi – xalqaro hamjamiyatning o'zaro aloqa va bog'liqlikni chuqurlashuvini anglatuvchi, umumjahon global tizimning shakllanishi, amal qilishi va rivojlanishidir. Ya'ni globallashuv (lotincha globus –shar, fr global – umumiy, yalpi)–yagona jahon iqtisodiyotini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayondir.

Xo'jalik faoliyatini internatsionallashuvi–bu jahon xo'jaligi ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga xalqaro iqtisodiy aloqalar ta'siri, alohida mamlakatlar iqtisodiyotining o'zaro aloqadorligi va o'zaro bog'liqligini kuchayishi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya–milliy iqtisodiyotlarni yaqinlashishi va o'zaro moslashishi, ularni xalqaro masshtabda yagona ishlab chiqarish jarayoniga qo'shilishi.

Globallashuv – bu liberalizatsiyalashgan xalqaro almashinuv asosida xo'jalik xayotini integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi, milliy rivojlangan iqtisodiyotning ochiqligi va o'zaro bog'liqligini yuqori darajadagi yangibosqichidir.

Iqtisodiy integratsiya quyidagilarda namoyon bo'ladi, jumladan:

- turli mamlakatlar milliy xo'jaliklari o'rtasidagi hamkorlik va uni to'liq yoki qisman unifikatsiyalanishi;
- ushbu mamlakatlar o'rtasida tovar, xizmat, kapital, ishchi kuchlarini harakatidagi to'siqlarni likvidatsiya qilinishi;
- yagona bozor tashkil etish maqsadida har bir alohidagi mamlakat bozorlarini yaqinlashishi;
- har bir milliy iqtisodiyotda xorijiy xamkorlarga nisbatan diskriminatsiya turli formalarini mavjud bo'lmasligi va boshqalar.

Iqtisodiyotni globallashuvi – bu xo'jalik faoliyati internatsionallashuvining yuqori bosqichi bo'lib, birinchidan xalqaro masshtabda faoliyat yuritish imkoniyatini beruvchi transmilliy korporatsiyalarni tashkil topishi va rivojlanishi va ikkinchidan yagona jahon bozorini shakllantirish bo'yicha davlatlararo kelishilgan chora-tadbirlarni qamrab olgan.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi jarayonining rivojlanishi ochiq milliy iqtisodiyot, tovar, xizmatlar, ishlab chiqarish omillari va moliyani global erkin bozorlari asosidagi integratsiyalashgan jahon xo'jaligini tashkil topishiga olib keladi.

Globallashuvga mohiyati jihatidan quyidagilar xosdir:

- jahon xo'jaligi aloqalari va hamkorligini tezlashuvi va masshtabini o'sishi;
- tovar va xizmatlar xalqaro savdosini kengayishi va diversifikatsiyalashuvi;
- kapitalni xalqaro migratsiyasi;
- ishlab chiqarishni xalqaro kooperatsiyalashuvi;
- xalqaro ilmiy–texnik hamkorlik;
- ishchi kuchi va yuqori kvalifikatsiyali mutaxasislarni migratsiyasi.

Globallashuv – jahon iqtisodiyoti rivojlanishining obyektiv jarayoni bo'lib, juda ko'p ijobiy xususiyatlarga egadir: bular asosan turli mamlakatlar xo'jaligining o'zaro aloqasi, xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, ilm–fan texnika texnologiya yutuqlari almashuvini tezlashishni hamda davlatlarni ilmiy texnikaviy taraqqiyotiga ko'maklashuv bilan xarakterlanadi.


Jahon iqtisodiyotining globallashuvini harakatga keltiruvchi asosiy kuchi bo'lib, xalqaro moliya va informatsion revolyutsiya hisoblanadi. Qaysiki, kompyuterlarni keng qo'llanishi va takomillashib borishi, internet–texnologiyani tez tatbiq etilishi, global ilmiy–tadqiqot setlarini shakllanishi.

Zamonaviy iqtisodiyotda tashqi iqtisodiy sohani rivojlanishida valyuta–moliya segmenti muhim o'rin tutmoqda hamda ichki ishlab chiqarish va YaIM ni o'sishidan oshib ketmoqda.

Globallashuv jarayonining asosiy subyektlari sifatida uni institutsional sistemasini tashkil etuvchi milliy davlatlar, xalqaro va regional tashkilotlar, transmilliy korporatsiya va banklar, xalqaro moliya bozorlari ishtirok etadi.

Ayniqsa transmilliy korporatsiya va banklarning xorijdagi faoliyatlarini kengayishi va diversifikatsiyalashuvi orqali jahon iqtisodiyotini globallashuv jarayonini boshlanishida muhim o'rin tutgan.

Xususan, 2010–2020 yillar davomida jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 40% dan 49% gacha ortib, pandemiya natijasida 2020-yilda pasayish kuzatilgan. (3.1.-jadval).



2.1-rasm.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi ko'rsatkichlari 2010–2020 yy¹.

Globallashuv jarayoni milliy iqtisodiyotga ijobiy, salbiy va ikki tomonlama ta'sir etishishi mumkin, ya'ni birinchisida–milliy iqtisodiyotni o'sish sur'atlarini tezlashtirish imkoniyatlari, ikkinchisida–mamlakat iqtisodiy rivojlanishining deformatsiyalashuvi, uchinchisida esa–milliy iqtisodiyotni kuchayishi global iqtisodiyot kon'yunkturasiga bog'liqligi bilan izohlanadi.

¹ **Manba:** <https://ec.europa.eu/>

Obyektiv globallashuv tendensiyasining umumiy xolda uchta yo'nalishga ajratish mumkin⁷: tovar va xizmatlar bozori, moliya bozori va ishlab chiqarish omillari bozori.

1. Tovar va xizmatlar bozori. Mehnat unumdorligini o'sishi va ijtimoiy ishlab chiqarishning yangi strukturasini shakllanishida ilg'or texnologiyalarni paydo bo'lishi bilan bog'liq. Xizmat ko'rsatish iqtisodiyoning yetakchi sektoriga aylanadi, jumladan rivojlangan mamlakatlarda ushbu sektorni YaIM ulushi 70 foizda ortiqni tashkil etmoqda.

2. Moliya bozori. Moliyaviy xizmatlar bozorini globallashuvi, moliyaviy integratsiyani kuchayishiga, ya'ni moliya institutlarini qo'shilishi va yutilishi jarayonlari, milliy to'siqlarni kamayishiga olib keldi. Global moliyaviy inqiroz arafasidagi XVF ning bahosiga ko'ra, moliyaviy globallashuv jarayonlarida rivojlangan mamlaktlar bozori to'liq, o'tish davridagi rivojlanayotgan mamlakatlarda esa milliy moliya bozorining 30–50 foizgacha hajmi integralashgan.

3. Ishlab chiqarish omillari bozori. Bugungi kunda kapital zamonaviy milliy iqtisodiyotni o'zgarishi sharoitida faol ta'sir etuvchi jahon xo'jaligi rivojlanishining asosiy yo'nalishlariga yo'naltirilgan: norma, tamoyillarni unifikatsiyalash, rivojlanayotgan mamlakatlarda real sektorga joylashuvi, rivojlangan mamlakatlarda o'sayotgan investitsion jozibadorlik, umumiy makonning shakllanishi. Shu bilan birga, mehnat bozori ham xalqaro miqyos darajasida rivojlanmoqda, ya'ni yuqori daromad va yaxshi sharoitdagi ish joylarini topish maqsadida ishchi kuchlarini xalqaro miqyosdagi migratsiyasi ko'lami kengaymoqda.

Iqtisodiy faoliyatni globallashuvi quyidagi asosiy yo'nalishlarda rivojlanadi: xalqaro savdo, ishlab chiqarish omillarini xalqaro harakati (kapital, ishchi kuchi), xalqaro moliyaviy operatsiyalar, ishlab chiqarishning moliyaviy instrumentlari-fyuchers, opsiyonlar va boshqalar), valyuta operatsiyalari.

Iqtisodiy globallashuvning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy globallashuv;
- transmilliy korporatsiyalar faoliyatini globallashuvi;
- xalqaro savdoni liberalizatsiyalashuvi;
- iqtisodiyotni regionalizatsiyalashuvi;
- yetakchi mamlakatlarni informatsion iqtisodiyotga o'tishi.

Zamonaviy jahon iqtisodiyotini rivojlanishida mamlakatlarni regional darajadagi iqtisodiy yaqinlashuvi va o'zaro hamkorligi o'ta muhim tendensiyadir. Mamlakatlararo iqtisodiy integratsiyaning yuqori formasi iqtisodiy va valyuta ittifoqlari bo'lib hisoblanadi. Mazkur jarayonlar Yevropada (YeI) va ShimoliyAmerikada (NAFTA) nisbatan rivojlangan.

Shuningdek, transmilliy korporatsiyalar milliy, regional va xalqaro bozorlarni birlashtiruvchi global strategiyasini realizatsiyasini amalga oshirish orqali xalqaro xo'jalik aloqalarini rivojlanishida yyetakchi rol o'ynamoqdalar. Dunyodagi barcha yirik transmilliy korporatsiyalar tovarlar, xizmatlar eksport qilish bilan birga, tovarlar eksportidan ko'ra manfatliroq bo'lgan xolatlarda, odatda tovarlarni xorijda ishlab chiqarish bilan shug'ullanmoqdalar.

Shu bilan birga, transmilliy korporatsiyalarning boshqacha ko'rinishida bo'lgan transmilliy banklar mamlakatlar o'rtasida qimmatli qog'ozlar va kreditlarni katta

oqimini shakllantirish orqali iqtisodiyotning globallashuvida jarayonida mustaqil rol o'ynamoqdalar.


Shunday qilib, jahon xo'jaligining o'zaro aloqalarida ishlab chiqarishning internatsionalizatsiyalashuvi va integratsiyalashuvi o'z navbatida alohida bo'lgan milliy iqtisodiyotlarni o'zaro aloqadorligi va yagona jahon xo'jaligini shakllanish jarayonlarini kuchayishiga olib keldi.

2.2. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining obyektiv manbalari va asosiy omillari


Jahon iqtisodiyoti globallashuvni tahlil etishning keyingi bosqichi bo'lib, globallashuvni harakatga keltiruvchi kuchlar, globallashuv jarayonlari obyektiv manbalari hamda bevosita globallashuvning asosiy omillari hisoblanadi. S.I.Dolgov tomonidan iqtisodiyotni globallashuvni harakatga keltiruvchi kuchlarning asosi sifatida iqtisodiy, siyosiy, xalqaro, texnik, ijtimoiy, liberazatsiya, tovar va kapital bozorini qayta tartibga solinishi kabi faktorlar keltirib o'tilgan. Iqtisodiy globallashuvni harakatga keltiruvchi kuchlarga jahon iqtisodiyoti doirasida kapitalni konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi jarayonlarini, xo'jalik xayotini transmilliylashuvi–yirik transmilliy korporatsiya va moliyaviy institutlarni o'sishi va rivojlanishini keltirib o'tish mumkin. Bozor raqobati nafaqat milliy bozorda, shuningdek jahon masshtabida globallashuvni rag'batlantiruvchi katta kuch sifatida zamonaviy globallashuv jarayonlariga kuchli ta'sir o'tkazmoqda.

Globallashuvni harakatga keltiruvchi yana bir kuch–bu ilmiy–texnikaviy progressini rivojlanishi bo'lib, texnologik innovatsiya progressi natijasida yangi informatsion va kommunikatsion texnologiyalarni (kompyuter texnikasini rivojlanishi, internet, mobil telefon aloqalari va boshqalar) tovar, xizmatlar, moliyaviy resurslar, g'oya va informatsion mahsulotlarni tez hamda kam sarf–xarajatli transchegaraviy joylashtirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Bugungi kunda mintaqalashuv tobora kengayib bormoqda. Hamma joyda hududiy lashtirishni ko'rishingiz mumkin. 2016-2021 yillardagi Evropa Ittifoqi-28 savdosining so'nggi ma'lumotlarida hududiy lashtirish bo'yicha 2020 yil fevral oyida COVID-19 inqiroziga qadar sezilarli darajada barqaror edi. Importning o'rtacha geografik masofasi sezilarli darajada kamaydi. Pandemiya bilan bog'liq uzilishlar xalqaro ta'minot zanjirlarini uzdi.



2.2-rasm. Jahon savdosining ulushi qita'lar bo'yicha (%da)²



² Manba: Birlashgan Millatlar Tashkilotining CEPII savdosi (may 2021)

--- umumiy chegarasi bo'lmagan davlatlar

2.3-rasm. Jahon savdosining ulushi davlatlarning chegaralari bo'yicha (%da)³

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida tadqiqotlar olib borgan Amerikalik olim Dj.Garret jahon iqtisodiyotining globallashtirishining uchta asosiy mexanizimini ajratib ko'rsatgan:

- jahon savdosida raqobatni o'sishi;
- ishlab chiqaruvchilarni o'z foydalarini oshirish yo'lida ishlab chiqarish quvvatlarini boshqa mamlakatlarga joylashtirish natijasida ishlab chiqarishni internatsional xarakterga ega bo'lishi;
- moliya bozorlarini xalqaro integratsiyalashuvi.



2.4-rasm. Yevropa Ittifoqi-28 importining o'rtacha geografik masofasi (km)⁴

Jahon xo'jalik faoliyatini integratsiyalashuvini yuqori bosqichida iqtisodiyotning globallashtirish jarayonida transmilliy korporatsiyalar tashkil etilishi va rivojlanishi muhim hisoblanadi.

Dj. Dannin ta'rif bo'yicha-transmilliy korporatsiyalar bittadan ortiq mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshiruvchi va qo'shilgan qiymatni olish mexanizmlariga ega bo'lgan yoki nazorat qiluvchi korxonalaridir.

R. Uolters va D. Bleyklar tomonidan esa quyidagicha ta'rif berilgan: "Transmilliy korporatsiyalar shunday iqtisodiy korxonalar – ishlab chiqaruvchi, qazib chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi yoki moliyaviy hisoblanib, qaysiki bir mamlakatda shtab-kvartirasiga ega bo'lib, biznesni esa bir yoki bir necha xorijiy mamlakatlarda tashkil etadi.

Transmilliy korporatsiyalar(TMK) deganda xorijiy aktivlarga (kapital qo'yilma) ega bo'lgan o'z operatsiyalarini xorijiy mamlakatlarda olib boradigan yirik ishlab chiqaruvchi-moliyaviy, ilmiy-texnologik, savdo-servis birlashlashmasi

³ Manba: Birlashgan Millatlar Tashkilotining CEPII savdosi (may 2021)

⁴ Manba: Birlashgan Millatlar Tashkilotining CEPII savdosi (may 2021)

tushuniladi. Qisqa qilib aytilganda transmilliy korporatsiyalar (TMK) – bir necha mamlakatlarda ishlab chiqarish bo'limlariga ega bo'lgan [korporatsiya](#).

Transmilliy korporatsiyalar o'zini rivojlanishida bir necha bosqichlardan o'tgan bo'lib, ushbu bosqichlarni shartli ravishda beshta avlodga ajratish mumkin¹²:

1. Transmilliy korporatsiyalarning birinchi avlodi (paydo bo'lishidan 1918 yilgacha bo'lgan davrdagi) (kartel va sindikatlar) asosan Osiyo, Afrika, Latin Amerikasidagi koloniya mamlaktlarida xom ashyo resurslarini qazib olish va ishlash, shuningdek ushbu koloniyalarga egalik qilgan mamlakatlarda ularni qayta ishlash bilan shug'ulangan.

2. Transmilliy korporatsiyalarning ikkinchi avlodi (1918–1939 yillar, trestlar ko'rinishida shakllangan) Yevropadagi, Amerikadagi va Yaponiya kabi yyetakchi mamlakatlarni xarbiy talabini qondirish uchun xarbiy mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullangan.

3. Transmilliy korporatsiyalarning uchinchi avlodi (1945–1960 yillar, kontsern i konglomeratlar ko'rinishida shakllangan) sanoat va ilmiy sohasidagi fan–texnika yutuqlariga asoslangan (atom energiyasi, elektronika, kosmos va boshqalar).

4. Transmilliy korporatsiyalarning to'rtinchi avlodi (1970–1980 yillar) ushbu davrda transmilliy korporatsiyalari ishlab chiqarishi va kapitalini kontsentratsiyalashuviga olib kelgan qo'shilish va yutilish jarayonlari tezlashdi.

5. Transmilliy korporatsiyalarning beshinchi avlodi (XXI asr boshida) regional iqtisodiy integratsiya jarayonlari kuchaygan sharoitida, Yevropada (YeI) Shimoliy va Janubiy Amerikada (NAFTA va MYeRKOSUR) hamda Osiyoda (ASYeAN i ATES) shakllandi.

Transmilliy korporatsiyalarning o'sishi va globallashtiruvini salbiy oqibatlari quyidagilar olib keladi:

- bozorning monopolashuviga;
- kichik davlatlarni suverenitetiga tahdid;
- ekologiyaga tahdid va boshqalar.

Biroq doimiy yutilish va qo'shilish jarayonlarini yuz berishi natijasida moliyaviy TMK lar kapitalini zichlashuvi mahalliy bozorlarda raqobatbardoshlik o'sishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aktivlar konsolidatsiyasi va strategiya integratsiyasi kapital bozorga kirish va xizmatlar transmilliylashuv imkoniyatlari kengayishini ta'minlovchi aksionerlar va mijozlar uchun jozibador bo'lgan banklar tashkil topishiga olib keladi.

Shunday qilib, zamonaviy jahon iqtisodiyotini rivojlanishi ikkita asosiy tendensiya bilan aniqlanadi: iqtisodiy faoliyatda globallashtirish jarayonini tezlashuvi va mintaqaviy integratsiyalashuvni o'sishi.

Oxirgi o'n yillikda mazkur sohadagi jarayonlar bir qator yangi mazmundagi elementlarga ega bo'lib, bulardan muhimi bo'lgan yangi mintaqalashuv bir qator xususiyatlarga ega:

- mintaqaviy kelishuvlar ko'lamini barcha ko'p sonli mamlakatlarning qamrab olishi;

- jahon iqtisodiy markazlarining integratsiyalashuv kelishuvlaridagi o'rnini oshib borishi;

- zamonaviy mintaqaviy birlashmalar tarkibida rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarning mavjudligi;

- mintaqaviy kelishuvlar, uni ishtirokchilar o'rtasidagi savdoni rag'batlantirish bilan bir qatorda boshqa mintaqalar bilan aloqalarda ham katta ahamiyatga ega bo'lishi;

- mintaqalashuvning davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda ustunlikka hamda kelishuv ishtirokchisi bo'lgan har bir mamlakatning butun iqtisodiyotini qamrab olishga asoslanishi.

Integratsion mintaqalashuvning asosiy vazifasi boshqa mamlakatlarga texnologik transformatsiya uchun qulay sharoit yaratish va ularni raqobatbardoshligini mustahkamlash, shuningdek jahon iqtisodiyoti integratsiyalashuviga imkoniyatlarni ochish.

2.3. Jahon iqtisodiyoti globallashtirish rivojlanish bosqichlari

Jahon iqtisodiyoti globallashtirishning vujudga kelishining asosiy shart-sharoitlarini asosiysi va birinchisi tashqi savdoning rivojlanishi hisoblanadi. Iqtisodiy taraqqiyotning o'ziga xos belgisi–tashqi savdoning ishlab chiqarish hajmiga nisbatan ancha tez o'sishidir.

Ikkinchidan, Jahon iqtisodiyoti globallashtirish jarayonlariga XX asrdagi ro'y bergan transport vositalari va aloqa vositalarida yuz bergan jub o'zgarishlar hisoblanadi. Kuchli integratsiyalashtiruvchi omil xalqaro transportni tez rivojlanishi hisoblanadi. Butun qit'alarni va ularda joylashgan barcha mamlakatlarni qamrab oluvchi transmilliy transport tizimlari yuzaga keldi. Xalqaro aloqalarni barcha turlarini, shu jumladan moliyaviy aloqalarni ham misli ko'rilmagan darajada jadallashtirgan axborot uzatishdagi inqilob (radio, televidenie, telefon aloqasi, internet) mamlakatlar o'rtasidagi axborot hajmlarini va oqimlarini ming baravarga ortishiga olib keldi.

Jahon iqtisodiyoti globallashtirishning uchinchi sharti tashqi iqtisodiy va xalqaro moliyaviy aloqalariga xizmat ko'rsatuvchi keng huquqiy asosning yaratilishi hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvning vujudga kelishining to'rtinchi sharti transmilliy korporatsiyalar (TMK)ning paydo bo'lishi va rivojlanishi hisoblanadi. TMKlarning faoliyati xalqaro moliya bozori bilan birinchi navbatda, valyuta va kredit sektorlari bilan uzviy bog'liqdir.

2.1-jadval

Jahon iqtisodiyoti globallashuvining rivojlanish bosqichlari

Bosqichlar	Bosqichlarning xususiyatlari
I bosqich. 1870— 1920-yillar	Xomashyo manbalarining egallanishi. Tabiiy resurslarning kapital va to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni eksport qiluvchi mamlakatlar nazorati ostidagi hududlarda ishlatilishi.
II bosqich. 1920— 1970-yillar	Yangi bozorlarning vujudga kelishi va egallanishi. Xorijiy investitsiyalarni tayyor mahsulotlar eksportiga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarga safarbar etilishi.
III bosqich. 1970-yildan hozirgi davr-gacha	Sanoati rivojlangan mamlakatlarda tabiiy resurslarga egalik qilishdan tashqari quyidagi maqsadlarning yuzaga kelishi: investitsiyalar tarkibini samarali taqsimlash; global yoki hududiy iqtisodiy integratsiya afzalliklaridan foydalanish; qo'shimcha texnologik, tashkiliy yoki bozor imkoniyatlariga ega bo'lish; global raqobatbardoshlikni oshirish va mustahkamlash.

Barcha mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy bog'liqligining kuchayishi xalqaro moliyaviy munosabatlar sohasining kengayishiga, moliya bozorlarida operatsiyalar hajmining o'sishiga, bir mamlakatdan boshqalariga chet el valyuta oqimlarining ko'payishiga olib keldi. Bu jarayon moliyaviy globallashuv deb ataladi. Bu jarayon moliyaviy munosabatlar milliy davlatlar chegaralari doirasida to'xtamaydi, balki davlatlararo, mamlakatlararo munosabatlar sifatida shakllanadi.

Moliyaviy globallashuvning paydo bo'lishi va rivojlanishining asosiy omillariga quyidagilar kiradi:

moliyaviy resurslarning transchegaraviy ko'chishi; xalqaro moliya bozorini tartibga solish bo'yicha ustmilliy tuzilmalarni mustahkamlanishi;

xalqaro moliya bozorida milliy va xorijiy moliya-kredit institutlari, bank va nobank moliya institutlari o'rtasida ta'sir sohasi uchun raqobatni kuchayishi;

axborot texnologiyalari va elektron moliya xizmatlari global bozorini tez rivojlanishi; bank faoliyatini sekyuritizatsiyasi;

yangi milliy va regional moliya bozorlarining qaror topishi va ularning xalqaro moliya bozoriga qo'shilishi;

xalqaro moliya krizislar; milliy, xalqaro va jahon moliya bozorlaridainnovatsiya jarayonlarining ortishi.

Moliyaviy globallashuvning subyektlari bo'lib quyidagi tuzilmalar ishtiroketadi:

➤ xalqaro yoki mintaqaviy moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar: Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki guruhi, Xalqaro hisob-kitoblar banki, Yevropa tiklanish

va taraqqiyoti banki (YeTTB), Amerikalararo rivojlanish banki (AARB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (ITB) va boshqalar;

- transmilliy korporatsiyalar va banklar;
- institutsional xalqaro investitsiyalar (pensiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari, moliya kompaniyalari va fondlari, investitsiya kompaniyalari va fondlari, ssudaomonat institutlari va boshqalar);
- jahon moliya markazlari (Nyu–York, Tokio, Gonkong, Frankfurt–na–Mayn, London, Parij, Chikago, Lyuksemburg va boshqalar).

Oxirgi yigirma yillikda moliyaviy globallashuv jarayoni iqtisodchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Moliyaviy globallashuv to'g'risidagi birinchi maqola 1991- yilda Xalqaro valyuta fondi mutaxassislariga tegishli bo'lib moliya bozori globallashuvi jarayonlari Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan mamlakatlar misolida ko'rib chiqilgan.

Moliyaviy globallashuvning mohiyati xususidagi sistemali munozarali savollar xorijlik tadqiqotchilar D.Xelda, E.Makgryu, D.Golddblata va Dj.Perratonlarning –Global transformatsiyalar nomli kitobida aniqroq bayon etilgan.

Moliyaviy globallashuvni aniq ravishda quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Moliyaviy globallashuv–iqtisodiy globallashuvning bir qismi bo'lib, tovarlar, xizmatlar va kapital transchegaraviy transaksiyalarining barcha hajmlarini o'sishi va texnologiyaning tez va keng diffuziyasi natijasida dunyodagi barcha mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy bog'liqligining kuchayishi²³.

2. Moliyaviy globallashuv –iqtisodiy globallashuvning yyetakchi shakli bo'lib qoldi. Mavjud ishlab chiqarish omillaridan kapitalning boshqa omillarga nisbatan harakatchanligi, foydani izlab tezda joylashuv imkoniyatini yaratadi; kapital harakatini liberalizatsiya rejimi ushbu jarayonlarni sezilarli ravishda yengillashtiradi.

3. Moliyaviy globallashuv–jahon xo'jaligiga ta'sir etuvchi subyektlarning struktura va tarkibini o'zgartirdi, jahon xo'jaligini rivojlantirishning yangivazifalari bilan xalqaro moliya institutlari nomuvofiqligini ochib tashlaydi hamda milliy davlatlarni rolini qisqartirib, birinchi o'ringa transmilliy kompaniya va banklar olib chiqdi.

Moliyaviy globallashuvning oqibati mazmunan dunyodagi barcha mamlakatlarning o'zaro iqtisodiy bog'liqligini kuchayishi sharoitida nazorat qilinmaydigan kapital oqimining transchegaraviy harakatini anglatadi va quyidagilarga olib keladi:

1. Bir tomondan kapitalning transchegaraviy oqimi iqtisodiy o'sishga olib keladi (misol uchun to'g'rida–to'g'ri xorijiy investitsiyalar va YaIM nisbatini 10 foizga ko'payishi o'rtacha 0,3 foiz iqtisodiy o'sishga olib kelishi isbotlangan). Boshqa tomondan kapital oqimining sezilarli o'sishi joriy hisoblarni disbalansiga sabab bo'lishiga olib keladi. Xalqaro valyuta fondi tomonidan to'lov balansi joriy hisoblar qoldig'ini milliy moliya tizimi inqirozi ko'rinishlarining indikatori sifatida qarash bir necha bor taklif etilgan. Bir vaqtda to'lov balansi joriy hisoblari qoldig'i kattaligi bilan jahon moliya tizimi beqarorligi riski nafaqat milliy davlatning o'z to'lov

balansidagi defitsitni mustaqil ravishda boshqarish, balki bu jarayonlarni nazorat qila olmaslik vaziyatini oshiradi.

2. Global moliya bozorini faoliyatini ijobiy tomoni riskni taqsimlanishi bo'yicha imkoniyatlarni kengayishi. Shu bilan bir vaqtda global moliya bozoridagi inqiroz ko'rinishlarini transmissiyasi tezroq bo'ladi. Bunga misol qilib AQSh ipoteka bozoridan boshlangan oxirgi jahon moliyaviy inqirozini keltirish mumkin.

3. Globallashuv jarayonida Yevropa, Osiyo, Latin Amerika va yaqin sharqda yangi iqtisodiy kuchlar paydo bo'lmoqda. Ularning global savdo va moliyaviy oqimlarga qo'shayotgan ulushlari doimiy o'sib borib, bugungi kunda xalqaro rezervlarni taxminan 1/3 qismi ushbu hududlarga to'g'ri keladi.

Moliyaviy globallashuv turli xil va bir xil mazmunda bo'lmagan iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib keladi.

Moliyaviy globallashuvning ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

- turli xil ishtirokchilarning global moliya bozoriga kirishini soddalashtiradi;

- transchegaraviy moliya oqimlarini tartibga solishning ustmilliy tizimini yaratish yo'li bilan mamlakatlarning integratsiyasini tezlashtiradi;

Shubhasiz moliyaviy globallashuvning salbiy oqibatlari milliy hukumatlar va ko'p mamlakatlardagi jamoatchilikni doimo diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

2.2-jadval

Xalqaro valyuta fondining moliyaviy globallashuv risklarini minimallashtirish bo'yicha o'rta muddatli strategiyasi⁵

Yo'nalishlar	Choralar	Tadbirlar
1. Kuzatuv–nazorat faoliyatini kuchaytirish va modernizatsiyalash		1.1. Birinchi ko'p tomonlama konsultatsiya global tashqi disbalans muammolariga bag'ishlangan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga olgan choralar tizimini kelishib olingan edi: –AQShda qa'tiy fiskal siyosat; –Osiyoda almashinuv kursi egiluvchanligini kuchaytirish;
	1.2. 1977- yildagi Qaror o'rniga 2007- y. almashinuv kurslarini tartibga solish uchun ikki tomonlamakuzatuv va nazorat to'g'risida Qaror qabul qilish	1.2. Yangi qaror faqat almashinuv kurslarini boshqarish balki, ichki boshqarishga ham ta'luqli bo'lgan. Uni tartibi kuzatuv va nazoratni buzilishni oldini olishga, ya'ni tashqi barqarorlikka ichki boshqaruvning ta'siri qanchalik kuchligini aniqlashda yordam beradi. Bundan tashqari yangi

⁵ **Manba:** Remarks by Saleh M. Nsouli «What is the IMF doing to help countries maximize the benefits of globalization?»

		Qarorda oxirgi 30 yildagi kuzatuv va nazorat bo'yicha eng yaxshi amaliyotlar to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar yig'ilgan.
	1.3.Inqirozga qarshi kurashishning qulay usullari va metodlarini izlayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida moliyaviy resurslarning yangi fondini ta'sis etish	
	1.4.Moliya sektori, xususan moliya sektori va real iqtisodiyotning o'zaro aloqador qismidagi tadqiqotlarni kuchaytirish.	1.4.Moliya sektorini –kuchsiz joyi bo'yicha tadqiqotlar XVF makroiqtisodiy tadqiqotlarini tarkibiy qismi bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda XVF ikkita bo'limi qo'shilib, pul bozori va kapital bozori Departamenti tashkil etilgan.
2.Globallashtirishdan kam manfaat olgan past daromadli mamlakatlarga yordam ko'rsatish	2.1.Mingyillik maqsadlarga erishishda XVF ning past daromadli mamlakatlarga yordam ko'rsatish majburiyatini tiklash.	2.1.Ushbu majburiyatni bajarilishi siyosiy qo'llab-quvvatlash, texnik kooperatsiya, moliyaviy yordam va qarzni hisobdan chiqarish orqali amalga oshiriladi. Mazkur yo'nalishda XVF Jahon banki, donor mamlakatlar, fuqarolik jamiyati va hukumatlar bilan hamkorligini davom ettiradi.
	2.2.Iqtisodiy o'sishning muhimligi nuqtai nazaridan bu sohada XVF tomonidan milliy hukumatlarni qo'llab-quvvatlash.	2.2.XVF a'zo davlatlarga savdo islohotlarini to'lov balansiga ta'sirini kompensatsiya qilish maqsadida moliyaviy yordam ko'rsatishga tayyor.
3.Xalqaro valyuta fondini boshqaruv strukturasi	3.1.Bir qator rivojlanayotgan mamlakatlar kvotasini oshirish. 3.2. Kvotalar hisob-	Xitoy, Koreya, Meksika va Turkiya kvotalarini, ularning global iqtisodiyotdagi o'rnlariga mos ravishdagi miqdorga oshirish.

o'zgarishlarni amalga oshirish	kitobining yangi formulalarini izlash.	
--------------------------------	--	--

Xalqaro moliya tashkilotlari orasidan Xalqaro valyuta fondi tomonidan moliyaviy globallashtirish risklari minimallashtirish bo'yicha takliflarini tavsiya qilgan (2.2-jadval). Biroq, Xalqaro valyuta fondi moliyaviy globallashtirish risklari minimallashtirish bo'yicha o'rta muddatli strategiyasida belgilangan choralarni yetarliligi va ularning ta'siri shu vaqtga qadar mavhum bo'lib qolmoqda.

Moliyaviy globallashtirish o'z shakllarini amalga oshirish va namoyon bo'lish mexanizmlarini o'zgartirishi mumkin, ammo bunda u jahon iqtisodiy jarayonlarining doimiy tashkil etuvchisi bo'lib qoladi. Moliyaviy globallashtirishning kelajagi global moliya bozorini tartibga solishning shakllari, metodlari va instrumentlari tarkibini kengaytirish bilan bog'liq.

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarini quyidagilarda ko'rish mumkin: xalqaro kapital bozorlari hamda infrastrukturaning rivojlanganligida, global telekommunikatsiya sistemasining shakllanganligida, transmilliy korporatsiyalarning yuqori sur'atda o'sganligi, kichik va o'rta korxonalarning ishlab chiqarishi, iqtisodiy va investitsion faoliyati bilan bog'liq bo'lgan integratsiyalashgan milliy korporativ strukturasi tashkil topishini keltirish mumkin.

Shu bilan birga Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy o'zgarishlarni jahon xo'jaligining transformatsiyasi bilan xalqaro raqobatning kuchayishi, kapitalning davlatlar va hududlar orasida erkin harakat qilishi, transmilliy kompaniyalar faoliyatini kengaytirish, xalqaro moliya – kredit munosabatlarni erkinlashtirish va iqtisodiy globallashtirish bilan amalga oshadi.

Boshqa tomondan globallashtirish rivojlangan mamlakatlarni jumladan Markaziy Osiyo mamlakatlarini ham Jahon xo'jaligi aloqalariga kirishga bir qator muammolarni ham tug'diradi. Bu muammolar–milliy iqtisodiyotning tashqi ta'siridan himoyalanganligi, mamlakatlarni xorijiy bozorlarga chiqishdagi qiyinchiliklar, tashqi transport va informatsion aloqalarni rivojlantirish hamda ularning xalqaro tizimlardan uzoqda joylashganligi, asosiy eksport tovarlariga jahon narxlarining o'zgarib turishi, globallashtirish xo'jaligi faoliyatining Markaziy Osiyoda atrof muhit va energetika holatini salbiy oqibatlariga olib kelishi bilan chambarchasi bog'liqdir.

Iqtisodiyotda globallashtirish tushunchasi erkin savdo, erkin kapital oqimi, ishlab chiqarish korxonalari daromad solig'inng pasaytirilishi, mehnat va tabiiy resurslar xarajatini kamaytirish maqsadida ishlab chiqarish tarmoqlarining davlatlararo erkin ko'chishi kabi asosiy xususiyatlardan tashqari, quyidagi xususiyatlarni ham qamrab olgan:

- rivojlangan davlatlardagi kabi rivojlanayotgan davlatlarda uzluksiz ish haqi, narx va ishlab chiqarish daromadlarining bir–biriga tenglashishi;
- ishchi kuchini kamaytirish va radikal restruktizatsiya qilish maqsadida mamlakat ichida va transmilliy doirada kompaniyalar sonining ortishi;

- internet tarmog'i orqali moliyaviy axborotlarning butun jahon bo'yicha teztarqalishi va ishlab chiqarish korxonalarining ochiqqligi;
- moliyaviy birjalarning ahamiyati ortishi;
- tovarlar reklamasining ko'payishi;
- mahsulotning milliylik xususiyatlarini yo'qolib borishi;
- transmilliy kompaniyalarning soni va ahamiyati ortishi.

2.3-jadval

Globallashuv turlari

Globallashuv turlari	Imkoniyatlarni ochadigan qiyinchiliklar	Tahdid bo'lgan qiyinchiliklar
Siyosiy	Dunyo mamlakatlarining liberal qadriyatlari va siyosiy tizimining demokratik shakllarining tarqalishi.	Xalqaro tashkilotlarning rolini kamaytirish.
	Yaxshi xalqaro tartibni o'rnatish uchun asos sifatida mintaqaviy va global institutlarning kuchli tarmog'ini yaratish.	Global jarayon ishtirokchilarining notekis harakatlari.
		Terroristik tahdidlarning tarqalishi.
Madaniy	Multikulturalizm tamoyillarining taqsimlanishi.	Ekinlarning bir jinsli bo'lishi va milliy o'ziga xoslikning yo'qolishi.
	Antropokosmik madaniyatning rivojlanishi.	Texnikizmning rivojlanishi.
	Boshqalarga kirish orqali turli milliy madaniyatlarni o'zaro boyitish.	Umuminsoniy qadriyatlar prinsiplarining ahamiyatini kamaytirish

Iqtisodiyotning globallashuvida pirovard maqsad barcha davlatlarda muttasil iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshishini ta'minlashdan iborat. Global rejalarning yuzaga kelish tamoyili sifatida esa globallashuv xalqaro iqtisodiy aloqalar borasida yangi qulaylik va imkoniyatlar yaratish bilan bir qatorda turli-tuman ziddiyatlarni ham keltirib chiqarmoqda.

Birinchidan, global bog'liqlik tamoyillari kuchaygan sayin jahon xo'jalik tizimining rivojlanishidagi nomutanosiblik tobora oshib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy etish ko'rsatkichlari o'rtasidagi tafovut yanada ortib bormoqda.

Ikkinchidan, mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishi intensivligi turli-tuman yo'nalishlar, mezonlar bo'yicha xilma-xil tarzda namoyon bo'lmoqda. Bozor iqtisodiyoti institutlarini barpo etishda umumiy o'xshashliklar bo'lsada, ularni shakllantirishdagi yondoshuv va yo'llar turlicha.

Uchinchidan, erkin iqtisodiyotni barpo etishda xo'jalik yuritishning jahon qoidalarini unifikatsiyalashga harakat qilinmoqda, lekin bunda xalqaro tashkilotlarning harakatlari muvaffaqiyatsiz chiqmoqda. Chunki, har bir davlat iqtisodiyotini tartibga solish, uni erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishda o'ziga xos yo'nalishlari mavjud.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan, ichki bozorning tashqi bozor bilan o'zaro xamkorligi uchun sifat jihatdan yangi negizlar ishlab chiqish shakllantirish tub bozor o'zgartirishlarini amalga oshirish izchil ravishda tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishni taqozo etadi.

Bu borada Respublika birinchi Prezidenti I.Karimov «korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jixozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoklari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir» deb ta'kidlab o'tgan.

Jahon iqtisodiyoti globallashib borayotgan bir paytda, mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borar ekan, barcha sohalarda islohotlar o'tkazilmoqda, xususan, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida eksport salohiyatini oshirish va milliy korxonalar mahsulotlarining dunyo bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlash uchun tashqi savdoni erkinlashtirish, shuningdek bu faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xorijiy investitsiyalarni mamlakatimizga jalb qilish bozor munosabatlarini rivojlantirishda va samarali iqtisodiy siyosatni olib borishda muhim rol o'ynaydi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi, mamlakatimiz bozor iqtisodiyoti munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tib borishi sharoitida barcha sohalar qatori tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ham islohotlar o'tkazilmoqda, jumladan mamlakat eksport salohiyatini oshirish va o'zbek korxonalari mahsulotlariningdunyo bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishini ta'minlash uchun tashqi savdo sohasini erkinlashtirish bilan birga, bu faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish, eksport tarkibinidiversifikatsiya qilish ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Inqirozga qarshi choralar dasturining konkret bo'limlarida– belgilangan kompleks chora-tadbirlar quyidagi asosiy vazifalarni hal etishga edi:

Birinchidan–korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir. Bu o'rinda ishlab chikarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, xalqaro sifat standartlariga o'tish bo'yicha qabul qilingan tarmoq dasturlarini amalga oshirishni tezlashtirish vazifasi qo'yilmoqda. O'z navbatida, bu mamlakatimizning ham tashqi, ham ichki bozorda barqaror mavqega ega bo'lishini ta'minlash imkonini beradi.

Ikkinchidan—joriy kon‘yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag‘batlantirish uchun qo‘shimcha omillar yaratish, xususan: aylanma mablag‘larini to‘ldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 14 foizidan ortiq bo‘lmagan stavkalarda 6 oygacha bo‘lgan muddatga imtiyozli kreditlar berish; tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashkil etilgan korxonalarni byudjetga barcha turdagi soliq va to‘lovlardan – qo‘shimcha qiymat solig‘i bundan mustasno, byudjetga to‘lanadigan to‘lovlarning penyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz va preferentsiyalar berish.

Uchinchidan—qat‘iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish. Shu maqsadda 2020 yili xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiyotimizdagi yetakchi tarmoq va sohalarda mahsulot tannarxini kamida 10 foiz tushirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish borasidagi takliflari ma‘qullanganini qayd etish lozim.

Shuningdek, tannarxni kamaytirish bo‘yicha belgilangan parametrlarga erishish uchun rahbar va mas‘ul xodimlarni rag‘batlantirishning ta‘sirchan mexanizmini ishlab chiqish ko‘zda tutilmoqda.

Shu bilan birga, Inqirozga qarshi choralar dasturida 2020 yilda barcha turdagi energiya manbalari va kommunal xizmatlarning asosiy turlari bo‘yicha narxlarning ko‘tarilishini cheklash, ya‘ni ularni 6-8 foizdan oshirmaslik mexanizmi ishlab chiqilgan. Ayni vaqtda bu sohalarning ishlab chiqarish rentabelligini so‘zsiz ta‘minlashi kerak.

To‘rtinchidan – elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste‘molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish. Iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini yanada kuchaytirish, aholi farovonligini yuksaltirish ko‘p jihatdan bizning mavjud resurslardan, birinchi navbatda, elektr va energiya resurslaridan kanchalik tejamli foydalana olishimizga bog‘liqdir.

Beshinchidan – jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag‘batlantirish orqali mahalliy ishlab chikaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash iqtisodiy o‘rinishning yuqori sur‘atlarini saqdab qolishda g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Bu vazifani bajarishda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini kengaytirish katta o‘rin tutadi. Ushbu dastur doirasidagi loyihalar hajmini 3-4 barobar ko‘paytirish mo‘ljallangan.

Tayanch so'z va iboralar

Globallashuv, global oligopoliya, baynalminallashuv, nou-xau, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro savdo, xalqaro migratsiya.

Takrorlash uchun savollar:

1. Globallashuv tushunchasining mohiyatini izohlang.
2. Globallashuv jarayonining asosiy manbalari nimalardan iborat?
3. Globallashuv jarayoni rivojlanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining bosqichlarini izohlang.
5. Globallashuv jarayonining ijobiy va salbiy tomonlari nimalardan iborat?
6. Jahon iqtisodiyotining globallashuv darajasini qanday ko'rsatkichlar yordamida ifodalash mumkin?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar

1. Globallashuv jarayoni mohiyatini izohlovchi asosiy tushunchalardan «klaster» tuzing.
2. Jahon iqtisodiyoti globallashuviga xos bo'lgan tendensiyalarni o'rganing.
3. Asosiy terminlar lug'atini tuzing.

III-Bob. BAYNALMINALLASHUV, TRANSMILLIYLASHUV VA GLOBALLASHUV JARAYONLARI

3.1. Globallashuv taraqqiyotining tarixiy davri

3.2. Baynalminallashuv va transmilliylashuv jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari

3.3. Transmilliylashuv indeksi

3.1. Globallashuv taraqqiyotining tarixiy davri.

Xo‘jalik hayoti baynalminallashuvi 16-17 asrlarda ishlab chiqarish, 18-19 asrlarda ishlab chiqarishning mashinali usullarining (ular orqali xalqaro mehnat taqsimoti rolining kuchayishiga olib keldi) paydo bo‘lishi xo‘jalik hayoti internatsionallashuvining muhim dastlabki bosqichlaridir.

Globallashuv – dunyo mintaqalari va mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy munosabatlarini chuqurlashtirish va kengaytirishning uzoq evolyutsion jarayoni.

Tovarlar va xizmatlar eksportiga qo‘shimcha bo‘lib kapital chiqishi va 19 asr oxirida TMK va ishlab chiqarish kooperativ aloqalarining shakllanishi boshidir.

Milliy va jahon iqtisodiyotlarining baynalminallashuv darajasi ko‘rsatkichlari xalqaro savdo hajmi, kapitallarning, ishchi kuchining chegaralar bo‘ylab migratsiyasi va ularning umumjahon va milliy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga munosabati bilan bog‘liqdir.

Globallashuv baynalminallashuvning paydo bo‘lishi kabi umumjahon xususiyatga egadir. Jahon iqtisodiy hamjamiyatining butun, yagona xo‘jalik tizimiga aylanishi, tovarlar, xizmatlar, investisiyalar, ishchi kuchi va boshqa ishlab chiqarish omillari milliy bozorlarining umumlashishi globallashuv natijasidir.

Globallashuv jarayoni – umumiy bir atama bo‘lib, bu jismoniy shaxslar, korxonalar, institut va bozorlar o‘rtasidagi murakkab aloqalar majmuasini anglatadi va u tovarlar, texnologiyalar hamda moliyaviy mablag‘lar oqimining kengayishida, shuningdek, fuqarolar jamiyati xalqaro institutlari ta’sirining, transmilliy

korporasiyalarning global faoliyatining kuchayishi va doimiy o'sishida, mintaqalararo kommunikasiya va axborotlarning, eng avvalo Internet orqali almashish miqyosining, ahamiyatli tarzda kengayishida namoyon bo'ladi.

Telekommunikasiya tizimlarining rivojlanishi xalqaro moliya tizimidagi jiddiy o'zgarishlar bilan birga amalga oshdi. Moliyaviy landshaft an'anaviy institusional tizimdan ustuvor telekommunikasion tizimga qarab o'zgardi.

Yagona bir tarmoqqa bog'langan fond bozorlarining ommalashuvi ko'p miqdordagi pul mablag'larini masofaga bog'liq bo'lmagan ravishda bir lahzada ko'chirib o'tkazishga imkon yaratdi. Kishilar qayerda bo'lishlaridan qat'i nazar tezkor ravishda, bevosita moliyaviy kapitalni olishga, moliyaviy operatsiyalarni bajara olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Internet banklar uchun mijozlarni ko'paytirish vositalaridan biriga aylandi.

Globallashuv jarayoni – butunjahon tarixining qonuniy bosqichidir. U ob'yektiv bo'lib, inson-sub'yekti ongiga bog'liq bo'lmagan holda ishlab chiqarish kuchlari o'sishidagi asosga egadir.

Globallashuv jarayonining bir nechta jihatlari bilan farqlanadi. Eng kuchli bog'liqlik ayniqsa, iqtisodiy sohada namoyon bo'ladi va globallashuv jarayoni tushunchasining o'zi ham iqtisodiy omillarga yaqinlashtiriladi.

Hozirgi vaqtda globallashuv jarayoni, ya'ni uzviy ravishda o'zaro bog'langan bir butun jahon xo'jaligining shakllanishi tez sur'atlarda rivojlanmoqda.

Globallashuv jarayoni sharoitlarida har qanday mamlakat iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotiga bevosita bog'liq bo'lib qoladi. Shu sababli, milliy doiradagi iqtisodiy rivojlanish va tashqi iqtisodiy aloqalar bevosita bir-biriga uzviy bog'lanib qoladi va aynan bir jarayonning bo'g'inlarini tashkil etadi.

Texnik o'zgarishlar, integrasiyalashuv jarayonlari, savdo va kapital harakatlarining liberallasuvi, rivojlanayotgan bozorlarning yuzaga kelishi ta'siri ostida jahon iqtisodiyoti tobora milliy iqtisodiyotni o'z domiga tortib boraveradi. Bu yerda so'z jahon savdosining kengayishi, kapitalning har xil shakldagi harakati, aholi va ishchi kuchining migratsiyasi, axborot almashinuvining chuqurlashuvi to'g'risida bormoqda.

Globallasuv jarayoni xalqaro maydonda hamkorlikni ham raqobatni uyg'unlashuvi va kuchayishi kabi birdek o'zida namoyon etadi. Bundan tashqari, raqobatlashayotgan guruhlar o'rtasidagi kurashda o'z mavqe'ini mustahkamlash bunday har bir guruh doirasida hamkorlikni chuqurlashtirish va kuchlarni birlashtirishni ham talab etadi.

Ba'zi holatlarda shunday bir qiziq va mantiqqa to'g'ri kelmaydigan vaziyatlar ham yuzaga keladiki, bunda jahon bozoridagi aynan bir sub'yektlar bir sohada raqobatdosh bo'lsalar, boshqa bir sohada hamkorlik qiladilar.


Global sharoitlarga moslashuv natijasida rivojlangan mamlakatlar jahon maydonidagi o'z iqtisodiy va siyosiy holatlarini yanada mustahkamlab olish imkoniyatlariga ko'proq ega bo'ldilar, kam rivojlangan mamlakatlar (periferiya va yarim periferiyalar) esa bu imkoniyatlardan unumli foydalanish katta sayi xarakatlarni talab qilmoqda.

Globallasuv jarayonlari milliy iqtisodiy siyosatga, uning imkoniyatlarini cheklagan holda bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi, chunki xalqaro tashkilotlar bir qator qonun, huquq va majburiyatlarni unifikasiyalashtirish (bir xillashtirish)ga intiladilar.

Globallasuv jarayoni bu jarayonga kuchaytiruvchi ta'sir ko'rsatish maqsadida dunyo sahnasiga yangi kuchlarni yetkazib beradi va bermoqda. Globallasuv jarayoni raqobat kurashini keskinlashuvidan iborat bo'lib, bunda ustunlik nisbatan kuchliroq tarafda bo'ladi, biroq u nisbatan kam rivojlangan

mamlakatlar ahvolini mustahkamlash va takomillashtirish imkoniyatlarini ham yaratib beradi.

Umuman olganda, jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayonini o‘zaro aloqalarni chuqurlashtirishga qaratilgan va barcha milliy iqtisodiyotlarni olg‘a qarab rivojlanishini ta‘minlovchi bir butun jahon iqtisodiyotini shakllantirish sifatida ko‘rish mumkin.



Eng muhimi shundan iboratki, milliy iqtisodiyotlarni rivojlantirmay turib to‘liq miqyosdagi globallashuvga erishib ham bo‘lmaydi. Bunda mamlakatni o‘z manfaatlarini himoya qilish imkoniyatidan mahrum etmaslik juda muhim, balki globallashuv jarayoni davomida ularni amalga oshirishga imkon yaratib berishga yordam berish lozim.

Bu jarayon mamlakatlarning bir-biri bilan o‘zaro aloqasi va bog‘liqligini kuchaytirish yo‘llarini avj oldirish bosqichidir.

Va nihoyat globallashuv jarayoni turli mamlakatlarning hamkorlikdagi kelishilgan qarorlarini hal etishga, jahon iqtisodiyotining yetakchilarinigina emas, balki globallashuv domiga tortilayotgan yer kurrasidagi barcha hududlarning turg‘un rivojlanishini ta‘minlashga intiluvchi u yoki bu ijtimoiy manfaatlarni shakllantirishga yetaklashi lozim.

3.2. Baynalminallashuv va transmilliylashuv jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari.

Jahon iqtisodiyotining baynalminallashuvi – bu xalqaro mehnat taqsimotiga asoslangan milliy iqtisodiyotlarning bir-biri bilan bog‘liqligi va o‘zaro to‘ldiranchuvligi degandir.

Baynalminallashuv jarayonini rivojlanishi bir qator bosqichlardan iborat.

Birinchi bosqich:

Erkin raqobatning rivojlanishi davrida (XIX asrning ohirigacha) jahon bozori shakllandi, asosan xalqaro savdo shakldagi xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlandi.



Ikkinchi bosqich:

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida jahon xo'jaligining asosiy qismi - jahon bozori shakllandi.

Ushbu davrda davlatlar o'rtasida savdo munosabatlari qatorida ishlab chiqarish aloqalari, kapitalni olib chiqib ketish, ko'p turkumli moliyaviy aloqalar rivojlanadi.

Iqtisodiyotning baynalminallashuvida asosiy tendensiyalardan biri kapitalning markazdan qaram va kolonial xududlarga olib chiqib ketilishi bo'ladi.

Shu tariqa, bozor iqtisodiyoti rivojlanishining ushbu davrida "baynalminallashuv almashuv – kapital baynalminallashuvi bilan to'ldiriladi.

Uchinchi bosqich:

50-60 yillar ohirida ilmiy-texnik inqilob ta'sirida ishlab chiqarish kuchlarining keskin o'sishi qayd etildi.

Uning ta'siri ostida jahon iqtisodiyotining tarkibida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiya va ixtisoslashuvining dolzarbligi oshdi.

Shu tariqa, iqtisodiyotning baynalminallashuvi – jahon iqtisodiyotining rivojlanishining ma’lum bir bosqichi bo‘lib, tarkibiga ikkita o‘zaro aloqador jarayonlarni mujassamlashtiradi:

- xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va rivojlanishi, hamda
- xalqaro ishlab chiqarishning shakllanishi.

Ishlab chiqarish kuchlarining baynalminallashuvining yo‘nalishlari va asosiy shakllari quyidagilardir:

- milliy chegaralardan mahsulot va xizmatlarning xarakati

- ishchi kuchi va kapitalning xalqaro migrasiyasi

dunyoning turli hududlarida integrasiya jarayonlari

XX asrning oxirgi choragida jahon iqtisodiyotining baynalminallashuvini belgilovchi omillar qatoriga quydagilar kiradi:

- davlatning tabiiy zaxiralari, geografik joylashuvi, ishlab chiqarish salohiyati kabi xalqaro ixtisoslashuvning asosiy omillari pasayishi;
- milliy mahsulotlarni sotish uchun xalq xo‘jaligi tizimlarining optimallasuvi;
- xalqaro mehnat taqsimotining tarmoqlararo taqsimoti singari ichki tarmoqlararo taqsimotining yanada rivojlanishi;
- davlatlarning iqtisodiy rivojlanishida ilmiy-texnik salohiyatining o‘rni tobora oshishi.


3.3. Transmilliylashuv indeksi.

Iqtisodiy globallashtirish (baynalminallashuv, jahon xo‘jaligiga integratsiya) deganda jahon iqtisodiyotiga nisbatan global iqtisodiyotning ilgarilab boruvchi

o'sishi tushuniladi. Agar xalqaro savdo va xalqaro kapital, ishchi kuchi va bilimlar harakatining o'sish sur'atlari jahon iqtisodiyotining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lsa, iqtisodiy globallashuv jarayoni rivojlanmoqda deyish mumkin.

Iqtisodiy globallashuvni shuningdek, milliy iqtisodiyotlarning tobora ochiq iqtisodiyotlarga aylanish jarayoni sifatida ta'riflash mumkin. Bu pirovardida jahon iqtisodiyotining yagona mahsulotlar va resurslar bozoriga aylanishiga olib kelishi mumkin.

Transmilliy korporatsiyalar globallashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib hisoblanadi. Barcha eng yirik kompaniyalar amalda ularga aylanib bo'ldi, chunki ular tovarlar va xizmatlar eksportidan tashqari odatda, chet elda ushbu mahsulotni ishlab chiqarish bilan ham faol shug'ullanadilar.



TMKlar chet eldagi o'z investitsiyalari (to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar – TXI) orqali qiymat zanjirlarining yaratuvchilari hisoblanib, ularda har xil ishlab chiqarish turlari turli mamlakatlar bo'yicha joylashtirilgan.

TMKning bir ko'rinishi sifatida transmilliy banklar, nafaqat nomoliyaviy TMKlarni ularning chet eldagi faoliyatiga hamrohlik qiladilar, balki shuningdek, mamlakatlar orasida ulkan qimmatli qog'ozlar va kreditlar oqimini ko'chirib, globallashuvda katta mustaqil o'ringa ega bo'ladi. TMKning iqtisodiy globallashuvda ishtirok etishi transmilliylashuv deb ataladi.

BMT ekspertlarining fikricha transmilliy korporatsiyalar (TMK) "jahon mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishidagi asosiy dvigatellari" dan biri bo'lib hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida transmilliy korporatsiyalarning asosiy qismi AQSH, Yel davlatlari va Yaponiyada joylashgandir. Rossiyalik iqtisodchilar, odatda, quyidagi ta'riflarni beradilar: transmilliy korporatsiyalar - bu xorijiy aktivga ega bo'lgan milliy monopoliyalardir. Ularning ishlab chiqarish va savdo-sotiq faoliyatlari bir

davlat chegarasidan chiqib ketadi. Jahon iqtisodiyotida kuchli ishlab chiqarish bazasiga ega bo'lgan transmilliy korporasiyalar ishlab chiqarishni, tovar bozorlarini samarali rejalashtirishni ta'minlovchi ishlab chiqarish-savdo siyosatini yurgizadilar. Rejalashtirish bosh kompaniya doirasida amalga oshiriladi va sho'ba korxonalariga tarqatiladi. TMK iqtisodiyotining shakllariga ko'pincha quyidagilar kiritiladi:

- litsenziya berish;
- franchayzing;
- boshqaruv shartnomalari;
- texnik va marketing xizmatlarni ko'rsatish;
- korxonalarni "kalit ostida" topshirish;
- vaqt bo'yicha cheklangan qo'shma korxonalar tuzish haqidagi shartnomalar

va alohida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar va boshqalar.

Milliy iqtisodiyotda chet el kapitalining ahamiyati.

Chet el investisiyalari – kapital eksport qiluvchi mamlakatlarning importyor mamlakatlarning iqtisodiy sub'yektlari hamda qo'shma korxonalarning real va moliyaviy aktivlariga kiritgan mablag'lardir.



Chet eldan investisiyalash kapital oqimining bir iqtisodiyotdan boshqasiga chiqib ketishini bildiradi, boyliklarni yanada foydaliroq shartlarda joylashtirish va investisiyalar chet ellik kapital egasiga qaytishiga qadar nisbatan uzoq vaqt davomida mablag'lar oqimini ta'minlash maqsadlarini nazarda tutadi. Ularga oqib o'tish, qochish, ya'ni mamlakatlararo ko'chib yurish xosdir. Chet el investisiyalari ichki investisiyalardan farqli ravishda mamlakat, valyuta, milliylashtirish, rekvizisiya kabi qo'shimcha tavakkalchilikka to'qnashish ehtimoliga ega bo'ladi. Demak, chet el investitsiyalarining risk doirasi ancha kengdir. Xorijiy investisiyalar kapitalni qulayroq joylashtirish hamda uzoq muddat davomida undan foyda ko'rish maqsadida eksport qiluvchi mamlakatlarning kapital qabul qiluvchi mamlakatlarning real va moliyaviy aktivlariga qo'yilishini bildirgan holda bir iqtisodiyotdan ikkinchisiga o'tayotgan kapital oqimidir. Xorijiy investisiyalarning o'ziga hos xususiyatlaridan biri ularning mamlakatlararo ko'chishi, faqat o'z

maqsadini ko‘zlashi, amal qilish sharoitlarining o‘zgarishi, ancha qulay shartlar bilan qo‘yilishi, ishonch qozonishi hisoblanadi.

Tayanch so‘zlar: Baynalminallashuv, transmilliylashuv va globallashuv, xalqaro savdo, tashqi iqtisodiy aloqalar, xalqaro migrasiya, ishlab chiqarish, xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro ishlab chiqarish.

Nazorat savollari:

1. .Jahon amaliyotida xalqaro korporatsiyalar deganda nima tushuniladi ?
2. Xalqaro korporatsiyalarning qanday shakllari mavjud ?
3. Ma’lum bir kompaniya xalqaro korporatsiya deb atalishi uchun qanday ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi kerak ?
4. .Xalqaro korporatsiyalar qachon vujudga kela boshlagan ?
5. Xalqaro korporatsiyalar shakllanishi nechta bosqichda amalga oshgan ?
6. BMTning «Ming yillik deklaratsiyasi»ni qabul qilishga bag‘ishlangan sammiti qachon va qayerda bo‘lib o‘tgan?
7. BMTning «Ming yillik» deklaratsiyasining maqsad va vazifalari nimadan iborat?
8. Minimal oziq ovqat savatiga nisbatan insonning kunlik iste’moli necha kkal dan past bo‘lsa kambag‘allik chizig‘idan past hisoblanadi?

4-BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING RIVOJLANISH INDIKATORLARI

- 4.1. Investision ochiqlik indeksi. Global barqaror rivojlanish indeksi
- 4.2. Global iqtisodiy rivojlanishning umumiy indikatorlari
- 4.3. Ishlab chiqarishning transmilliylashuv indeksi
- 4.4. Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining rolining yaxshilash

4.1. Investision ochiqlik indeksi. Global barqaror rivojlanish indeksi

«Indeks» atamasi lotin tilida «index» ko'rsatkich, ro'yxat degan ma'noni anglatadi. Ya'ni ma'lum bir holat yoki kuzatilayotgan jarayonni bir qator ro'yhatga olingan (belgilovchi) indikatorlar asosidagi ro'yhatga olingan va harflar yoki raqamlar orkali ifodalanadigan ko'rsatkichi. Indeks indikatorlardan farqli anik bir miqdor ko'rsatkichiga ega bo'lmasligi ham mumkin. Indeks avvalgi bazaviy ma'lumot indeksi bilan solishtirish orqali tahlil qilinadi. Iqtisodda «Dou Djons indeksi» Nyu-York fond birjasida aksiyalar narxini belgilab beruvchi raqamli indeks bo'lib, u kelajakda brokerlarning bozor rivojlanish tendensiyasini aniqlovchi ma'lumotlarning ro'yxatlangan ko'rsatkichidir. Pekin ushbu indikator va indekslar kelajakni anik qilib belgilab beradi deyish qiyin. Tug'rirog'i, prognozlashtirilgan va optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda tegishli chora-tadbirlarni tavsiya etishga yordam berishi muqarrar.

Yep qurrasida global miqyosda barqaror rivojlanishni ta'minlash o'z-o'zidan lokal va regional miqyosda, aniqroq qilib aytganda, mahalliy, milliy va mintaqaviy miqyosda barqaror rivojlanishdan kelib chiqadi va aynan shu tarzda tizimlashadi.

Barqaror rivojlanish indikatorlari ilk bor BMTning «Rio 92» konferensiyasida qabul qilingan «XXI asr kun tartibida» alohida bir bob sifatida yoritib berilgan. Mazkur indikatorlar 4 ta guruh birlashtirilgan - ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar, barqaror

rivojlanish maqsadlarida resurslardan oqilona foydalanish, aholi asosiy qatlamlarining rolini oshirish, qarorlarni amalga joriy etish. Ushbu xujjat 40-bobining «Qarorlar qabul qilish uchun ma'lumotlar» bo'limida «Qarorlarni qabul qilish jarayonida ishonchli asoslarni yaratish hamda uzviy bog'langan ekotizimlarni o'zini o'zi tartibga solish imkoniyatiga ko'maklashish va tizimli o'sish uchun barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqish lozim» deb ko'rsatilgan. Turli miqyosda Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga tegishli bo'lgan oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilish, shubhasiz, barqaror rivojlanishning eng birlamchi talablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chiqish bo'yicha xalqaro miqyosdagi turli tashkilotlar - BMT, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish Yevropa komissiyasi, Atrof-muhit muammolari bo'yicha ilmiy komitet kabi xalqaro idoralar shug'ullanmoqdalar. U turli nom va yo'nalishdagi anjumanlarning muhokama mavzusiga aylanib qolmoqda. Masalan:

- 132 ta indikatorlardan iborat bo'lgan BMTning Barqaror rivojlanish bo'yicha komissiyasi loyixasi;
- milliy statistikada ekologik va iqtisodiy omillarni hisobga olishga yo'naltirilgan BMTning Statistik bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan «Tizimli integrallashgan ekologik va iqtisodiy milliy hisob» (System for integrated environmental and economic accounting);
- Jaxon banki tomonidan ishlab chiqilgan va hisobi yuritiladigan «haqqoniy jamg'arma» (genuine savings);
- iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish Yevropa komissiyasining ekologik va iqtisodiy indikatorlar dasturi va x k.

Barqaror rivojlanish indikatorlarini ishlab chikish juda serxarajat, ma'lumotlarni yig'ish hamda ularni yagona bir indeksga olib kelishga yo'naltirilgan va majmualiy yondashuvni talab etadigan jarayon. Indikatorlar soni qanchalik ko'paysa, ularni yagona bir umummahrajga olib kelish shunchalik qiyinlashib boraveradi. Bu o'rinda mahsus zamonaviy axborot texnologik dasturlarini yaratish lozim buladi.

1-jadval.

**Barqaror iqtimoiiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorlarining asosiy
ko'rsatkichlari⁶**

Maqsadlar	Rivojlanish indikatorlari	Joriy xolat indikatorlari	Tasir etish indikatorlari
A. IJTIMOIIY INDIKATORLAR			
<i>Qashshoqli va ochlikka barham berish</i>	Bandlikning o'sish sur'ati (%). Erkak va ayollarning o'rtacha oylik maoshlari nisbati.	Qashshoqlikda yashovchi aholi (%) Boy va kambag'allarning daromadlari nisbati.	
<i>Demografik o'sish</i>	Aholining ko'payish sur'ati (%) Aholining migrasiya qilish sur'ati (nafar/yil)	Aholining zichligi (nafar/km ²)	Tug'ilishning ko'payishi
<i>Ta'lim, kadrlar tayyorlash va jamiyatning axborot olishiga yordam berish</i>	Maktab yoshidagi aholining o'sish sur'ati Boshlang'ich ta'lim maktab o'quvchilari sonining oshishi (%) O'rta ta'lim maktab o'quvchilari sonining oshishi (%)	Kattalar o'rtasida savodlilar ulushi (%). 5-sinf darajasida ta'lim olgan aholining ulushi (%) Maktabda o'rtacha ta'lim olish davomiyligi	Ta'limga sarflanadigan YAMM ulushi (%) Maktabda 100 nafar ug'il bolaga to'g'ri keluvchi kizlar soni Ishlovchilar o'rtasida 100 nafar erkakka to'g'ri keluvchi ayollar soni

⁶ Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari [Matn]: Monografiya / A N. Nigmatov va boshk. - Toshkent: Spectrum Media Group. 2015., 55 bet

<i>Aholi salomatligini muhofaza qilish</i>	Toza ichimlik suviga yetarli darajada ega bo'lmagan aholining ulushi (%) Oqar suv tizimi ta'minlanmagan uy-joylarda yashovchi aholining ulushi (%) Salomatlik uchun zararli bo'lgan ifloslangan xavo ta'siridagi aholining ulushi (%). Yetarli darajada ozik-ovqat bilan ta'minlanmagan aholining ulushi (%).	1000 nafar tirik tug'ilgan chaqaloqlarda o'lim miqdori. Tug'ilshida urtacha umr ko'rishning kutilayotgan natijasi. 1000 ta tug'ilgan chaqalokka tug'ruq vaqtida onalarning o'lim miqdori	Sog'liqni saqlashga sarflanadigan YAIM ulushi (%) Birinchi tibbiy xizmat ko'rsatiladigan aholining ulushi (%) Asosiy yukumli kassaliklarga qarshi emlangan aholining ulushi (%) Oilani rejalashtirish muammosini muhokama qilish imkoniyatiga ega bola tug'ish yoshidagi ayollar soni Maxalliy tibbiy xizmat ko'rsatishga milliy sog'iqli saqlashdan kelgan harajatlar ulushi
<i>Qishloqlarda barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari</i>	Shaharlarning kupayishi (%) Aholi boshiga yokilg'i iste'moli (litr)	Shahar aholisining ulushi (%) Tabiiy ofatlardan zarar ko'rgan va	Arzon uy-joylar qurilishiga sarflanadigan harajat Jamoat transportlari

	10 million va undan ko'p aholiga ega megapolislar soni	xalok bo'lganlar soni va ziyoni Aholi boshiga to'g'ri keladigan uy-joyning umumiy maydoni (m:)Uy-joy to'lovlari va daromadning nisbati	ta'minotiga ketadigai xarajatlar Aholi boshiga infratuzilma harajatlari. Uy-joy qurilishiga ajragilgan kreditlar hajmi
--	--	---	--

B. IQTISODIY INDIKATORLAR

<i>Iqtisodiy rivojlanish</i>	Aholi jon boshiga YAIM o'sish sur'ati (%). Xizmat va tovarlarning eksporti. Xizmat va tovarlarning importi	Aholi jon boshiga YAIM YAIM ishlab chiqarishga ko'shgan xissasi (%) YAIM eksport ulushi (%)	YAIMda investisiya ulushi Regional savdo bitimlardagi ishtirok
<i>Iste'mol xarakterini o'zgarish</i>	Mineral resurslar zahirasiining qisqarishi (tasdiqlangan zahiradan% hisobida) Aholi jon boshiga energiya yillik sarfi		
<i>Moliyaviy resurs va mexanizmlar</i>	YAIMda resurslar sotuvining ulushi (%)	Rivojlanish uchun tashqi yordam (olingan yoki berilgan, YAIMdan % hisobida)	Atrof-muhit muhofazasi uchun ajratilgan YAIM ulushi Davlat daromadida ekologik soliq va

		Qarzlار (YAIM dan % hisobida)	subsidialarning foizi
		Qarzlarga xizmat ko'rsatish (qarzdان % hisobida)	Barqaror rivojlanish uchun qo'shimcha moliyalashtirish miqdori
			Qarzlarning undirilishi

BMT komissiyasi tomonidan barqaror rivojlanish bo'yicha ishlab chiqilgan global indikatorlar tizimi 1995 yilda uning III sessiyasida ishtirokchi davlatlar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar, ma'lumotlar va axborotlar asosida davlatlarning barqaror rivojlanish holati, bu borada erishilgan natijalarni tahlil qilish va baholash maqsadida dastlabki indikatorlar tizimi qabul qilindi va mazkur tizimni takomillashtirish uchun ekologik va iqtisodiy tarakkiyotga oid ma'lumotlar bazasini mustahkamlash zarurligi kayd etildi. 2001 yil BMT BRKning 9-sessiyasi 48 ta indikatorni tasdiqladi va nomi bilan alohida nashr etildi. BMTning mingyillik arafasida e'lon qilgan «Mingyillik rivojlanish maqsadlari»da (Millennium Development Goals) barqarorlikni ko'rsatuvchi omil sifatida atrof-muhit ifloslanishining inson salomatligiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri misolida izohlash mumkinligi ta'kidlangan. Unda turli mamlakatlarda insoniyat salohiyatini oshirishda foydalanish mumkin bo'lgan indikatorlar tizimi taklif qilingan. BMTning MRMda asosiy ekologik maqsadi umuman yer kurrasi va alohida davlatlarda atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlashga chaqirishdir. Barqaror rivojlanishning indikatorlar tizimiga kompleks yondashish va shakllantirish borasidagi harakatlar BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha komissiyasi tomonidan 1996 yildan boshlab amalga oshirilgan. Taklif etilgan umumiy indikatorlar soni 132 tani tashkil etgan. Ular hammasi to'rt guruhga bo'lingan: ijtimoiy (41), iqtisodiy (26), ekologik (55) va tashkiliy (10).

4.2. Global iqtisodiyot rivojlanishining umumiy indikatorlari

Ular qatoriga quydagilar kiradi. *Birinchidan*, “Inson taraqqiyoti indeksi” reytingiga jami 189 mamlakat kiritilgan bo‘lib, har bir mamlakatning global iqtisodiyotda tutgan mavqeini belgilaydi. Reytingdagi davlatlar o‘rni ta’lim darajasi, umrning o‘rtacha uzunligi va yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi bo‘yicha belgilanadi. Shuningdek, gender tenglik, ayollar huquqlari va imkoniyatlarining kengligi, ekologiya va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik ham hisobga olingan.

2020 yilda chop etilgan mazkur reytingda inson rivojlanishining eng yuqori darajasi 59 mamlakatda qayd etildi. Reytingda Norvegiya birinchi o‘rinni egalladi, Shveysariya ikkinchi va Avstraliya uchinchi o‘rinda qayd etildi, Rossiya (49-o‘rin), Qozog‘iston (58-o‘rin), Turkmaniston 108-o‘rinni, O‘zbekiston “Inson taraqqiyoti indeksi” yuqori mamlakatlar qatoridan joy oldi va 105-o‘rinni egalladi, Qirg‘iziston 122-o‘rinni va Tojikiston 127-o‘rinni egallagan. Ro‘yxatni eng quyi rivojlanish darajasi bilan Janubiy Sudan, Markaziy Afrika Respublikasi va Niger yakunlagan.

Ikkinchidan, KOF versiyasi bo‘yicha dunyo mamlakatlarining globallashuv indeksi.

Dunyo mamlakatlarining globallashuv indeksi (KOF Index of Globalization), Shveysariya iqtisodiyot instituti (KOF Swiss Economic Institute) tomonidan aniqlanadi.

2002 yilda birinchi bor dunyo mamlakatlarining globallashuv indeksi (KOF Index of Globalization) Shveysariya iqtisodiyot institutining (KOF Swiss Economic Institute) Shveysariya texnologiya instituti (Swiss Federal Institute of Technology). hamkorligi asosida yaratildi. Ushbu indeks kompleks ko‘rsatkich sifatida u yoki bu mamlakatning dunyo miqyosida integrasiyalashish ko‘lamiga baho berib, uning jihatlari bo‘yicha boshqa mamlakatlar bilan taqqoslash imkonini beradi.

Loyiha mualliflari globallashtirishga milliy chegaralarni yo'qotuvchi, milliy iqtisodiyot, madaniyat, texnologiya, boshqaruv, shuningdek, odamlar, kapital, g'oya kabilarni o'z ichiga oluvchi turli xil oqimlar orqali bog'langan murakkab munosabatlarni va o'zaro aloqalarni vujudga keltiruvchi jarayon sifatida ta'rif berishadi. Bunga bog'liq ravishda indeks globallashtirishning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlarini o'z ichiga oladi.

Indeks doirasida tadqiq qilinadigan barcha mamlakatlar global integratsiyaning 3 ta asosiy guruhi tarkibiga kiritilgan 24 ta ko'rsatkich bo'yicha baholanadi:



1. Iqtisodiy globallashtirish – xalqaro savdo hajmi, xalqaro tadbirkorlik faoliyati darajasi, savdo oqimlari, xalqaro sarmoyalar, tarif siyosati, xalqaro savdoga cheklov hamda bojlar va boshqalar.


- 2. Ijtimoiy globallashtirish – madaniy integratsiyalashuv darajasi, mamlakatdagi xorijiy fuqarolar ulushi, xalqaro turizm, xalqaro shaxsiy aloqalar, telefon trafiklari hajmi, pochta jo'natmalari, transchegaraviy pul o'tkazmalari, axborot oqimlari, axborot-kommunikatsiya infratuzilmasining rivojlanganligi va hokazolar.

3. Siyosiy globallashtirish – mamlakatning xalqaro tashkilotlarga a'zoligi, xalqaro missiyalarda ishtiroki (shu jumladan BMT missiyalari), ko'ptomonlama xalqaro bitimlarning ratifikatsiyasi, mamlakatdagi elchixonalar hamda chet el vakolatxonalarining soni va boshqalar

Globallashtirish darajasi indeksi yuqorida ko'rsatilganlarga mos ravishda quyidagi 36 foiz, 39 foiz va 25 foiz koeffitsiyentlarning yig'indisi sifatida hisoblab chiqiladi. Ushbu tadqiqot qamrab olgan barcha mamlakatlar uchun Globallashtirish indeksi reytingi tuziladi. Mazkur reyting ularning tadqiq qilinayotgan boshqa mamlakatlar orasidagi o'rnini aniqlab beradi.

Indeksni shakllantirishda manba sifatida Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, BMT, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar hamda statistika institutlari ma'lumotlarining ixtisoslashtirilgan bazalaridan foydalaniladi.

Uchinchidan, global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index) Kolumbiya universiteti professori Ksavye Sala-i-Martin (Xavier Sala-i-Martin, Columbia University) tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum) 2004 yildan boshlab aniqlanib kelmoqda⁷. Jahon iqtisodiy forumi fikricha, mamlakatning raqobatbardoshligi davlatning va uning institutlarini barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlab berishi bilan belgilanadi. Institusional omillar bilan birgalikda ta’lim va ishchi kuchining malakasini oshirish, yangi texnologiyalar va bilimlarga ega bo‘lish ham asosiy omillar sifatida e’tiborga olinadi.



Global raqobatbardoshlik indeksi 113ta ko‘rsatkichdan iborat bo‘lib, turli rivojlanish darajasida turgan mamlakatlarning raqobatbardoshligini batafsil yoritib beradi. Barcha ko‘rsatkichlar 12 ta guruhga kiritilgan:

1. Institutlar sifati.
2. Infratuzilma.
3. Makroiqtisodiy barqarorlik.
4. Sog‘liqni saqlash va boshlang‘ich ta’lim.
5. Oliy ta’lim va kasbiy tayyorgarlik.
6. Tovar va xizmatlar bozorining samaradorligi.
7. Mehnat bozorining samaradorligi.

⁷ Индекс глобальной конкурентоспособности. <http://gtmarket.ru/ratings/global-competitiveness-index/info>

8. Moliya bozorining rivojlanganlik darajasi.
9. Tyexnologik rivojlanganlik darajasi.
10. Ichki bozorning hajmi.
11. Korxonalarning raqobatbardoshligi.
12. Innovasion salohiyat.

2-jadval


Global raqobatbardoshlik indeksi, 2019-2020 yil

Reyting	Mamlakat	Indeks
1	Shveysariya	5,8
2	AQSH	5,8
3	Singapur	5,6
4	Niderdandiya	5,6
5	Germaniya	5,6
6	Gonkong	5,5
7	Shvesiya	5,5
8	Buyuk Britaniya	5,4
9	Yaponiya	5,4
10	Finlyandiya	5,4
Shu jumladan:		
38	Rossiya	4,5
57	Qozog‘iston	4,3
79	Tojikiston	4,1
102	Qirg‘iziston	3,8

Manba: Indeks globalnoy konkurentosposobnosti.
<http://gtmarket.ru/ratings/global-competitiveness-index/info>

4.3. Ishlab chiqarishning transmilliylashuv indekslari

UNCTAD metodologiyasiga ko'ra, TMKlarni ishlab chiqarishining transmilliylashuvi qo'yidagi ko'rsatkichlar bilan belgilanadi:



Ushbu ko'rsatkichlar asosida TMKlarning xorijdagi faoliyati baholanadi.

TMKning transmilliylashuv indeksi (TNI – transnationality index):

$$TNI = (FA/TA + FS/TS + FE/TE) / 3 \cdot 100 \text{ foiz.} \quad (1)$$

Baynalminallashuv indeksi (II - internationality index):

$$II = (FAF/TAF) \cdot 100 \text{ foiz.} \quad (2)$$

Filial tarmoqlarining kengligi indeksi (NSI - network spread index):

$$NSI = N/(N^*-1) \cdot 100 \text{ foiz,} \quad (3)$$

Bu yerda:

N – turli to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar soni;

N – TMKlar filiallari mavjud bo'lgan mamlakatlar soni.

Globallashuv jarayonining chuqurlashu vi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi, uning hududlarida ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligini oshirishga yetarlicha ta'sir ko'rsatadi. Shuni e'tirof etish lozimki, ushbu jarayon umumiy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, o'zining salbiy ta'sirini ham namoyon etadi. Mazkur holatning mavjudligi bir-biriga bog'liq bo'lgan barcha parametrlarni miqdoriy jihatdan baholashni, salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni esa yumshatishni, ularni me'yor darajasida faoliyat yuritishini ta'minlashni talab etadi.

Tadqiqotlarni amalga oshirish davomida shuning guvohi bo'ldikki, yuqorida ta'kidlangan masalani hal etishga qaratilgan bir qancha uslubiy ishlanmalar, xususan, hududning barqaror rivojlanish darajasi va hududning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholashga qaratilgan izlanishlar xorijiy ilmiy-tadqiqot institutlari, xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar tomonidan amaliyotga tatbiq etilib, takomillashtirilib kelinmoqda. Bularni quyidagi jadval orqali izohlash mumkin.

4.4. Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash

Iqtisodiy va siyosiy-huquqiy xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash, bu borada mutasaddi vazirlik va idoralarning faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz mavqeyini yanada yuksaltirish, xorijiy reyting agentliklari bilan hamkorlikni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi PF-8756-sonli Farmoni "Xalqaro reyting va indekslarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to'g'risida" qabul qilindi.

Farmonda:

- xalqaro reyting va indekslarning ma'lumot bazalaridan foydalanish, zarur axborot materiallarini olish, ushbu reyting va indekslardagi O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash bo'yicha xalqaro reyting agentliklari hamda

xalqaro ekspert, maslahatchi va mutaxassislarni jalb qilish;

- xalqaro ekspert, maslahatchi va mutaxassislar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlash, ularni respublikaga taklif qilish va olib borilayotgan islohotlar ko'lamiga bilan yaqindan tanishtirish, chet elda sohaga oid tadbirlarda mutaxassislar ishtirok etishi, davra suhbatlari, xalqaro forum va konferensiyalarni tashkillashtirish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tuzilmasida Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash boshqarmasi vazirlik va idoralar tomonidan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilash va amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish yuklatilgan.

Jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovasion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida mamlakatni jadal rivojlantirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarning ijrosini izchil ta'minlash maqsadida 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida 2018 yil 21 sentyabrda, PF-5544-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonda Bosh maqsadga erishishda Strategiyaning asosiy vazifasi sifatida mamlakatimizning 2030 yilga borib Global innovasion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish belgilangan.

Ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi va resurs tejamkorligining yuqori darajasi tegishli innovasion talabni shakllantirishni taqozo etmoqda. Muammoning ushbu jihati qator xalqaro reytinglar ham tasdiqlaydi, jumladan ulardan eng nufuzlilaridan biri – Sof texnologiyalar global indeksi (The Global Cleantech Innovation Index). Mazkur indeksni shakllantirishda atrof muhitni muhofaza qilish sohasida innovasiyalar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar qaysi mamlakatlarda eng faol harakat qilishi va ularning mahsuloti qanday qilib bozorda o'z o'rnini topishi masalasini tadqiq qiladi.

Tayanch so'zlar: Indikator, barqaror iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy indikator, ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish, iste'mol xarakterini o'zgarish, moliyaviy resurs va

mexanizmlar, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, tashqi savdo, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari, transmilliylashuv, indeks, taraqqiyot, inson omili, tahdid.

Nazorat savollari:

1. Indikatorlar tushunchasi va uning asosiy turlarini yoritib bering.
2. Global barqaror rivojlanish indikatorlari nimalardan iborat?
3. Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish indikatorini yoritib bering.
4. The Global Cleantech Innovation Index ko'rsatkichlari qaysi sohaga tegishli?
5. Ekologik xavfsizlik o'lchovlari qaysi ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi?
6. Ishlab chiqarishning transmilliylashuv indeksleri qanday aniqlanadi?
7. Moliyaviy globallashuv indekslerini izohlab bering.
8. Ishlab chiqarishning transmilliylashuv indeksleri va ularning mohiyati.
9. Tashqi savdo, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarining indeksleriga izoh bering.
10. Milliy iqtisodiyot globallashuvining asosiy ko'rsatkichlariga nimalar kiradi?

5-BOB. GLOBAL IQTISODIYOTNING INSTITUSIONAL JIHATLARI

5.1. “Institut” tushunchasi va global iqtisodiyotning institusional jihatlari.

5.2. Markazlashtirilgan va bozor iqtisodiyotiga ta’luqli institularning xususiyatlari

5.3. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va ularning faoliyat yo‘nalishlari.

5.4. Xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar (G7, G20 va boshqalar)

5.1. “Institut” tushunchasi va global iqtisodiyotning institusional jihatlari

Institusional jihatlar. Keng ma’noda, "institutlar" – bu ijtimoiy makonga taalluqli tuzilmalarning bir ko‘rinishi bo‘lib, jamiyat hayotining mazmunini aks ettiradi. Institutlarning muhim xususiyatlari quydagilardan iborat:

jamiyatdagi asosiy iqtisodiy sub’yektlarning rag‘batlantiruvchi omillarini belgilab beradi;

jismoniy va inson kapitalini rivojlantirishga, ishlab chiqarishni modernizasiyalashga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga, ishlab chiqarishni tashkil etishga ko‘mak beradi;

samarali makroiqtisodiy, tashqi iqtisodiy, investision va sanoat siyosatini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadi;

mamlakatning barqaror rivojlanishida va raqobatdoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi paytda xalqaro tashkilotlarning roli kuchayib bormoqda. Ularning xalqaro munosabatlarda va jahon siyosatida tutgan o‘rniga, maqsad va vazifalariga qarab bir necha guruhga ajratish mumkin⁸:

1. Ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar: BMTning ixtisoslashgan tashkilotlari, jumladan, YUNESKO (ta’lim, fan va madaniyat), FAO (oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi), YUNIDO (sanoat taraqqiyoti), YUNKTAD (savdo va rivojlanish), JSST (sog‘liqni saqlash), YUNEP (atrof muhit bo‘yicha), YUNISEF (bolalar masalasi), Islom xamkorlik tashkiloti va boshqalar.

2. Mintaqaviy xalqaro tashkilotlar: Yevropa Ittifoqi, MDH, SHHT (Shanxay hamkorlik tashkiloti), ASEAN va boshqalar.

3. Iqtisodiy xalqaro tashkilotlar: Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, JST (Jahon savdo tashkiloti), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, YeTTB (Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki), OTB (Osiyo taraqqiyot banki), ITB (Islom taraqqiyot banki) va boshqalar.

Xalqaro moliya institutlari valyuta – kredit va moliya munosabatlari sohasida hamkorlik va muammolarni hal etish uchun xalqaro shartnomalar asosida xalqaro qoidalarga muvofiq xalqaro valyuta – kredit va moliya tashkilotlari sifatida tashkil topadi. Xalqaro moliya institutlarining paydo bo‘lishi quyidagi bir qator sabablar bilan bog‘liq:

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти И. Каримовнинг БМТ Саммитининг Минг йиллик ривожланиш мақсадларига бағишланган ялпи мажлисидаги нутқини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа. Тошкент. 2010. (Электрон ресурс).

Iqtisodiyotni internatsionalashuvi va globallashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish;

Davlatlararo valyuta–kredit munosabatlarini tartibga solish zaruriyati;

Jahon valyuta tizimi va xalqaro moliya bozorini barqaror rivojlanish muammolarini hal etishga bo'lgan talab.

Xalqaro valyuta–kredit va moliya munosabatlari institutsional strukturasi o'z ichiga ko'p sonli xalqaro tashkilotlarni oladi. Bulardan birlari, katta vakolat va resurslarga ega bo'lgan xolda valyuta–kredit va moliya munosabatlarini tartibga solish amalga oshirilsa, boshqalari esa hukumatlararo muvofiqdorliklar, konsensus hamda valyuta va moliya–kredit siyosati bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishadi. Uchinchilar, axborotlar yig'ish, valyuta–kredit va moliya va umuman olganda iqtisodiyotning dolzarb muammolari bo'yicha statistik va ilmiy–tadqiqotlari nashrlari bilan ta'minlaydi. Xalqaro moliya tashkilotlarini globallashtirayotgan jahon iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish va hamkorlikni kengaytirishdan iborat bo'lgan umumiy maqsad birlashtiradi.

Global ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro moliya institutlariga Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Jahon banki Guruhi (JB) va boshqa valyuta–kredit hamda moliya munosabatlarini muammolari bilan shug'ullanuvchi ixtisoslashgan moliya tashkilotlari.

Xalqaro moliya institutlarining asosiy maqsadlari:

xalqaro moliya munosabatlari barqarorligini ta'minlash;

xalqaro valyuta va moliya–kredit sohasida
munosabatlarni davlatlararo tartibga solish.

Jahon valyuta–kredit va moliya siyosati taktika va
strategiyasini hamkorlikda ishlab chiqish va
muvofiqlashtirish.

Xalqaro moliya institutlari va davlat moliyasi o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik hukumatlar bilan amalga oshiriladigan qarz, grant, kreditlar va boshqalar ifodalanadi. Birinchidan, ko'pgina xalqaro moliya tashkilotlari tashkiliy–huquqiy maqomiga ko'ra bank institutlari hisoblanadi, shuning uchun tijorat banklari o'ziga xos (kaptal va uni strukturasi, operatsiyalar, risklar, aktiv va passivlarning shakllanish tartibi va boshqalar) barcha xarakteristkalar xalqaro moliya tashkilotlar uchun ham xosdir. Ikkinchidan, markaziy bank yoki vakolatli banklar xalqaro moliya tashkilotlari va davlat o'rtasidagi munosabatlar ishtirokchisidir.

Ular xalqaro moliya tashkilotlari bilan moliyaviy resurslar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshiradilar, tegishli xisoblarga xizmat ko'rsatadi va boshqalar. Uchinchidan, ayrim xalqaro moliya tashkilotlari xalqaro darajada bank faoliyatini tartibga solish nazoratini olib boradilar. Xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan xalqaro banklararo hisob-kitob qoidalarini belgilaydi, bu sohada qo'llanmalar va zaruriy uslubiy hujjatlar ishlab chiqiladi.

Xalqaro moliya institutlari qimmatli qog'ozlar bozorining faol ishtirokchilari hisoblanadi. Ular o'z obligatsiyalarini chiqarib, qarz kapitalini jalb qiladilar. Ikkinchidan, xalqaro, hududiy va mahalliy qimmatli qog'ozlar bozori monitoringini olib boradilar. Ular tomonidan bozor statistikasi o'rganiladi, tegishli tahliliy

sharhlar,nashrlar, ya'ni investorlar va bozorning boshqa ishtirokchilari uchun moliyaviy qarorlar qabul qilishda zarur bo'lgan axborotlarni chiqariladi. Bir necha xalqaro moliya tashkilotlari kompaniyalar kapitalida ulushli ishtiroki mavjudligi, shu bilan birga ularning vazifalaridan biri moliyaviy globallashtirishning asosi bo'lgan kapitalning transchegaraviy xarakatini tezlashtirish, xorijiy investitsiyalarni faollashtirish hisoblanadi. Xalqaro moliya tashkilotlari valyuta–kredit, xalqaro moliya munosabatlarining asosiy subyektlaridan biri hisoblanib, jahon valyuta tizimini tartibga soluvchi va uni barqarorligini ta'minlovchi sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy sharoitlarda xalqaro moliya tashkilotlari quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. jahon valyuta tizimi va moliya bozorini barqaror faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan tartibga soluvchi;
2. dunyodagi krizis ko'rinishlarini bartaraf etish,oldini olish, tartibga solish o'rganish bo'yicha faoliyatidan kelib chiqib, krizisga qarshi tartibga soluvchi;
3. mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish sohasidagi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan konsolidirlashtiruvchi;
4. milliy iqtisodiyotlar, bozorlar, shuningdek jahon xo'jaligi va xalqaro moliya bozorini rivojlanish tendensiyalari ham muammolari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish va tahlili bilan bog'liq ilmiy–informatsion;
5. rivojlanayotgan, birinchi navbatda eng kambag'al mamlakatlarga moliyaviy yordam.


Xalqaro moliya tashkilotlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagi ko'rinishlarga ega:

- mamlakatlarga shu jumladan, ularni kichik biznesiga moliyaviy yordam ko'rsatish (kreditlash,investitsion loyihalarda ishtirok etish, moliyalashtirish, sindikatlashgan kreditlash, grantlar);

- korxonalar kapital ulushiga kirish yo'li orqali xorijiy investitsiyalar jalb qilishini rag'batlantirish;
- investitsion risklarni sug'urtalash bilan bog'liq bo'lgan sug'urta faoliyati va loyihalarni amalga oshirishda investorlarga kafolatlar berilishi;
- mamlakatlarga va xususiy firmalarga texnik yordam ko'rsatish;
- iqtisodiy rivojlanish masalalari bo'yicha konsultatsiya faoliyati;
- moliya bozori va uni ishtirokchilarini turli ma'lumotlar bilan ta'minlash;
- xalqaro moliya tashkilotlari tahliliy faoliyati doirasida iqtisodiy, moliyaviy va sotsial muammolar bo'yicha tadqiqotlar va mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanishi va o'tkazilayotgan islohatlar bo'yicha doimiy monitoringni amalga oshirish;
- statistik to'plam, ma'lumotnoma nashr qilish bilan bog'liq nashryotchilik faoliyati (masalan XVF ning har oyda chiqadigan International Financial Statistics statistik to'plam);
- xalqaro moliya bozoridagi moliya institutlari va nomoliyaviy kompaniyalar uchun xalqaro standartlar ishlab chiqish va joriy etish.

Xalqaro valyuta–moliya tashkilotlarining asosiy funksiyasi jahon iqtisodiyoti va moliya bozori ishtirokchilarining umumiy manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi. Ushbu funksiyalarni amalga oshirish yo'nalishlarini uchtaga ajratish mumkin: birinchi yo'nalish bo'yicha xalqaro moliya tashkilotlari umumiy valyuta–moliya resurslarini boshqarish amalga oshiriladi. Jumladan, jahon iqtisodiyoti uchun ustuvor bo'lgan yoki alohida hududiy loyihalarni kreditlash va moliyalashtirish. Ikkinchi yo'nalishdagi faoliyati xalqaro standartlarni ishlab chiqish. Yagona standartlarni qo'llanishi xalqaro iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay va tranzaksion harajatlarni keskin qisqartiradi. O'rnatiladigan standartlarni shartli

ravishda ikkita asosiy guruhga texnik standartlar (operatsiyalarni amalga oshirilishini soddalashtiruvchi, masalan valyuta va qimmatli qog'ozlarni kodli belgilari, bank hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi va boshqalar) va moliya, bank–kredit sektorini davlat tomonidan tartibga solish standartlar (bank nazorati, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va boshqalar). Uchinchi yo'nalishdagi faoliyati o'z a'zolariga xizmat ko'rsatish hisoblanadi. Ko'pgina xalqaro valyuta–moliya tashkilotlari qaysidir ma'noda yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha yo'nalishlarda faoliyat olib borishlari mumkin, biroq qaysidir yo'nalish ustuvor bo'ladi.



Xalqaro moliya tashkilotlarini geografik vakolatxonasiga bog'liq xolda xalqaro moliya tashkilotlarini global tashkilotlar (dunyoning barcha asosiy mintaqalardagi mamlakatlarni birlashtiruvchi), mintaqaviy tashkilotlar (bitta asosiy mintaqadagi mamlakatlarni birlashtiruvchi) va submintaqaviy tashkilotlarga (unchalik katta bo'lmagan geografik mintaqadagi mamlakatlarni birlashtiruvchi, masalan Shimoliy investitsion bank (Skandinaviya va Boltiq bo'yi mamlakatlari).

Valyuta va kredit munosabatlarini dolzarb muammolarini hal etishda xalqaro moliya institutlari bilan bir qatorda norasmiy birlashmalar rivojlanmoqda. Bunga Parij (1956- yil) va London (1976- yil) klublarini keltirib o'tish mumkin. Kreditor–

mamlakatlar Parij klubi–19 ta rivojlangan kreditor–mamlakatlarning norasmiy birlashmasi bo'lib, davlat tashqi qarzlarini bo'yicha to'lovlarni kechiktirish, tartibga solish siyosati muvofiqlashtiriladi. Parij klubi yig'ilishlarida xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, UNCTAD dan kuzatuvchilar ishtirok etadi va odatda mamlakat tashqi qarzining joriy yilda to'lanadigan qismi to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqiladi. Parij klubining boshqa xalqaro institutlari bilan hamkorligi qarzidor – mamlakatlarga nisbatan bo'lgan munosabatlardagi kreditor – mamlakatlar siyosatini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Parij klubi kreditlarni uzaytirish, qarzlarini restrukturizatsiyasi, yangi kreditlar berish to'g'risida qaror qabul qiladi va qarzidor – mamlakatlarga tavsiyalar beriladi. London klubi – bu qarzidor– mamlakatlar tashqi qarzini tartibga solish siyosatini muvofiqlashtiruvchi xususiy kreditor – banklarning norasmiy tashkilotidir. London klubi a'zolari bo'lgan yyetakchi bank vakillari tarkibidagi bank maslahat qo'mitasi tashqi xususiy qarzlarini tartibga solish tamoyillarini ishlab chiqadi. London klubining doimiy yig'ilishlarida qarzidor– mamlakatlar bilan kreditlarni qaytarish choralari va qarzlarini restrukturizatsiya qilish to'g'risida kelishuvlar tuziladi. London klubi xalqaro valyuta fondi va Parij klubi bilan hamkorlik qiladi.

Xalqaro moliya tashkilotlarining asosiy funksiyalari bevosita yoki bilvosita jahon iqtisodiyoti va uni alohida mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishga, ya'ni global jahon xo'jaligi samarali faoliyatini ta'minlashga yo'naltirilgan. Jahon xo'jaligining globallashtirish jarayonlariga ta'sir etishda global moliya tashkilotlari orasida Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki guruhi va Xalqaro hisob-kitoblar banki yyetakchi o'rin tutadi. Xususan, xalqaro hisob-kitoblar banki (1930 yilda tashkil topgan) markaziy banklar banki hisoblanib, Germaniya, AQSh, Shveytsariya, Italiya, Yaponiya va Angliya markaziy bank vakillari ishtirokida jahon iqtisodiyotiga tegishli bo'lgan eng zaruriy qarorlar qabul qilinadi.

Xalqaro hisob-kitoblar banki Nizomining 3–moddasiga ko'ra funksiyalari:

- markaziy banklar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlanishiga yordam berish;

□ xalqaro moliyaviy va valyuta–kredit operatsiyalar uchun yangi imkoniyatlar yaratish;

□ xalqaro to'lov operatsiyalari o'tkazilishida shartnoma asosida ishtirokchilar tomonidan unga beriladigan ishonchli shaxs yoki vakil sifatidagi faoliyati.

To'lov va hisob-kitob kartalari bo'yicha qo'mita tomonidan quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

□ to'lovlar, kliring va hisob-kitoblar xizmatlari hamda to'lov instrumentlari sohasida yangi ishlanmalar va rivojlanishi tahlili;

□ qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisob-kitoblar tizimi, to'lov va kliring tizimlari riski va samaradorligi–standartlarini o'rnatilishi;

□ markaziy banklar siyosati uchun ahamiyatli va to'lov tizimidagi markaziy banklarning turli roli;

□ xalqaro kontekst–xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik.

Xalqaro hisob-kitoblar banki deyarli barcha Yevropa markaziy banklari, shuningdek AQSh, Kanada, Yaponiya, Avstraliya va Janubiy Afrika markaziy banklari ishtirokchisi yoki uni turli-tuman faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Xalqaro hisob-kitoblar banki faoliyati sohasidan kelib chiqib quyidagi kategoriyalarga ajratish mumkin:

1. Xalqaro valyuta hamkorligi uchun forum; bank faoliyati nazorati; Yevropada iqtisodiy va valyuta hamkorlik.

2. Markaziy banklar o'z funksiyalarini yanada samarali amalga oshirilishi uchun davlatlar valyuta siyosatidagi kelishuvlar hamda xalqaro moliya bozori faoliyatini tahlil qilish maqsadida valyuta–iqtisodiy tadqiqotlar markazi rolini bajarish (markaziy banklarda boshqarish tizimi, xalqaro bank ishini rivojlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar nashri va to'plamlar).

3. Kredit–bank operatsiyalari:
 - a. markaziy banklar bilan depozit–ssuda operatsiyalari;
 - b. alohida kelishuvlar bo'yicha hukumat qo'yilmalarini qabul qilish;
 - c. valyuta va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar (aksiyalardan tashqari, asosan qisqa muddatli davlat qimmatli qog'ozlari);
 - d. markaziy banklar uchun investitsion xizmatlar;
 - e. markaziy banklarni qisqa muddatli moliyalashtirish.

Jahon banki guruhi–global ahamiyatga ega bo'lgan Birlashgan millatlar tashkilotining ixtisoslashgan moliya instituti hisoblanib, asosiy maqsadi ishlab chiqarish kapital qo'yilmalari uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro uzoq muddatli investitsiyalar oqimini rag'batlantirishdan iborat.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot Banki	Xalqaro moliya korporatsiyasi	Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi	Investitsiyalarni kafolatlash bo'yicha ko'p tomonlama agentlik	Investitsion bahslarni tartibga solish xalqaro markazi
1944	1956	1960	1988	1966
				

Xalqaro hisob-kitoblar banki tomonidan qisqa muddatli depozitlarni jahondagi yyetakchi banklar depozitlariga joylashtiradi, pul majburiyatlarini, shu jumladan g'aznachilik veksellerini sotib oladi. Bank Nizomiga uni operatsiyalari tegishli mamlakat markaziy banklari pul siyosatiga muvofiq bo'lishi lozim. Bank tomonidan hukumatlarga kreditlar berish va joriy hisoblar ochishga ruxsat berilmaydi.

4. Yevropa ittifoqi kredit va qarzlari bilan bog'liq operatsiyalari va jahon bozorida (valyuta, kreditlar, qimmatli qog'ozlar, oltin) amalga oshiriladigan operatsiyalarda markaziy banklar vakili va ishonchli shaxs funksiyalari.

5.2. Markazlashtirilgan va bozor iqtisodiyotiga ta'luqli institutlarning xususiyatlari

Ma'lumki, globallashuv – yaxlit jahon xo'jaligining shakllanishi, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperasiyalashuvining jadallashishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning bir-biriga chuqur bog'liqligi, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, uning keng transmilliylashishi jarayonini anglatadi. Markazlashtirilgan integrasiyalashuv esa uning muhim bosqichlaridan biridir.

Shu jihatdan, *globallashuv va markazlashuv o'zaro bog'liq jarayonlardir*. Global darajada tartibga solib bo'lmaydigan iqtisodiy hamkorlik muammolari mintaqaviy integrasiya doirasida tobora ko'proq hal etilmoqda. Jahonning u yoki bu qismiga taalluqli bo'lgan va muayyan umumiylikka ega bo'lgan bir guruh mamlakatlar o'rtasida hamkorlik va almashinuvning preferensial shart-sharoitlari o'rnatilishi, boshqacha aytganda, xo'jalik hayotining mintaqalashuv jarayoni zamonaviy global iqtisodiyotiga xos xususiyatdir. Mintaqaviy asosda tobora ko'proq xalqaro iqtisodiy ittifoqlar va birlashmalar paydo bo'lmoqda, ular doirasida milliy xo'jaliklar hamkorligi jadal rivojlanmoqda⁹.

“Iqtisodiy integrasiya” atamasi XX asrning 30-yillarida nemis va shvesiyalik iqtisodchilarning asarlarida paydo bo'ldi, biroq bugungi kunda uning bir nechta o'nlab ta'riflari mavjud.

“Xalqaro iqtisodiy integrasiya” deganda bir qator mamlakatlar takror ishlab chiqarish jarayonlarining bosqichma-bosqich birlashishiga olib boradigan, milliy

⁹ Мировая экономика в век глобализации: Учебник/О.Т. Богомолов – М.: ЗАО “Издательство “Экономика”, 2007. – С. 26.

xo‘jaliklar o‘rtasida chuqur barqaror o‘zaro munosabatlar va mehnat taqsimotining rivojlanishi asosida ishlab chiqarish baynalminallashuvining yuqori darajasi tushuniladi¹⁰.

Markazlashgan iqtisodiy integratsiya – bir nechta mamlakatlarning mintaqaviy darajadagi qo‘shma faoliyatini ko‘zda tutadi, ular iqtisodiyotini u yoki bu turdagi yagona mintaqaviy xo‘jalik majmuasiga birlashtirishga olib boradi.

Biroq, muammo “birlashtirish”, “umumlashtirish”, “yaxlitlik” tushunchalariga qanday mazmun kiritilayotganidan iborat.

R. Aron ta’kidlaganidek: “Agar tovarlar, kapital va insonlarning muayyan miqdordagi iqtisodiy birliklar o‘rtasidagi harakati mazkur birliklardan har birining ichidagi kabi erkin amalga oshirilsa, u holda ushbu birliklar umumlashtirilgan”.

Integrasiyalashayotgan mamlakatlar o‘rtasida tovarlar va ishlab chiqarish omillari harakatining to‘liq erkinlashtirilishi natijasida tashkil topadigan yagona iqtisodiy makon raqobatdosh firmalar sonini oshirish va “miqyos iqtisodiyoti”ning ko‘p sonli samaralaridan foydalanishga imkon beradi.

Integratsiyaga oddiydan murakkabga qarab rivojlanayotgan jarayon sifatida qarash uning shakl va bosqichlarining tasniflanishini amalga oshirishga imkonini beradi.

Turli xalqaro iqtisodiy tashkilotlar asos sifatida qabul qilgan B. Balassa nazariy yondashuvi klassik tasnifga aylandi. B. Balassa, eng avvalo, hamkorlik va integrasiyani farq qilishni taklif etdi. Agar hamkorlik jarayoni turli xildagi kamsitishlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan hatti-harakatlarning amalga oshirilishini bildirsa, u holda integrasiya jarayoni kamsitishlarning bartaraf etilishini ko‘zda tutadi. B. Balassa *integratsiyaning beshta asosiy shakllarini* (integratsion kelishuv turlarini) farqlaydi. Yel va boshqa integrasion guruhlarining muayyan tajribasi orqali

¹⁰ Alimov A.M. Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2016. – 96 b.

kiritilgan mazkur nazariyaning zamonaviy modifikasiyalarini hisobga olgan holda, ularni ko‘rib chiqamiz.

Integratsion kelishuvlarning asosiy turlariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- erkin savdo zonasi;
- bojxona ittifoqi;
- umumiy bozor;
- iqtisodiy ittifoq (yanada yetuk shaklda iqtisodiy va valyuta ittifoqi);
- to‘liq iqtisodiy va siyosiy integrasiya.


Ajratilgan turlardan har birini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Erkin savdo zonasi. Bu holatda kelishuv ishtirokchilari bir-birlariga nisbatan bojxona tariflari va kvotalarni bekor qiladilar. Shu bilan birga erkin savdo zonasining har bir ishtirokchisi uchinchi mamlakatlarga nisbatan o‘zining xususiy tashqi savdo siyosatini yuritish huquqini saqlab qoladi. NAFTAda shunday turdagi integrasiya shakliga yorqin misol bo‘la oladi.

Bojxona ittifoqi. Uning erkin savdo zonasidan asosiy farqi shundaki, bojxona ittifoqi ishtirokchilari nafaqat o‘zaro savdoda tarif va kvotalarni bekor qilishadi, balki uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona tashqi savdo siyosatini yuritishadi. Bojxona ittifoqi bir nechta bojxona hududlarini bittasi bilan almashtirishni ko‘zda tutadi. Bunda ichki chegaralardagi bojxona xizmatlari soddalashtiriladi, ularning funksiyalari esa yagona bojxona hududining tashqi chegaralaridagi tegishli xizmatlarga o‘tkaziladi. 1968 yildan boshlab Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (keyinchalik Yevropa ittifoqiga aylantirilgan), shuningdek MERKOSUR, YevrOsIH besh mamlakatida (Rossiya, Belorussiya, Kozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston) shakllanayotgan Bojxona ittifoqi ushbu shaklga misol bo‘la oladi. Integratsiyaning bu bosqichida tovar oqimlari sezilarli darajada o‘zgaradi,

kelishuvning ishtirokchi mamlakatlaridan import qilish o'sadi, mahsulot ishlab chiqarish va iste'mol tarkibida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Bojxona ittifoqi mantiqan yetarli darajada tugallangan shakl hisoblanadi. Shu bilan birga, tashqi savdo bilan cheklangan holda, u rivojlanishi savdo-iqtisodiy uyushmalarning yanada murakkab shakllariga o'tish ehtiyojini tug'diradigan ichki ziddiyatlarni o'z ichiga oladi.



Umumiy bozor. Bojxona ittifoqi doiralariga qo'shimcha sifatida, mazkur shakl barcha ishlab chiqarish omillarining ishtirokchi-mamlakatlar o'rtasidagi erkin ko'chishi yo'lidagi to'siqlarning bartaraf etilishini ko'zda tutadi. Aytilganlarning barchasi milliy qonunchilik, standartlarning yaqinlashishi, integrasiya institusional asoslarining rivojlanishi, birlashtirish jarayonlarini umumiy boshqarish organlarining shakllanishini anglatadi.

Umuman olganda, mamlakatlarning muayyan guruhi ichida ishlab chiqarish omillarining erkin harakati jami resurslardan yanada oqilona foydalanish mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish ixtisoslashuvining rivojlanishi, ishlab chiqarish tuzilmalarining maqbullashishi va ishlab chiqarish miqyoslarining ortishidan iqtisod qilish omilidan to'liq foydalanishga yordam berishi lozim. Shu bilan birga umumiy bozor tarkibiga kiradigan mamlakatlarning iqtisodiy siyosatidagi tafovutlar bunga to'sqinlik qiladi. Bu holat Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda kelib chiqadigan barcha salbiy oqibatlar ziddiyatlarning mavjudligiga yo'l qo'yadi. Natijada savdo-iqtisodiy ittifoqlarning yanada murakkab shakllariga o'tish sharoitidagina hal qilinishi mumkin bo'lgan muammo paydo bo'ladi.

Iqtisodiy ittifoq. Mazkur shakl ishtirokchidan yuqorida ta'kidlangan ziddiyatlarning mamlakatlar yuritayotgan iqtisodiy siyosatning turli sohalarida kelishish yo'li bilan bartaraf etilishini ko'zda tutadi. YeI doirasida yagona qishloq xo'jaligi siyosati, kelishilgan sanoat, energetika, transport, mintaqaviy, ijtimoiy, ilmiy-texnik siyosat yuritilishi, bunga yorqin misoldir.

Shunga e'tibor qaratishimiz kerakki, iqtisodiy siyosat borasida kelishuv jarayoni muayyan darajaga yetgach, u o'z mantig'iga bo'ysuna boshlaydi va agar mamlakat o'z iqtisodiyotining yuqori darajadagi ochiqligi bilan tavsiflansa, yanada keng doiradagi masalalarni qamrab olgan yaqin bog'liqlikni talab etadi. Mazkur jarayon majmuaviy va yanada murakkab shakl – iqtisodiy va valyuta ittifoqi doirasida o'zining muayyan mantiqiy yakuniga yetishi mumkin.

Valyuta ittifoqi — yagona markaziy bankning tashkil etilishi, yagona valyutaning joriy etilishini o'z ichiga olgan yagona mintaqaviy valyuta tizimini yaratishdir. Bunda yagona valyuta-kredit va muvofiqlashtirilgan mikroiqtisodiy siyosat borasida kelishuvlar qaror topishi ta'minlanadi.

To'liq iqtisodiy va siyosiy integrasiya. Mazkur holatda yagona bozor makonini yaxlit iqtisodiy va siyosiy tuzilmaga aylantirish haqida so'z boradi. Bu nafaqat kelishuv, balki bitta shaklga keltirilgan, deyarli yagona iqtisodiy siyosat, qonunchilik bazasini to'liq bir asosga keltirishni ko'zda tutadi.

Bu bosqichda xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yangi ko'p millatli sub'yekti paydo bo'ladi yoki asta-sekin shakllanadi, yagona federativ yoki konfederativ davlatni qaror toptirishga bo'lgan hatti-harakatlar sodir bo'ladi.

5.3. Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va ularning faoliyat yo'nalishlari

Globallashuv davrining yana bir o'ziga xos xususiyati, XX asrda global iqtisodiyotning yangi mexanizmlari va institutlari paydo bo'ldi, ularsiz bugun global iqtisodiyotning faoliyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon Banki, Jahon savdo tashkiloti, Bazeldagi Xalqaro hisob-kitoblar banki, BMTning mintaqaviy iqtisodiy komissiyalari, “Katta yettilik – G7” va “Katta yigirmatalik – G20”larning muntazam uchrashuvlari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda bir qator boshqa institutlar shular

jumlasidandir¹¹.

Globallashuv milliy iqtisodiyotlarni jahon iqtisodiyoti bilan birlashishi orqali texnologiya, ishlab chiqarish, moliya va iste'mol bozorlarini qamrab oladi.

Ikkinchi jahon urushi 1945 yil nihoyasiga yetganda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tomondan xalqaro birlashuv tarafdorlari ko'paydi.

Shu sababli? Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etilib, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVM-IMF), Jahon Banki va Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) jahon iqtisodiyotida bozor asoslarini ishlashini ta'minlash maqsadida shakllantirildi.

BMTning 1944 yil AQSHning Bretton-Vuds shahrida o'tkazilgan xalqaro valyuta-kredit masalalari bo'yicha konferensiyasida BMTning ixtisoslashgan organi sifatida Xalqaro valyuta jamg'armasini tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilindi. Uning vazifasi xalqaro va milliy valyuta-moliya tizimini qayta tiklash va barqarorlashtirish edi. Shuningdek, bu konferensiyada investisiyalash va kreditlash faoliyatini kengaytirishda xususiy kapitalning ham ishtirok etishi uchun Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ham ta'sis etildi. Mana shu voqea xalqaro moliya muassasalarining vujudga kelishining debochasi bo'ldi.

Global iqtisodiyotda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni qamrovi jihatidan ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh BMT doirasida faoliyat olib boradigan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bo'lib, ularga BMTga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar a'zo bo'lishi mumkin va biror-bir geografik chegaralashga tobe emas. Jahon Banki, XVJ, WTO, UNCTAD, UNDP (BMTnin Taraqqiyot dasturi), FAO (Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti) kabi tashkilotlar bunga misol bo'ladi.

¹¹ Мировая экономика в век глобализации: Учебник / О.Т. Богомолов – М.: ЗАО “Издательство “Экономика”, 2007. – С. 27/

Ikkinchi guruhga kiruvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ma'lum bir guruh mamlakatlarningina a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan tashkilotlardir. Chunki bular mintaqa bazasida iqtisodiy birlashma yoki hamkorlik xususiyatiga ega tashkilotlardir.

Ushbu tashkilotlar doirasiga Yevropa Ittifoqi, NAFTA va bir qator boshqa mintaqaviy integrasion tashkilotlar kiradi. Ular qatoriga Islom hamkorlik tashkiloti (IHT), ma'lum bir mahsulot ishlab chiqarib eksport qiluvchi (masalan, neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti – OPEC), Arab valyuta jamg'armasi yoki ma'lum bir geografik mintaqada joylashishi (Qora dengiz iqtisodiy hamkorlik tashkiloti) kabi ba'zi tashkilotlar kiradi.

Bugungi kunda global iqtisodiyotda xalqaro maqomga ega bo'lgan bir nechta mintaqaviy kredit tashkilotlari faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tashkilotlar, asosan, hududlar miqyosida faoliyat ko'rsatsa-da, keyingi yillarda ularning hudud doirasidan tashqarida ham faolligi ortib bormoqda. Ushbu tashkilotlar qatoriga quyidagilar kiradi: Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki (ITB), Amerikalararo taraqqiyot banki, Afrika taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki.

O'tgan asrning 60-yillariga kelib yirik mintaqaviy banklarning paydo bo'lishiga bir qancha sabablar ta'sir ko'rsatdi. Ushbu sabablar ichki va tashqi omillar ta'sirida vujudga kelgan. Ichki sabablarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- mustamlakalar tizimining parchalanishi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon rivojlanishidagi o'rnining ortishi va ularning yangi iqtisodiy tartib uchun kurashining kuchayishi;
- mintaqaga xos bo'lgan maxsus vazifalarini yechishga bo'lgan ehtiyoji;
- xorijiy raqobatga qarama-qarshi turish va milliy iqtisodiyot muammolarini birgalashib, kelishilgan holda yechish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlarning hududiy hamkorligi va iqtisodiy integrasiyalashuvini rivojlantirish va boshqalar.



Jahondagi xalqaro moliya tashkilotlarini qamrov nuqtai nazaridan uch turga bo'lish mumkin bo'lib, ular:

- global (jahon miqyosidagi) tashkilotlar, bularga Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon Banki guruhi va boshqalar kiradi;
- mintaqaviy tashkilotlar, misol uchun, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va hokazo;
- ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, masalan, Islom taraqqiyot banki (ITB) va boshqalar.

5.4. Xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar

Global iqtisodiyotda muhim institusional tuzulmalar sifatida “Katta yettilik ” guruhi (G-7), “Katta yigirmalik” guruhi (G-20) keltirish mumkin.

G-7 (Great 7 – Katta yettilik) Yaponiya, Kanada, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi mamlakatlardan tashkil topgan. Aslida “Katta yettilik” rasmiy maqoga ega emas: uning kotibiyati ham, boshqaruv idoralari ham

yo‘q. G-7 tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ham majburiy kuchga emas. Biroq, yettita ittifoqdosh mamlakatlar ularning mushtarak manfaatlariga xizmat qiluvchi qat’iy va buzilmas yozilmagan tartib-qoidalarga bo‘ysunadi.

“Katta yigirmalik” guruhi (G-20) 1999 yilda global iqtisodiyotdagi asosiy muammolarni muhokama qilish maqsadida tashkil etilgan.

Ushbu guruh tarkibiga yalpi ichki mahsuloti hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etadigan 20 ta rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardan iborat: Argentina, Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkiya, Fransiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Janubiy Koreya, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi.

“Katta yigirmalik” guruhi faoliyati global moliyaviy-iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan bo‘lib, shu jumladan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va bu boradagi muammolarni birgalikda hal etish maqsadida bir necha sammitlar o‘tkazdi:

AQSH (Vashington, 2008 yil noyabr; Pittsburg, 2009 yil sentyabr);

Buyuk Britaniya (London, 2009 yil aprel);

Kanada (Toronto, 2010 yil iyun);

Janubiy Koreya (Seul, 2010 yil noyabr) va boshqa davlatlarda bo‘lib o‘tgan.

Tayanch so‘zlar: Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, Mintaqaviy birlashmalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, nohukumat nodavlat tashkilotlari, institusional omillar, iqtisodiy siyosat, barqaror rivojlanish.

Nazorat savollari:

1. Jahon xo‘jaligining rivojlanish bosqichlariga tavsif bering, ularning farqlanuvchi va o‘xshash tomonlari nimada?

2. Xalqaro iqtisodiy integrasiya atamasini ta'riflab bering va uning mohiyatini ochib bering.
3. Iqtisodiy integrasiya shart-sharoitlari va maqsadlari qanday?
4. Global va mintaqaviy integrasiyalashuv nima? Milliy firma va kompaniyalar mamlakat integrasiyalashuv jarayonlariga qatnashuvidan qanday zarar yoki foyda ko'rishlari mumkin?
5. "Yangi mintaqalashuv" nimani anglatadi? Nega u ko'pgina hollarda "strategik mintaqalashuv" deb ataladi?

6-BOB. GLOBAL MOLIYA VA VALYUTA TIZIMINING SHAKLLANISHI

6.1. Global moliya bozori tushunchasi, tarkibiy tuzulmasi va uning asosiy ishtirokchilari.

6.2. Global moliya bozorlari markazlari va asosiy vazifalari.

6.3. Jahon iqtisodiyoti moliyaviy bozori va globallashuv jarayonlari.

6.4. Jahon kapital bozori tahlili. Kapital eksporti - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg'or shakli sifatida.

6.5. Jahon valyuta tizimini shakllanishi.

6.1. Global moliya bozori tushunchasi, tarkibiy tuzulmasi va uning asosiy ishtirokchilari

Moliyaviy bozorlarning tahlili yoki moliyaviy prognozlash mazkur bozorlar kon'yunkturasini baholash va ulardagi baholar o'zgarishini prognozlashdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, agarda moliyaviy tahlil pul (mablag') qo'yilmalari yoki qandaydir moliyaviy operatsiya yoxud tijorat bitimi amalga oshirilishidan qanday samara (daromad) olinishini aniqlash imkonini bersa, moliyaviy bozorlarning tahlili vaqtning muayyan bir oralig'ida mablag'larni qayerga investisiya qilish samaraliroq ekanligini bilish imkonini beradi.

Moliyaviy bozorlar:

xalqaro kreditlar bozori;

valyuta bozori;

qimmatli qog'ozlar bozori;

sug'urta va pensiya fondlari bozori;

hosilaviy moliyaviy instrumentlar bozori.

Moliyaviy bozorlardagi operatsiyalarning mohiyati valyutalar (qimmatli qog'ozlar) kurslarining farqi, tovar-xom ashyo birjalaridagi tovarlar baholarining yoki qimmatli qog'ozlar kotirovkalari indekslarining o'zgarishi sifatida daromad olishdan iboratdir. Moliyaviy bozorni tahlil qilishning maqsadi – minimal xavf-xatar sharoitida maksimal daromad olinishini ta'minlashdir.

Moliyaviy bozorlarning tahlili maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalarni xal qiladi:

- tovarlarga bo'lgan baholar, valyuta kurslari, qimmatli qog'ozlar kotirovkalari va ishbilarmonlik faolligi indekslarini prognozlash uchun bozorlar kon'yunkturasini baholash;

- baholar (kurslar, kotirovkalar) o'zgarishiga ta'sir etgan omillarning tahlili va ularning bozorga ta'sir muddatlari bo'yicha tasnifi, ob'yektiv va sub'yektiv omillarning ajratib ko'rsatilishi. Ya'ni, baholar o'zgarishiga bo'lgan qandaydir omillarning ta'siri tugaganligini, agarda tugamagan bo'lsa unda ushbu holat qachon yuzaga kelishi mumkinligini aniqlash zarur (masalan, u yoki bu mamlakat qishloq xo'jaligidagi xosilsizlik, hokimiyatning o'zgarishi, siyosiy kursning o'zgarishi, xarbiy xarakatlar va boshqa shu kabilar);

- kelgusida baholar o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlab topish va bunday o'zgarishlarni baholarga bo'lgan ta'sir darajasini prognozlash;

- sub'yekt o'z operatsiyalarini amalga oshiradigan bozorning chuqur tahlili va uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

- o'xshash bozorlarning taqqoslama tahlili;

- moliya bozoridagi o'yinning aniq belgilangan strategiya va taktikasi hisobiga tavakkalchiliklarni pasaytirish yo'llarini qidirish.

6.2. Global moliya bozorlari markazlari va asosiy vazifalari

Global moliyaviy markazlar- xalqaro valyuta, kredit, moliyaviy operatsiyalar hamda qimmatli qog'ozlar va oltin bilan bitimlarni amalga oshiruvchi banklar va ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlarining to'plangan joyi tushuniladi.

Dastlab ular sanoat jixatidan rivojlangan mamlakatlar (AQSH, G'arbiy Yevropa)da barpo etilgan. Keyinchalik esa ma'lum omillarning ta'siri ostida ularning joylashishi kengayib bormoqda. Agarda Tokio Yaponiyaning jahon bozoridagi raqobat kurashi borasidagi kuchayishi munosabati bilan moliyaviy markazga aylangan bo'lsa, Singapur, Bagam orollari, Panama, Baxreyn kabi moliyaviy markazlar ushbuga past soliqlar, davlat aralashuvining deyarli yo'qligi, liberal qonunchilik va operasion xarajatlarning nisbatan pastligi tufayli aylangan. Moliyaviy markazlarning asl mohiyati turli mamlakatlar o'rtasidagi kapital xarakatining uzluksizligini ta'minlashdan iboratdir. Biroq, moliyaviy markazlarni talabni qondirish mexanizmi sifatida ko'rishning o'zi maqsadga to'liq javob bermaydi deb hisoblaymiz.

Moliya bozori markazlari hamda valyuta bozorining asosiy ishtirokchilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- markaziy banklar;
- tijorat banklari;
- investitsiya va pensiya fondlari;
- eksport-import operatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalar;
- valyuta birjalari;
- valyuta operatsiyalari bilan shug'ullanuvchi broker firmalari;
- xususiy shaxslar.

Fond bozorining asosiy ishtirokchilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- emitentlar, ya'ni qimmatli qog'ozlarni joylashtirilishi ustidan pul mablag'larini jalb etuvchi korxona va tashkilotlar;

-moliyaviy vositachilar (brokerlar va dilerlar). Ular emitentlar va investorlar o'rtasida vositachilik funksiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi tegishli lisenziyalarga ega;

-qimmatli qog'ozlarning birja va birjadan tashqari bozori hamda fond birjalari va birjadan tashqari savdo tizimlari tegishli ravishda;

-investorlar, ya'ni vaqtincha bo'sh pul sarmoyalariga ega hamda ularni qimmatli qog'ozlarga joylashtirishdan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslardir;

-davlatning muvofiqlashtirish va nazorat organlari, ya'ni Moliya Vazirligi, Markaziy bank, Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiya va boshqalar;

- o'z-o'zini muvofiqlashtiruvchi tashkilotlar, ya'ni moliyaviy vositachilarning professional birlashmalari;

-qimmatli qog'ozlar bozorining infratuzilmasi, ya'ni maslaxat va axborot firmalari, ro'yxatga oluvchilar, depozitar va hisob-kitob kliring tizimlari.

6.3. Jahon iqtisodiyoti moliyaviy bozori va globallashuv jarayonlari.

Zamonaviy moliyaviy tizim global xarakterga ega. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining so'nggi o'n yilligi uning globallashuvining yuqori sur'atlari bilan tavsiflanadi va ushbu jarayon iqtisodiyotning transmilliylashuvi, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, transport infratuzilmasining rivojlanishi va boshqa geosiyosat omillari bilan bog'langandir. Barcha ishtirokchilar (korxona va korporatsiyalardan tortib to davlatgacha)ning har qanday bozordagi faoliyati iqtisodiy va siyosiy manfaatlarni qondirishga qaratilganligini aytib o'tish zarur. Iqtisodiy manfaatning moddiy ifodasi bo'lib oxir oqibatda iqtisodiy daromad (foyda) yoki moliyaviy natija hisoblanadi. Bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga kapital oqib o'tishining ko'lami qanchalik katta va uning chegaralari qanchalik keng bo'lsa, xalqaro moliya bozorlariga shunchalik ko'p operatsiyalar to'g'ri keladi.

Xalqaro moliyaviy bozor tarkibiy tuzilishi


Valyuta bozorlari - xorijiy valyutaning milliy valyutaga talab va taklif asosida xosil bo'luvchi kurs buyicha oldi-sotdisi amalga oshiriladigan markazlardir. Milliy valyuta bozorlari rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega bo'lgan barcha davlatlarda mavjud.

Jahon fond bozorlari- aksiyalar , obligatsiyalar, opsiyonlar, fyucherslar kabi qimmatli qog'ozlar bilan o'zaro oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshiruvchi korxona muassasalar va ishtirokchilarning jamlanmasidir. **Jahon ssuda kapitallari bozori**-xalqaro kredit operatsiyalari amalga oshiriladigan bozor yoki xalqaro ssuda kapitallari bozori.

6.4. Jahon kapital bozori tahlili. Kapital eksporti - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg'or shakli sifatida

Kapital olib chiqish jahon xo'jaligining chuqur rivojlanishi davrida tovar olib chiqish monopoliyasini sindirdi. Tovar olib chiqishni to'ldiruvchisi va uning vositachisi bo'lib, kapital olib chiqish xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida aniqlovchi omilga aylanib bormoqda. Kapital olib chiqish ma'lum bir milliy davlat o'z aylanmasidan bir qism kapitalni olib, uni boshqa bir davlatning ishlab chiqarish jarayoniga va aylanmasiga tovar yoki pul formasida joylashtirishida namoyon bo'ladi. Kapital olib chiqishning asosiy sababi uning ma'lum bir davlatlarda "nisbatan" ortiqcha bo'lib qolishligidir. Ishbilarmonlik foydasi yoki foiz olish maqsadida kapital chet elga chiqariladi.

Xalqaro kapital migrasiyasi- kapital egasi uchun foyda keltiruvchi, davlatlar orasidagi qarama-qarshi harakatdir. Har bir davlat bir vaqtning o'zida kapitalning importyori va eksportyori bo'lib hisoblanadi. Amaliy hayotda investisiya qilish zaruriyati o'zida investision muhitning barcha qismlarini mujassamlashtirgan sabablar kompleksi va shuningdek ayrim bozorlarning nisbiy ustunligi tamoyillari bilan belgilanadi.



Xorijiy investitsiyalar bu kapital qabul qiluvchi davlatda kompaniya ustidan nazorat o'rnatish va uni boshqarishda ishtirok etish maqsadida kapital ko'chirishdir. **To'g'ridan-to'g'ri** yo'naltirilgan investitsiyalar shaklida kapital olib chiqish bu kapital qabul qiluvchi davlat xududida kapital eksportyori tomonidan ishlab chiqarishni tashkil etishini bildiradi. **Portfel investitsiyalar** yirik korporatsiyalar, markaziy va xususiy banklar tomonidan chiqariladigan obligatsiya zayomlarini moliyalashtirish uchun xorijiy kapitalni jalb qiluvchi muhim manbadir. Xorijiy portfel investitsiyalarini jalb qilishda odatda yirik investitsion banklar vositachilik qiladi. Portfel investitsiyalarning harakatiga ko'p jihatdan alohida davlatlarda obligatsiyalar uchun to'lanadigan foiz stavkalaridagi farq ta'sir qiladi.

6.5. Jahon valyuta tizimini shakllanishi

Jahon, mintaqaviy va milliy valyuta tizimlari farqlanadi. Jahon valyuta tizimi dunyoda tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanib borishi bilan birga jahon xo'jaligining tuzilmasiga hamda yetakchi mamlakatlarning kuchi va manfaatlarining o'zaro nisbatiga bog'liq ravishda shakllandi.

Jahon valyuta tizimi - bu davlatlar o'rtasidagi xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilishning davlat-huquqiy shakli bo'lib, davlatlararo kelishuvlar asosida yuzaga keladi.

Jahon valyuta tizimining evolyusiyasi jarayonida uning quyidagi asosiy elementlarining ko'rinishi o'zgarib va takomillashib bordi:

- jahon pullarining (oltin, zaxira valyutalar);
- valyuta kurslari rejimi;
- valyutani tartibga solish darajasi va valyuta cheklovlari hajmi;
- xalqaro hisob-kitoblar qoidalari va shakllarini unifikasiya qilish;
- valyutani tartibga solishni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar.

Jahon valyuta tizimi jahon pullariga asoslanadi. Zamonaviy sharoitlarda ularning vazifasini zaxira valyutalar bajaradi. Ular milliy valyutalar kursini aniqlash uchun negiz bo'lib xizmat qiladi, xalqaro to'lov va zaxira vositasi funksiyalarini bajaradi.



Dastlab jahon puli shakli bo'lib ikkita qimmatbaxo metall – kumush va oltin xizmat qilgan. Lekin XIX asr oxirida katta oltin zaxirasiga ega mamlakatlar, masalan

o'sha vaqtdagi eng yirik iqtisodiyot – Buyuk Britaniya oltin monometallizmiga o'tdi. 1867 yilda Parijda bo'lib o'tgan konferensiyada davlatlararo kelishuv bilan oltin tanga standartiga asoslangan birinchi jahon valyuta tizimi (Parij tizimi) yuridik jihatdan mustahkamlandi. Ushbu valyuta tizimiga mamlakatda qog'oz pullarning oltin tangalarga erkin almashtirilishi xos bo'lib, natijada mamlakatda pul massasi uning oltin zaxiralari hajmi bilan aniqlanar edi. Bundan tashqari milliy valyutalarning mazmuni va valyuta kurslari oltinda qayd qilingan edi. Ushbu kurslar faqat oltin nuqtalar atrofida, ya'ni oltinni jahon moliyaviy markazlaridan tashish qiymati miqdorida tebranishi mumkin edi. Valyuta kursi oltin nuqtalar chegarasida talab va taklif asosida aniqlanar edi. Valyutaning qadrsizlanishida uning kursi oltin nuqtalar chegarasidan chiqib ketar edi va bu mamlakatdan oltinning chiqib ketishiga olib kelar edi. Natijada to'lov balansining salbiy saldosi vujudga kelib, u mamlakatning oltin zaxiralari hisobiga yoki chet eldan kapitalning oltinga almashtiriladigan xorijiy valyuta shaklida kirib kelishi bilan qoplanar edi. Masalan, XX asrda to'lov balansi kamomadiga duch kelgan Buyuk Britaniyada pul massasining qisqarishi ro'y berdi, lekin natijada mamlakatda foiz stavkalari ko'tarildi, bu esa chet eldan kapital oqimini kuchaytirdi va u to'lov balansi kamomadini moliyalashtirish imkonini berdi.

Birinchi jahon urushigacha oltin tanga standarti tizimining amal qilishi nafaqat valyuta tizimining barqarorligini, balki jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ham ta'minladi. 1897 yilda Rossiyada moliya vaziri Sergey Yulyevich Vittening (1849-1915) tashabbusi bilan oltin tanga standartining joriy etilishi rublni dunyoning eng mustahkam valyutalaridan biriga aylanishiga imkon berdi.

Biroq Birinchi jahon urushi davrida valyuta inqirozining vujudga kelishi jahonda yangi valyuta tizimini yaratishga olib keldi. 1922 yilda Italiyaning Genuya shahrida o'tkazilgan xalqaro iqtisodiy konferensiyada rasmiylashtirilgan ikkinchi jahon valyuta tizimi (Genuya tizimi) oltin deviz (oltin valyuta) standartiga, ya'ni nafaqat oltinga, balki oltinga almashtiriladigan xorijiy valyutaga asoslandi. Xech bir valyutaga rasman zaxira valyuta maqomi berilmagan bo'lsada, Angliya funt sterlingi va AQSH dollari haqiqiy zaxira valyutasi sifatida yetakchilik uchun raqobatlashdi.

1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozining chuqurlashuvi natijasida Genuya jahon valyuta tizimi barbod bo‘la boshladi. Dastlab Germaniya, so‘ngra Buyuk Britaniya va AQSH qog‘oz pullarni oltinga almashtirishni bekor qildi va ularning valyutasi devalvasiya qilindi. Murakkab vaziyatdan chiqish uchun funt sterling va dollar atrofida valyuta bloklari shakllantirildi, ushbu bloklarga a‘zo-mamlakatlar o‘z zaxiralarida ushbu valyutalardan biriga tayanar edi. Keyinchalik boshlangan Ikkinchi jahon urushi yangi valyuta cheklovlarga olib keldi, xarbiy- strategik tovarlarni sotish esa faqat oltin evaziga amalga oshirildi.

Xalqaro valyuta munosabatlari asoslarini tiklash uchun 1944 yilning 22 iyunida Bretton-Vudsda (AQSH, Nyu-Xempshir shtati) o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada uchinchi jahon valyuta tizimi – Bretton-Vuds tizimining prinsiplari shakllantirildi:


- valyutalarning dollarga nisbatan qayd etilgan kurslari rasman o‘rnatildi va dollar o‘z navbatida ushbu kursda oltinga almashtiriladi;

- 1944 yil 1 iyulda oltinning rasmiy qiymati bir troya unsiyaga (31,105 g.) 35 dollar darajasida o‘rnatildi, yoki 1 dollar 0,88571 g oltinga tenglashtirildi;

- valyutalarning qayd etilgan kurslari $\pm 1\%$ chegarasida, G‘arbiy Yevropada esa $\pm 0,75\%$ chegarasida tebranishiga yo‘l qo‘yiladi;

- ikkita zaxira valyutalar – AQSH dollari va funt sterling oltinga rasmiy kurs bo‘yicha almashtirilishi ta‘minlanadi.

- XVJ davlatlararo valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi organ sifatida tashkil etildi.



Bretton-Vuds tizimi o‘z tavsifiga ko‘ra qayd qilingan kurslarga ega oltin deviz (oltin valyuta) tizimi edi.

AQSH xorijiy mamlakatlar markaziy banklarining birinchi talabi bo‘yicha dollarlarni oltinga xech qanday cheklovlarsiz almashtirish majburiyatini o‘z zimmasiga oldi, qolgan mamlakatlar esa o‘z valyutasini dollarga nisbatan kursini qayd etish va uni paritetga nisbatan $\pm 1\%$ chegarasida tebranishlarini ta‘minlashga majbur edilar. Milliy valyutalarni oltinga almashtirish, turli mamlakatlarning

markaziy banklari o'rtasidagi munosabatlardan tashqari butunlay bekor qilindi. Yangi xalqaro valyuta tizimini tartibga solish uchun Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) tuzildi.

Shunga qaramay, Bretton-Vuds valyuta tizimining qarama-qarshiliklari, eng avvalo dollarning milliy tavsifi va uni xalqaro to'lov vositasi sifatida qo'llanishi o'rtasidagi ziddiyatlar asta-sekin ushbu tizimni ham barbod bo'lishiga olib keldi. Shuningdek, AQSH ning Vyetnamda olib borgan uzoq yillik urushi natijasida davlat byudjeti defisiti keskin oshgan edi va buning natijasida dollar kursi keskin tebranishi kuzatildi. Ushbu sabablarga ko'ra XX asrning 70 yillariga kelib zaxira valyuta sifatida dollordan qochish tendensiyasi yuz berdi. 1971 yilda AQSH dollarlarni rasmiy kurs bo'yicha oltinga almashtirishni to'xtatdi. Qayd etilgan valyuta kurslari to'g'risidagi kelishuv bekor qilindi va Bretton-Vuds tizimi o'z faoliyatini tugatdi.

Hozirda amal qilayotgan to'rtinchi jahon valyuta tizimi (Yamayka tizimi) 1976 yil yanvarda Yamaykaning Kingston shahrida XVJga a'zo-mamlakatlarning kelishuvlari bilan rasmiylashtirildi. Unda yangi tizimning asosiy prinsiplari shakllantirildi va ular 1978 yil aprelda XVJ Ustaviga ikkinchi tuzatishlar bilan mustahkamlandi. Ushbu prinsiplar hozirgi kunda ham amal qilmoqda:

- oltinning rasmiy narxini bekor qilish bilan uning pul funksiyalari tugatildi, lekin oltinning haqiqiy qiymati tufayli uning zaxira pul (to'g'rirog'i – zaxira aktivi) vazifasi saqlanib qoldi;

- oltin deviz standarti maxsus qarz olish huquqi (SDR) standarti bilan almashtirildi, u valyuta kurslari asosi sifatida rasmiy e'lon qilindi, lekin amaliyotda na milliy valyutalar qiymatining etaloni (o'lchovi)ga, na asosiy to'lov va zaxira vositasiga aylanmadi;

- mamlakatlar 1973 yildan boshlab rasman qayd qilingan valyuta kurslaridan tashqari suzuvchi valyuta kurslari rejimini ham tanlashlari mumkin bo'ldi;

- XVJ valyuta kurslarini yanada qat'iy nazorat qilish va valyuta munosabatlarini erkinlashtirishga ko'maklashish vakolatlarini oldi.

Yamayka valyuta tizimidagi bunday aks tartibga solish juda tez suzuvchi valyuta kurslarining kuchli tebranishlarida namoyon bo'ldi, moliyaviy va valyuta

inqirozlari esa, ayniqsa asrlar chegarasida (1995 yilda Meksikada valyuta inqirozi, 1997 yil yozda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, 1998 yil yozda Rossiyada, 1999 yil yanvarda Braziliyada, 2000 va 2001 yillarda Turkiyada valyuta “bo‘ronlari”) valyuta kurslarini qo‘llab-quvvatlash, ayrim moliyaviy aktivlarni haqiqiy va oshirib baholash, qoniqarsiz bank nazorati, moliyaviy axborot yetishmovchiligi bo‘yicha choralar ko‘rish masalasini oldinga surdi. 2007-2008 yillarda jahon valyuta moliya bozorida inqiroz holatlarini yengish uchun mamlakatlarning hatti-harakatlarini muvofiqlashtirish zarurati jahon iqtisodiy hamjamiyatini jahon valyuta tizimida aks tartibga solish hamda moliyaviy oqimlarning globallasuvi sharoitlarida XVJning rolini yangicha baholashga va mamlakatlarning valyuta munosabatlari sohasidagi siyosatlarini kelishishga majbur qildi. 2007-2008 yillardagi valyuta-moliyaviy inqiroz saboqlari 2012 yil aprelda XVJda o‘tkazilgan kapital oqimlarini boshqarishni takomillashtirish to‘g‘risidagi masalaning navbatdagi muhokamasi ishtirokchilariga “to‘liq liberallasuv har qanday vaziyatda barcha mamlakatlar uchun tegishli maqsad bo‘lib hisoblanmaydi va liberallasuvning zaruriy darajasi mamlakatdagi aniq vaziyatlar, xususan uning institusional va moliyaviy rivojlanish bosqichiga bog‘liq”¹² degan xulosaga kelish imkonini berdi. Bunda kapitalning ham mamlakatga kirib kelishini, ham mamlakatdan chiqib ketishini tartibga solishga, ya’ni u yoki bu tartibga soluvchi choralarni qo‘llash (management measures)ga katta e’tibor berish zarur.


Biroq, xalqaro valyuta tuzilmasiga tuzatishlar kiritish hamda millat ustki organlar, birinchi navbatda XVF faoliyatini takomillashtirishga nisbatan “20 Guruh”, XVF va boshqa tashkilotlarning tavsiyanomalari hanuzgacha zamonaviy jahon valyuta tizimini isloh qilishga jiddiy ta’sir ko‘rsatgani yo‘q.

Iqtisodiy integratsiya jarayonlarida mintaqaviy valyuta tizimlari vujudga kelmoqda va faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu eng avvalo, yevro hududidir.

Milliy valyuta tizimlariga kelsak, ular milliy pul tizimining bir qismi hisoblanadi, lekin bunda nisbatan mustaqillikka ega va mamlakat iqtisodiyotining

¹² International Monetary Fund. IMF Executive Board Discusses Liberalizing Capital Flows and Managing Outflows. Public Information Notice. N12/42. May 4. 2012.

jahon xo‘jaligi bilan aloqasini ta’minlaydi.



Konvertirlanmaydigan (berk), qisman konvertirlanadigan va to‘liq konvertirlanadigan valyutalar ajratiladi.

Agar emitent-davlat to‘lov balansining joriy operatsiyalari bo‘yicha milliy valyutani xorijiy valyutalarga almashtirishni cheklaganda yoki taqiqlaganda valyuta konvertirlanmaydigan valyuta hisoblanadi. Joriy operatsiyalar (lekin kapital operatsiyalar emas) bo‘yicha xorijiy valyutalarga erkin ayirboshlash valyutani qisman konvertirlanadigan valyutaga aylantiradi. XVJ Ustavining VIII moddasidan kelib chiqadigan majburiyatni olgan mamlakatlarning valyutalarini XVJ konvertirlanadigan valyutalar sifatida tan oladi. Ushbu majburiyat “hech bir a’zo-mamlakatjoriy xalqaro bitimlar bo‘yicha to‘lovlar va o‘tkazmalarga Jamg‘armaning rozilgisiz cheklovlarni o‘rnatmasligi kerak”ligini nazarda tutadi. Bunday operatsiyalarga tovarlar va xizmatlar tashqi savdosiga, qisqa muddatli bank va kredit operatsiyalariga, qarzlarni va ular bo‘yicha foizlarni to‘lash bo‘yicha to‘lovlar, investisiyalar bo‘yicha foyda o‘tkazmalari, notijorat tavsifli pul o‘tkazmalari va h.k.larga xizmat ko‘rsatuvchi to‘lovlar kiritiladi. Qisman konvertirlanishning eng keng tarqalgan shakli bo‘lib xalqaro kapital harakati bilan bog‘liq operatsiyalarga cheklovlarning saqlanib qolishi hisoblanadi.

To‘liq ayirboshlash rejimida valyutaning barcha egalari, ya’ni rezidentlar va norezidentlar uni olish manbasidan qat’iy nazar ushbu mablag‘larni istalgan maqsadlarda mamlakatda va xorijda istalgan pul birliklariga to‘siqsiz ayirboshlash (oldi-sotdini amalga oshirish) imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Oltin demonitizasiya qilingan bo‘lsa ham hali ham oltindan zaxira (rivojlangan mamlakatlarda mamlakat oltin-valyuta zaxirasining 70%i) sifatida foydalaniladi. Bundan tashqari xalqaro

kreditlar uchun oltin yuqori likvidli ob'yekt garovi hamdir.

Tayanch soʻzlar: Moliya bozori, valyuta bozorlari, xalqaro kreditlar bozori, valyuta bozori, qimmatli qogʻozlar bozori, sugʻurta va pensiya fondlari bozori, hosilaviy moliyaviy instrumentlar bozori, milliy valyuta tizimi, jahon valyuta tizimi, Parij valyuta tizimi, Genuya valyuta tizimi, Bretton-Vuds valyuta tizimi, Yamayka valyuta tizimi.

Nazorat savollari:

1. Jaxon moliyaviy bozorlarning maqsadi va asosiy vazifalari nimadan iborat?
2. Moliyaviy bozorning asosiy ishtirokchilari
3. Xalqaro moliyaviy bozorning globallashuv jarayonlarini yoritib bering
4. Jahon kapital bozori asosiy mohiyati nimadan iborat?
5. Kapital eksporti milliy iqtisodiyotlarga ta'sirini izohlab bering

7-Bob. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVI RIVOJLANISHINING EKOLOGIK VA INNOVATSION OMILLARI

- 7.1. Jahon iqtisodiy globallashuvida texnologik rejimlar.
- 7.2. “Innovasion iqtisodiyotning” xususiyatlari va rivojlanish jihatlari.
- 7.3. Innovatsiyalarning sohalar bo'yicha turlari.
- 7.4. “Yashil iqtisodiyotning” mazmun-mohiyati va rivojlanish mexanizmi: BMTning atrof-muhitni saqlash va rivojlanishida Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi.

7.1. Jahon iqtisodiy globallashuvida texnologik rejimlar

XVII asrda amalga oshirilgan Angliya burjua inqilobidan keyin, mustamlakala davlatlardan to'plangan boyliklar sanoatni rivojlantirishga yo'l ochdi. Bu XVIII asrning 60 yillaridan Buyuk Britaniya bo'ylab boshlangan sanoat inqilobiga olib keldi. Angliyada dastlab yigiruv, keyinroq to'quv mashinasi ixtiro qilindi va ip-gazlama korxonalarida qo'llanildi. Sanoat rivojida mashinalar davrini boshlab berdi. Mashinalar soni o'sishi metallga bo'lgan talabni keskin oshirdi. Metallurgiyada yangi usulda cho'yan va po'lat olish rivojlandi hamda domna pechlari shu davrda ixtiro qilindi. Mashinalarning katta ish tezligi yangi energiya manbaini talab etdi. Avvalgi energiya qo'l va oyoq kuchlari yoki oqar suvlar orqali mexanik tarzda yaratilgan bo'lsa, 1780-1820-yillarda to'qimachilik sanoati hajmi 16 martadan ortiq o'sishi natijasida (to'qimachilik sanoatida boshlangan bu o'zgarishlar jun, kanop, ipak sanoatiga ham o'tgan) bug' mashinasining ixtiro qilinishi sanoat energetikasida burilish nuqtasi bo'ldi. Sanoat rivoji, bozor aloqalarining yanada kengayishi transport vositalarini takomillashtirishni talab etdi. XIX asrning birinchi choragida (1811 yil) bug' dvigateliga asoslangan eng arzon va qulay paroxod transporti ishga tushdi, 1814-yil Angliyalik injener-mehanik J.Stefenson parovozni ixtiro qildi. 1825-yildan temir yo'llar ishlay boshladi.

XIX asrning 20-30 yillarida mashina sanoati ishlab chiqarish va hunarmandchilik ustidan to'la g'alabaga erishdi. Shu zaylda Angliya yirik industrial mamlakatga, ya'ni "dunyo ustaxonasi"ga aylandi. Angliyada boshlangan bu texnologik ukld keyinchalik baynalmilal tus oldi. Bu jarayon Angliyadan keyin Fransiyada (Buyuk fransuz inqilobidan so'ng) boshlandi, shunday qilib ikkala davlat jahonda yetakchi o'rinni egalladi. XIX asrning 60-yillarida Italiya, Germaniya, AQSH, Rossiya va Yaponiyada ham sanoatning global rivojlanishi tezlashdi. XIX asr oxirida AQSH va Germaniya jahonda sanoat sohasida yetakchi o'rinni egalladi.

Sanoatlashish mustamlaka mamlakatlarida bir muncha keyinroq boshlandi. Shuningdek, mazkur mamlakatlarda iqtisodiyotning keskin o'sishiga olib keldi. Asta-sekin yirik sanoat yetakchi o'rniga chiqdi. Yirik sinfiy va ijtimoiy

o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Umuman global tarzda feodal va yarim feodal munosabatlar yemirildi, kapitalizm tizimi uzil-kesil qaror topdi.

Yuqorida keltirilgan texnik ukld globallashuvning birinchi bosqichi bo'lib, xozirda dunyo global iqtisodiyoti globsl texnologik ukldlarning oltinchi bosqichga yetib keldi.

Texnologik yo'l ishlab chiqarishni rivojlantirishning ma'lum bir darajasiga xos bo'lgan texnologiyalar to'plami sifatida tavsiflanadi; ilmiy va texnik-texnologik taraqqiyot bilan bog'liq holda, pastki qatlamlardan yuqori progressiv o'tishga erishiladi.

Texnologik hayotning tsikli taxminan bir asrni qamrab oladi, iqtisodiyotni rivojlantirishda uning hukmronligi davri 40 yildan 60 yilgacha (ilmiy va texnologik taraqqiyotning tezlashishi, ilmiy va ishlab chiqarish davrlarining davomiyligini qisqartirish asta-sekin kamayadi) bo'lgan davni qamrab oladi. Iqtisodiy hodisalar yuzasida bu davr iqtisodiy kon'yukturaning uzoq to'lqinlari shaklida namoyon bo'ladi, uning chastotasi birinchi marta N.D. Kondratiev tomonidan belgilandi va keyinchalik ko'plab tadqiqotlar natijasi o'laroq tasdiqlandi.


Bugungi kunga kelib, jahon texnik-iqtisodiy rivojlanishida (Angliyada sanoat inqilobidan boshlab) ketma-ket o'zgarib turadigan beshta texnologik qatlamning hayot aylanish davrlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Texnologik jihatdan bog'langan ishlab chiqarishlarning asosiy to'plamlari kompleksi texnologik tuzilishning yadrosini hosil qiladi. Uning yaratilishida ishtirok etadigan texnologik yangiliklar "asosiy omil" deb nomlangan. Yangi texnologik tartibni tarqatishda yetakchi rol o'ynaydigan tarmoqlar uning tashuvchisi hisoblanadi.

Texnologik hayotning hayot aylanishi rivojlanishning uch bosqichiga ega va taxminan yuz yil muddatga belgilanadi. Birinchi bosqich uning kelib chiqishiga va avvalgi texnologik tuzumning iqtisodiyotida paydo bo'lishiga bog'liq. Yangi texnologik yo'l, avvalgi iqtisodiy tuzilishda hukmronlik qilganda paydo bo'ladi. Ushbu bosqichda uning rivojlanishi salbiy texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan cheklanadi. Faqat o'sish chegaralari dominant texnologik yo'l erishish va uning tarkibiy ishlab chiqarish rentabelligini pasayishi bilan yangi texnologik yo'l texnologik zanjirlarida resurslarni ommaviy qayta taqsimlash boshlanadi. Ikkinchi bosqich yangi ishlab chiqarish texnologiyasi asosida iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish bilan bog'liq va ellik yil davomida yangi texnologik turar-joy hukmronligiga mos keladi. Uchinchi bosqich eskirgan texnologik tuzumning yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Shu bilan birga, texnologik tartibga hukmronlik davri uning rivojlanishidagi eng katta o'sish bilan tavsiflanadi.

Ushbu jarayon texnologik inqilob deb nomlanishi mumkin, unda beshta xususiyat mavjud: innovatsion faoliyatning oʻsishi, ishlab chiqarish samaradorligini tez oshirish; yangi texnologik imkoniyatlarning ijtimoiy va siyosiy tan olinishi; yangi texnologik tizimning xususiyatlariga muvofiq narx nisbatlarini oʻzgartirish. Texnologik inqilob eskirgan texnologik tuzilmalarda, ularning qisqarishi, iqtisodiy ahvolning yomonlashuvi, tashqi savdo qarama-qarshiliklarining chuqurlashishi, ijtimoiy va siyosiy keskinlikning kuchayishi bilan shugʻullanadigan kapitalning katta amortizatsiyasi bilan birga keladi.

Texnologik tartibni almashtirish belgilari quyidagilar:



Moliyaviy inqiroz investitsion muhitni yomonlashtirsa-da, asosiy yangiliklarning tarqalishini sekinlashtirishi mumkin boʻlsa-da, moliyaviy bozordagi inqiroz real aktivlarga investitsiyalarni qayta yoʻnaltirishga yordam beradi. Natijada, asosan, yangi kamroq energiya va moddiy intensiv texnologiyalarni ommaviy ravishda joriy etish orqali, birinchi navbatda, yangi texnologik tuzumning yadrosini kengaytirish orqali depressiyadan chiqish boshlanadi. Shu bilan birga, kapitalning haddan tashqari texnologik tuzilmalarning oʻsish chegaralariga yetganidan ozod

etilishi. Yangi texnologik tuzumning asosiy innovatsiyalarini rivojlantirishga sarmoya kiritilganligi sababli, ularning miqdori ortib bormoqda.

Zamonaviy iqtisodiyot tarkibida axborot texnologiyalari tizimi ustunlik qiladi. Rivojlangan va ko'plab yangi sanoat mamlakatlarida 80-larning o'rtasidan boshlab beshinchi texnologiya ishlab chiqarishining ommaviy tarqalishi va iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarida an'anaviy texnologiyalarni almashtirish boshlandi. Uning asosiy omili mikroelektronika va dasturiy ta'minotdir. Uning yadrosini tashkil etuvchi ishlab chiqarishlar orasida elektron komponentlar va qurilmalar, elektron hisoblash texnikasi, radio va telekommunikatsiya uskunalari, lazer uskunalari, hisoblash texnikasiga xizmat ko'rsatish kiradi.

Bugungi kunda beshinchi texnologik yo'l uning o'sishi chegaralariga yaqin: energiya bahosining ko'tarilishi va tushishi, moliyaviy pufakchalarning shakllanishi va qulashi – hayot aylanish jarayonining yakuniy bosqichining ishonchli belgilari, dominant texnologik tuzum va iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurishning boshlanishi keyingi – oltinchi texnologik tartibga asoslangan bo'lib, uning shakllanishi va o'sishi kelgusi ikki-uch o'n yillikda global rivojlanishni aniqlaydi.

Uzoq muddatli texnik-iqtisodiy rivojlanishning mavjud ritmidan kelib chiqqan holda, XXI asrning ikkinchi o'n yilligidan bugungi kunda beshinchi texnologik tartibga ega bo'lgan barqaror o'sish chegarasiga erishiladi. Shu vaqtga kelib, hozirgi vaqtda yuzaga keladigan yangi oltinchi texnologik tuzumning reproduktiv tizimi shakllantiriladi.

Hozirgi vaqtda yangi (oltinchi) texnologik yo'l rivojlanishning embrional bosqichidan kelib chiqadi, uning o'sish chegaralariga yetgan avvalgi texnologik tuzumni almashtirish jarayoni boshlanadi. Bu jarayon dunyoning yetakchi mamlakatlari iqtisodiyotining moliyaviy va tizimli inqirozi sifatida namoyon bo'ladi, bu esa energiya va boshqa xom ashyo narxlarining pasayishi bilan birga sodir bo'ladi. Uni bartaraf etish uchun bank tizimini saqlab qolish yoki moliyaviy bozorni qayta tiklash uchun chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etadi. Ular iqtisodiy o'sishning yangi uzoq to'lqinini yaratishi mumkin bo'lgan yangi texnologik tartibni rivojlantirishni rag'batlantirish dasturlari bilan to'ldirilishi kerak.

Hozirgi vaqtda uning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari: molekulyar biologiya va genetik muhandislik, nanotexnologiya, sun'iy aql tizimlari, global axborot tarmoqlari va yuqori tezlikda integratsiyalashgan transport tizimlarining yutuqlariga asoslangan biotexnologiya. Keyinchalik rivojlanish moslashuvchan ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, kosmik texnologiyalar, oldindan belgilangan xususiyatlarga ega qurilish materiallarini ishlab chiqarish, atom sanoati, havo transporti bo'ladi. Atom energetikasi va tabiiy gaz iste'molining o'sishi vodorodni

ekologik toza energiya tashuvchisi sifatida kengaytirish bilan to'ldiriladi, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish sezilarli darajada kengayadi.

Oltinchi texnologik yo'l nanotexnologiyalardan foydalanishga asoslangan, bir milliard metr darajasida faoliyat ko'rsatadi va u tubdan yangi xususiyatlarini berib, moddaning molekulyar tuzilishini o'zgartirish orqali tirik organizmlarning hujayra tuzilishiga kirib boradi.

Yuqori sifatli hisoblash texnikasi bilan bir qatorda, nanotexnologiya ham jonli va jonsiz moddalarning yangi tuzilmalarini yaratishga imkon beradi, ularni o'z-o'zini takrorlash algoritmlari asosida o'sadi.

Yangi texnologik tartibni shakllantirish davrida innovatorlar birinchi navbatda asosiy yangiliklarni o'zlashtirib, bunda yetakchi rol o'ynaydi. Ularning faoliyati tufayli energiya bahosidagi sakrashdan keyin amalga oshiriladigan va yangi texnologik tuzilmaning texnologik to'plamlari foydasiga ishlab chiqarish rentabelligining nisbati o'zgarganidan keyin amalga oshiriladigan eski omborni almashtirish uchun old shartlar yaratiladi.

Davlat investitsiyalari, ta'lim markazlari mablag'lari va moliyalashtirish institutlari texnologik turmush tarzini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Xavfning katta qismini olib tashlash orqali davlat innovatorlarga o'zlarining ilmiy-texnik loyihalarini yuqori raqobat sharoitida, ularning natijalariga bo'lgan talabning yetishmasligi bilan muqobil texnik yechimlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan omillar, jahon iqtisodiyotining rivojlanish yo'nalishini belgilovchi ilg'or mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishini aks ettiradi. "Ilg'or" ilmiy va texnologik taraqqiyotda bo'lish va yangi texnologik qatlamlarning takrorlanuvchi turlarini shakllantirish global iqtisodiy rivojlanishning "lokomotivlari" rolini o'ynaydi, ayni paytda ular bilan bog'liq afzalliklardan foydalanadi.

Har safar dominant texnologik uslublarning o'zgarishi xalqaro mehnat taqsimotida jiddiy o'zgarishlar, eng muvaffaqiyatli kompaniyalar va yetakchi mamlakatlar tarkibini yangilash bilan birga keladi.

Shunday qilib, beshinchi texnologik rejaning kengayishi har yili Financial Times tomonidan chop etilgan 500 yirik korporatsiyalarining ro'yxatini sezilarli darajada yangilashga olib keldi. Ularning uchdan biri beshinchi tur sanoatida ishlaydigan kompaniyalardir. Chorak asr oldin, ularning aksariyati bozor qatnashchilaridan emas edi, ammo bugungi kunda dunyodagi jami yetakchi kompaniyalarning 2\3 qismi ularning hissasiga to'g'ri keladi.

Yangi – oltinchi-texnologik tartibni shakllantirish jarayonida uzoq muddatda iqtisodiy o'sishning asosiy yo'nalishlari shakllantiriladi. Ularning o'z vaqtida

rivojlanishi XXI asrning o‘rtalariga qadar geosiyosiy raqobatni aniqlaydigan qiyosiy afzalliklarni keltirib chiqaradi.

Jahon bozorida faoliyat yuritadigan 500 ta eng yirik va eng muvaffaqiyatli firmalarning 90 foizi global iqtisodiy tizimning asosiy mamlakatlariga tegishli. Ular jahon savdo va moliya aylanmasining yarmidan ko‘pini nazorat qiladilar, turli mamlakatlar iqtisodiyotining eng daromadli tarmoqlari, jumladan, qazib olish va ilm-fanga asoslangan sanoat, telekommunikatsiya, ishlab chiqarish infratuzilmasi, yangi texnologiyalar savdosi. Muayyan firmalarning global raqobatidagi muvaffaqiyat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning davlat ilmiy-texnik siyosati bilan bog‘liq.

Qisqa tushuntirilganda quyidagi jadval orqali globalizatsiyaning texnologik ukladlari va hususiyatlari keltirib o‘tilgan:

7.1.1-jadval
Globalizatsiya texnologik ukladlarining qisqacha xarakteristikasi

Uklad tartibi	Davri	Texnologik ukladlarning kalit faktorlari
I	1770-1830	Tikuv mashinasi ixtirosi, yengil sanoat taraqqiyoti.
II	1830-1880	Bug‘ dvigatelli dastgohlar ixtirosi.
III	1880-1930	Elektr dvigatellar ixtirosi. Temir davri.
IV	1930-1970	Yoqilg‘i bilan ishlaydigan dvigatellar ixtirosi. Neft ximiyasi taraqqiyoti.
V	1970-2010	Mikroelektron qismlar taraqqiyoti, axborot texnologiyalari rivoji.
VI	2010-	Nanotexnologiyalar, molekulyar biologiya.

Milliy resurslarni beshinchi texnologik tizimning asosiy texnologiyalarini o‘z vaqtida o‘zlashtirishda konsentratsiyaning ustuvor yo‘nalishlarini to‘g‘ri belgilash Osiyo mamlakatlari – Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvanga periferik qaramlikdan qochishga imkon berdi. Shu sababli, bugungi kunda Xitoy, Hindiston va Braziliya beshinchi va oltinchi texnologik qatlamlarning asosiy o‘rish yo‘nalishlarini o‘zlashtirmoqda. Bu ularga nafaqat yangi ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, balki yangi texnologik asosda an‘anaviy ishlab chiqarishni ko‘paytirish, ko‘p millatli kapitalni yanada iqtisodiy samaradorlik bilan jalb qilish imkonini beradi. Faol ilmiy-texnik va sanoat siyosatining kombinatsiyasi, tashqi iqtisodiy aloqalarni maqsadli tartibga solish orqali muvaffaqiyatli mamlakatlarning

atrof-muhitdan jahon iqtisodiy tizimining yadrosiga tushishiga imkon beruvchi jadal rivojlanish samarasiga erishiladi.

7.2. “Innovasion iqtisodiyotning” xususiyatlari va rivojlanish jihatlari

Innovatsiyalarning mohiyati doimiy ravishda o'zgarib turadi, shuning uchun ushbu o'zgarishlarni aks ettiruvchi zamonaviy ko'rsatkichlarga doimo ob'ektiv ehtiyoj mavjud bo'ladi. 1980-1990-yillar davomida innovatsiyalarni tahlil qiladigan analitik modellarni yaratish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. 1992-yilda Oslo qo'llanmasining birinchi nashri sanoatda sodir bo'layotgan texnologik mahsulot va texnologik yangiliklarga bag'ishlangan holda yaratildi. Qo'llanma biznes sohasidagi innovatsiyalarning mohiyati va ta'sirini keng miqyosda baholash uchun muhim vositaga aylandi, xususan Yevropa Komissiyasining innovatsiyalar to'g'risidagi hisoboti tuzildi. 1997-yilda xizmatlar sohasini o'z ichiga olgan Oslo qo'llanmasining ikkinchi nashri chiqdi. OECD va Eurostat tomonidan birgalikda nashr etilgan uchinchi nashr 2005-yilning oktabr oyida chiqdi. Mazkur nashr marketing va ishlab chiqarish yangiliklarini hamda texnologiyaga aloqador bo'lmagan yangiliklarni qamrab oldi¹³.

So'nggi 40 yil ichida NESTI mutaxassisleri “Frascati oilasi” deb nomlangan bir qator hujjatlar yaratdilar, uning tarkibida: tadqiqot va rivojlantirish (“Frascati Guide”), innovatsiya (“Oslo Guide”), inson resurslari (“Kanberra qo'llanmasi”) bo'yicha ko'rsatmalar hamda to'lovlar va patentlarning texnologik balansi mavjud.

Innovatsiyalarning xususiyatlari. Innovatsiyalarning mohiyati va xususiyatlarini tushunishda “*yangilik*” va “*innovatsiya*” tushunchalarini aniq ajratish juda muhimdir.

Yangilik – bu har qanday faoliyat sohasidagi (yangi bilim, usul, ixtiro) fundamental, amaliy tadqiqotlar va ishlanmalarning rasmiylashtirilgan natijasidir. Yangiliklarni amalga oshirish, ya'ni aniq bilimlarni qondirish va bozorni qabul qilish uchun yangi bilimlarning amalda tatbiq etilishiga erishish uni innovatsiyaga aylantiradi¹⁴.

Innovatsion jarayonlar amalga oshirishining samardorligi ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, boshqaruv sifatini ta'minlanishi, boshqaruv tizimidagi har bir alohida bo'g'in ishining o'zaro bir biriga muvofiqligi, axborot-uslubiy ta'minotlar bilan ta'minlanganligi shular jumlasidandir. Innovatsion faoliyatni boshqarish tizimi

¹³A.Taniyev. “Innovatsion iqtisodiyot”. Darsik. – Samarqand: SamDU nashri, 2020 y. 10-b.

¹⁴ O'sha manba. 10-b.

yuqorida qayd etilgan barcha elementlar shakllantirilganda va ularni o‘zaro muvofiqlashtirilganda, ma’lum bir ilmiy-texnik natijalarga ega bo‘lishi va ularni o‘zlashtirish muddatlarini qisqarishini ta’minlanishiga olib keladi.

Innovatsion faoliyatni tashkil etish, boshqaruv jarayonining barcha elementlarini yagona tizimga birlashtiradi va u innovatsiyani yaratish hamda amalga oshirishda innovatsiyaviy jarayonning o‘zida shakllantiradi¹⁵.

Y.Shumpeter “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” (Theory of Economic Development) nomli mashhur asarida innovatsion jarayon natijasidagi o‘zgarishlarni besh yo‘nalishga ajratib ko‘rsatib bergan.

Bu yo‘nalishlar quyidagilardan iboratdir:

-yangi texnik va texnologik o‘zgarishlar yoki ishlab chiqarish jarayonini yangi bozor talablari asosida tashkil etish;


-yangi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulot turlarini deversifikatsiyalash;

-ishlab chiqarish jarayonlarida yangi xom-ashyolardan foydalanish;

-ishlab chiqarishni tashkil etishda innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish;

-yangi iste’mol bozorlarini shakllantirish.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mamlakatimizda inovatsiya va innovatsiya tovarlari ishlab chiqarishga bo‘lgan munosabat ortib bormoqda.




7.2.1-rasm. 2015-2019-yillarda O‘zbekiston Respublikasida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsion ishlanmalar va xizmatlar ko‘rsatishni amalga oshirgan korxona va tashkilotlar soni (ta)¹⁶

¹⁵ Шумпетер Й. Теория экономического развития. М 1982 г. 388- стр.

¹⁶ Abduvaliev A.A., Isadjanov A.A., Dadabaev U.A., Factors of innovation in the development of Uzbekistan: features and modern tendencies. Сборник 24-й Международной научно-практической конференции «Актуальные проблемы глобальной экономики», 22.04.2022 г., г. Москва, Российская Федерация, Российский университет дружбы народов (РУДН), <https://www.cige.info/trebovaniya-dlya-avtorov>

Yuqoridagi rasmdan 2015 yildan boshlab bunday tovar va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar soni ortib borganligini kuzatish mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizda innovatsiyaga bo'lgan talab ortib bormoqda.



7.2.2-rasm. 2015-2019-yillarda O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan jami innovatsiyalar haamda innovatsialarni joriy etgan korxona va tashkilotlar soni (ta)¹⁷

Pastdagi rasmda esa jami innovatsiyalar soni tasvirlangan, shuningdek mazkur grafikdan ushbu innovatsiyalarni nechta korxona joriy etganligini bilib olish mumkin.

Mamlakatda innovatsion faoliyatni shakllantirish va ularni kengaytirish maqsadida quydagi chora-tadbirlarni ko'rish zarur (7.2.3-rasm):



7.2.3-rasm. Iqtisodiyotda innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari¹⁸

Shu bilan bir qatorda iqtisodiyotdagi korxonalarni innovatsion klasterlarga kirishini ta'minlovchi tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish, ularni zaruriy axborot ta'minoti bo'yicha qo'llab-quvvatlash, klasterlar doirasida faoliyat yuritayotgan

¹⁷ O'sha manba.

¹⁸Салихов С.А. Инновацион фаолиятни бошқариш. Дарслик. – Т.: ТДИУ, 2013. 24-25 б.

hukumat boshqaruv organlari, ilmiy-tadqiqot korxonalari va yirik ishlab chiqarish korxonalari bilan hamkorlik masalalari bo'yicha innovatsion maslahat markazlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu klasterlar doirasida innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxonalarni moliyaviy tomondan qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat va xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bu jarayonlarga davlat va mahalliy byudjet mablag'larinigina emas, balki venchur fondlar, yirik kompaniyalar va tijorat banklar kreditlarini jalb qilish uchun zarur sharoitlarni yaratish lozim. SHu bilan bir qatorda, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun xalqaro moliyaviy resurslardan samarali jalb qilishga mas'ul bo'lgan franchayzing kompaniyalarni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

7.3. Innovatsiyalarning sohalar bo'yicha turlari

Hozirda innovatsion iqtisodiy faoliyatini samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion, yuqori texnologiyaga asoslangan, eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan korxonalar manfaatlarini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash, ularning eksport salohiyatini oshirish va mamlakat eksport hajmida innovatsion mahsulotlar ulushini ko'paytirish lozim. Bu jarayonlarda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun zaruriy infratuzilmani shakllantirish;
- yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etish;
- yuqori qo'shilgan qiymatga ega eksportbop va import o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqish;
- sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish orqali yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jaryonlarini chuqurlashtirish;
- innovatsion korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xalqaro standartlar bo'yicha litsenziyalash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq moliyaviy va boshqa xatarlarni sug'urta qilishni ta'minlash;
- eksportyorlarga axborot-maslahat ko'magini tashkil qilish hamda maxsus imtiyozlar tizimini taqdim etish;
- innovatsion mahsulotlar yarmarkasi va ko'rgazmalarini o'tkazish, reklamani tashkil qilish va xorijiy davlatlarda sheriklarni topishga ko'maklashish;

- xalqaro bozorlarda milliy innovatsion mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha shart-sharoitlar yaratish zarur.

Shu nuqtai nazardan innovatsiyani quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar.
2. Marketing innovatsiyalari.
3. Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar.
4. Tashkiliy va biznesni yuritishdagi innovatsiyalar.

Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar

Bozor iqtisodiyotida innovatsiyalarni tizimli taqdim etish uslubiyoti xalqaro standartlarga asoslangan, va ularga muvofiq innovatsiya deganda, bozorga kirib kelgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliyotda qo'llanilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan yangicha yondashuv ko'rinishidagi innovatsiyaviy faoliyat natijasi tushuniladi.

Ushbu muammo bo'yicha ko'p sonli tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramasdan, bugungi kunda innovatsiyaviy faoliyat sohasida yagona, umumiy tarzda qabul qilingan terminologiya mavjud emas. Shuning uchun ham adabiyotlarni qisqacha tahlilini keltirish va innovatsiyaviy faoliyat sohasidagi asosiy tushunchalarni aniqlashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



7.3.1-rasm. Xizmatlar sohasidagi innovatsiyalar¹⁹

Xizmatlar sohasidagi mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- printsipl jihatdan yangi xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etish;
- mavjud xizmatlarga yangi funktsiyalar va xususiyatlar qo'shish orqali uni takomillashtirish;
- xizmatlar bilan ta'minlashda (masalan, ularning samaradorligi va tezligi nuqtai-nazaridan) sezilarli darajada yaxshilanishlar.

¹⁹Michek E. Porter. The Competitive Advantage of Nations, Harvard Business Review, march-april 1990.

Xizmatlar sohasidagi jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar xizmatlarni ishlab chiqarish va taqdim etishning yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarini ishlab chiqish va joriy etishni o'z ichiga oladi.

Marketing innovatsiyalari

Innovatsiyaviy jarayon samaradorligini oshirishda esa boshlang'ich marketing tadqiqotlari va bozor tahlili ayniqsa muhim hisoblanadi. Innovatsiyalarni boshqarish ilmiy-texnik g'oya shakllanishidan tortib uni tijorat asosida amalga oshirilishigacha bo'lgan barcha qadamlar (boshqaruv tsikllari) yig'indisini qamrab oladi. Har bir yangilik g'oyasi yaratilishidan uni amalga oshirilishigacha bo'lgan vaqt davri innovatsiyaviy tsikl deb ataladi. Innovatsiyaviy jarayonlar amalga oshirishning samardorligi ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi: boshqaruv sifati va to'liqligi; boshqaruv tizimidagi har bir alohida bo'g'in ishining o'zaro muvofiqligi, axborot-uslubiy ta'minoti va hokazolar shular jumlasidandir. Inno-vatsiyalarni boshqarish tizimining yuqorida qayd etilgan barcha elementlari faoliyati to'liq o'zaro muvofiqlashtirilgandagina, ushbu jarayon butunligi va uzluksizligi, ilmiy-texnik natijalarga ega bo'lishi va ularni o'zlashtirish muddatlarini qisqarishi ta'minlanishi mumkin. Innovatsiyaviy faoliyat boshqaruvini tashkil etish, boshqaruv jarayonining barcha elementlarini yagona tizimga birlashtiradi va u innovatsiyani yaratish va amalga oshirishda, ya'ni innovatsiyaviy jarayonning o'zida shakllana boshlashi lozim. Korxonada innovatsiyaviy faoliyatni boshqarishning samarali tizimlarini yaratish va rivojlantirish imkoniyati ko'pgina omillarga bog'liq bo'lib, ishlab chiqarishning shakllangan darajasi, boshqaruv tizimi va mexanizmining ahvoli, boshqaruv tashkiliy tuzilmasining turi va yo'naltirilganligi, xo'jalik va innovatsiyaviy siyosat tendentsiyalari va boshqalar shular jumlasidandir.

Marketing innovatsiyalari deganda yangi yoki sezilarli yaxshilangan marketing uslublarini joriy etish tushuniladi. Bular o'z ichiga:

- mahsulotlarning dizayni va qadoqlanishida jiddiy o'zgartirishlar;
- mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo'yicha, shuningdek ularni bozorlarga tanitish va olg'a siljitish bo'yicha yangi uslublardan foydalanish;
- yangi narx strategiyalarini shakllantirishni oladi (7.3.2-rasm).



7.3.2-rasm. Marketing innovatsiyalari²⁰

Bu o'zgartirishlar mahsulot iste'molchilarining ehtiyojlarini to'laroq qondirishga, sotish hajmini ko'paytirish maqsadida mahsulotlar va xizmatlar iste'molchilarining tarkibini kengaytirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Mahsulot dizaynidagi o'zgartirishlar yangi marketing kontsepsiyasining bir qismi bo'lib, ular mahsulotning shakli va tashqi ko'rinishidagi o'zgartirishlarni o'z ichiga oladi. Bular mahsulotning funktsional va foydalanish xususiyalariga ta'sir ko'rsatmaydi. Shuningdek, bunday o'zgartirishlarga qadoqlanishi tashqi ko'rinishini ta'riflab beruvchi iste'mol mahsulotlari, ichimliklar, yovish vositalari kabi mahsulotlarning qadog'idagi o'zgartirishlar ham kiradi.

Mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo'yicha yangi uslublardan foydalanish sotishni kengaytirish bilan bog'liqdir. Bunga logistika (xomashyo, tarkibiy qismlar va tayyor mahsulotlarni tashish va omborxonalarda saqlashni boshqarish) uslublari kirmaydi. Mahsulot (xizmat)larni bozorga tanitish va olib chiqishning yangi uslublaridan foydalanish tashkilotning mahsulot va xizmatlarini olib chiqish uchun yangi kontsepsiyalardan foydalanishni anglatadi.

Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar

Hozirgi kunda innovatsiyalarni amalga oshirishni rag'batlantiruvchi asosiy kuch sifatida, tovar bozorlaridagi keskin raqobat sharoitidagi potentsial daromad miqdori xizmat qilishi mumkin. Innovatsiyaviy o'zgarishlar omillari o'rtasida: uskunalar xarid qilish, loyiha-konstruktorlik va texnologik ishlar keng tarqalgan. Ichki va tashqi bozorlarda keskin raqobat mavjudligi innovatsiyalarning asosiy maqsadlarini belgilaydi.

Innovatsiyaviy jarayonlarning iqtisodiy rivojlanishdagi roli texnologik bazani yangilash, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi bozorlarni egallash va bu bilan iqtisodiy o'sishning yanada yuqori sur'atlariga erishishda o'z aksini topadi. Innovatsiyaviy rivojlanish omillari zamonaviy bosqichdagi iqtisodiy o'sishning

²⁰ O'sha manba

asosini tashkil etgan holda, ishlab chiqarish sohasining ko'pgina xususiyatlarini ham belgilaydi.

Narxlarni shakllantirishdagi innovatsiyalar – tashkilotning mahsulotlar va xizmatlar bilan savdo qilishi uchun yangi narx strategiyalaridan foydalanishini bildiradi. Marketing vositalaridagi mavsumiy, doimiy yoki boshqa joriy o'zgarishlar, agar ular yangilik olib kelmasalar, marketing innovatsiyalari hisoblanmaydi. Mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar bilan marketing innovatsiyalarini bir-biridan farqlovchi asosiy mezon – bu mahsulotning funktsiyalarida yoki undan foydalanish usullarida jiddiy o'zgarishlar mavjudligidir. Agar mahsulot va xizmatlarning funktsional yoki foydalanish xususiyatlari mavjud mahsulot va xizmatlarnikidan ancha yaxshilangan bo'lsa, bu mahsulotlar bo'yicha innovatsiyalar hisoblanadi. Mahsulot dizaynidagi o'zgarishlar esa, agar uning funktsional yoki iste'mol xususiyatlari sezilarli darajada o'zgarmagan bo'lsa, bu marketing innovatsiyalari hisoblanadi.

Jarayonlar bo'yicha va marketing innovatsiyalari o'rtasidagi farq quyidagicha namoyon bo'ladi. Jarayonlar bo'yicha innovatsiyalar mahsulot birliklariga xarajatlarni kamaytirish yoki sifatini oshirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va mahsulotlarni etkazib berish usullarini takomillashtirish bilan bog'liqdir. Marketing innovatsiyalari esa sotish hajmini yoki mahsulotlar narxini (yangi narx strategiyalarini qo'llagan holda) oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Tashkiliy va biznesni yuritishdagi innovatsiyalar

Tashkiliy innovatsiyalar – bu biznesni yuritishda, ish o'rinlarini yoki tashqi aloqalarni tashkil etishda yangi uslublarni ishlab chiqishdir. Bunday innovatsiyalar boshqaruv va transaksion xarajatlarni qisqartirish, tashkilot tomonidan ishchilarning ish o'rinlari (ish vaqtlari) bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnat samaradorligini oshirish, bozorda mavjud bo'lmagan aktivlarga yo'l topish yoki etkazib berish narxini kamaytirish yo'li bilan tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Tashkilot bunday tashkiliy innovatsiyalarni birinchi bo'lib joriy etgan bo'lishi muhim emas.

Umuman olganda innovatsiyalarni turlarga ajratganda turli olimlarni yondashuvi xilma xildir. Masalan, Valras va Bomol innovatsiyalarni turlarga ajratishda mikroiqtisodiy tomondan yondashib, har bir turdagi innovatsiyani model ko'rinishidagi hisob kitobini olib borishgan. Ularga ko'ra, innovatsiyalarning mahsulot turini kengaytirishdagi ahamiyati asosiy e'tibor markazi bo'lgan. Romerning fikricha esa innovatsiyalarni turlarga ajratishda biznesga kirib kelish imkoniyatini bera olish va IIR xarajatlarini hech qiyinchiliksiz qoplay olish asosiy mezon sifatida keltirilgan.

Biznesni yoritishdagi innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatining yangi tashkiliy usullarini ishlab chiqishni bildiradi. Masalan, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: bilimlarni boshqarishning korporativ usullarini joriy etish; xodimlarning saviyasini oshirishga va ko'chib yorishini kamaytirishga mo'ljallangan o'qitish tizimini yo'lga qo'yish; ishlab chiqarish va etkazib berishni to'liq boshqarish, jumladan etkazib berish zanjirini, ishlab chiqarishni oqilona tashkil qilishni, shuningdek sifatni boshqarish tizimini joriy etish.

3	British Petroleum	Birlashgan Qirollik	Neftni qayta ishlash va unga tegishli sohalari	259 860	295 194
4	Softbank Group Corp	Yaponiya	Telekommunikasiya	253 163	343 306
5	Total SA	Fransiya	Neftni qayta ishlash va unga tegishli sohalari	249 678	273 865

“BP”ning 2019-yilda Buyuk Britaniya iqtisodiyotiga ta’siri.

BP Buyuk Britaniyaning yalpi ichki mahsuloti (YAIM) ga qo‘shilgan 9,7 milliard funt sterling miqdoridagi yalpi qo‘shilgan qiymat hissasini va 2019-yilda Buyuk Britaniyaning 90 100 ish o‘rnini qo‘llab-quvvatladi.

- Jami BP kompaniyasining Buyuk Britaniyadagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri operatsiyalari - masalan, neftva gaz konlari, neft-kimyozavodlari, yoqilg‘i chakana savdo ob’ektlari va yirik ofislar – Buyuk Britaniyaning yalpi ichki mahsulotiga 4,2

milliard funt sterling miqdorida yalpi qo‘shimcha qiymat yaratdi va 15780 kishini ish bilan ta’minladi.

- 2019-yilda Buyuk Britaniya YAIMninghar 474 funt sterlingi uchun 1 funtgateng.

- BP Buyuk Britaniyaning yetkazib beruvchilari bilan jami 7,1 milliard funt sterling sarfladi, bu 2019-yildagi 6,4 milliard funtdan oshdi:

- 2,520 ta yetkazib beruvchidan operasion tovar vaxizmatlarga 5,2 milliard funt sterling, YAIMgaqo‘shilgan 3,9 milliard funt sterlingniva 56 000 ishjoyiniquo‘llab-quvvatlaydi.

- 580 ta yetkazib beruvchilardan 1,9 milliard funt sterling mablag‘ sarflandi, bu 1,6 milliard funt sterling miqdorida yalpi qo‘shilgan qiymat YAIMga qo‘shilgan hissani qo‘llab-quvvatlaydi va 18000 ish o‘rinlari.

- BP korxonalari o‘z sarmoyalarini Buyuk Britaniyadagi 13 ta korxonada jami 70 million funtdan oshdi.

- 2019-yilda BP-ning global ilmiy-tadqiqot xarajatlarining taxminan yarmi Buyuk Britaniyada olib borilgan ishlarga sarflandi.

- 2019-yilda BP Buyuk Britaniyada 2,5 milliard funt sterling miqdorida soliq to‘lagan yoki yig‘gan. Bu 2019-yilda HMRC tomonidan yig‘ilgan barcha soliqlar va tushumlarning 0,4% iga teng.

9.3. TMK larning rivojlanishining sohaviy va hududiy jihatlari

TMK o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik munosabatlari quyidagi shakllarda namoyon bolishi mumkin²⁷:

- 1) xalqaro kooperasiya — dastlab, rivojlanayotgan mamlakatlarning qazib chiqarish va qayta ishlash tarmoqlarida namoyon bo‘lgan bolsa, keyinchalik yuqori texnologiyalarni talab qiluvchi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlari keng qo‘llaniladigan sohalarda amalga oshirila boshlandi;

²⁷ JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR_pdf
/AbduraximVaxabov, DildoraTadjibayeva, ShuxratXajibakiyev

2) strategik alyanslar — jahon bozoridagi global iqtisodiy masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq bo'lib, ushbu ittifoq mazkur firmalarning boshqa sohalarda raqobatlashuviga to'sqinlik qilmaydi. Strategik alyanslar texnologik tadqiqotlarni olib borish, qo'shma ishlab chiqarishni amal-ga oshirish va mahsulotni sotishda hamkorlik qilish maqsadida barpo etiladi;

Microsoft va NTT yangi raqamli yechimlarni taklif qilish uchun strategik alyansi.

2019-yil 10-dekabr - NTT korporatsiyasi (NTT) va Microsoft korporatsiyasi bugun korporativ mijozlarga raqamli o'zgarishlarni tezlashtirishga yordam beradigan xavfsiz va ishonchli yechimlarni taqdim etishga qaratilgan ko'p yillik strategik ittifoqni e'lon qildi. Alyans NTT-ning eng yaxshi AKT infratuzilmasi, boshqariladigan xizmatlari va kiberxavfsizlik bo'yicha tajribasini, Microsoft-ning ishonchli bulutli platformasi va AI texnologiyalari bilan birlashtiradi. Alyansning asosiy tashabbuslari orasida Global Digital Fabric-ni yaratish, Microsoft Azure'da qurilgan raqamli korporativ echimlarni ishlab chiqish va barcha fotonikalar tarmog'i va raqamli egizak hisoblash sohasida yangi avlod texnologiyalarining innovasion innovatsiyalari mavjud.

Alyansning asosiy tashabbuslariga quyidagilar kiradi:

1. Global raqamli matoning shakllanishi

Global Digital Fabric - bu Microsoft Cloud va NTTning global ulangan AKT infratuzilmasining kombinatsiyasi. Bu ikki kompaniyaning mahsuldorlik yechimlari, ommaviy bulut, global ma'lumotlar markazi va tarmoq infratuzilmasi sohasidagi kuchli tomonlarini birlashtiradi. Global Digital Fabric butun dunyo bo'ylab raqamli ambisiyalarini tezlashtirish uchun korxonalar uchun juda barqaror, xavfsiz va mustahkam muhitni yaratishga qaratilgan.

2. Raqamli korxona yechimlarini ishlab chiqish

Alyans, shuningdek, Microsoft Azure'da ishlab chiqarilgan raqamli yechimlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi, bu ularning raqamli transformatsiyasini tezlashtirish va korxonadan bulutgacha chekka tomon xavfsizroq ishlash imkoniyatlarini kengaytirish. Asosiy tashabbuslar orasida kiberxavfsizlik tahdidi bo'yicha

rivojlangan tahlillar, raqamli sheriklar uchun relyasion sun'iy intellekt bilan ijtimoiy robototexnika, ish joyidagi raqamli echimlar, shuningdek bilimlarni topish va boshqarish kiradi.

3. Keyingi avlod texnologiyalarining qo'shma innovasiyasi

Shuningdek, alyans NTTning Innovation Optik va Simsiz Tarmoq (IOWN) konsepsiyasi doirasida barcha fotonikalar tarmog'i va raqamli egizak kompyuterlarni tadqiq etish va rivojlantirishni o'rganadi. Maqsad odamlar, tabiat va texnologiyalar o'rtasidagi tabiiy o'zaro ta'sirni ta'minlash va kelajakdagi optik tarmoq va axborotni qayta ishlash platformasi bilan barqaror o'sishni qo'llab-quvvatlashdir.

Microsoft va AT&T AI va 5G bilan innovatsiyalarni yetkazib berish bo'yicha strategik alyansni e'lon qildi.

2019-yil 17-iyul - AT&T Communications va Microsoft Corp. kompaniyalari bugungi kunda odamlar qanday ishlashini yaxshilash uchun, AI va 5G kabi texnologiyalarni qo'llaydigan keng ko'lamli ittifoqqa kirishmoqdalar.

3) strategik oilalar — o'zaro raqobatda bo'lgankorporatsiyalarning xalqaro bozorlarda bir-birini toldiruvchi strategiyani amalga oshirish maqsadidagi birlashuvdir;

4) strategik tizimlar — turli tarmoqlardagi (ishlab chiqarish korxonalari, savdo firmalari, banklar) korxonalarning uzoq muddatli hamkorligiga asoslangan birlashma bo'lib, maqsadi axborotlar, personal va texnologiyalar almashishdan iboratdir;

Amerikaning ba'zi yirik kompaniyalari irqchilikka qarshi kompaniyalarga xayriya qilishlari hamda irqchilikka qarshi ekanliklarini aytishmoqda.

Amazon ijtimoiy adolatni o'rnatish va qora tanli va afroamerikaliklarning hayotini yaxshilash uchun ish olib borayotgan tashkilotlarga jami \$10 mln miqdorida xayriya qiladi.


Microsoft korporatsiyasi 5 iyunda "Black Lives Matter" ga \$250 ming xayriya qilishini e'lon qildi.

9.4. Markaziy Osiyoda global TMKlarning faoliyati

Transmilliylik indeksi (TNI) - bu iqtisodchilar va siyosatchilar ishlaydigan ko'p millatli korporatsiyalarni reyting vositasi. U quyidagi uchta nisbatning o'rtacha arifmetikasi sifatida hisoblanadi:

- chet el aktivlarining umumiy aktivlarga nisbati;
- tashqi sotuvlarning umumiy sotuvlarga nisbati;
- xorijiy ish bilan bandlikning umumiy bandlikka nisbati.

Top 100 korporatsiyalarning o'rtacha transmilliylik indeksi (TNI) - ularning tashqi aktivlari, sotuvlari va ishchilarining nisbiy ulushlari - so'nggi o'n yil ichida 65% ga yaqin turg'unlashdi, bu esa tashqi investisiyalar uchun global tezlikni yo'qotish bilan bog'liq. Turg'unlik qisman ro'yxat tarkibining o'zgarishi bilan izohlanmoqda, yangi rivojlanayotgan bozor ishtirokchilari baynalmilallashtirishning quyi darajalaridan boshlandi²⁸.



9.1-rasm. Bank va kapital bozorlaridagi o'zgarishlarni qayta tasavvur qilish²⁹.

²⁸ WORLD INVESTMENT REPORT2020/pdf_page41

²⁹ 2019 Banking and Capital Markets Outlook Reimagining transformation.pdf/page_7

FinTech (moliyaviy xizmatlarni qo'llab-quvvatlash yoki yoqish uchun ishlatiladigan texnologiya) IFC larga qo'yiladigan talablarni o'zgartirmoqda. Agar TIFC tovar savdosi bo'yicha ixtisoslikni rivojlantirishga harakat qilsa, endi investorlarga yetakchi moliya markazlarida taqdim etiladigan bozor infratuzilmasi texnologiyalari va avtomatlashtirilgan tizimlarni taqdim etishi kerak edi. The City UK guruhi texnik-iqtisodiy asoslashda quyidagilarni tavsiya qildi:

- TIFC muvaffaqiyat qozonishi kerak bo'lgan texnologiyalar turlari, investisiyalar darajasi va ushbu texnologiyalar mavjudligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan sheriklik turlari haqida o'ylab ko'rish.

- FinTech yechimlari qanday qilib o'zbek moliya institutlariga o'z jarayonlarini modernizatsiyalashga yordam berishi va shu bilan O'zbekiston ichida kapitalni yanada samarali boshqaruvchisi bo'lishini ko'rib chiqish.

- FinTech yechimlari savdoni moliyalashtirish mahsulotlarini taklif qilish usulini qanday o'zgartirayotganini ko'rib chiqing va TIFC ushbu yangi vositalardan foydalana oladimi-yo'qligini ko'rib chiqish³⁰.

Yuqorida qayd etilgan tavsiyalar albatta O'zbekistonning yangi davrga yoinki bosqichga chiqayotganini ko'rsatadi. Albatta, Toshkentda moliyaviy gurhlarni shakllantirish albatta O'zbekistonni moliyaviy jihatdan yaxshilaydi. Agarda mulohaza qiladigan bo'lsak, har bir mintaqaning o'z moliyaviy markazlari mavjud: Shveytsariya, Lyuksemburg, Gong Kong va shu kabilar. Endilikda, bu markaz Markaziy Osiyoda ham tashkil qilinishi bu Xitoy Xalq Respublikasining "Bir makon-bir yo'l" dasturida ham muhim ahamiyatga ega. Sababi, O'zbekistondan tranzit qilingan yuklar uchun xalqaro o'tkazmalarni o'tkazish yoinki shu kabilarni amalga oshirishda sifatli xizmatlarni taklif qiladigan banklar faoliyati ham yo'lga qo'yiladi. Barqaror sur'atlarda rivojlanayotgan transmilliylashuv jarayoni zamonaviy jahon iqtisodiyotining muhim xususiyati hisoblanadi. Ushbu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi xalqaro korporatsiyalardir. Xalqaro korporatsiyalarsavdo, investisiyalash va zamonaviy texnologiyalarni eltuvchilar

³⁰ UK-UZBEKISTAN IFC WORKING GROUP REPORT: Recommendations on developing Tashkent International Financial Centre.pdf/page_12

sifatida jahon iqtisodiyotining muhim subektlariga aylanishdi. Xalqaro iqtisodiy globallashuvning asosiy harakatlantiruvchi kuchi xalqaro korporatsiyalar hisoblanadi. Xalqaro korporatsiyalar ichki korporativ mehnat taqsimotini an'anaviy mehnat taqsimotining xalqaro darajasiga olib chiqishgan. Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni shtab kvartirasi qabulqiluvchi mamlakatdan tashqarida bo'lgan firmalar tomonidan nazorat qilinadigan va boshqariladigan xalqaro ishlab chiqarishga bevosita bog'liq. Transmilliy korporatsiyalar xalqaro iqtisodiyotning eng muhim sub'ektlaridan biridir. Ular to'g'ridan-to'g'ri xalqaro biznesning yangi tendensiyalariga, xalqaro bozorlarda global raqobatbardoshlikka, shuningdek davlatlar, xalqlar iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Albatta, TMKlarning kirib klishi mamlakat uchun iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni talab etsa, shu o'rinda, moliya bozorlarining rivojlanishini ham talab etishini unutmasligimiz zarur. Negaki, TMKlarning aksiyalari narxlari kunlik hisoblab, ularga ta'sir ko'rsatadigan har bir omilga to'xtalib uni qayta ishlashlari uchun o'z navbatida yetuk kadrlar masalasini ham qo'yadi. Shunday ekan, O'zbekistonga TMKlarning kirib kelishi, bu mamlakatning moliyaviy salohiyatini hamda kadrlar masalasini hal qilish kabi jarayonlarni yangi pog'onaga olib chiqadi. O'zbekistonni ham moliyaviy markaz sifatida shakllantirish foydadan holi emas.

Jumladan, mamlakatda bosqichma-bosqich amalga oshirilib boriladigan investitsiyalarni bosqarish chora-tadbirlari ham bevosita mamlakatga TMKlarning kirib kelish hajmini keskin oshirishi yoinki, keskin tushurishi turgan gap.

O'zbekiston hukumati mamlakatda turmush darajasini oshirish uchun ulkan iqtisodiy islohotlar dasturini boshladi. Ushbu islohot dasturining ko'p jihatlari bor, ammo O'zbekistonda kuchli moliyaviy va professional xizmatlar ekotizimini rivojlantirish muhim ustuvor vazifadir. Mamlakat oldinga siljishi uchun uning korxonalari kapitaldan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga muhtoj; va buning uchun kapital bozorlarini rivojlantirish va mamlakatning moliyaviy bazasini kengaytirish zarurati mavjud. Siyosat ishlab chiqaruvchilar O'zbekistonning moliyaviy ekotizimini rivojlantirish yo'llarini o'rganmoqdalar. Variantlardan biri - O'zbekistonga xalqaro investitsiyalar uchun platforma yaratish va O'zbekiston

kapital bozorlarini rivojlantirishni rag'batlantirish uchun Toshkent xalqaro moliya markazini (TIFC) rivojlantirish. Kapital bozorlarini rivojlantirish agentligi (CMDA) The City UK ning Buyuk Britaniya-O'zbekiston IFC ishchi guruhidan TIFC qanday bo'lishi mumkinligi to'g'risida dastlabki tavsiyalar berishni so'radi. CMDA TIFC quyidagi maqsadlarga xizmat qilishi mumkin deb o'ylaganligini tushuntirdi³¹:

- xorijiy investorlar va mahalliy biznes o'rtasida ko'prik hosil qilish
- xorijiy kapitalning mahalliy bozorga kirishini engillashtirish
- moslashuvchan va xalqaro miqyosda tan olingan huquqiy standartlarni ishlab chiqish
- xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik qilish orqali bilimlarni uzatish
- O'zbekiston iqtisodiyotiga investisiyalar uchun mablag'lar mavjudligini yaxshilash
- mahalliy biznes uchun vositalarni kengaytirish
- mahalliy kapital bozorida likvidlikni oshirish

ASOSIY TUSHUNCHALAR

1. **Xalqaro korporatsiya** - dunyoning turli mamlakatlarida to'g'ridan-to'g'ri investisiyalarga ega bo'lgan yirik korporatsiyani tarkibiy tashkil etish shakli.
2. **Transmilliy korporatsiyalar** - bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo'lib, filliallari esa dunyo bo'ylab tarqalib ketgan kompaniyalar.
3. **Ko'pmillatli korporatsiyalar** - bosh kompaniya ikki va undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli bo'lib, xorijiy bo'limlari turli mamlakatlarda joylashgan korporatsiyalar.
4. **Strategik alyanslar** - jahon bozoridagi global iqtisodiy masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq bo'lib, ushbu ittifoq mazkur firmalarning boshqa sohalarda raqobatlashuviga to'sqinlik qilmaydi.

³¹ UK-UZBEKISTAN IFC WORKING GROUP REPORT: Recommendations on developing Tashkent International Financial Centre.pdf/page_6

5. Strategik oilalar - o‘zaro raqobatda bo‘lgan korporatsiyalarning xalqaro bozorlarda bir-birini toldiruvchi strategiyani amalga oshirish maqsadidagi birlashuvidir.

6. Strategik tizimlar - turli tarmoqlardagi (ishlab chiqarish korxonalari, savdo firmalari, banklar) korxonalarining uzoq muddatli hamkorligiga asoslangan birlashma bo‘lib, maqsadi axborotlar, personal va texnologiyalar almashishdan iboratdir.

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. TMK va KMK larning ta’riflarini batafsil tushuntiring hamda ularga yuqorida qayd etilmagan misollar keltiring?
2. Transmilliy korporatsiyalarning rivojlanish ko‘rsatkichlarini bosqichma-bosqich tavsiflang?
3. Transmilliy banklar faoliyatining rivojlanish yo‘nalishlarini tushuntirib bering?
4. O‘zbekistonda transmilliy korporatsiyalar faoliyatini tartibga soladigan qonun loyihalarini ishlab chiqishda xalqaro qonun loyihalaridan foydalanib misol tariqasida tuzing?
5. Xalqaro ishchi kuchi migrasiyasining TMK lar faoliyatiga ijobiy hamda salbiy tomonlarini ko‘rib chiqing?
6. Mamlakatda amalga oshirilayotgan monetar siyosatning TMK larning ta’sischilari oladigan dividend miqdoriga ta’siri bor yoki yo‘qligini Royal Dutch Shell misolida ko‘rib chiqing?
7. Mamlakatning moliyaviy hamda bank xizmatlarini amalga oshirishda xalqaro darajada xizmatlarni ko‘rsata olish qobiliyati yetarli yoki yetarli emasligi TMK larning shu mamlakatda omilli faoliyat yuritishiga qanday ta’sirlari borligini sanang?

CASE STUDY

1-topshiriq.

“Microsoft” ning u faoliyat yuritayotgan mamlakatda ijtimoiy tizimga qo‘shgan ulushini “British Petroleum” ning Buyuk Britaniya ijtimoiy tizimiga hissasini ko‘rib chiqqanimiz kabi bu korporatsiyaning hissasini jadval asosida yoriting.

2-topshiriq.

“British Petroleum” ning Buyuk Britaniya iqtisodiyotining tarmoqlari kesimida qo‘shgan hissani (diagrammalar asosida): miqdor va foiz(%) darajalarida tahlil qiling va xulosa bering.

10- BOB. JAHON SAVDO TASHKILOTI (JST) VA XALQARO SAVDONING ERKINLASHUVI

10.1. JST ning maqsadi, vazifalari va faoliyat jihatlari

10.2. JST ga a'zo bo'lish jarayonlarining bosqichlari va kirish tartibi

10.3. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi uchun amalga oshirilayotgan amaliy vazifa va chora-tadbirlar

10.4. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining iqtisodiy oqibatlari

10.5. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siri va istiqbollari

10.1. JST ning maqsadi, vazifalari va faoliyat jihatlari

Jahon savdo tashkiloti mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo aloqalari olib boriladigan va bu boradagi nizolarni hal etish imkoniyatini beruvchi global maydon hisoblanadi. Bugungi kunda dunyoning 164 ta davlati unga a'zo. BMT mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni, Jahon savdo tashkiloti (keyingi o'rinlarda JST) esa ular o'rtasidagi savdo munosabatlarini tartibga soladi.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish, a'zo mamlakatlarga iqtisodiy manfaat keltiradi. Tashkilotga a'zo bo'lishning ijobiy jihatlari quyidagilar: iqtisodiy manfaat eng avvalo o'zaro mahsulot ayriboshlash yo'lidagi to'siqlarni olib tashlashga sharoit yaratadi; mamlakatdagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatga iqtisodiy nizolar tinch yo'l bilan hal etilishi evaziga ijobiy ta'sir qiladi; aholi turmush darajasini yaxshilanishiga turtki beradi, insonlarga sifatli mahsulot iste'mol qilish imkonini yaratadi; liberal savdo mamlakat va alohida vatandoshlarning daromadlarini oshiradi; mehnat bandligi sohasida ijobiy ta'sir qiladi; savdo sohasidagi ortiqcha xarajatni kamaytiradi; iste'molchilar uchun tanlash imkoni berib, eksport qilinayotgan mahsulotlar hisobiga milliy mahsulotlar tannarxini tushirishga xizmat qiladi.


Tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solishda asosiy o'rinni tarif uslublari xususan, import bojxona tarifi egallaydi. O'z tabiatiga ko'ra import bojxona tariflari bir-biriga bog'langan to'rt asosiy elementdan tarkib topadi:

- mamlakatga kiritiladigan tovarlar turkumining (nomenklaturasi) tizimga solingan tarkibi. Odatda u bojxona hamkorligi Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan va JST/GATT tizimida tan olingan «Tovarlarni tavsiflash va kodlashtirishning uyg'unlashtirilgan tizimi» (ingl. Harmonized Commodity Description and Coding

System) asosida amalga oshiriladi. Ko'pgina hollarda u sodda tarzda «Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi»;

- bojxona qiymatini aniqlash uslublari va bojlar undirish tartibi.

Shunday qilib, tashqi savdoni tartibga solish uslublari o'ta murakkab va o'zaro bog'liq bo'lgan qoida va tartiblar bilan bir qatorda, turli yo'nalishdagi choralarni o'z ichiga oladi. Tashqi savdoda tarif va notarif uslublarni qay me'yorda qo'llanilishi tegishli mamlakatning tashqi savdo siyosatiga bog'liq.



10.1-rasm. GATT/JST ning maqsadi va vazifalari³²

Jahon savdo tashkiloti quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- kelushuvlarni joriy etish va nazorat qilish;
- o'zaro muzokaralarni olib borish uchun forumlarni tashkil qilish;
- savdo nizolarini hal qilish;
- turli mamlakatlarning savdo siyosatini amalga oshirish to'g'risida axborot berish;
- global iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda mamlakatlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam berish.

³²Vahabov A.V. Jahon iqtisodiyoti va halqaro iqtisodiy munosabatlar: darslik /A.V. Vahabov, D.A. Tajibaeva, Sh. X Xajibakiev. - Toshkent: «Bactria Press», 2015. - 286-bet

Jahon savdo tashkiloti o'z faoliyatini quyidagi tamoyillar asosida olib boradi:

- “Eng maqbul davlat” rejimi — a'zo mamlakatlarning har biri boshqa a'zolarga nisbatan savdo sheriklari sifatida teng sharoitlarni qo'llaydi. Agar biror-bir mamlakat o'zga savdo sherigiga imkoniyat bersa, u holda xuddi shunday rejim JST ning boshqa a'zo mamlakatlariga ham qo'llanishi shart;
- kamsitishsiz savdo — mamlakat savdo sheriklari, xorijiy tovarlar va xizmatlar savdosi sohasida shaxslar o'rtasida diskriminatsiya o'tkazmasligi kerak;
- savdo to'siqlarini bartaraf etish — muzokaralar o'tkazish orqali mavjud savdo to'siqlarini asta-sekin bartaraf etish;
- bashorat etiladigan savdo - xorijiy investorlar, kompaniya va hukumatlar savdo to'siqlari asossiz joriy etilmasligiga ishonch hosil qilishlari shart va bozorni erkinlashtirish majburiyatlari JST ga «bog'lanadi»;
- raqobatbardoshlikni takomillashtirish - JST qoidalari eksportni subsidiyalash va dumping kabi xalqaro savdodagi «adolatsiz» faoliyatlarga to'sqinlik qiladi;
- rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yetarli darajada qulay shart-sharoitlar yaratish — rivojlanayotgan mamlakatlarga o'tish davri va maxsus rejimlarni taqdim etish ko'zda tutiladi.

Jahon savdo tashkiloti o'z faoliyatini yuritishning dastlabki yillarida quyidagi yo'nalish bo'yicha ishlar olib bordi.

Birinchidan, JST da yangi muzokaralar raundiga tayyorgarlik ko'rish boshlandi. JST savdo vazirlarining birinchi muzokarasi 1996-yilda Singapurda bo'lib o'tdi va unda 4 ta yangi ishchi guruhlar tashkil etildi. Ushbu muzokaralar «Singapur саволлари» deb nomlangan savdo va investitsiyalash, savdo va raqobat siyosati, davlat xarajatlari ta'siri va savdo jarayonini soddalashtirish kabi masalalarni hal etishga bag'ishlandi.

Ikkinchidan, JST ning GATT tomonidan farqlanuvchi yangi qabul qilingan qoidalarining amaliyotda qo'llanilishini baholash lozim edi.

Uchinchidan, JST ning xalqaro iqtisodiy tashkilot sifatida jahon xo'jaligi tomonidan tan olinishi muhim ahamiyat kasb etgan edi.

Zamonaviy xalqaro savdo tizimini rivojlantirishning muhim bosqichi JST ning Qatarda o'tkazilgan to'rtinchi konferensiyasida boshlangan edi. Ushbu konferensiya 2001 yilning 9 noyabridan 13 noyabrgacha Doha shahrida bo'lib o'tdi va «Doha раунди» degan nom oldi. Doha konferensiyasining maqsadi xalqaro savdoga oid masalalarni qayta ko'rib chiqib ularni yangi kelushuvlar asosida tasdiqlashdan iborat bo'lgan. Hamma muzokoralar 2005 yilning 1 yanvar kunigacha yakunlashishi kerak edi. Doha raundining asosiy natijasi sifatida JST savdo vazirlarining beshinchi konferensiyasi bo'lishi kerak edi. JST savdo vazirlarining beshinchi konferensiyasi 2003 yilda Meksikada — Kankun shahrida bo'lib o'tdi va

unda ma'lum kelishuvlarga kelishilmadi. Aksariyat mamlakatlar uchun Kankundagi kelishmovchiliklar Siyetl shahrida bo'lib o'tgan nizolarga qaraganda ancha jiddiy bo'ldi. Birinchidan, 1999 yilda Meksikadagi konferensiyaga to'sqinlik qilgan asosiy sabab antiglobalist- larning harakatlari bo'lgan holda, 2003 yilda ushbu holat kuzatilmadi. Ikkinchidan ushbu konferensiyadan aksariyat mamlakatlar jiddiy qarorlar qabul qilishni kutishgan edi. Doha deklaratsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlarning manfaatlarini hisobga olgan holda qabul qilingan. Ularga texnik yordam berish nazarda tutilgan edi. JST ning navbatdagi konferensiyalarida rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordam berishni amalga oshirish borasida vazirlar konferensiyasi yagona qaror qabul qilishga to'sqinlik qilayotgan quyidagi sabablar mavjud edi.

Birinchidan, Doha raundidagi muzokaralarda ko'pchilikning fikricha, asosan, taraqqiy etgan mamlakatlarning manfaatlarini hisobga olingan edi. Bu kamchiliklar «Singapur savollari»da ham kuzatilib, unda rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan qo'shimcha talablar qo'yilgan edi. Konferensiyada ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun hal qilinishi lozim bo'lgan muammo hisoblanganligi uchun rivojlangan mamlakatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanmadi.

Ikkinchidan, Doha konferensiyasida rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan avval qabul qilingan qarorlarning amaliyotga joriy etilishi moddiy jihatdan cho'zilib ketdi va noroziliklar keltirib chiqardi. Shuningdek, texnik to'siqlar, sanitariya va fitosanitariya choralari borasida shartnomalar matniga o'zgartirishlar kiritilmagan edi.

Jahon savdo tashkiloti 1995 yilning 1 yanvarida tashkil topdi. JST ko'p tomonlama savdo tizimlarining huquqiy va institutsional asosidir. U muhim shartnoma majburiyatlarni ta'minlaydi. Bu shartnoma majburiyatlari hukumatlarga ichki qonunchilikni shakllantirish va amalga oshirishda, shuningdek tashqi savdoni boshqarishni aniqlab beradi. JST 1947 yilda tashkil topgan va 1948 yilning 1 yanvaridan kuchga kirgan. Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (GATT)ning davomchisi hisoblanadi. JST kelishuvi xalqaro savdoning yangi qonuniyatlarini, Urugvaydagi ko'p tomonlama muzokaralar jarayonida erishilgan bitimlarni umumiy idoraga jamlashni qamrab oladi. Bu qoidalar GATT doirasida 125 ta mamlakat ishtirokida yetti yil davom etgan va 1993 yilning 15 dekabrda Urugvayda tugagan ko'p tomonlama muzokaralar natijasidir. Vazirlar 1994 yil aprelda Marokashdagi majlisda yakunlovchi akti imzoladilar. 15 apreldagi «Marokko декларацияси» Shuni tasdiqladiki, Urugvay raundi natijalari jahon iqtisodiyotini mustahkamlab, savdo va kapital qo'yilmalarini, bandlikni liberallashtirib, butun jahonda tushumlarni ko'payishga olib keladi.

GATT-JSTning qismi sifatida quyidagi asosiy qoidalarga ega:

1. Tariflar orqali milliy iqtisodiyotni himoyalash. GATT erkin savdo bilan shug'ullansa ham JSTga a'zo mamlakatlari o'zlarining milliy sanoatini tashqi raqobatdan himoya qilish huquqiga egaligini tan oladi. Biroq, GATT mamlakatlardan tariflar orqali himoya qilishni talab etadi. Bu tamoyilni amalda bajarilishini ta'minlash uchun GATT qonun qoidalariga ko'ra bir necha istisnalar bo'yicha miqdoriy cheklolardan foydalanish man etildi.

2. «Tariflarni o'rnatib qo'yish». Davlatlar ko'p tomonli savdo kelishuvlari orqali milliy sanoatni qo'llab-quvvatlashni kamaytirishi, iloji bo'lsa, tariflarni kamaytirib, boshqa savdo to'siqlarini olib tashlashi kerak. "O'rnatib qo'yish" shuni bildiradiki, aniq bir mahsulotning tarif darajasi JST a'zosining belgilab qo'yilgan majburiyatiga aylanadi va asosiy savdo sherigi bilan kompensatsiya haqidagi kelishuvsiz tarifni oshira olmaydi.

3. «Eng maqbul davlat» rejimi. GATT ning ushbu qonuni ajratmaslik prinsipi hisoblanadi. Qonunda ta'kidlanishicha, eksportyor va importyor davlatlarga o'zgartirilgan tarif va boshqa me'yorlar JSTning a'zosi bo'lgan boshqa davlatlarga ham kamsitishlarsiz qo'llanilishi kerak. Xech qanday davlat boshqasiga alohida savdo foydasi yoki kamsituvchi choralar qo'ya olmaydi. Hamma bir xil darajada va hamma savdo to'siqlarini tushirish maqsadidagi barcha choralardan foyda oladi.

4. «Milliy rejim». Agar afzal ko'rilgan davlatlarda kamsitish man qilingan bo'lsa, «Milliy режим» qoidasida esa bozorga chiqarilgan tovarlar davlat ichida ishlab chiqarilgan ekvivalent tovarlar bilan bir xil shart-sharoitda amalga oshirilishi kerak.

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lish jarayoni qiyin va uzoq vaqtni talab qiladi. Birinchi bosqichda JSTga qo'shilishni xohlovchi davlatlarning hukumat boshliqlari JSTda kuzatuvchilik huquqini beruvchi ariza beradi. Bunda hukumat JSTga yuboruvchi o'z memorandumida mamlakatning savdo va iqtisodiy siyosatini to'liq qamrab olgan aspektlarni taqdim etadi. Bu memorandum qo'shilish to'g'risidagi so'rovlarni to'liq o'rganish uchun asos bo'ladi. Shundan so'ng JSTga ariza beruvchi davlatlar bo'yicha ishchi guruh tuziladi.

Ishchi guruh yig'ilishlarida ariza bergan hukumat tovar va xizmatlar savdosiga nisbatan o'z huquq va majburiyatlarini aniqlab olishlari maqsadida qiziquvchi a'zo-mamlakatlar hukumatlari bilan ikki va ko'p tomonlama muzokaralar olib boradi. Muzokaralar natijasida JSTga kirayotgan davlat tovarlar va xizmatlar savdosi bo'yicha bajarishi lozim bo'lgan va o'zgartirilmaydigan aniq bir tariflar beradi. Ariza beruvchi davlatning savdo rejimini o'rganish va bozorga kirishga imkon beruvchi muzokaralar tuzish bilan ishchi guruh asosiy qo'shilish shartlarini ishlab chiqadi va yig'ilish natijasiga ko'ra JSTga kirayotgan davlat to'g'risida qaror tayyorlaydi va bu hujjatlar bosh kengash yoki vazirlar

konferensiyasida tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Qo‘shilish to‘g‘risidagi qaror JST a‘zolarining 2/3 qismi ovoz bergan taqdirda imzolangan hisoblanadi. JSTga a‘zo bo‘lgan davlat Urugvay raundi qamrab olgan bitimlarni qabul qilishi va amalga oshirishi kerak bo‘ladi.

10.1-jadval.

JST haqida muhim ma’lumotlar³³

Sekretariat joylashgan shahar	Jeneva, Shveysariya
Tashkil etilgan sana	1995 yil 1 yanvar
A‘zo davlatlar soni	Dunyo YaIMning 98%ini tashkil etuvchi 164 ta davlat
Kuzatuvchi davlatlar	24 ta
Sekretariat xodimlari soni	623 nafar
Bosh direktori	Doktor Nigozi Okonya-Aviyola
Budjeti	208 798 330,00 AQSH dollari (2020 yil)

Urugvay raundi yangi ko‘p tomonlama savdo tizimi tashkil topishida muhim rol o‘ynaydi. 1994 yilning 15 aprelida Marokashda 125 ta a‘zo-mamlakatlarning vazirlari Urugvay raundi quyidagi tizimlardan tashkil topganligini tasdiqlovchi bitimni imzoladilar:

Jahon Savdo Tashkiloti to‘g‘risida Marokash bitimi.

- Tovarlar savdosi;
- Xizmatlar savdosi;
- Tariflar va savdo.

(GATT-1994) bo‘yicha bosh bitim va u bilan bog‘liq bo‘lgan bitimlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Yuklashdan oldingi tekshirish to‘g‘risidagi bitim;
- Savdodagi texnik to‘siqlar to‘g‘risidagi bitim;
- Sanitariya va fitosanitariya choralari to‘g‘risidagi bitim;
- Savdo bilan bog‘liq investitsiya choralari to‘g‘risidagi bitim;
- To‘qimachilik va kiyim-kechak bo‘yicha bitim;
- Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha bitim;
- Kyelib chiqish qoidalari bo‘yicha bitim;

³³https://www.wto.org_sayti_ma'lumotlari_asosida_mualliflari_tomonidan_tuzildi

- Xizmatlar savdosi bo'yicha bosh bitim (GATS);
- Intellektual mulk huquqlarining savdo bilan bog'liq jihatlari to'g'risidagi bitimi (TRIPS).

Jahon amaliyotida tashqi savdo operatsiyalarini tartibga solishni tarif va notarif uslublari mavjud bo'lib, ularni qay me'yorda va qay ko'lamda qo'llanilishi har bir davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlari bilan belgilanadi. JST talablariga ko'ra barcha tashqi savdo operatsiyalarini imkon qadar ta'riflar yordamida, ya'ni bojxona bojlari asosida tartibga solish maqsadga muvofiq.

10.2. JST ga a'zo bo'lish jarayonlarining bosqichlari va kirish tartibi

“Jahon savdo tashkilotini ta'sis etish to'g'risida”gi Marokash shartnomasining 12-moddasiga muvofiq mustaqil davlat yoki o'zining qonunchiligi va boshqaruv apparatiga ega bo'lgan, ichki va tashqi siyosiy masalalarda erkin qaror qabul qila oladigan alohida bojxona hududlari tashkilotga a'zo bo'lishlari mumkin³⁴. Federatsiya yoki konfederatsiya shaklidagi davlatlar tarkibidagi ma'muriy-hududiy birliklar hamda unitar davlatlar tarkibidagi avtonomiyalar a'zolikka qabul qilinmaydi.

Mustaqil davlatlar va alohida bojxona hududlari tashkilotga a'zo bo'lganlaridan keyin Marokash shartnomasi, tashkilot nizomi va mavjud barcha ko'p tomonlama savdo bitimlariga to'liq amal qilish majburiyatini olgan holda o'z tashqi savdo siyosatlarini yuritishda to'liq mustaqillikni saqlab qoladilar.

JSTga qo'shilish uzoq muddatli jarayon bo'lib, 3 ta katta davrni o'z ichiga oladi. Dastlabki davr – kuzatuvchilik davri bo'lib, bunda mamlakat tashkilotga kirishdan avval kuzatuvchi maqomi ostida tashkilot faoliyati bilan yaqindan tanishish, a'zolikning mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini o'rganish, ehtimoliy salbiy va ijobiy tomonlarini tahlil qilish orqali qo'shilish yoki qo'shilmaslik bo'yicha yakuniy qaror qabul qiladi.

JSTning kuzatuvchi maqomini berish tartib-qoidalariga ko'ra, tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlar yoki alohida bojxona hududlari kuzatuvchi maqomini olish uchun tashkilot Bosh kengashiga ariza bilan murojaat qiladilar. Bosh kengash arizani ko'rib chiqadi va yuqoridagi talablarga mos kelgan taqdirda kuzatuvchi maqomini beradi. Kuzatuvchi maqomini olish Bosh kengash tomonidan maqom berilgandan boshlab 5 yil ichida Marokash shartnomasiga qo'shilish bo'yicha

Manba: entitled “Accession to the WTO — Procedures for Negotiations under Article XII” of 24 March 1995. https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/cbt_course_e/c4s3p1_e.htm

muzokaralarni boshlash hamda amaldagi iqtisodiy va savdo siyosatini JST talablari asosida isloh qilish majburiyatini yuklaydi.

Kuzatuvchi davlat ushbu 5 yillik muddat ichida tashkilotga qo'shilish to'g'risida yakuniy qaror qabul qilishlari lozim. Agar davlat ushbu muddatda asosli sabablarga ko'ra yakuniy qarorga kela olmasa, muddatni uzaytirish bo'yicha Bosh kengashga ariza bilan murojaat qiladi.

Kuzatuvchi maqomi mamlakat va alohida bojxona hududlariga JST Bosh kengashi oldida ma'lum huquq va majburiyatlarni yuklaydi. Jumladan, kuzatuvchi davlatlar Bosh kengash va uning yordamchi organlarining rasmiy majlislarida ovoz berish, o'z munosabatini bildirish va so'zga chiqish huquqisiz ishtirok eta oladi. Kuzatuvchilar JSTning asosiy hujjatlar arxividan foydalanish va tashkilotga qo'shilish bo'yicha muzokarlarda texnik yordam olish huquqi beriladi. Biroq kuzatuvchi mamlakatlarga JSTning norasmiy uchrashuvlari, ichki masalalarning muhokamalari va a'zolar o'rtasida nizolarni ko'rib chiqish jarayonlarida ishtirok etish ta'qiqlanadi.

Shuningdek, kuzatuvchilar o'zlariga ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun tashkilot umumiy budjetining 0,015 foizi miqdorida badal to'lashlari belgilangan bo'lib, bu miqdor tashkilotga a'zo bo'lgan eng kichik savdo aylanmasiga ega mamlakatning yillik a'zolik badali miqdoriga qarab o'zgarib turadi.

Ikkinchi bosqich a'zolikka kirish davri bo'lib, kuzatuvchilik davrini yakunlab, a'zolikka ariza bergan kundan boshlanadi va to'laqonli a'zo maqomini olgunga qadar davom etadi.

Uchinchi bosqich a'zolikka qabul qilingandan keyin tashkilot muhitiga moslashish va integratsiya davri hisoblanib, bu davrda JST tomonidan yangi a'zo mamlakatning qonunchiligi, savdo tartiblari va tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarining salohiyati oshiriladi.

A'zolikka qabul qilishning dastlabki bosqichlari – ishchi guruh faoliyatini tashkil qilish

Davlat yoki alohida bojxona hududi tashkilotga a'zo bo'lish to'g'risida yakuniy qarorga kelganidan so'ng kuzatuvchilik maqomini tugatish bo'yicha Bosh kengashga murojaat qiladi. So'ngra Marokash shartnomasining 12-moddasiga muvofiq a'zolikka qabul qilishlarini so'rab tashkilot rahbari nomiga ariza yo'llaydi. Bunda arizaning qat'iy belgilangan shakli mavjud bo'lmasada, Marokash shartnomasining 12-moddasiga binoan tashkilotga qo'shilish istagi borligini aniq bayon etishi lozim.

Bosh kengash nomzod davlatning mas'ul vakilini mamlakatdagi joriy savdo-iqtisodiy tizimining asosiy xususiyatlari bilan yaqindan tanishish uchun taklif qiladi.

Bu uchrashuvda nomzod davlat o'z iqtisodiy siyosatida tashkilot talablariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha islohotlar olib borilayotganligini yoki islohotlar o'tkazishga tayyorligini ko'rsatib berishi lozim.

Tashkilotga qo'shilish to'g'risidagi alohida bojxona hududidan ariza kelib tushgan taqdirda hududning mas'ul vakili Bosh kengash oldida hudud tashqi savdo aloqalarini amalga oshirish va tashkilot qonunchilik bazasida nazarda tutilgan shartlarni bajarishda to'liq mustaqil ekanligini ko'rsatib berishi shart.

Marokash shartnomasiga muvofiq nomzod davlat JSTga a'zo bo'lish bilan bog'liq barcha majburiyatlarni o'z zimmasiga olishga va tashkilot a'zolari oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarishga kafolat beradi.

Bosh kengash arizani barcha a'zo mamlakatlarga yo'llaydi. Nomzod davlatni JSTga kirishidan manfaatdor bo'lgan mamlakatlar alohida ishchi guruhga a'zo bo'lishadi. Ishchi guruhni tuzish va unga a'zo bo'lish tartibi 1995 yil 24 martda qabul qilingan "Marokash shartnomasining 12-moddasi bo'yicha muzokaralar o'tkazish tartiblari" nomli yo'riqnomada belgilab berilgan bo'lib, nomzod davlatni tashkilotga a'zo bo'lish uchun zarur hujjatlarni tayyorlash, ikki tomonlama muzokarlarda ko'maklashish, tashkilotning a'zolikka qabul qilish bayonnomasi loyihasini ishlab chiqish va a'zo bo'lish jarayoniga ko'maklashadi. Har bir nomzod davlat uchun alohida ishchi guruh tuziladi.

Bosh kengash a'zolikka qabul qilish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqib, nomzodning mas'ul vakillari yuqoridagi uchrashuni o'tkazganidan so'ng arizani qanoatlantirish yoki rad qilish bo'yicha qaror qabul qiladi. Agar Bosh kengash arizani qanoatlantirsa, mamlakatni a'zolik jarayonini tezlashtirish uchun uchrashuv yuqoridagi alohida ishchi guruhni tuzadi.

Nomzod davlatga nafaqat o'zining qo'shilishi uchun tashkil qilingan ishchi guruh majlislari bilan bir qatorda boshqa nomzod davlatlar ishchi guruhlari majlislariga ham qatnashishlari, ularning ishiga halaqit bermagan holda muzokaralar va hujjatlarni tayyorlash jarayoni bilan bevosita tanishib borishlari mumkin.

Shuningdek, Doha raundi doirasidagi muzokaralar kuzatuvchi va nomzod davlatlar uchun ochiq bo'lib, muzokaralar natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonlariga aralashishlari cheklab qo'yilgan.

Ishchi guruh raisini tanlash bo'yicha maslahatlashuvlar ishchi guruhning birinchi yig'ilishini o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar, xususan, "Tashqi savdo rejimi to'g'risidagi memorandum", unga asos bo'ladigan qonun hujjatlari va unda berilgan savollarga javoblar tayyor bo'lishi bilanoq boshlanadi. Ishchi guruh raisi Bosh kengash raisi tomonidan a'zolar va nomzod davlat bilan kelishilgan holda tayinlanadi. Ishchi guruh raisi ishchi guruhga a'zo mamlakatlar vakillari orasidan tayinlanadi.

Nomzod davlat ishchi guruh raisligiga boshqa mamlakatni taklif qilishi mumkin, ammo yakuniy tanlov JSTning barcha manfaatdor a'zolari roziligini talab qiladi. Ishchi guruhga rais tayinlash imkoni bo'lmagan taqdirda a'zolikka qabul qilish jarayoni to'xtatib qo'yilmaydi. Nomzod davlatga ishchi guruhning birinchi yig'ilishi bo'lib o'tgunga qadar raislikka nomzod topish imkoniyati beriladi. Nomzod davlat, o'z navbatida, diplomatik kanallar orqali a'zo mamlakatlar hukumatlari bilan muzokara o'tkazib, ishchi guruhga raislik qilishlarini so'raydi.

Ishchi guruh raisi o'ziga berilgan vakolatlardan foydalanib muzokaralarga ko'maklashishga qaratilgan takliflar kiritishi yoki turli tashabbuslar bilan chiqadi, uchrashuvlar va muzokaralarni belgilaydi.

Ishchi guruhga a'zo bo'lish JSTning barcha manfaatdor a'zolari uchun ochiq bo'lib, nomzod davlat tashkilotga to'laqonli a'zo maqomini olgunga qadar ishchi guruh tarkibi o'zgarib turadi.

Ishchi guruh faoliyati uchta bosqichga bo'linadi.

1-bosqich. Nomzod davlatning tashqi savdo rejimiga oid ma'lumotlar jamlanib, amaldagi qonunchilik tizimi va tashqi savdo rejimini to'liq o'rganiladi va ularni JST talablariga muvofiqlashtirish uchun zarur bo'lgan islohot yo'nalishlari ishlab chiqiladi.


Nomzod davlat birinchi navbatda tashqi savdo rejimining batafsil tavsifini o'z ichiga olgan memorandumni taqdim etadi. Ishchi guruh memorandumni qabul qilgach, a'zolikka qabul qilish jarayonini boshlash maqsadida birinchi yig'ilishni o'tkazadi. Ishchi guruhning birinchi yig'ilishida o'rganishlar asosida aniqlangan tizimli farqlar va muammolar hamda JST qoidalariga zid bo'lgan qonunchilik normalarini bosqichma-bosqich bartaraf qilish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar kelishib olinadi.

2-bosqich. Ishchi guruh o'rganishlar asosida mavjud kamchiliklar va nomuvofiqliklarni inobatga olib, JSTga a'zolik shartlarini ishlab chiqadi va nomzod davlat bilan ularni amalga oshirish bo'yicha muzokaraga kirishadi. Xususan, nomzod davlatga tashqi savdo tizimini JST qoidalariga moslashtirish, qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash va eksport subsidiyalari, bojxona tariflari va xizmatlar savdosi bo'yicha umumiy majburiyatlarni qabul qilish sharti qo'yiladi.

Tovarlar va xizmatlar hamda intellektual mulkka taalluqli umumiy qoidalar bo'yicha muzokaralar ko'p tomonlama tarzda o'tkaziladi. Ushbu muzokaralar bilan bir qatorda, nomzod davlat ishchi guruhning manfaatdor a'zolari bilan tariflar, texnik to'siqlar va bojxona tartibotlari bo'yicha ikki tomonlama muzokaralar olib boradi.

3-bosqich. Muzokaralar yakuni bo'yicha hisobot tayyorlanadi. Hisobotdan nomzod mamlakat qabul qilishga rozi bo'lgan umumiy qoidalar, ikki tomonlama va

ko‘p tomonlama muzokaralar natijalari va JSTga a’zolik bayonnomasining loyihasi o‘rin oladi. Ishchi guruh hisobot loyihasini tasdiqlaydi va yakuniy qarorni qabul qilish uchun Bosh kengashga taqdim etadi.



10.2.-rasm. Jahon savdo tashkilotiga kirish bosqichlari.

Ta’kidlash lozimki, ishchi guruh a’zolarining muzokarlarda ishtirok etishi ixtiyoriy bo‘lib, asosan o‘z manfaatlariga mos keladigan muzokarlardagina ishtirok etadilar. Lekin nomzod davlat ishchi guruhdagi barcha muhokamalarda muntazam ishtirok etishi shart.

E’tiborlisi shundaki, JST xalqaro tashkilotlarga ham kuzatuvchi maqomini beradi va ularga tashkilotdagi barcha jarayonlar bilan yaqindan tanishib borish hamda bevosita taalluqli bo‘lgan masalalarni o‘zaro muvofiqlashtirish imkoniyatini yaratib beradi.

Xalqaro tashkilotlar kuzatuvchi maqomini olish uchun huddi davlatlar va alohida bojxona hududlari kabi JSTga ariza bilan murojaat qiladi. JST Bosh kengashi ariza bergan xalqaro tashkilotning faoliyati va savdo sohasiga aloqasi, 1947 yilda qabul qilingan “Tariflar va savdo bo‘yicha bosh kelishuv”ga taalluqli jihatlarini o‘rganadi.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlarga muayyan nomzod davlatning JSTga kirish jarayonini kuzatib borishlari uchun ishchi guruh majlislarida ishtirok etishga ruxsat beriladi. Bunda xalqaro tashkilot aniq sabab va maqsadlarni ko‘rsatgan holda kuzatuvchi maqomi berilishini so‘rab JST Bosh kengashiga murojaat qiladi. Hozirda BMT, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti barcha ishchi guruhlar faoliyatida kuzatuvchi sifatida ishtirok etib kelmoqda.

Nomzod davlatning milliy qonunchilik tizimi va tashqi savdo rejimini o‘rganish va JSTga kirish shartlarini belgilash

Nomzod davlat o‘zining milliy qonunchiligi va savdo rejimiga oid batafsil ma’lumotni ishchi guruhga taqdim etadi (10.1-jadval). Bunda asosiy hujjat “Tashqi savdo rejimi to‘g‘risidagi myemorandum” bo‘lib, savolnoma shaklida mamlakatning tashqi savdo rejimining to‘liq tavsifi, joriy holati va o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi.

10.2-jadval.

Milliy qonunchilik va tashqi savdo rejimiga oid ma’lumotlar ro‘yxati

Ma’lumot turi	Hujjat turi
Umumiy tavsiflovchi hujjatlar	Tashqi savdo rejimi to‘g‘risidagi memorandum
	Statistik ma’lumotlar va rasmiy nashrlar
	Normativ-huquqiy hujjatlar

Tovarlar savdosi	Importni litsenziyalash tartibi to‘g‘risida savolnoma
	Bojxona tartibotlari to‘g‘risida savolnoma
	Tashqi savdodagi texnik to‘siqlar to‘g‘risida savolnoma
	Davlatning tashqi savdo faoliyatida bevosita ishtiroki to‘g‘risida savolnoma
Xizmatlar savdosi	Xizmatlarning tarmoq klassifikatori
Tashqi savdo shartnomalari	Tashqi savdo shartnomalari ro‘yxati

“Tashqi savdo rejimi to‘g‘risidagi memorandum” quyidagi qismlardan iborat:

1. Kirish;
2. Iqtisodiy siyosat va tashqi savdo tizimi;
3. Tovarlar va xizmatlar savdosi siyosati;
4. Tovarlar savdosi siyosati;
5. Intellektual mulk huquqlarining savdo bilan bog‘liq jihatlarini tartibga solish (TRIPS) tizimi;
4. Tijoriy xizmatlar rejimi;
5. Uchinchi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarning institutsional asoslari.

Mamorandum ishchi guruh faoliyatini tashkil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Memorandumda keltirilgan ma’lumotlar ishchi guruhning aynan qaysi sohalarni JST talablariga moslashtirish zarurligi, qaysi jihatlar amaldagi qoidalarga zidligi va qanday islohotlarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatib beradi. Shundan kelib chiqib, Bosh kengash tashkilotga qo‘shilish shartlarini ishlab chiqadi.

Bosh kengash memorandumni ekspertizadan o‘tkazib, undagi savollarga berilgan javoblarning to‘liqligini, mamlakatning kelajakdagi rejalari va a’zolikdan kutayotgan natijalarini JST tamoyillariga muvofiqligini baholaydi. Memorandum ekspertizadan o‘ta olmagan taqdirda JSTga kirish jarayoni to‘xtatib qo‘yilmaydi va memorandum qayta ishlash uchun qaytarib yuborilmaydi. Bosh kengash ishchi guruh vositachiligida nomzod davlatdan qo‘shimcha ma’lumotlar, tushuntirishlar va qonuniy asoslarni so‘raydi hamda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etishga sharoit yaratib beradi. Bu jarayon memorandum ekspertizadan muvaffaqiyatli o‘tgunga qadar davom etadi.

Memorandum ekspertizadan o'tganidan so'ng, u barcha a'zo mamlakatlarga taqdim qilinib, o'z fikr-mulohazalarini bildirishlari so'raladi. Manfaatdor mamlakatlar memorandumni o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqib, savollari, taklif va tavsiyalarini taqdim etadi. Nomzod davlat barcha savollar va takliflarga rasmiy ravishda javob beradi va ishchi guruhning birinchi yig'ilishiga qadar memorandumning tegishli qismlarini qayta ko'rib chiqadi.

Ishchi guruhning dastlabki yig'ilishida memorandumdagi ma'lumotlar va a'zo mamlakatlardan kelib tushgan savollarga berilgan javoblar muhokama qilinadi. Yig'ilish yakunida muhokama jarayonida yuzaga kelgan savollar ro'yxati nomzod mamlakatga taqdim etiladi va keyingi uchrashuvga qadar rasmiy javob tayyorlash vazifasi yuklatiladi. Nomzod davlatning milliy qonunchiligi va tashqi savdo rejimini o'rganish yakunlanmaguncha ishchi guruh yig'ilishlari savol-javob shaklida o'tadi. Bunda yig'ilish yakunlariga asosan memorandumga tegishli o'zgartirishlar kiritib boriladi. Nomzod davlatning milliy qonunchiligi, iqtisodiyoti va tashqi savdo rejimi to'liq o'rganilgandan keyingina muzokaralar bosqichiga o'tishga ruxsat beriladi.

Jahon savdo tashkilotiga kirish bo'yicha muzokalarni o'tkazish tartibi, qoidalari va o'ziga xos jihatlari

Tashkilotga a'zolik shartlari bo'yicha muzokaralar quyidagi to'rtta yo'nalishda o'tkaziladi:

- qabul qilinadigan qoidalar bo'yicha ishchi guruhdagi ko'p tomonlama muzokaralar;
- qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash va eksportni subsidiyalash bo'yicha manfaatdor tomonlar o'rtasida ko'p tomonlama muzokaralar;
- tovarlarga tarif imtiyozlarini berish bo'yicha ikki tomonlama muzokaralar;
- xizmatlar savdosi bo'yicha manfaatdor tomonlar o'rtasidagi ikki tomonlama muzokaralar.

Bundan tashqari, ishchi guruh jarayonning istalgan bosqichida nomzod davlat bilan muhokamalar o'tkazib boradi. Ushbu muhokamalarning natijalari maxfiy hisoblanadi.

Nomzod davlat o'zining milliy qonunchilik tizimiga JST talablari asosida o'zgartirish kiritish bo'yicha aniq muddat va amaliy harakatlar aks ettirilgan dastur ishlab chiqib, ishchi guruhga taqdim qiladi. Ishchi guruh dasturni ko'rib chiqib, JST tartiblariga zid qismlar bo'yicha kerakli tavsiyalar beradi va dasturni amalga oshirilishini muntazam nazorat qilib boradi.

Bojxona tariflarini belgilash bo'yicha muzokaralar a'zo mamlakatlar o'rtasida ikki tomonlama tartibda olib boriladi. Dastlab, nomzod davlat o'zining manfaatlaridan kelib chiqqan holda bojxona boji stavkalari bo'yicha barcha uchun umumiy taklif ishlab chiqib, Bosh kengash va ishchi guruhga taqdim etadi. Bosh

kengash va ishchi guruh taklif etilayotgan boj tariflarini ko‘rib chiqqach, barcha a‘zo mamlakatlarga taqdim etiladi va ikki tomonlama muzokaralarni boshlashga ruxsat beradi.

Boj tariflari bo‘yicha muzokarlarda qatnashmoqchi bo‘lgan a‘zo davlatlar nomzod davlatdan ishchi guruh yig‘ilishlari doirasida ikki tomonlama muzokarani tashkil qilishni so‘rab murojaat qiladi. JST qoidalariga muvofiq tovarlar va xizmatlar savdosi bo‘yicha alohida qoidalar amal qilsada, ularga nisbatan boj tariflarini belgilash bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralar bir vaqtda o‘tkaziladi. Shuningdek, xizmatlar uchun boj stavkalari bo‘yicha takliflar tovarlar tariflari bo‘yicha takliflari bilan bir vaqtda taqdim etiladi. Dastlab, nomzod davlat xizmatlar tariflari bo‘yicha taklifni ishlab chiqib, ishchi guruhning barcha manfaatdor a‘zolariga taqdim etadi. Taklif avval ishchi guruhda muhokamadan o‘tganidan so‘ng barcha a‘zo davlatlar bilan ikki tomonlama muzokaralar o‘tkazishga ruxsat beriladi. Muzokaralar davomida kelishilgan tarif stavkalari bo‘yicha ikki tomonlama maxfiy kelishuv imzolanadi va JST kotibiyatga taqdim qilinadi.

Tashkilotning barcha manfaatdor a‘zolari bilan tariflar bo‘yicha ikki tomonlama bitimlar tuzilganidan so‘ng, tashkilot kotibiyati ushbu kelishuvlar hamda qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash va eksportni subsidiyalash bo‘yicha maslahatlashuvlar yakunida belgilangan majburiyatlarni jamlab, yagona tovar va xizmatlar tariflari ro‘yxatini tayyorlaydi. Eng maqbul davlat (MFN) tamoyiliga muvofiq, agar nomzod bir a‘zo davlat bilan muzokaralar davomida 20 foiz va boshqa a‘zo davlat bilan muzokarlarda 10 foiz miqdorida boj tarifini belgilash bo‘yicha kelishuvga erishgan bo‘lsa, yagona tovar va xizmatlar tariflari ro‘yxatida eng kam stavka (10 foiz) umumiy stavka sifatida qayd etiladi. Yagona tariflar ro‘yxati to‘liq shakllantirilgach, tariflar bo‘yicha ko‘p tomonlama muzokara o‘tkazish uchun ishchi guruhga yuboriladi.

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi majburiyatlari bo‘yicha muhokamalar nomzod davlat tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarga asoslanadi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari va eksport faoliyatini subsidiyalash amaliyoti JST tizimida to‘laligicha tartibga solinmagani bois muhokama jarayoni nomzod davlatni a‘zolikka qabul qilingunga qadar davom etadi.

JST qoidalariga muvofiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun qo‘llab-quvvatlash va eksport subsidiyalari bo‘yicha kelishuvga erishilib, tovarlar va xizmatlar tariflari bo‘yicha ikki tomonlama muzokaralar nihoyasiga yetgach, ishchi guruh nomzod davlatning tashkilotga kirishga tayyorlishi bo‘yicha hisobotni tayyorlaydi va Bosh kengashga taqdim qiladi.

Ishchi guruh hisoboti nomzodning milliy qonunchiligi, iqtisodiy holati va tashqi savdo rejimining batafsil tavsifi, JST qoidalari bo‘yicha o‘tkazilgan har bir

muzokara tafsilotlari, ularda erishilgan natijalar, yakuniy xulosalar va amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlar yuzasidan tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, ishchi guruh hisobotiga nomzod davlatning tashkilotga kirishi bo'yicha bayonnoma loyihasida belgilangan shartlar va Marokash shartnomasiga qo'shilishni ko'zda tutuvchi Bosh kengash qarori loyihasi ilova qilinadi. Hisobot Bosh kengashga taqdim qilinganidan so'ng ishchi guruhning vakolati tugatiladi.

A'zolikka rasman qabul qilish va tashkilot muhitiga integratsiyalashuv jarayoni

Ishchi guruh hisoboti Bosh kengashga taqdim etilishidan oldin JST kotibiyati nomzod davlat tomonidan tashkilot budjetiga kuzatuvchilik uchun belgilangan badallarni o'z vaqtida va to'liq to'laganligini tekshiradi. Agar moliyaviy majburiyatlar to'liq bajarilgan bo'lsa, hisobot qabul qilinadi.

Hisobot Bosh kengashga taqdim etilganidan so'ng kengash raisi tomonidan tashkilotga qo'shilish bayonnomasini, qo'shilish to'g'risidagi qarorni, ishchi guruhning hisobotini va yagona tovarlar xizmatlar tariflari jadvalini tasdiqlaydi.

Nomzod davlatga JST budjetiga barcha a'zo davlatlar umumiy xalqaro savdosidagi ulushining 1 foizini miqdorida yillik a'zolik badalini to'lab borish majburiyati yuklanadi. Agar mamlakatning JSTga a'zo mamlakatlarning umumiy savdosi hajmining 0,015 foizidan kam bo'lsa, 0,015 foiz miqdoridagi minimal badal to'lashi lozim bo'ladi. Shuningdek, yangi a'zolar tashkilotning aylanma mablag'lar jamg'armasiga bir martalik bo'nak to'laydi. Minimal bo'nak miqdori jamg'armaning asosiy qarzining 0,5 foizini tashkil qiladi.

Nomzod davlatni tashkilotga qabul qilish bo'yicha yakuniy qarorni qabul qilishdan oldin JST a'zolari qo'shilish shartlarini yana bir bor taklif qiladi. Nomzod davlat shartlarga rozi bo'lsa, yuqoridagi bayonnomani imzolaydi va o'z parlamentida ratifikatsiya qiladi. Nomzod davlatga bayonnoma imzolangan sanadan boshlab 6 oy muddatda tashkilotga kirish shartlarida ko'zda tutilgan islohotlarni o'tkazish va qonunchilikka tegishli o'zgartirishlarni kiritish vazifasi yuklatiladi.

Nomzod davlat tashkilotga kirish shartlarini to'liq bajargach, bu haqida Bosh kengashni xabardor qiladi. Bosh kengash bir oy muddat ichida shartnoma shartlari bajarilganligini o'rganib chiqadi va kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda nomzod davlatni tashkilotga to'laqonli a'zo bo'lganini rasman e'lon qiladi.

10.3 O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi uchun amalga oshirilayotgan amaliy vazifa va chora-tadbirlar

Bugun O‘zbekiston iqtisodiyotining oldida turgan muhim masalalardan biri Jahon savdo tashkilotining teng huquqli a‘zosi bo‘lishdir. O‘zbekistonda JSTga a‘zo bo‘lish uchun hozirgi kunda amaliy vazifalar va turli chora tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshilmoqda. Bu mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishda ahamiyatli hisoblanadi. Hozirgi kunda jahondagi jahon tovar aylanmasining 98,0 foizi JSTga a‘zo mamlakatlar ulushiga to‘g‘ri kelgan, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasining 97,0 foizi JSTga a‘zo mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Mamlakatimizning JSTga a‘zo bo‘lishi tashqi iqtisodiy siyosatning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kelajakda mamlakatimiz iqtisodiyotini istiqboli aynan shu jarayonga bog‘liq.

O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishi bo‘yicha ishchi guruh 1998 yilda tashkil etilgan edi. Keyingi yillarda ushbu ishchi guruh faqat uch marta uchrashdi va 2000 yillarning o‘rtalarida uning xalqaro ekspertlar bilan uchrashuvlari to‘xtatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi JSTga qo‘shilish uchun uning kamida 15 ta bitimlarida aks ettirilgan majburiyatlarni bajarishni o‘z zimmasiga olishi talab qilinadi. Shu bilan birga, JST bitimlari keng qamrovli va murakkabdir, chunki ular keng doirada jahon savdosi masalalarini qamrab oluvchi yuridik hujjatlar hisoblanadi.

Mamlakatimizning JSTga a‘zolik bo‘yicha memorandumiga 1995 yildan beri 9 marta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan. 2019 yil 25 iyulda to‘liq qayta ko‘rib chiqilgan va yangidan imzolangan. Memorandumning oxirgi shakli 2020 yil 7 mayda taqdim etildi. Tashkilotga a‘zolik sari qo‘yilgan eng katta qadamlardan biri bu, shubhasiz, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yildagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-60 son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi 97-maqсадda Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish masalasining kiritilganligidir. Xususan:

- Jahon savdo tashkilotiga a‘zo davlatlar bilan muzokaralar o‘tkazish;
- O‘zbekistonlik mutaxassislarning Jahon savdo tashkiloti va ko‘p tomonlama savdo tizimi sohasida salohiyatini oshirish;
- Texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya choralari va intellektual mulk himoyasi sohalarida milliy qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti bitimlarining talablariga muvofiqlashtirish bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqish;
- O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishining metallurgiya, to‘qimachilik, oziq-ovqat, avtomobil ishlab chiqarish sohalariga ta’sirini o‘rganish;
- O‘zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishining milliy iqtisodiyotga ta’sirini o‘rganish;

– Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq bo‘lgan ichki bozorni notarif choralar orqali himoya qilish tizimini rivojlantirish;

– Jahon savdo tashkiloti qoidalariga muvofiq bo‘lgan eksportni qo‘llab-quvvatlash va subsidiyalash choralari ishlab chiqish kabi choralarning davlatimiz uchun maqsad qilib olinishi Tashkilotga a‘zolik ishlarining jadallashishiga olib kelib, ushbu sohaning o‘rganilishini yanada chuqurlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 24 dekabrda «Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha Idoralararo komissiya tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qaroriga asosan va 2020 yil 28 maydagi qaroriga asosan mamlakatimizning «Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash buyicha Idoralararo komissiya tarkibini tasdiqlash тўғрисида» Nizom asosida mamlakatimizning Jaxon savdo tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lishi bo‘yicha ko‘p profilli ishlar olib borilmokda. Vazirlar Maxkamasining «Respublika komissiya va kengashlari tarkibini tasdiqlash ҳақида» 2004 yil 26 iyuldagi 358-son Qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi KDT, 2004 y., 30-son, 344-modda) 28-ilova o‘z kuchini yo‘qotdi”. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish buyicha «Harakatlar strategiyasi”ning 3 ustuvor yunalishi borasida mamlakatimizda valyutani tartibga solish, tashqi savdo, bojxona va soliq qonunchiligini liberallashtirishda tubdan islohotlar amalga oshirilmoqda, bu o‘z o‘rnida O‘zbekistonning JSTga kirishida qulay sharoit yaratib beradi.

2018 yilning 13 mart kuni O‘zbekiston Respublikasining JSTga kirishini yangilash va O‘zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligiga BMT ning rivojlanish dasturi ko‘magida texnik yordam kursatishga jalb qilish masalasida Osiyo tarakkiyot banki (OTB), Jahon banki, Xalqaro rivojlanish bo‘yicha AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID), O‘zbekistondagi Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi, Xalkaro xamkorlik buyicha Germaniya jamiyati va boshqa xalkaro tashkilotlar ishtirokida ishchi gurux yig‘ilishi tashkillashtirildi. Unda JST faoliyati haqida xalqaro va milliy ekspert huquqshunoslar atroflicha ma’lumot berildi.

O‘zbekistonning JSTga kirish jarayonini doimiy monitoring kilib borishda tizimli ishlarni tashkillashtirish maqsadida Vazirlar Maxkamasi tomonidan «Yo‘l харитаси» (ilovada keltirilgan) tasdiqlandi, ushbu yo‘l xaritasiga 34 ta tadbir kiritilgan bo‘lib, ular tashkilotga kirishni yangilash borasida hujjatlarni tayyorlash va mamlakat qonunchiligini muvofiqlashtirishga qaratilgan.

O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lishning amaliy natijasi sifatida 2021 yil 12 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari - investitsiyalar va tashqi savdo vaziri S.Umurzakov Jahon savdo tashkiloti (JST) bosh direktori Ngozi Okonjo – Iveala bilan muzokarada O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish jarayonining bugungi holati, mamlakatimizning ushbu Tashkilotga qo‘shilish doirasida muzokaralarni yanada rivojlantirish bo‘yicha asosiy vazifalar belgilab olindi.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda 2002 yilning 1 yanvaridan Butunjahon bojxona tashkiloti tomonidan Uyg‘unlashgan Tizimda kiritilgan import bojxona bojlari tarifi amalda qo‘llanilmoqda. Hukumat tomonidan bojxona bojlarining uch turi qo‘llanilmoqda:

1) advalor, tovarlarning bojxona qiymatiga foizlarda hisoblanadi; 2) mahsus, kiritilayotgan tovarlarning soniga nisbatan hisoblanadi;

3) umumlashgan, yuqorida keltirilgan ikkala turni ham o‘z ichiga oladi. Import bojxona bojlari stavkalari asosan to‘rt darajada guruhlanadi: tovarlarning bojxona qiymatiga nisbatan advalor stavkalar bilan 0%, 5%, 10% va 30% hisoblanadi. Bunda mahalliy ishlab chiqaruvchilar muxofaza qilingan. Biroq amaliyotda faqat advolor va umumlashgan stavkalar qo‘llaniladi (alkogol va alkogolsiz ichimliklar, sigaretlar, yengil avtomobillar).

O‘zbekiston davlatlar o‘rtasida tuzilgan savdo-iqtisodiy hamkorlik shartnomalariga muvofiq dunyoning 40 mamlakatiga stavkalar bo‘yicha qulay sharoit yaratib bergan. Mamlakatdan chiqayotgan tovarlarga nisbatan, agar savdo-iqtisodiy munosabatlarda qulay sharoit yaratish nazarda tutilmagan bo‘lsa import bojlari ikki marta oshiriladi. Bunda shuni ta’kidlash joizki, ushbu mamlakatlarni ulushi, mamlakat importi umumiy hajmida 7% ni tashkil etadi, xolos. Tashqi savdo tariflarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, stavkalar yuqori bo‘lishiga qaramasdan o‘rta arifmetik va o‘rta orttirilgan stavkalar nisbatan juda past darajada saqlanmoqda.

Bu esa o‘z navbatida bozorga kirish sharoitlari bo‘yicha muzokaralar olib boruvchi mamlakatning kuchsiz mavqeda ekanligini bildiradi.

Shuning uchun ham ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega bo‘lgan sanoat tovarlarini himoya qiluvchi bojlar o‘rnatilishi maqsadga muvofiq. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning asosiy jihatlaridan biri tovarlar importini tartibga solish hisoblanadi. O‘zbekistonda tovarlar importini tartibga solish turli xil vositalar orqali amalga oshiriladi. Jumladan, import bojlari va tariflari, kvotalar va litsenziyalash, importni ichki soliqqa tortish vositalari hisoblanadi. Eng asosiy vosita esa, import bojxona bojlari hisoblanadi.

2020 yil 6 martda mamlakatimiz tomonidan Xizmatlar savdosi bo‘yicha kelishuv taklifi JSTning barcha a’zolariga taqdim etildi.

O‘zbekistonni JSTga a’zo bo‘lishi uchun mamlakatimizda yetarlicha amaliy chora-tadbirlar qo‘llanilayotgani, shuningdek ushbu masala yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan asosiy vazifalar sifatida namoyon bo‘ladi.

10.4. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining iqtisodiy oqibatlari

Jahon savdo tashkiloti mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro savdo aloqalari olib boriladigan va bu boradagi nizolarni hal etish imkoniyatini beruvchi global maydon hisoblanadi. BMT mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni, Jahon savdo tashkiloti esa ular o'rtasidagi savdo munosabatlarini tartibga soladi. Tashkilotning asosiy xalqaro savdo tamoyillari haq-huquqlar cheklanmagan va halol raqobat qoidalaridan iborat. Agar, adolatli raqobat qoidasi buzilsa, savdoda ham xatoliklar bo'ladi. Barcha a'zo davlatlar tomonidan qabul qilingan qoida va tamoyillar esa, savdodagi ehtimolliklarni kafolatlovchi omil bo'lib xizmat qiladi hamda qulay investisiya va sog'lom raqobat muhitini yaratadi. Tashkilotga a'zo bo'lgach, ko'pgina rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda taraqqiy topgan davlatlar bilan teng huquqda savdo muzokaralarida ishtirok etish va muammolar yuzasidan murojaat qilish imkoniyati paydo bo'lgan. Albatta, bu jarayon mazkur mamlakatlarda iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirishga yordam bergan. Umuman, JSTning asosiy vazifalari manfaatdor a'zo davlatlar o'rtasida ko'p tomonlama savdo muzokaralarini o'tkazish, savdodagi nizolarni bartaraf etish, a'zo mamlakatlar milliy savdo siyosatini monitoring qilish, boshqa ixtisoslashgan xalqaro muassasalar bilan hamkorlik olib borishdan iborat.

Iqtisodiyotni taraqqiy toptirish uchun bozor mexanizmlarini rivojlantirish, xususiy sektorga imkoniyat yaratish, qo'shilgan qiymatli mahsulotlarni eksport qilish va ish o'rinlarini barpo etish kerak bo'ladi. Bunday maqsadga erishishda esa mamlakatda tizimli islohotlarni o'tkazish katta rol o'ynaydi. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish ham bu borada muhim ahamiyat kasb etib, ishlab chiqarishni rivojlantirishda, eksportni o'stirish va kengaytirishda, bozor islohotlarini davom ettirish barqarorligini ta'minlashda yordam berishi mumkin. Texnik tartibga solish, bojxona ma'muriyatchiligi, xizmat sohasidagi qonunchilik bo'yicha institusional islohotlar ishlab chiqarish, ilmiy-texnik rivojlanishning dunyo miqyosidagi jarayoniga integratsiyalashuv imkoniyatini tezlashtiradi va osonlashtiradi.

JSTga a'zo bo'lishning afzalliklari.

JST savdo-sotiqni tartibga solishda xalqaro tizimning asosidir. Buning asosiy vazifasi adolatli raqobat va tartibga solishni ta'minlash orqali jahon savdosini erkinlashtirishdir. Variantlardan biri har bir savdo sherigi bilan ikki tomonlama muzokaralar bo'lishi mumkin, ammo bu ko'proq mablag' talab qiladi, bu kichik mamlakatlar uchun jiddiy muammo. Bundan tashqari, kichik davlatlar boshqa davlatlar bilan umumiy manfaatlarga ega guruhlar tuzishi mumkin bo'lgan JST

doirasidagi muzokaralarga qaraganda ikki tomonlama muzokaralar samarasizroq bo'lishi mumkin.

JSTga kirishdan O'zbekistonga asosiy foyda.

Savdoni ochish ichki sanoat uchun zarar etkazish xavfini tug'dirishi mumkin, chunki mahalliy sanoat ayrim bozorlarda qattiq raqobat va raqobatga duchor bo'lishi mumkin. Xalqaro raqobat mahalliy sanoatning daromadlari va rentabelligini pasaytirib, ularni o'z bizneslarini optimallashtirishga majbur qilishi mumkin, bu esa ish haqining pasayishi yoki ish o'rinlarining qisqarishi kabi salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, savdoning ko'payishi, shuningdek, bozor ulushini qo'lga kiritish uchun firibgar, aldamchi va axloqsiz usullar ko'rinishidagi nohaq ishbilarmonlik amaliyoti xavfini oshiradi. Xalqaro amaliyotda kompaniyalarning ko'plab misollari mavjud raqobatdosh sanoatni bozordan chetlashtirish orqali bozor ulushiga ega bo'lish uchun yirtqich narxlar, dumping va boshqa adolatsiz usullar bilan shug'ullanish. Ammo mamlakatdagi bozor nazorati bo'yicha tegishli me'yoriy hujjatlar va faoliyat ko'rsatadigan institutlarga ega bo'lgan taqdirda, bunday xatarlarni ko'rib chiqish va kamaytirish mumkin.

1. Tashqi bozorlarga ko'proq kafolatli kirish. Savdo sheriklarining eksport faoliyatiga nisbatan kamsitilishiga teng ravishda javob berish uchun O'zbekistonning ichki bozori unchalik katta emas; Jahon savdo tashkiloti mamlakat eksportini kamsitilishdan yuqori darajada himoya qiladi. Shuni tan olish kerakki, xom ashyoni eksport qilish va sanoat tovarlarini asosan MDH davlatlariga - JSTga a'zo bo'lmagan mamlakatlarga sotish - bu O'zbekistonga hozirgi paytda katta foyda kutishiga yo'l qo'ymaydi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonga 38 ta eng yirik savdo mamlakatlaridan eng yaxshi imtiyozlar berilgan mamlakat va AQSH, Yaponiya va Evropa Ittifoqidan GSP savdo (umumiy imtiyozlar tizimi) bo'yicha imtiyozlar berilgan. Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik, shuningdek, "Bozor bo'lmagan" iqtisodiyot yorlig'ini olib tashlashni ta'minlamaydi. Ammo, tajriba shuni ko'rsatadiki, JSTga a'zo davlatlarga qarshi antidumping harakatlar a'zo bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan ancha past. Shunday qilib, mahsulotlari antidumping choralari ko'riladigan (masalan, rangli metallurgiya) ushbu sohalarga tegishli bo'lgan tovarlarni eksport qilishdan bir oz foyda o'sishini kutish mumkin. Bundan tashqari, xom ashyoning eksporti bilan taqqoslaganda, savdo-sotiq sheriklari bilan taqqoslaganda, asosan, hukumatning ustuvor vazifasi bo'lgan xomashyo tovarlarini eksport qilish ko'proq ta'sir qiladi.

2. Milliy farovonlikning foydalari. JSTga kirish savdo rejimini sezilarli darajada erkinlashtirishni talab qiladi. Iqtisodiyotning neoklassik nazariyasi savdo

to'siqlarini pasaytirish iste'molchilarga, shuningdek, raqobatbardosh ishlab chiqaruvchilarga o'rganishning dinamik ta'siri, yuqori turdagi mahsulotlarga kirish va raqobatning kuchayishi orqali ko'p foyda keltirishini isbotlaydi. Import qilingan mahsulotlar narxlar tushirildi, birinchi navbatda iste'mol tovarlari uchun, aholining kam daromadli qatlamlari turmush darajasini yaxshilaydi. Bu bojxona to'lovlarini pasaytirish va bojxona nazorati muddati va xarajatlarini kamaytirish bilan bog'liq. Aksariyat aholining daromadi eksportga yo'naltirilgan va juda raqobatbardosh bo'lgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga bog'liqdir.

3. Mamlakatning uzoq muddatli rivojlanishini belgilaydigan jamiyat institutlari rivojlanishining foydalari. Jahon savdo tashkilotining savdo rejimini boshqarish mamlakat ichkarisidagi lobbi manfaatlarini cheklashga imkon beradi, bu esa import qilinadigan mahsulotlarning raqobat bardoshligini cheklashga qaratilgan.

4. Biznes muhitiga barqarorlikni ta'minlaydigan proteksonizmning yuqori sathini bog'laydigan. JSTning qoidalarini a'zo davlatga proteksonizm darajasini ancha uzoq muddat oshirishga imkon bermaydi.

Qo'shimcha xarajatlar quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga keladi:

- JST normalariga muvofiqligi uchun qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlarni tahlil qilish va ishlab chiqish.

- JST tomonidan talab qilinadigan texnik standartlarni nazorat qilish uchun laboratoriyalarni sotib olish va ularga xizmat ko'rsatish.

- intellektual mulk huquqlariga rioya qilish. JST qoidalarini a'zo davlatlarning intellektual mulk huquqlariga qat'iy rioya qilishni, shu jumladan dori vositalari, dasturiy mahsulotlar va texnologiyalarga patentlar va lisenziyalarga rioya qilishni talab qiladi. Qaroqchilikka qarshi kurash audio, video va kompyuter mahsulotlarining qaroqchilariga qarshi zarur bo'ladi.

JSTga a'zo bo'lganidan keyin quyidagilar zarur bo'ladi:

- Hukumatning muhim iqtisodiy qarorlarini JST qoidalariga muvofiqligini tahlilini o'tkazish, qimmat xarajatlarga olib keladigan nizolarga yo'l qo'ymaslik uchun.

- import qilinayotgan mahsulotlarning adolatsiz raqobatidan va antidemping bojlari va kompensasiya to'lovlaridan kelib chiqqan holda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga etkazilgan zararining asoslilikini tushuntirish.

- Savdo nizolarini o'z vaqtida hal qilish, muzokaralar o'tkazish va savdo ma'lumotlarini olish uchun JSTga (Jenevada) O'zbekistondan vakolatxonani yuborish.

JSTga a'zo bo'lish: nima xavf ostida?

Qizig'i shundaki, O'zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo bo'lishiga bo'lgan qiziqishi, Jahon Savdo Tashkilotining asosiy a'zolarining proteksionistik

choralari kuchayganiga to'g'ri keldi, bu esa tashkilotning asosiy tamoyillariga putur etkazmoqda. Savol tug'iladi, nega tashkilot Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi kerak, tashkilot muammolarga duch kelganida va samaradorligi pastligi tanqid qilinganida. Qo'shilishdan O'zbekiston nimani yutishi mumkin? Bu savolga javob berish uchun qarshi va qarshi argumentlarni muhokama qilish kerak.

Diskriminasiyasiz bozorga kirish. Mamlakatlar JSTga birinchi navbatda JSTning boshqa a'zolari bozorlariga kirish huquqini olish uchun qo'shilishadi. JSTga a'zo bo'lgan mamlakatlar tashkilotning barcha a'zolari uchun amalga oshiradigan imtiyozlaridan foydalanadilar

- kamsitilmasdan savdo qilish. Kamsitilmasdan savdo qilish chegaradagi savdo choralari uchun ham, mamlakat ichkarisida ham qo'llaniladi. Birinchisi, Jahon savdo tashkilotining barcha a'zolari uchun bir xil import tariflari va bojlari qo'llanilishini kafolatlaydigan va hech qanday kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligini kafolatlaydigan "Eng maqbul davlat" prinsipi deb nomlanadi.

- "milliy rejim", JSTning barcha a'zolarini chet el mahsulotlariga mahalliy mahsulotlarga nisbatan unchalik qulay sharoit berilmasligi uchun import qilinadigan mahsulotga nisbatan milliy muomala bilan bir xil tartibni qo'llashni majbur qiladi. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lmasdan, eksport qilinadigan mamlakatlar ham tariflar, ham mahalliy qoidalar bo'yicha unchalik qulay bo'lmagan davolanishga duch kelishi mumkin.

Savdoni bashorat qilish mumkin. Butunjahon savdo tashkiloti o'zining a'zolarini tashqi savdoga oid barcha ma'lumotlarni barcha a'zolarga taqdim etishni va savdo qonunchiligida rejalashtirilgan o'zgarishlar to'g'risida oldindan xabardor qilishni majbur qiladigan shaffoflik tamoyilini o'rnatdi. A'zolar rejalashtirilgan o'zgarishlarga moslashish uchun ma'lumotlarga ega bo'lishadi, bu esa a'zo davlatlar uchun savdo-sotiqda noaniqlik va xatarlarni kamaytiradi.

O'zbekiston uchun mumkin bo'lgan xatar.

JSTga a'zo bo'lish qiyin masala. O'zbekiston savdo-sotiqni asosan MDH davlatlari kabi u bilan erkin savdo shartnomalari (FTA) tuzilgan mamlakatlar; u Evropa Ittifoqi va boshqa sanoat davlatlarining umumlashtirilgan imtiyozlar tizimidan (GSP) foydalanuvchidir. Aslida erkin savdo zonalari va GSP JST qoidalaridan ozod qilingan. Shu sababli, O'zbekistonning JSTga a'zo davlatlarga bozorning keskin yaxshilanishi ehtimoldan yiroq emas. Ehtimol, mamlakat JSTning boshqa a'zolari uchun o'z bozorlarini ochishi kerak, bu esa raqobatni kuchaytiradi va ichki samarasiz tarmoqlarni ishdan bo'shatadi.

Hozirda O'zbekiston o'ziga xos sharoitlarni hisobga olgan holda JSTga a'zo bo'lish bo'yicha muzokaralar olib bormoqda. Ammo foydalar va kamchiliklar o'rtasidagi muvozanat to'g'risida bir savol bor va bu mun Ishlab chiqarish

samaradorligini oshirish, savdo nizolarini hal qilish mexanizmida to'liq ishtirok etish imkoniyati va dumping da'volaridan himoya qilish mahalliy korxonalar uchun ijobiy jihatlar bo'ladi. Shu bilan birga, ro'yxatga olingan imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish kerak, chunki JSTga a'zo bo'lgan ko'plab mamlakatlar hali ham antidumping choralaridan aziyat chekmoqda.

JST shartnomalari va iqtisodiyotning ochiqqligi yangi texnologiyalarning ichki bozorini rivojlantirishga yordam beradi va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozorida raqobatdosh bo'lishiga imkon beradi.

Bu nafaqat O'zbekistonda ushbu jarayonlarda o'z rolini topishi, balki o'z raqobatdosh ustunligidan eng samarali foydalanishi uchun juda muhimdir.

Qo'shilish bilan bog'liq umidlar va tahdidlar.

JSTga a'zo bo'lish har doim ham har bir mamlakatga farovonlik keltiravermaydi. Shuning uchun choralar qay darajada JSTga a'zolikning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga yordam berishi mumkinligini aniq belgilab olish zarur. Tijorat manfaatlari va tabiiy resurslarni tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish o'rtasidagi ziddiyatlarni oldini olish uchun JSTga kirishda ekologik xavfsizlikni ta'minlaydigan milliy mexanizm yaratilishi kerak. Tovarlar standarti va oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi bilan bog'liq qoidalarga e'tibor qaratish lozim. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, JSTning hujjatlari va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro shartnomalar bir-biriga zid kelmaydi, aksincha, ular qisman tasodifiydir (masalan, importni cheklash to'g'risidagi bitimlarda).

Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish eksport uchun mahsulotlarning ulushi kam bo'lgan taqdirda raqobatbardosh bo'lmagan tarmoqlar va korxonalarga zarar etkazadi. Ta'sirni birinchi navbatda oziq-ovqat sanoati va mashinasozlik sohalari his qilishi aniq. Shuning uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish uchun qo'shimcha harakatlar zarur.

Agrosanoat majmuasini jamoat tomonidan qo'llab-quvvatlashga qancha ruxsat berilishi mumkinligi haqidagi savol JST bilan kelishmovchiliklar orasida paydo bo'lishi mumkin. Ushbu soha O'zbekistonda kam tuzilgan va iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ortiqcha miqdoriga ega bo'lgan Evropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSH, Kanada va Yangi Zelandiya qo'shilish mamlakatlarida qishloq xo'jaligiga davlat tomonidan beriladigan subsidiyalarning cheklanishini qo'llab-quvvatlamogda. Ushbu cheklov oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish uchun bozor chegaralarini o'zgartirishga imkon berishi mumkin.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasida, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar uchun qulay rejim va ichki bozorni adolatsiz savdo sheriklaridan himoya qilish bilan birlashtirilishi kerak.

Bundan tashqari, tabiiy monopoliyalar xizmatlari uchun past tarif stavkalari JSTga kirish jarayonida bekor qilinishi kerak, chunki ular JST talablariga muvofiq subsidiyalar sifatida ko'rib chiqiladi. Bu ijtimoiy muammoni keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lganidan va o'zini global raqobatga ochganidan keyin O'zbekiston aziyat chekishi xavfi mavjud, chunki u faqat xomashyo taklif qilishi mumkin.

JSTga a'zo bo'lish istagini bildirgan O'zbekiston va boshqa NISM davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda jiddiy muammolar yuzaga keladi. O'zbekiston va barcha NISM mamlakatlari uchun dolzarb muammo - yangi iqtisodiy zamin sharoitida vayron qilingan aloqalarni yangilash.

Mamlakatning qo'shilishining oqibatlarini birja bozoriga nisbatan oldindan ko'rish mumkin. Avvalo, yirik banklarning manfaatlari ta'sir qiladi. Milliy bozorga kiruvchi transmilliy banklar raqobatdosh bo'ladi va mahalliy banklarning foiz stavkalari pasayadi. Mantiqan, bu faqat yirik korxonalarni chet el banklari tomonidan moliyalashtirishga olib keladi va shunga mos ravishda ichki iqtisodiyotdagi valyuta oqimi sezilarli darajada oshadi.

Ichki savdoga kelsak, O'zbekiston poytaxti ulgurji savdoda monopollashtirilgan o'rinni egallaydi. Chakana savdoda do'konlarning tarmoqlari mavjud, ammo bu keng tarqalmagan. Xorijiy kapitalning savdo uchun ahamiyati yaqqol ko'rinib turibdi, chunki bozor rivojlanganiga qaramay, tashqi savdo tajribasida u miqdoriy va sifat jihatidan kam. Modernizasiya jarayoni uchun xorijiy kapital qo'yilmalar, samarali savdo usullarini tarqatish va savdoning ishlab chiqarishga ta'sirini kuchaytirish kerak bo'ladi.

Mamlakatning turizm kabi foydali biznesdagi salohiyati yuqori. Biroq ichki xizmatlar darajasi raqobatbardosh emas. Shu sababli ushbu sohada xorijiy kapital oqimiga iqtisodiy qiziqish mavjud.

Jahon savdo tashkilotiga kirishda O'zbekiston agrar sektorining muammolari

Barqaror rivojlanishda qishloq xo'jaligining o'rni. Tarixiy jihatdan O'zbekistonda qishloq xo'jaligi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu soha yalpi ichki mahsulotning (YAIM) 30 foizini, valyuta tushumlarining aksariyat qismini ta'minlaydi va mehnatga laymehnatga layoqatli aholining 34 foizini ish bilan ta'minlaydi. Ushbu sektor mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizini va tovar aylanmasining 70 foizini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlar. Qishloq joylarida mulkni tashkil etishni o'zgartirish hozirgi paytda asosan huquqiy jihatlar bilan hal qilinadigan asosiy

muammo edi. Bozor islohotlarining yangi bosqichidagi asosiy masalalar mulkchilik, fermer xo‘jaliklarini va dehqon xo‘jaligini mustahkamlash, mulkdorlar sinfini shakllantirishga qaratilgan. Shu bilan birga, davlat tomonidan tartibga solish va buyruq-taqsimlash siyosati elementi hali ham amal qilmoqda va qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

10.3-jadval.

O‘zbekiston Respublikasining JST ga a’zo bo‘lishi natijasida milliy iqtisodiyotimiz uchun kelib chiqadigan oqibatlari bo‘yicha SWOT tahlili

Yutuqlari	Yo‘qotishlari
Savdo aloqalaridagi qulayliklar	Davlat budjeti zarar ko‘radi
Savdo liberallasuvi kechadi	Ba’zi monopoliyalashgan tarmoqlar yuqori darajada zarar ko‘radi
Narxlar tushadi	Importning erkinlashishi
Daromadlar oshadi	Xizmat ko‘rsatishda raqobatbardoshlik darajasi pastligi
Kichik va o‘rta biznes raqobatbardosh tovarlarni ishlab chiqara boshlaydi	Tashqi savdoda eksport va import kvotalaridan foydalanish imkoniyati mavjud emasligi
Tekstil hamda oziq-ovqat mahsulotlari eksporti o‘sadi	
Imkoniyatlar	Xavf-xatarlar

Sifatli mahsulot istemol qilish	Qonunchilik bog‘liq muammolar
Mehnat bandligiga ijobiy ta’siri	Xalqaro standartlar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar
Transport karidorlaridan foydalanishning kengayishi	

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining JSTga a’zo bo‘lishining ob’ektiv zarurlari ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat³⁵:

-O‘zbekistonning tashqi savdo hamkorlarining aksariyat qismi JSTga a’zo mamlakatlar ekanligi va bu davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarda O‘zbekiston uchinchi davlat sifatida e’tirof etilishi, mamlakatimizdan eksport qilingan tovarlarga nisbatan yuqori boj stavkalari hamda notarif tartibga solish usullarining keng joriy etilishi mamlakat eksport salohiyatiga ta’sir etishi;

- O‘zbekiston Respublikasini xalqaro savdo qoidalarini ishlab chiqishda ishtirok etmasligi va shu sababli tashqi savdo munosabatlarida muntazam ravishda boshqa davlatlarning diskriminatsion siyosati qoidalariga duch kelishi kabilar.

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha tamoyillarda tashqi savdo bilan bog‘liq to‘siqlarni bartaraf etish, davlatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar bo‘yicha adolatli raqobat muhitini shakllantirish, rivojlanmagan, o‘tish davrida bo‘lgan davlatlarga har jihatdan qulaylik berish ustuvor maqsad etib belgilangan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib, O‘zbekiston Respublikasining JSTga a’zo bo‘lishi mamlakatimiz uchun quyidagi bir qator qulaylik va afzalliklarni keltirib chiqaradi, ular:

- Tashkilotning barcha a’zo mamlakatlari bozorlariga kirish uchun teng huquqli imkoniyat paydo bo‘ladi;
- investitsiyaning barqarorligi ta’minlanadi;
- raqobat muhiti yaxshilanadi va monopoliyaning oldi olinishiga erishiladi;
- inflyasiya darajasi kamayadi;
- eksportyorlarning tashqi savdoda huquqi himoya qilinadi;

³⁵ <https://customs.uz/uz/news/view/6545>

- savdo hamkorlari qabul qilingan xalqaro standartlar qoidalariga muvofiq milliy standartlarni ishlab chiqish eksportyorlarga chet el bozori talablariga moslashishda yordam beradi;

- jahon miqyosidagi savdo siyosati bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish huquqi beriladi, ya'ni tashkilot yig'ilishida ishtirok etadigan har bir davlat o'z ovozigacha ega bo'ladi.

Aksariyat manbalarda Jahon savdo tashkilotining yuqoridagi afzallik tomonlari bilan birga, uning bir nechta kamchiliklari ham bor, degan fikrlar mavjud. Tashkilot faoliyati bo'yicha xalqaro ekspert Yovan Yekich o'zining taqdimotlarida ushbu tanqidiy fikrlarning ayrimlari to'g'ri emasligini ma'lum qildi. Masalan, keng tarqalgan fikrlardan biri bu tashkilotga a'zo bo'lgandan keyin import tariflari (boj)ning avtomatik ravishda pasayishi bilan bog'liq. Ekspertning fikricha, aslida unday emas. Chunki bunday pasayish hamma tovarlar uchun tatbiq etilmaydi. Agar hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasida 11295 nomdagi tovarlar mavjud bo'lsa, ularning har biri bo'yicha alohida muzokaralar olib boriladi. Maqsad – ta'sirchan tovarni aniqlash. Ya'ni shunday tovarlar borki, ularning boj stavkalari muayyan davlat iqtisodiyotiga hech qanday salbiy ta'sir qilmaydi. Ikkinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun subsidiya taqiqlanmagan, ammo a'zolikka qabul qilinishi jarayonida kelishilgan miqdordan oshmasligi lozim. Kichik davlat huquqi katta davlatlar huquqiga nisbatan kamroq ekanligi ham haqiqatga to'g'ri kelmaydi, chunki har bir davlat teng ovozga ega va qarorlar kelishuv (konsensus) asosida qabul qilinadi. Har qanday davlat JST rahbar organining qarori o'z manfaatiga mos kelmaydigan bo'lsa, uni inkor qilishi mumkin. Tashkilot tarixida bunday holatlar kuzatilgan. Shuningdek, tashkilotda kam rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berish mexanizmi sifatida taraqqiyot dasturi mavjud bo'lib, mazkur yo'nalishdagi choralardan ko'zlangan maqsad barcha a'zo mamlakatlar manfaatini himoya qilishga qaratilgan.

JSTning bosh g'oyasi a'zo mamlakatlar o'rtasida erkin savdo siyosatini olib borishga qaratilgan. Bundan asosiy maqsad tovarlar savdosida adolatli raqobat muhitini shakllantirish hisoblanadi. Shunga ko'ra, O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishidagi dastlabki ustuvor vazifa, milliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni import qilingan hamda tarif va notarif to'siqlar qo'yilmagan tovarlarga nisbatan raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi. Tovarlarni ishlab chiqarish va sotilishidagi o'zaro raqobat mamlakatimizni jahondagi ishlab chiqarishning innovatsion texnologiyalarini qo'llagan holda yanada rivojlanishga undaydi.

Mamlakatimizda JSTga a'zo bo'lish jarayonlari 1994 yil dekabr oyidan boshlangan edi, ya'ni aynan o'sha davrda O'zbekiston Respublikasi ushbu tashkilotga to'la huquqli a'zo bo'lib kirish xaqida ariza bergan edi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu tashkilotga kirish uchun o'tgan davrda mamlakatimizda bojxonaga oid hujjatlarning asosiy qismi JSTning bitimlaridagi talablarga muvofiqlashtirilgan.

Hozirgi paytda davlatimizda bojxonaga oid hujjatlarning qolgan qismini muvofiqlashtirish uchun birinchi navbatda quyidagilar bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani JSTning bitimlari talablariga moslashimiz kerak bo'ladi:

- Tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtirish va tovarlarni erkin muomalaga chiqarigandan keyin bojxona qonun hujjatlariga va boshqa me'yoriy hujjatlarga to'liq rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona auditini qo'llashni yanada takomillashtirish;

- tovarlarni eksport va importga rasmiylashtirishda bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha yig'implarni muvofiqlashtirish;

- dastlabki qarorni qabul qilish mexanizmini joriy etish;

- davlatlarning bojxona organlari tomonidan o'zaro axborot almashish mexanizmini takomillashtirish;

- bojxona rasmiylashtiruviga sarflanadigan vaqtni qisqartirish maqsadida raqamli bojxonani yanada rivojlantirish;

- tovarlarga texnik talablarni amalga oshirishda xalqaro standart talablarini qo'llash va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi istiqbolda tashqi savdoni rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratadi va mamlakatimiz iqtisodiyotini jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida alohida ahamiyat kasb etadi.

10.5. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishining iqtisodiyot tarmoqlariga ta'siri va istiqbollari

JST xalqaro savdo munosabatlari uchun qulay huquqiy tizimni taqdim eta oladigan cheksiz imkoniyatlar eshigi sanaladi. Qabul qilingan hujjatlar davlatlarning o'z savdo siyosatlarini kelishilgan tartibda olib borishlarini talab qiladi. Bundan ko'zlangan maqsad jahon savdosida mamlakatda mavjud bo'lgan iqtisodiy tarmoqlarga ko'mak berishdan iborat. JSTning asosiy funksiyalaridan bo'lgan savdoni liberallashtirish, savdo bitimlari, xalq farovonligi uni turmush tarzini yuksaltirishdan iborat. Shuningdek, ichki bozorni erkinlashtirishni ta'minlash. JSTga a'zo mamlakatlarda chet el korxonalarida ishlab chiqarilgan sifatli va arzon mahsulotlar ichki kichik raqobatbardosh bo'lmagan korxonalarining inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston uchun kutiladigan natija nima bo'ladi? Buning uchun mamlakatimiz tomonidan yaratilgan imkoniyatlar va yaratilgan sharoitlar tayyorgarlik darajasi ahamiyatlidir.

Buning uchun :

- iqtisodiyotni erkinlashtirish va sanoat tarmoqlari baravar rivojlanishini tartibga solish;
- narx-navoni tartibga solish va maqbul soliq tizimini vujudga keltirish;
- alohida sektorlar va ishlab chiqarishda subsidiyalarni saqlash;
- tovarlarni standartlash va sertifikatsiya qilish tizimini tartibga solish;
- xorij sarmoyalari jozibadorligini oshirish;
- import va eksport boj to'lovlari tarifini tartibga solish talab qilinadi.

JSTga a'zo bo'lish uchun har bir davlat o'rtacha 8-10-15 yilni tashkil qiladi. O'zbekistonda 2017 yildan boshlab ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Ammo iqtisodiyot tarmoqlarining ustuvor yo'nalishlarida davlatning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2020 yil 4 fevral kuni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat tovarlari sifatini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazdi. Mazkur yig'ilish doirasida JST standartlariga eksport tovarlarimizning javob bermasligi hamda import tovarlarning kirib kelish payti ularni tekshiruvdan o'tkazish qiyinchilik tug'dirayotgani haqida gapirildi. Oziq-ovqat mahsulotlarini sinash bo'yicha Jahon savdo tashkilotining talablariga mos 775 ta standart bo'lsa, mamlakatimizda ularning 100 tasi joriy qilingani, 100 dan ortiq laboratoriyadan atigi 10 tasi xalqaro darajada akkreditatsiyadan o'tgani tanqid qilindi. Shuningdek, milliy mahsulotlarimizning eksporti imkoniyalarini qiyinlashtirishi haqida ham qayd etildi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Pokistonga to'g'ri keladi. Bog'dorchilik, va uzumchilik kabi qishloq ho'jaligining tarmoqlari jadal sur'atlarda rivojlandi. Demak, 2020-yil yanvar-dekabr oylarida eksportning umumiy hajmida meva va sabzavotlarning ulushi 6,7 foizni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-dekabr natijalariga ko'ra meva-sabzavot eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlarning umumiy hajmining 25,3%), bu Afg'onistonga eksport hajmidan 5,2 baravar ko'pdir.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eksport-import salohiyatini kuchaytirish. Agrosport eksporti O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyatga ega, chunki bu avvalo asbob-uskunalar, iste'molchilar tovarlari, valyutalarni to'plash va moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlash uchun

ishlatiladigan valyuta tushumlarining asosiy manbai hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish zarur, lekin faqat hal qiluvchi tovarlarga va ishlab chiqarish O'zbekistonda foyda keltirmaydigan tovarlarga kerak.

So'nggi yillarda oziq-ovqat mahsulotlarining barqaror importi mahalliy ishlab chiqaruvchilarni ichki bozordan chetlashtirishga va O'zbekistonning oziq-ovqat mahsulotlarining xorijiy mamlakatlarga qaramligini oshirishga olib keldi. Hukumatning siyosati vaziyatni yaxshilash va qaramlikni kamaytirish uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarni bundan himoya qilish edi.

Xo'jalik mahsulotlariga va qishloq xo'jaligi xom ashyosiga import bojlarining o'rtacha darajasi Jahon savdo tashkilotiga a'zo yoki iqtisodiyoti rivojlanayotgan ayrim boshqa mamlakatlarga qaraganda pastroq. 2001 yilda agrosanoat tovarlari guruhi uchun o'rtacha tortilgan tarif 15% atrofida edi.

JST talablariga muvofiq, O'zbekiston tarif stavkalari majburiyligi bo'yicha majburiyatlarni qabul qilishi kerak. O'zbekiston JSTga a'zo bo'lganidan so'ng, bojxona tariflari uchun boshlang'ich majburiy darajasining o'rtacha tortilgan stavkasini 40-45% gacha oshirish kerak bo'ladi, va yakuniy bog'lanish darajasi stavkasi 32-35% gacha ko'tarilishi kerak. . Ushbu taktikadan kelib chiqib, O'zbekiston ushbu mamlakatlar bilan taqqoslanadigan bojxona muhofazasi darajasiga ega bo'ladi. Biroq, JSTga a'zo davlatlar stavkalar 15% atrofida bo'lishini va amalga oshirish davrida yanada pasayishni talab qiladilar.

O'zbekiston import bojlari uchun mumkin bo'lgan limitlarni belgilashda tabaqalashtirilgan yondashuvdan foydalanishi kerak: unchalik sezgir bo'lmagan tovar guruhlari uchun import hajmi past bo'lgan tovarlarga tariflar sezilarli darajada pasaytirilishi kerak.

Muzokaralar chog'ida O'zbekiston import qilinadigan tovar etkazib beruvchilar tomonidan importning yuqori hajmini yoki demping narxlaridan foydalanishni to'xtatadigan tarif kvotasi va maxsus himoya choralariga ruxsat olishi kerak.

Qo'shilish bo'yicha muzokaralar jarayoni Urugvay muzokaralarida qatnashmagan barcha davlatlar (shu jumladan, O'zbekiston) o'z majburiyatlarini "haqiqiy a'zolari bilan kelishilgan shartlarda" belgilashi sharti bilan murakkablashmoqda. Bunday holatda, odatda, boshlang'ich davr qo'llanilmaydi va JSTning to'liq a'zolari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralar davomida tarif stavkalari belgilanadi. JST talablariga muvofiq importni tartibga solishning liberal tizimini yaratish samarasi murakkab va noaniq bo'ladi.

Importni erkinlashtirish mamlakatga etkazib beriladigan o'ziga xos tovarlarning sezilarli darajada ko'payishiga va savdo balansining yomonlashishiga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitda tashqi iqtisodiy siyosat milliy va mintaqaviy

darajalarda oziq-ovqatga nisbatan mustaqillikni ta'minlash uchun mahalliy agrosanoat ishlab chiqaruvchilarini xorijiy etkazib beruvchilar raqobatidan himoya qilishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Hatto rivojlangan davlatlarda ham - JSTga a'zo bo'lganlarning ichki qishloq xo'jaligi bozorini himoya qilish mexanizmlari mavjud. Paxta va g'allaga strategik ahamiyatga ega maqom berish qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini qo'llab-quvvatlash shakllaridan biri bo'lishi mumkin. Mahalliy qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetarli bo'lmagan miqdorda (shakar, o'simlik moyi) ishlab chiqariladigan bojxona to'lovlari imtiyozlaridan foydalangan holda import qilinadigan qishloq xo'jalik mahsulotlariga kvota tizimini joriy etish zarur bo'ladi.

Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishning tarmoq xatarlari, zararlari va foydalarini baholashda tabaqalashtirilgan yondashuv zarur. Import tariflarining pasayishi, avvalambor, budjet daromadlariga ta'sir qiladi, ammo qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ta'sir qilmaydi. Bundan tashqari, milliy qonunchilikni JST talablariga muvofiqlashtirilishi mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlashi kerak.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining o'sishini to'g'ridan-to'g'ri tayyor mahsulot ishlab chiqarishni isloh qilish va paxta xom ashyosi o'rniga qo'shimcha qiymatni shakllantirish natijasida ko'rib chiqish mumkin. Masalan, 2020-yil yanvar-dekabr oylari oxirida to'qimachilik mahsulotlari 1,92 milliard dollar miqdorida eksport qilindi, bu umumiy eksport hajmining 12,7 foizini tashkil etdi va 2019-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 18,1 foizga o'sdi.

To'qimachilik mahsulotlari eksporti tarkibida paxta iplari (48,9%), shuningdek, tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari (26,4%) asosiy ulushga ega. 2020-yil yanvar-dekabr oylarida dunyoning 70 mamlakatiga 498 dan ortiq turdagi to'qimachilik mahsulotlari eksport qilindi.

To'qimachilik mahsulotlari eksportining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasiga (655,5 mln. Dollar – 34,1%), Xitoyga (438,2 mln. Dollar – 22,8%) va Qirg'izistonga (283,9 mln. Dollar – 14,8%) to'g'ri keladi.

Xizmatlar eksporti hajmi 2020-yil yanvar-dekabr oylarida 2,004 milliard dollarni yoki savdo eksporti umumiy hajmining 13,2 foizini tashkil etdi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 41,7 foizga kamaydi. Transport xizmatlari (71,0%), sayohat (turizm) (12,8%), telekommunikasiya, kompyuter va axborot xizmatlari (8,3%) va boshqa biznes xizmatlari (2,9%) xizmatlar eksportining ulushiga to'g'ri keladi.

Shu bilan birga, boshqa xizmatlar (5,0%) qurilish (2,2%), moliyaviy xizmatlar (1,0%), sug'urta va pensiya xizmatlari (0,9%) va boshqalarning eng katta ulushiga to'g'ri keladi.

Hisobot davrida import 21,17 milliard dollarni tashkil etdi (o'sish sur'atlarining pasayishi, 2019-yil yanvar-dekabr nisbatan 12,8 foizni tashkil etdi). Uning tarkibidagi asosiy ulushni mashinasozlik va transport uskunolari (37,6%), sanoat tovarlari (16,9%), shuningdek kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar (13,7%) egallaydi.

Shuningdek, tovarlar importi dinamikasini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2020-yil yanvar-dekabr oylarida 2019-yilning shu davriga nisbatan tovarlar importi hajmi 1,91 milliard dollarga kamayib, 19,95 milliard dollarni tashkil etdi, xizmatlar importi esa 1,21 milliard dollarga yetdi.

2020-yil dekabr oyida import 2,4 milliard dollarni tashkil etdi, 2019-yilning shu oyiga nisbatan 119,3 million dollarga o'sdi.

2020-yilning choraklik tahlili shuni ko'rsatdiki, tovarlar va xizmatlar importi 2019-yilning shu davriga nisbatan birinchi chorakda mos ravishda 2,03 milliard dollarga (-29,9%), ikkinchisida 1,18 milliard dollarga (-19) kamaygan. , 7%) III yilda – 1,26 milliard dollarga (-18,9%). Faqatgina 2020-yilning IV choragida import hajmi deyarli 2019-yilning IV choragidagi hajmga tenglashdi.

Tovarlar importining qisqarishining umumiy foniga qaramay, tovarlarning ayrim guruhlarini ko'paymoqda, masalan, tibbiy va farmasyevtika mahsulotlari – 1,17 mlrd. Dollar (o'sish 24,6%), efir moylari, ryezinoïdlar va parfyumeriya moddalari, hojatxona vositalari, jilolar va yuvish vositalari – 237,9 million dollar (+ 21,5%), donli mahsulotlar va ulardan olinadigan mahsulotlar – 733,2 million dollar (+ 36,1%).

So'nggi yillarda MDH davlatlari va boshqa xorijiy mamlakatlar bilan import ulushini saqlab qolish dinamikasi, bu chegaralar ichida 36,5: 63,5 nisbatni tashkil etadi.

Umuman olganda, 2020-yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasiga 147 mamlakatdan tovarlar va xizmatlar import qilindi. Importning uchdan bir qismi (15,23 mlrd. Dollar) Xitoy (yirik importdagi ulushi 21,3%), Rossiya Federatsiyasi (19,7%), Koreya Respublikasi (10,0%) kabi yirik sherik mamlakatlarga to'g'ri keladi. , Qozog'iston (9,9%), Turkiya (5,1%), Germaniya (3,6%) va Chexiya (2,4%).

Respublika importi tarkibida Toshkent shahrining salmoqli ulushi qayd etildi, bu 44,7% yoki 9,47 mlrd dollarni tashkil etadi, eng kichik ulush Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etilgan – 0,8% yoki 176,3 mln AQSH dollar.

Xizmatlar importi hajmi 2020-yil yanvar-dekabr oylarida 1,21 milliard dollarni yoki uning umumiy hajmining 5,7 foizini tashkil etdi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 49,9 foizga kamaydi. Xizmatlar importining asosiy qismini sayohat (turizm – 36,4%), boshqa biznes xizmatlari (15,2%), transport xizmatlari (13,2%)

va telekommunikasiyalar, kompyuter va axborot xizmatlari (10,7%) tashkil etadi. Bundan tashqari, boshqa xizmatlar xizmatlarning umumiy importining 24,5 foizini tashkil etdi, shu jumladan intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanganlik uchun to'lovlarning yuqori qismi(9,3%), qurilish xizmatlari (8-9%), texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (3-4 %) va boshqalar.

2021 yil 13 sentabr kuni AOKAda o'tkazilgan matbuot anjumanida Markaziy bank raisi o'rinbosari Behzod Hamroyev, «Mehnat unumdorligining oshishi inflyasiyani pasaytirishning eng asosiy omilidir. Yashil iqtisodiyotga o'tish va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning barqarorlashuvi inflyasiya pasayishiga yordam beradi. Bundan tashqari, oxirgi 4-5 yildan beri ko'rib chiqilayotgan mavzu bor – Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish masalasi. O'rta muddatli istiqbolda tashkilotga a'zolik ham inflyasiyaning yaxshigina pasayishiga zamin yaratadi. Buni Rossiya va Qozog'iston misolida ham ko'rishimiz mumkinki, JSTga a'zolik bu mamlakatlarda inflyasiyaga bevosita ta'sir o'tkazgan. Ko'pchilik shunday savol bilan murojaat qilyapti: nimaga 5 foiz daraja belgilangan, masalan, 6-7 foiz yoki 3 foiz emas? Bu ko'rsatkich asosiy savdo mamlakatlarimizdagi inflyasiya darajasidan kelib chiqib belgilangan miqdor. Eng katta savdo hamkorlarimiz Rossiya, Qozog'iston va Turkiya kabi mamlakatlarda o'rta muddatli inflyasiya darajasi 4-5 foiz atrofida. Biz ham shu davlatlar kabi 5 foizlik ko'rsatkichga tushira olsak, milliy valyutaga bosim ham kamayadi. Kurs barqarorligi, mehnat unumdorligi, raqobat va erkinlashtirish inflyasiyaning past darajada ushlab turilishini ta'minlaydigan omillardir», – deya ta'kidlagandi.

O'zbekiston JST bilan hamkorlik doirasida a'zo mamlakatlar tomonidan yuborilgan savollarga javoblarni taqdim etish jarayonini boshladi. Berilgan savollar narxni tartibga solish, xorij valyutasiga talab, O'zbekiston bozoriga xorij tovarlari va xizmatlarining kirishini tartibga solish, bojxona bojlarini tartibga solish va boshqa qator mavzular bilan bog'liq edi. 2019 yilda JST bilan ishlash bo'yicha Idoralararo Komissiya Kotibiyatining tavsiyalariga muvofiq ayrim vazirlik va idoralarning ishchi guruhlar tuzildi. Mazkur guruhlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha faoliyat olib bormoqdalar:

- Sanitariya va fitosanitariya chora-tadbirlari, savdoning texnik to'sqinliklari masalalari bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash;
- Qishloq xo'jaligini qo'llab quvvatlash va eksport subsidiyalari bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash;
- Savdo xizmatlariga ta'sir ko'rsatuvchi siyosiy chora-tadbirlar bo'yicha ma'lumotlar tayyorlash;
- Intellektual mulk huquqining savdo jihatlarini bo'yicha JST bitimi doirasida ma'lumotlar tayyorlash;

➤ Xizmatlar sohasida tarif chegirmalari va majburiyatlari bo'yicha takliflar tayyorlash;

➤ O'zbekistondagi mavjud qonun xujjatlarini JST talablariga javob beradigan holatga keltirish;

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishini iqtisodiyotning turli sohalariga ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqotlarni olib borish.

JSTga a'zo bo'lishning O'zbekiston farmatsevtika sanoatiga oqibatlarini ko'rishimiz mumkin. **Mamlakatlar farmatsevtika sanoatiga o'rnatilgan tariflarga to'htalib o'tamiz. Hozirgi kunda aksariyat farmatsevtika mahsulotlariga tariflar qo'llanilmaydi. Faqat farmatsevtika mahsulotlaridan (paxta, dokaga) 2020 yildan 30 % tarif qo'llaniladi**³⁶.

JST qoidalariga ko'ra, a'zo mamlakatlar tomonidan qo'llaniladigan tariflar darajasi juda past bo'lishi kerak. Global, mintaqaviy va ikki tomonlama tariflarni kamaytirish shartnomalari kuchga kirishi bilan dori-darmonlar, vaksinalar yoki boshqa tibbiy mahsulotlar uchun import tariflari kamayib bormoqda. Yakuniy farmatsevtika mahsulotlari uchun o'rtacha tariflar odatda rivojlanayotgan mamlakatlarda past yoki mo'tadil (Hindiston va Tunis kabi bir nechta mamlakatlardan tashqari, u yerda tariflar 30 foiz va 20,6 foizni tashkil qiladi). Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishda ishlatiladigan faol moddalar uchun oltita rivojlanayotgan mamlakatlarda (Burkina-Faso, Pokiston, Tanzaniya, Hindiston, Keniya va Tunis) o'rtacha tariflar 20 foizdan 30 foizgacha. Ba'zi rivojlanayotgan mamlakatlarda bojsiz savdo cheklangan miqdordagi zarur dori-darmonlar uchun amal qiladi. Bir qancha mamlakatlar, asosan JST a'zolari, JST tarif rejalarida farmatsevtika mahsulotlariga bojsiz kirishni ta'minlash majburiyatini olgan. *Masalan, Qirg'iziston uchun tariflar 15 foizdan nolga tushirilgan, Qozog'iston uchun ham 5 foizdan nolga tushirilgan. Rossiya uchun tariflar 10 foizdan 5 foizgacha tushgan.*

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekiston uchun JSTga a'zo bo'lsa, agar tariflar Rossiya darajasiga (5 foizgacha) tushirilsa importning o'sishi 5,8 mln. dollar miqdorida, Qozog'iston va Qirg'iziston darajasiga tushirilsa (0 foizgacha) importning o'sishi 6,7 mln. dollar miqdorida yuz beradi.

O'zbekistonda notarif to'siqlar darajasi va ularning import va ichki ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat sektori farmatsevtika mahsulotlari asosiy import qiluvchisi hisoblanadi, lekin xaridlari tartibi hali beri murakkab. O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyatning barcha turlari litsenziyalashni taqozo etadi.

³⁶ <https://review.uz/oz/asc>

Intellectual mulk huquqlarini himoya qilish xalqaro biznes uchun ham jiddiy muammo hisoblanadi. Har qanday davlat xaridlari ochiq tenderdan o'tishi kerak, milliy ishlab chiqaruvchilarga esa tenderlarda ma'lum imtiyozlar beriladi.

O'zbekistonda farmatsevtika tarmoqlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab quvvatlash maqsadida quyidagi imtiyozlar ko'zda tutilgan.

- dori vositalari, xom ashyo va yordamchi materiallar, tibbiy asboblar va tibbiy jihozlar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi;

- qo'shilgan qiymat solig'i mahalliy ishlab chiqarishda o'xshash bo'lgan dori vositalari va tibbiy mahsulotlarni import qilishda qo'llaniladi;

- import bojxona to'lovlari texnologik va laboratoriya uskunalari, farmatsevtika mahsulotlari uchun butlovchi qismlar va ehtiyot qismlar, farmatsevtika sanoati uchun "toza xonalar", sendvich panellar va shamollatish tizimlari, dori-darmon, tibbiy mahsulotlar va qadoqlash materiallari ishlab chiqarishda ishlatiladigan xomashyo va materiallar qo'llanilmaydi.

JST shartlari bo'yicha mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun imtiyozlarni bekor qilish samaralarining hisob-kitoblari shuni ko'rsatadiki, ularning raqobatbardoshligi sezilarli darajada pasayadi va import 23 mln. AQSH dollarga oshadi, bu esa ichki ishlab chiqarishning 13% ga qisqarishiga olib keladi.

JSTga a'zo bo'lish davlat budjetiga potensial ta'sir ko'rsatadi. Dori-darmonlarning narhining pasayishi bilan aholining farovonligi qo'shimcha 1 mln. dollarga oshadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra O'zbekiston eksportini 4,5 million dollarga oshirish mumkinligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda dori-darmon vositalari ishlab chiqaruvchi 95 ta mahalliy farmatsevtika korxonasidan 10 tasida GMP tegishli ishlab chiqarish amaliyoti talablari joriy etilgan (31 ta mahalliy ishlab chiqarish korxonasida ISO 9001 sifat menejmenti tizimi, oltita korxonada xalqaro GMP standarti va uchta korxonada milliy GMP standarti joriy etilgan).

JST qoidalarini savdoga texnik to'siqlar to'g'risidagi bitim yoki sanitariya-fitosanitariya tadbirlarini qo'llash to'g'risidagi bitim bilan tartibga solinadi.

Importni tartibga solish maqsadida JST kelishuviga muvofiq ma'muriy va texnik to'siqlardan ham foydalaniladi. JSTga a'zo davlatlar importga ma'muriy to'siqlar sifatida import shartnomalarini rasmiylashtirish va importni bojxona to'lovlaridan ozod qilish choralarini qo'llashlari mumkin.

Texnik to'siqlardan foydalanish importni tartibga solishning asosiy jihatlaridan biri hisoblanadi. Savdo sohasida texnik to'siqlardan foydalanish JST kelishuviga muvofiq texnik me'yoriy xujjatlar, standartlar, sinash va sertifikatlash jarayonlari savdoga keragidan ortiq to'siq bo'lmasligi lozim. Texnik to'siqlarni joriy qilish natijasida xosil bo'ladigan nomuvofiqliklarni chetlab o'tish maqsadida JST

kelishuvi a'zo davlatlardan mazkur chora-tadbirlarni barcha malakatlardan import qiluvchilar uchun bir xilda qo'llashni talab qiladi.

JST kelishuvlarida agarda boshqa davlatlar bilan kelishuv mavjud bo'lgan taqdirda xalqaro xatto chet el milliy standartlaridan ham foydalanish ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, qonunda import qilinayotgan tovarlar sog'liqni saqlash va xavfsizlik singari umumiy talablar bo'yicha O'zbekiston joriy qilgan texnik reglamentlarga mos kelishi ko'zda tutilgan. Bu esa O'zbekistonda standartlar ham majburiy ham boshqa elementlardan tashkil topganligini bildiradi va import qilinayotgan mahsulot boshqa elementlarga rioya qilishi shart emas. Shu bilan birga, O'zbekiston umumiy manfaatlarga tyegishli bo'lgan masalalar JST tomonidan tan olingan ro'yhatga nisbatan ko'p bo'lib, o'zaro moslashuv va usullar birligi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Shunday qilib kelishuvga muvofiq davlat tashkilotlari mavjud texnologiyaga mos kelishini ta'minlashga ma'suldirlar, vaholanki, boshqa mamlakatlarda ushbu majburiyat xususiy tarmoq va bozor kuchlariga yuklatilgan. Ma'muriy talablarning keng hajmini mavjudligi standartlarning 80% majburiy standartlar sifatida bo'lishining sababi hisoblanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan JSTning texnik to'siqlari doirasida import qilinayotgan tovarning importyor mamlakat tomonidan talab qilinadigan sertifikat talabnomalarini xam qo'shish mumkin. Sertifikatsiya qilish majburiy bo'lgan tovarlar ro'yhati mavjud bo'lib bu ro'yhatga 454 nomdagi tovarlar va ularning guruhlarini kiritilgan. Mazkur ro'yhatdagi tovarlar guruhlariga go'sht va go'sht mahsulotlari, sut mahsulotlari, meva va sabzovotlar, yoqilg'i mahsulotlari, kimyoviy va mineral o'g'itlar va boshqa mahsulotlar kiritilgan. Ba'zi iste'mol tovarlariga nisbatan milliy tartibni buzilishining sababi importyorlardan talab qilinadigan ba'zi qoidalar mahalliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bundan tashqari aholi sog'lig'iga va atrof muhitga ta'siri bo'lgan tovarlardan tashqari mazkur ro'yhatga mebel, shisha va keramika mahsulotlari, qora metaldan tayyorlangan mahsulotlar, fotografik va kinomatografiya asbob uskunalari kiritilgan bo'lib, bu mahsulotlarni inson salomatligi uchun xavf soladigan tovarlar deb aytib bo'lmaydi.

Bundan tashqari majburiy sertifikatlash tartibi Yevropa Ittifoqida bo'lgani kabi xavf xatar darajasiga qarab taqsimlanmagan. Sertifikatsiya qilinishi majburiy bo'lgan mahsulotlar ro'yhatiga iste'mol tovarlarining deyarli 100% miqdori xisoblanadi. JSTga a'zo bo'layotgan mamlakat mahalliy tovarlarni sertifikatlash tartibini importni sertifikatsiyalash tartibi bilan birxillashtirishi lozim. Umumiy importdagi sertifikatlash lozim bo'lgan tovarlarning salmog'i yuqoriligini inobatga olib (62%), sertifikatlash borasidagi xalqaro tajribadan kelib chiqib sertifikatsiya qilinadigan tovarlar ro'yhatini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Muzokaralar jarayonida eksportni tartibga solish qismida mamlakatning zaif tomonlari eksport qilishga taqiqlarning mavjudligi, shuningdek milliy ishlab chiqaruvchilarga eksport qilishda soliq, bojxona va boshqa imtiyozlarning berilishi hisoblanadi. JST doirasida tashkilotga a'zo mamlakatlar bunday chora-tadbirlarni o'zini oqlamagan cheklovlar va tashqi savdoning buzulishi sifatida qarashlari mumkin.

Tayanch so'zlar: milliy rejim (National treatment), eng qulay mamlakat (Most-favoured-nation – MFN), notarif to'siqlar, GATT, GATS, raund, xalkaro savdoning xududiy tarkibi, xalqaro savdo siyosati, optimal tarif stavkasi.

Nazorat savollari

1. Jahon savdo tashkilotining funksiyalari, maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Jahon savdo tashkiloti iqtisodiyotni globallashtirishga qanday ta'sir ko'rsatadi?
3. Savdoga qo'yilgan to'siqlar borasida qanday ko'p tomonlama shartnomalarni bilasiz?
4. JST shartnomalari qishloq xo'jaligi sohasini himoyalashga ruxsat beradimi? Fikringizni Qishloq xo'jaligi shartnomasidagi shartlar yordamida izohlang.
5. JST eng kam rivojlangan mamlakatlar guruhiga qanday yondashadi? Qanday holatlarda savdoni cheklash uchun istisnolar mavjud?
6. GATS doirasida "Eng qulay mamlakat" tamoyili qanday ishlaydi?
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yildagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasidagi Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish masalalari haqida qanday maqsad qo'yilgan?
8. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi qanday qulaylik va afzalliklarga ega?
9. O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi uchun Bojxonaga oid me'yoriy hujjatlarni JSTning bitimlari talablariga qanday moslashtirishimiz kerak?
10. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi iqtisodiyot tarmoqlariga qanday ta'sir qiladi(yutuqlari, yo'qotishlari, imkoniyatlari, xavf-xatarlari)?

11-BOB. Jahon iqtisodiyoti globallashuvining ziddiyatlar va tahdidlarining xususiyatlari va bartaraf etish mexanizmi

- 11.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvida ziddiyatlar va tahdidlar
- 11.2. Jahon xamjamiyatining (BMT) va G 7, G 20 mazkur tahdidlarni bartaraf etish doirasidagi chora – tadbirlari
- 11.3. Global tahdidlarni bartaraf etish mexanizmi

11.1. Jahon iqtisodiyoti globallashuvida ziddiyatlar va tahdidlar

Iqtisodiy faoliyatning globallashuvi nafaqat iqtisodiy hayotga, balki uzoq davom etadigan siyosiy (ichki va xalqaro), ijtimoiy va hatto madaniy-sivilizasion oqibatlariga olib keladigan ulkan ta'sirga ega zamonaviy dunyoni rivojlantirishning asosiy tendensiyalaridan biridir.

Globallashuvning asosi asosan yirik xorijiy investisiyalardir, ya'ni sotib olish, nazorat qilish va boshqarish uchun chet elda kapitalni olib chiqish - ba'zan milliy kapital bilan birgalikda - haqiqiy mulk va ushbu mulkdan tegishli daromad olish. Bu to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar, qoida tariqasida, uzoq muddatli, strategik tabiati, Portfolio investisiyalar faqat spekulyativ moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq farq qiladi.

Zamonaviy dunyoda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar ishlab chiqarishning o'sish sur'atlariga (yalpi ichki mahsulotga) va xalqaro savdoning o'sish sur'atlariga nisbatan yuqori sur'atlarda o'sib bormoqda. Masalan, 1997 yilda yalpi ichki mahsulot (butun dunyo miqyosida) 1,2%, jahon eksporti (tovarlar va xizmatlar) 2,9% ga, to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investisiyalar shaklida kapitalni 25,1% ga (1998 yilda - 36,6% ga) eksport qildi. Shu bilan birga, ushbu investitsiyalar amalga oshiriladigan asosiy shart sharoitda, uning katta qismi kabi xalqaro savdo ham TNK yoki turli mamlakatlarda TNK yoki an'anaviy kompaniyalar o'rtasida (uning bosh korxona va boshqa mamlakatlarda filiallari o'rtasida yoki turli filiallari o'rtasida) shu TNK doirasida ham ixtisoslashuvi va hamkorlik jarayonlarini amalga oshiradi. Jahon savdosining taxminan 1 / 3-bu TNK tarkibiga kiruvchi korxonalar va boshqa 1 / 3-turli TNK o'rtasidagi savdo. Ushbu savdoning qalbida bir martalik savdo bitimlari emas, balki tegishli bitimlar, hamkorlik shartnomalari va boshqalar asosida uzoq muddatli ishlab chiqarish aloqalari mavjud.

Shunday qilib, " bunday mamlakatda ishlab chiqarilgan "odatiy belgi o'rnini bosadigan xalqaro ishlab chiqarish deb ataladigan narsa asta-sekin o'sib boradi va asta-sekin kengayadi" bunday kompaniyada ishlab chiqarilgan "(turli mamlakatlardagi korxonalar ishtirokida). Shu bilan birga, yuqori texnologiyali mahsulotlar, elektron sanoat, shuningdek, farmasevtika va kimyo sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish eng tez sur'atlarda o'sib bormoqda.

Globallashuv "tushunchasi keng tarqalishiga qaramay», uning mohiyatini aniqlashda aniqlikka hali erishilmagan.

Bu ko'p qarama-qarshiliklar mavjudligi tufayli, tahlil va baholash ushbu tadqiqotning maqsadi. Yagona yo'qligi globallashuvning mohiyati haqidagi fikrlar

uning ko'pligida namoyon bo'ladi izohlar, harakatlantiruvchi kuchlar va xarakterli farqlar ushbu jarayonning belgilari, shuningdek uning rivojlanish istiqbollari. Bu holat murakkabligi va ko'p qirraliligi bilan bog'liq globallashuv jarayoni inson hayotining barcha sohalarida aks ettirilgan. Shunga qaramasdan, tavsiya etilgan va ishlatilgan ta'riflarning katta qismi noto'g'ri jarayonga tegishli ekanligini ta'kidlash kerak globallashuv, xarakterga o'xshash hodisalarga ta'sir qiladi. Bu sodir bo'ladi va istalgan narsa haqiqat uchun berilgan sub'ektiv omil, bu juda mashhur va dolzarb uchun tabiiydir jahon iqtisodiyotining global o'zgarish mavzusi.

Yana bir qarama-qarshilik hozirgi holatni baholash bilan bog'liq globallashuv, uning rivojlanish vektori. Xalqaro savdoning sekinlashuvi yoki hatto salbiy o'sish sur'atlari va kapital harakatchanligi so'nggi chuqur inqiroz shoklarining natijasi sifatida ko'plab mutaxassislar deglobalizasiyaning yangi davri haqida gapirishdi. Qayd etilganidek, ushbu jarayon doirasida mamlakatlar o'z taraqqiyotini mahalliyashtirishga intilmoqda, bu esa tabiiy ravishda jahon iqtisodiyotining kamroq aloqasi va o'zaro bog'liqligiga olib keladi. Ya'ni, harakat, teskari globallashuv.

Ushbu tadqiqotning maqsadi turli nuqtalarni tahlil qilishdir ushbu muammolarga va mavjud ma'lumotlar va ekspert baholash usullari asosida qarashlar o'z xulosasiga keladi.

Milliy iqtisodiyotlar tobora birlashgan Globallashuvning tarkibiy elementlari xarakterini egallamoqdalar. Endilikda ikki yuzdan ortiq davlatlarning o'zaro ta'sir o'rsatuvchi milliy iqtisodiyotlari, shuningdek, transmilliy korporatsiyalar va davlatlararo va sivilizatsiyalashgan iqtisodiy birlashmalar va ittifoqlar mavjud. Bular - Yevropa Ittifoqi, NAFTA, MDH, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati, Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi, Afrika ittifoqi va boshqalar. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar qatoriga Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashi, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon savdo tashkiloti va boshqalar kiradi. Geoiqtisodiyot jahon bozorining birligi va uni tartibga solish qoidalari asosida ishlaydi. Bu dunyo valyutalarining (dollar, ba'zi mintaqalarda - yevro, iyena) mavjudligi, axborot va texnologik makonning umumiyliigi, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi erkinligi bilan tavsiflanadi. Geoiqtisodiyot neoliberal modelga muvofiq, yetakchilik hamda transmilliy korporatsiyalar va rivojlangan davlatlar manfaatlariga muvofiq shakllantirilgan. Ular globallashuv samarasini olishmoqda. Boy va kambag'al davlatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi tafovut tobora kengayib bormoqda. 1992 yilda Rio-de-Janeyro sammitida ilgari surilgan Barqaror rivojlanish dasturi amalga oshirilmadi. Bu sivilizatsiyalar to'qnashuvi xavfini shirdi.

Anti-globalistlarning ommaviy harakati "oltin milliard" manfaatlariga mos holda birpolyar dunyoni shakllantirish tendensiyasiga reaksiya sifatida paydo bo'ldi.

Gruziyaning neoliberal modelidan farqli ravishda globallashuv va rivojlanishning gumanistik-noosferik modeli ilgari surilib, globallashuvning afzalliklari va mamlakatlar o'rtasida zamonaviy ilmiy va texnologik inqilobni, XXI asrning global muammolarini hal qilishda davlatlar va sivilizatsiyalarning muloqotiga, hamkorligiga va sherikligiga qaratilgan. Global barqaror rivojlanishni ta'minlash modeli 2002 yilda Yoxannesburgning Barqaror rivojlanish bo'yicha

Butunjahon sammitida ko'plab ishtirokchilar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Biroq, rivojlanayotgan global fuqarolik jamiyatida ushbu modelni amalga oshirish uchun jiddiy harakatlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Bir-biri bilan chambarchas bog'langan va o'zaro ta'sir ko'rsatadigan milliy iqtisodiyotlar, davlatlararo iqtisodiy birlashmalar (masalan, Yevropa Ittifoqi), transmilliy korporatsiyalar (TMK) va jahon moliyaviy markazlari global iqtisodiy makonni yuzaga keltiradi. Geoiqtisodiyot, shuningdek, jahon iqtisodiyotining qonuniyatlari, tendensiyalari, omillari va mexanizmlarini o'rganadigan iqtisodiy fanning yangi sohasi tushuniladi.

Ma'lumki, globallashuv – yaxlit jahon xo'jaligining shakllanishi, xalqaro mehnat taqsimoti va kooperasiyalashuvining jadallashishi natijasida milliy iqtisodiyotlarning bir-biriga chuqur bog'liqligi, iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, uning keng transmilliylashishi jarayonini anglatadi. Markazlashtirilgan integrasiyalashuv esa uning muhim bosqichlaridan biridir.

Shu jihatdan, *globallashuv va markazlashuv o'zaro bog'liq jarayonlardir*. Global darajada tartibga solib bo'lmaydigan iqtisodiy hamkorlik muammolari mintaqaviy integrasiya doirasida tobora ko'proq hal etilmoqda. Jahonning u yoki bu qismiga taalluqli bo'lgan va muayyan umumiylikka ega bo'lgan bir guruh mamlakatlar o'rtasida hamkorlik va almashinuvning preferensial shart-sharoitlari o'rnatilishi, boshqacha aytganda, xo'jalik hayotining mintaqalashuv jarayoni zamonaviy global iqtisodiyotiga xos xususiyatdir. Mintaqaviy asosda tobora ko'proq xalqaro iqtisodiy ittifoqlar va birlashmalar paydo bo'lmoqda, ular doirasida milliy xo'jaliklar hamkorligi jadal rivojlanmoqda³⁷.

“Iqtisodiy integrasiya” atamasi XX asrning 30-yillarida nemis va shvesiyalik iqtisodchilarning asarlarida paydo bo'ldi, biroq bugungi kunda uning bir nechta o'nlab ta'riflari mavjud.

“Xalqaro iqtisodiy integrasiya” deganda bir qator mamlakatlar takror ishlab chiqarish jarayonlarining bosqichma-bosqich birlashishiga olib boradigan, milliy xo'jaliklar o'rtasida chuqur barqaror o'zaro munosabatlar va mehnat taqsimotining rivojlanishi asosida ishlab chiqarish baynalminallashuvining yuqori darajasi tushuniladi³⁸.

Markazlashgan iqtisodiy integratsiya – bir nechta mamlakatlarning mintaqaviy darajadagi qo'shma faoliyatini ko'zda tutadi, ular iqtisodiyotini u yoki bu turdagi yagona mintaqaviy xo'jalik majmuasiga birlashtirishga olib boradi.

³⁷ Мировая экономика в век глобализации: Учебник/О.Т. Богомолов – М.: ЗАО “Издательство “Экономика”, 2007. – С. 26.

³⁸ Alimov A.M. Globallashuv va mintaqaviy iqtisodiy integratsiya jarayonlari. O'quv qo'llanma. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2016. – 96 b.

Biroq, muammo “birlashtirish”, “umumlashtirish”, “yaxlitlik” tushunchalariga qanday mazmun kiritilayotganidan iborat.

R. Aron ta’kidlaganidek: “Agar tovarlar, kapital va insonlarning muayyan miqdordagi iqtisodiy birliklar o’rtasidagi harakati mazkur birliklardan har birining ichidagi kabi erkin amalga oshirilsa, u holda ushbu birliklar umumlashtirilgan”.

Integrasiyalashayotgan mamlakatlar o’rtasida tovarlar va ishlab chiqarish omillari harakatining to’liq erkinlashtirilishi natijasida tashkil topadigan yagona iqtisodiy makon raqobatdosh firmalar sonini oshirish va “miqyos iqtisodiyoti”ning ko‘p sonli samaralaridan foydalanishga imkon beradi.

Integratsiyaga oddiydan murakkabga qarab rivojlanayotgan jarayon sifatida qarash uning shakl va bosqichlarining tasniflanishini amalga oshirishga imkonini beradi.

Turli xalqaro iqtisodiy tashkilotlar asos sifatida qabul qilgan B. Balassa nazariy yondashuvi klassik tasnifga aylandi. B. Balassa, eng avvalo, hamkorlik va integrasiyani farq qilishni taklif etdi. Agar hamkorlik jarayoni turli xildagi kamsitishlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan hatti-harakatlarning amalga oshirilishini bildirsa, u holda integrasiya jarayoni kamsitishlarning bartaraf etilishini ko‘zda tutadi. B. Balassa *integratsiyaning beshta asosiy shakllarini* (integratsion kelishuv turlarini) farqlaydi. Yel va boshqa integrasion guruhlarining muayyan tajribasi orqali kiritilgan mazkur nazariyaning zamonaviy modifikatsiyalarini hisobga olgan holda, ularni ko‘rib chiqamiz.

Integratsion kelishuvlarning asosiy turlariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir:

- erkin savdo zonasi;
- bojxona ittifoqi;
- umumiy bozor;
- iqtisodiy ittifoq (yanada yetuk shaklda iqtisodiy va valyuta ittifoqi);
- to’liq iqtisodiy va siyosiy integrasiya.

Ajratilgan turlardan har birini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Erkin savdo zonasi. Bu holatda kelishuv ishtirokchilari bir-birlariga nisbatan bojxona tariflari va kvotalarni bekor qiladilar. Shu bilan birga erkin savdo zonasining har bir ishtirokchisi uchinchi mamlakatlarga nisbatan o‘zining xususiy tashqi savdo siyosatini yuritish huquqini saqlab qoladi. NAFTAda shunday turdagi integrasiya shakliga yorqin misol bo‘la oladi.

Bojxona ittifoqi. Uning erkin savdo zonasidan asosiy farqi shundaki, bojxona ittifoqi ishtirokchilari nafaqat o‘zaro savdoda tarif va kvotalarni bekor qilishadi, balki uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona tashqi savdo siyosatini yuritishadi. Bojxona ittifoqi bir nechta bojxona hududlarini bittasi bilan almashtirishni ko‘zda tutadi. Bunda ichki chegaralardagi bojxona xizmatlari soddalashtiriladi, ularning funksiyalari esa yagona bojxona hududining tashqi chegaralaridagi tegishli xizmatlarga o‘tkaziladi. 1968 yildan boshlab Yevropa iqtisodiy hamjamiyati (keyinchalik Yevropa ittifoqiga aylantirilgan), shuningdek MERKOSUR, YevrosiH besh mamlakatida (Rossiya, Belorussiya, Kozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston) shakllanayotgan Bojxona ittifoqi ushbu shaklga misol bo‘la oladi.

Integratsiyaning bu bosqichida tovar oqimlari sezilarli darajada o'zgaradi, kelishuvning ishtirokchi mamlakatlaridan import qilish o'sadi, mahsulot ishlab chiqarish va iste'mol tarkibida o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Bojxona ittifoqi mantiqan yetarli darajada tugallangan shakl hisoblanadi. Shu bilan birga, tashqi savdo bilan cheklangan holda, u rivojlanishi savdo-iqtisodiy uyushmalarning yanada murakkab shakllariga o'tish ehtiyojini tug'diradigan ichki ziddiyatlarni o'z ichiga oladi.

Umumiy bozor. Bojxona ittifoqi doiralariga qo'shimcha sifatida, mazkur shakl barcha ishlab chiqarish omillarining ishtirokchi-mamlakatlar o'rtasidagi erkin ko'chishi yo'lidagi to'siqlarning bartaraf etilishini ko'zda tutadi. Aytilganlarning barchasi milliy qonunchilik, standartlarning yaqinlashishi, integrasiya institutsional asoslarining rivojlanishi, birlashtirish jarayonlarini umumiy boshqarish organlarining shakllanishini anglatadi.

Umuman olganda, mamlakatlarning muayyan guruhi ichida ishlab chiqarish omillarining erkin harakati jami resurslardan yanada oqilona foydalanish mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish ixtisoslashuvining rivojlanishi, ishlab chiqarish tuzilmalarining maqbullashishi va ishlab chiqarish miqyoslarining ortishidan iqtisod qilish omilidan to'liq foydalanishga yordam berishi lozim. Shu bilan birga umumiy bozor tarkibiga kiradigan mamlakatlarning iqtisodiy siyosatidagi tafovutlar bunga to'sqinlik qiladi. Bu holat Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda kelib chiqadigan barcha salbiy oqibatlar ziddiyatlarning mavjudligiga yo'l qo'yadi. Natijada savdo-iqtisodiy ittifoqlarning yanada murakkab shakllariga o'tish sharoitidagina hal qilinishi mumkin bo'lgan muammo paydo bo'ladi.

Iqtisodiy ittifoq. Mazkur shakl ishtirokchidan yuqorida ta'kidlangan ziddiyatlarning mamlakatlar yuritayotgan iqtisodiy siyosatning turli sohalarida kelishish yo'li bilan bartaraf etilishini ko'zda tutadi. YeI doirasida yagona qishloq xo'jaligi siyosati, kelishilgan sanoat, energetika, transport, mintaqaviy, ijtimoiy, ilmiy-texnik siyosat yuritilishi, bunga yorqin misoldir.

Shunga e'tibor qaratishimiz kerakki, iqtisodiy siyosat borasida kelishuv jarayoni muayyan darajaga yetgach, u o'z mantig'iga bo'ysuna boshlaydi va agar mamlakat o'z iqtisodiyotining yuqori darajadagi ochiqligi bilan tavsiflansa, yanada keng doiradagi masalalarni qamrab olgan yaqin bog'liqlikni talab etadi. Mazkur jarayon majmuaviy va yanada murakkab shakl – iqtisodiy va valyuta ittifoqi doirasida o'zining muayyan mantiqiy yakuniga yetishi mumkin.

Valyuta ittifoqi — yagona markaziy bankning tashkil etilishi, yagona valyutaning joriy etilishini o'z ichiga olgan yagona mintaqaviy valyuta tizimini yaratishdir. Bunda yagona valyuta-kredit va muvofiqlashtirilgan mikroiqtisodiy siyosat borasida kelishuvlar qaror topishi ta'minlanadi.

To'liq iqtisodiy va siyosiy integrasiya. Mazkur holatda yagona bozor makonini yaxlit iqtisodiy va siyosiy tuzilmaga aylantirish haqida so'z boradi. Bu nafaqat kelishuv, balki bitta shaklga keltirilgan, deyarli yagona iqtisodiy siyosat, qonunchilik bazasini to'liq bir asosga keltirishni ko'zda tutadi.

Bu bosqichda xalqaro iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning yangi ko'p millatli sub'yekti paydo bo'ladi yoki asta-sekin shakllanadi, yagona federativ yoki konfederativ davlatni qaror toptirishga bo'lgan hatti-harakatlar sodir bo'ladi.

11.2. Jahon xamjamiyatining (BMT) va G 7, G 20 mazkur tahdidlarni bartaraf etish doirasidagi chora – tadbirlari

Globallashuv davrining yana bir o'ziga xos xususiyati, XX asrda global iqtisodiyotning yangi mexanizmlari va institutlari paydo bo'ldi, ularsiz bugun global iqtisodiyotning faoliyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon Banki, Jahon savdo tashkiloti, Bazeldagi Xalqaro hisob-kitoblar banki, BMTning mintaqaviy iqtisodiy komissiyalari, "Katta yettilik – G7" va "Katta yigirmatalik – G20"larning muntazam uchrashuvlari, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) hamda bir qator boshqa institutlar shular jumlasidandir³⁹.

Globallashuv milliy iqtisodiyotlarni jahon iqtisodiyoti bilan birlashishi orqali texnologiya, ishlab chiqarish, moliya va iste'mol bozorlarini qamrab oladi.

Ikkinchi jahon urushi 1945 yil nihoyasiga yetganda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tomondan xalqaro birlashuv tarafdorlari ko'paydi.

Shu sababli? Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etilib, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVM-IMF), Jahon Banki va Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) jahon iqtisodiyotida bozor asoslarini ishlashini ta'minlash maqsadida shakllantirildi.

BMTning 1944 yil AQSHning Bretton-Vuds shahrida o'tkazilgan xalqaro valyuta-kredit masalalari bo'yicha konferensiyasida BMTning ixtisoslashgan organi sifatida Xalqaro valyuta jamg'armasini tashkil etish bo'yicha qaror qabul qilindi. Uning vazifasi xalqaro va milliy valyuta-moliya tizimini qayta tiklash va barqarorlashtirish edi. Shuningdek, bu konferensiyada investisiyalash va kreditlash faoliyatini kengaytirishda xususiy kapitalning ham ishtirok etishi uchun Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ham ta'sis etildi. Mana shu voqea xalqaro moliya muassasalarining vujudga kelishining debochasi bo'ldi.

Global iqtisodiyotda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarni qamrovi jihatidan ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh BMT doirasida faoliyat olib boradigan xalqaro iqtisodiy tashkilotlar bo'lib, ularga BMTga a'zo bo'lgan barcha mamlakatlar a'zo bo'lishi mumkin va biror-bir geografik chegaralashga tobe emas. Jahon Banki, XVJ, WTO,

³⁹ Мировая экономика в век глобализации: Учебник / О.Т. Богомолов – М.: ЗАО "Издательство "Экономика", 2007. – С. 27/

UNCTAD, UNDP (BMTnin Taraqqiyot dasturi), FAO (Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti) kabi tashkilotlar bunga misol bo‘ladi.


Ikkinchi guruhga kiruvchi xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ma’lum bir guruh mamlakatlarningina a’zo bo‘lishi mumkin bo‘lgan tashkilotlardir. Chunki bular mintaqa bazasida iqtisodiy birlashma yoki hamkorlik xususiyatiga ega tashkilotlardir.

Ushbu tashkilotlar doirasiga Yevropa Ittifoqi, NAFTA va bir qator boshqa mintaqaviy integrasion tashkilotlar kiradi. Ular qatoriga Islom hamkorlik tashkiloti (IHT), ma’lum bir mahsulot ishlab chiqarib eksport qiluvchi (masalan, neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti – OPEC), Arab valyuta jamg‘armasi yoki ma’lum bir geografik mintaqada joylashishi (Qora dengiz iqtisodiy hamkorlik tashkiloti) kabi ba’zi tashkilotlar kiradi.

Bugungi kunda global iqtisodiyotda xalqaro maqomga ega bo‘lgan bir nechta mintaqaviy kredit tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi. Mazkur tashkilotlar, asosan, hududlar miqyosida faoliyat ko‘rsatsa-da, keyingi yillarda ularning hudud doirasidan tashqarida ham faolligi ortib bormoqda. Ushbu tashkilotlar qatoriga quyidagilar kiradi: Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki (ITB), Amerikalararo taraqqiyot banki, Afrika taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki.

O‘tgan asrning 60-yillariga kelib yirik mintaqaviy banklarning paydo bo‘lishiga bir qancha sabablar ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu sabablar ichki va tashqi omillar ta’sirida vujudga kelgan. Ichki sabablarga quyidagilarni keltirish mumkin:

- mustamlakalar tizimining parchalanishi;
- rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon rivojlanishidagi o‘rnining ortishi va ularning yangi iqtisodiy tartib uchun kurashining kuchayishi;
- mintaqaga xos bo‘lgan maxsus vazifalarini yechishga bo‘lgan ehtiyoji;
- xorijiy raqobatga qarama-qarshi turish va milliy iqtisodiyot muammolarini birgalashib, kelishilgan holda yechish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlarning hududiy hamkorligi va iqtisodiy integrasiyalashuvini rivojlantirish va boshqalar.



Jahondagi xalqaro moliya tashkilotlarini qamrov nuqtai nazaridan uch turga bo'lish mumkin bo'lib, ular:

- global (jahon miqyosidagi) tashkilotlar, bularga Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, Jahon Banki guruhi va boshqalar kiradi;
- mintaqaviy tashkilotlar, misol uchun, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va hokazo;
- ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, masalan, Islom taraqqiyot banki (ITB) va boshqalar.

Global iqtisodiyotda muhim institusional tuzulmalar sifatida “Katta yettilik ” guruhi (G-7), “Katta yigirmalik” guruhi (G-20) keltirish mumkin.

G-7 (Great 7 – Katta yettilik) Yaponiya, Kanada, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya kabi mamlakatlardan tashkil topgan. Aslida “Katta yettilik” rasmiy maqoga ega emas: uning kotibiyati ham, boshqaruv idoralari ham yo‘q. G-7 tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ham majburiy kuchga emas. Biroq, yettita ittifoqdosh mamlakatlar ularning mushtarak manfaatlariga xizmat qiluvchi qat'iy va buzilmas yozilmagan tartib-qoidalarga bo'ysunadi.

“Katta yigirmalik” guruhi (G-20) 1999 yilda global iqtisodiyotdagi asosiy muammolarni muhokama qilish maqsadida tashkil etilgan.

Ushbu guruh tarkibiga yalpi ichki mahsuloti hajmi jahon yalpi ichki mahsulotning 90 foizini tashkil etadigan 20 ta rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardan iborat: Argentina, Avstraliya, Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Italiya, Kanada, Meksika, Xitoy, Rossiya, Saudiya Arabistoni, AQSH, Turkiya, Fransiya, Janubiy Afrika Respublikasi, Janubiy Koreya, Yaponiya, Yevropa Ittifoqi.

“Katta yigirmalik” guruhi faoliyati global moliyaviy-iqtisodiy muammolarni hal etishga qaratilgan bo'lib, shu jumladan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qarshi kurashish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va bu boradagi muammolarni birgalikda hal etish maqsadida bir necha sammitlar o'tkazdi:

AQSH (Vashington, 2008 yil noyabr; Pittsburg, 2009 yil sentyabr);
Buyuk Britaniya (London, 2009 yil aprel);
Kanada (Toronto, 2010 yil iyun);
Janubiy Koreya (Seul, 2010 yil noyabr) va boshqa davlatlarda bo'lib o'tgan.

11.3. Global tahdidlarni bartaraf etish mexanizmi

Global tahdidlarni bartaraf etish mexanizmi. Globallashtirish bilan bir qatorda, ular bilan yaqin aloqada yana bir zamonaviy tendensiya aniq belgilangan: jahon iqtisodiyotining hududiylashuvi. Bu, cheklangan miqyosda globallashtirish, savdo-sotiqni liberallashtirish, kapital harakati va odamlarni tegishli integrasiya guruhining bir qismi sifatida tashkil etadigan birlashmalar tashkil etadigan bir guruh davlatlarni qamrab oladi.

Ushbu tendensiyaning eng yaxshi namunasi 15 g'arbiy Yevropa mamlakatlari tarkibida Yevropa Ittifoqi tomonidan taqdim etilgan bo'lib, 40 yildan ko'proq vaqt davomida mavjud bo'lib, 11 - dan yanvar 1-dan 1999-ga umumiy valyutaga-evro. Umuman olganda, JST ma'lumotlariga ko'ra, 90-yillarning o'rtalariga kelib, dunyoda 30 dan ortiq turli xil integrasiya guruhlari (imtiyozli savdo bitimlari, erkin savdo zonalari, bojxona uyushmalari, "umumiy bozorlar", iqtisodiy (va valyuta) uyushmalari) mavjud edi.

Mintaqaviylashtirish hududlararo iqtisodiy oqimlarning (savdo, to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar) umumiy dinamikasiga nisbatan jadal o'sishiga olib keladi. Jahon eksportining qariyb yarmi uchta asosiy mintaqada (G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo-tinch okeani) mintaqaviy savdo ulushiga to'g'ri keladi. G'arbiy Yevropada mamlakatlarining umumiy eksportida mintaqaviy savdo (eksport) ulushi 70% dan oshadi.

Xuddi shu tendensiya sezilarli darajada va ko'p hollarda mahalliy xususiy investisiyalarning o'sib borayotgan ulushi sifatida namoyon bo'ladi. Bu xuddi shu G'arbiy Yevropa va Yevropa Ittifoqi, shuningdek, Yaponiya va Janubiy-Sharqiy Osiyo misolida ko'rinadi.

Mintaqaviy guruhlar doirasidagi iqtisodiy munosabatlar, albatta, erkinlashtiriladi, bu erda - bir daraja yoki bir daraja - yagona iqtisodiy makon yaratiladi. Biroq, ushbu guruhga (erkin savdo hududi, bojxona Ittifoqi, "umumiy bozor") a'zo bo'lmagan mamlakatlar, ular uchun tarif shartlari bir xil bo'lsa ham, nisbatan yomon ahvolda.

Mintaqaviy jarayonlar davlat suvereniteti haqida juda nozik va og'riqli masalaga ta'sir qiladi. Har bir integrasiya darajasi a'zo davlatlarning hukumatlari bilan kelishmasdan qaror qabul qilish huquqiga ega bo'lgan barcha mintaqaviy guruh yoki hatto yagona supranational organ foydasiga iqtisodchilarning siyosiy suverenitetini yo'qotish degan ma'noni anglatadi.

Ko'rib turganimizdek, mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarining zamonaviy sharoitda o'sishi ko'pincha mintaqaviy iqtisodiy guruhga tegishli. G'arbiy Yevropa integrasiyasi va boshqa muvaffaqiyatli rivojlanayotgan iqtisodiy guruhlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayonlarning asosi mikro darajada,

muayyan kompaniyalar, banklar, moliya-sanoat guruhlar, ularning qo'shma investisiya loyihalari, aralash korxonalar tashkil etish va boshqalar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik shaklida shakllanadi. Bunday guruhlash qanchalik kuchli bo'lsa, mamlakat aholisining ichki aloqalari va o'zaro qiziqishi qanchalik kuchli bo'lsa, o'zaro savdo aylanmasi yanada muvaffaqiyatli rivojlanadi. MDH doirasida yoki 4-x bojxona Ittifoqida (Rossiya, Belarus, Qozog'iston va Qirg'iziston) bunday narsa kuzatilmayapti. So'nggi yillardagi tajriba shuni ko'rsatadiki, ob'ektiv iqtisodiy sharoitlar, xususan, ushbu mamlakatlar iqtisodiyotining tuzilishi MDHni haqiqiy integrasiya guruhiga aylantirishga umid qilmaydi. Mintaqaning iqtisodiy salohiyati uning geosiyosiy ahamiyatini belgilovchi eng muhim omillardan hisoblanadi. Shu tufayli mintaqa iqtisodiy salohiyatining geosiyosiy ta'sir doirasiga tortilishi mumkin bo'lgan jihatlariga nazar tashlash joiz.

Ma'lumki, "manfaatlar to'qnashuvi" ancha yillar mobaynida Afg'oniston hududida ro'y berib keldi. Endilikda so'z bu to'qnashuv sahnasining Kaspiy atrofi yoki mintaqaning boshqa hududlariga ko'chish ehtimoli haqida bormoqda. Markaziy Osiyoda vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatni AQSHning taniqli tadqiqotchilaridan biri – Z. Bzejinskiy "Buyuk shaxmat taxtasi" asarida o'ziga xos tarzda talqin qiladi. Shu nuqtai nazardan yangi-yangi energetika zaxiralarini izlab topishga bo'lgan ehtiyoj yetakchi davlatlarni ushbu zaxiralarga boy hududlar tomon, xususan Markaziy Osiyo tomon chorlashi aniq. Tabiiy zaxiralarga boy va ayni paytda millatlararo munosabatlar, tarixiy hududlar masalalari jihatdan notinch bo'lgan mintaqada millatlararo, hududiy negizda turli nizolarni keltirib chiqarishga urinishlar bo'lishi mumkin⁴⁰.

Ma'lumki, mintaqa ulkan xom ashyo zaxirasiga ega. Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistonda aniqlangan neft zaxiralari yer yuzidagi butun zaxiralarning taxminan 2,7 foizini, gaz zaxiralari esa 7 foizini tashkil etar ekan. Turkmanistonda gazning ulkan zaxiralari aniqlangan. O'zbekistonda 1 trln. AQSH dollari miqdorida neft va gaz zaxiralari mavjudligi aniqlangan⁴¹.

O'zbekiston oltin zaxiralari 13,8 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi, dunyoda to'rtinchi o'rinda turgan davlat hisoblanadi, ishlab chiqarish bo'yicha esa 7 o'rinni egallaydi. Shuningdek, O'zbekistonda boshqa nodir metallarning yirik zaxiralari mavjud⁴².

Yer qa'ridagi temir rudasi zaxiralarining 8% Qozog'iston hududiga to'g'ri keladi.

O'zbekiston va Tojikistonda yirik uran rudasi konlari mavjud. Masalan O'zbekiston uran qazib chiqarish bo'yicha yer yuzida 7 o'rinda turadi⁷².

Paxta ham Markaziy Osiyoning katta boyligi hisoblanadi. Masalan, mintaqa bo'yicha 1995 yilda terib olingan 5,9 mln. tonna paxta butun MDH hududida terilgan paxtaning 96%ni tashkil etadi. O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda 4-o'rinni, uni eskport qilish bo'yicha esa 2-o'rinni egallaydi.

⁴⁰ http://www.hydromuseum.ru/ru/encyclopedia/glossary/Zapasi_energeticheskikh_resursov/

⁴¹ <http://svom.info/entry/586-mir-i-energeticheskie-resursy/>

⁴² <https://www.spot.uz/ru/2018/07/11/gold/>

Ana shunday ulkan imkoniyatlarga ega bo'lishiga qaramasdan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining jo'g'rofiy jihatdan noqulay shart-sharoiti, aniqrog'i, energetik zaxiralarning iste'mol bozoridan uzoqda joylashgani hamda ushbu bozorga chiqish yo'llarining murakkab geosiyosiy xarakteri tufayli mavjud geostrategik salohiyatdan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Markaziy Osiyodagi davlatlarning birortasi ham ochiq dengizga chiqish yo'llariga ega emas.

Boshqacha aytganda, hozirgacha Markaziy Osiyoga asosan havo yo'llari orqaligina bemalol kirish mumkin. Mintaqaning Xitoy, Hindiston, Eron va Rossiya o'rtasida joylashgani yetakchi davlatlarning ushbu hudud markaziga yo'nalish uchun o'ziga xos murakkabliklar tug'diradi. Chunki tabiiy zaxiralardan foydalanish, neft va gaz quvurlarini biror bir yo'nalish orqali ochiq dengiz portlariga olib chiqish uchun bir nechta davlat hududidan o'tish va buning uchun yetakchi transmilliy kompaniyalari bilan shartnoma tuzgan holda amalga oshirishga to'g'ri keladi. Qolaversa, bunday loyihalar yetakchi davlatlar manfaatlarining to'qnashuviga olib kelmagan taqdirdagina kutilgan samara berishi mumkin.

Ma'lumki, dunyodagi eng yirik neft va gaz zaxiralari Kaspiy dengizi tubi va atrofida, ayniqsa, Tengiz va Qorachig'anoq konlarida joylashgan. Shu bois dunyodagi yetakchi davlatlar bir necha yillardan buyon Kaspiy dengizi ostidagi neft zaxiralarini o'zlashtirish uchun keskin kurash olib borayotgani mintaqa atrofida turli "siyosiy o'yin"lar uyushtirayotgani bu hududdagi vaziyatni izdan chiqarmoqda. Avval boshda Kaspiyning xalqaro mavqei muammosi paydo bo'lgan bo'lsa, keyinroq uning "dengiz" yoki "ko'l" ekanligini qaytadan belgilab olish masalasi ko'tarildi. Undan keyin Kaspiy neft zaxiralaridan o'zaro foydalanish bo'yicha Qozog'iston, Rossiya, Eron, Ozarbayjon va Turkmaniston o'rtasida vujudga kelgan keskin vaziyat haligacha o'z yechimini topgani yo'q. 2002 yil may oyida Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan va muvaffaqiyatsiz yakun topgan Kaspiy bo'yidagi to'rt davlat rahbarlarining uchrashuvini misol tariqasida keltirish mumkin. Ma'lumki, Eron prezidenti tadbirlar tugamasidanoq Ozarbayjonni tark etgan, Rossiya prezidenti esa jurnalistlarga bergan intervyusida boshqa ishtirokchilarni "zaif muzokarachi", deya ta'rifgan edi.

Turkmaniston o'zining betaraf pozitsiyasini ro'kach qilib, mintaqa atrofida kechayotgan asosiy geosiyosiy jarayonlardan chetda turishni afzal ko'rmoqda. Qirg'iziston va Tojikiston ham bir necha yillardan buyon mintaqa atrofida kechayotgan geosiyosiy jarayonlar sinovidan o'tib kelmoqda. Tabiiyki, mintaqadagi davlatlarning iqtisodiy imkoniyatlari va siyosiy rivojlanishi yetakchi davlatlar tomonidan doimiy kuzatuv va diqqat markazida qolib kelmoqda. O'zbekistongina o'z tashqi siyosiy faoliyatni mamlakat milly manfaatlarini inobatga olgan qat'iyat bilan amalga oshirib kelmoqda. Uning ulkan iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarga ega bo'lgan davlat ekanligini anglab yetgan yetakchi mamlakatlar o'z iqtisodiy manfaatlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida yirik kompaniyalarining vakolatxonalarini ochmoqda.

Shu o'rinda Markaziy Osiyoda azldan mavjud bo'lgan va hozirgi davrda qayta tiklanayotgan Buyuk Ipak yo'lining iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlab o'tish zarur. Birgina O'sh-Andijon-Toshkent-Nukus-Qo'ng'iro't avtoyo'lining barpo etilishi

Buyuk Ipak yo'li asosiy bo'g'inining ishga tushganini anglatadi va O'zbekiston iqtisodiy imkoniyatlarining yanada kengayishiga xizmat qiladi.

Geosiyosat nuqtai nazaridan O'zbekiston Markaziy Osiyoning markazini egallagan hamda muhim strategik mavqega ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy salohiyati hamda demografik imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi boshqa davlatlardan ajralib turadi. Jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi aholisining 40 foizi O'zbekistonda istiqomat qiladi. Qo'shni respublikalarning O'zbekistonga chegaradosh bo'lgan barcha ma'muriy hududlarida o'zbeklar mahalliy elatlar bilan birgalikda yashab keladi. O'zbek xalqiga xos bo'lgan bag'rikenglik, urf-odatlarni e'zozlash, an'analarga amal qilish, baqamti yashayotgan elatlar o'rtasida uning yetakchiligini ta'minlaydi. Bu hol O'zbekistonning mintaqada nafaqat jo'g'rofiy, balki etno-madaniy nuqtai nazaridan ham o'ziga xos ko'prik vazifasini o'tayotganini namoyon etadi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqaning geosiyosiy mavqei quyidagi omillar bilan belgilanadi: Markaziy Osiyoning geosiyosiy mavqei, avvalo, uning iqtisodiy imkoniyatlari bilan belgilanadi. Bu borada eng manfaatli hamkorlar bilan ish olib borish muhimligini ta'kidlab, mintaqada yetakchi davlatlar manfaatlarining shiddat bilan shakllanib borayotganini inobatga olish zarur. Shu bilan birga, iqtisodiy manfaatlarini amalga oshira olmagan tashqi kuchlar diniy, millatlararo munosabatlar, hududiy muammolar, suv taqsimotiga oid masalalar kabi omillarga tayanib, mintaqadagi barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, millatlararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash mintaqaviy xavfsizlikning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mintaqada suv taqsimoti masalalarida hukumatlararo komissiya ishini to'g'ri yo'lga qo'yish, respublikalar o'rtasida chegaralash ishlarini oxiriga yetkazish mintaqadagi kommunikasion tizimning takomillashtirilishi uning iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini oshishiga olib keluvchi omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, mintaqada, jumladan O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan xorijiy tashkilotlar tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarning mavzulariga e'tibor qaratish va ularning mintaqqa ijtimoiy-siyosiy hayotiga ta'siri to'g'risida amaliy tadqiqotlar olib borish hamda tegishli xulosalar chiqarish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda manfaatlarining tengligi asosida, barcha, ayniqsa rivojlangan davlatlar bilan o'zaro foydali hamkorlik o'rnatish mintaqqa mamlakatlarining dunyo iqtisodiy tizimiga tadrijiy hamda qonuniy tarzda integrasiyalashuvi hamda, Markaziy Osiyo geosiyosiy ahamiyatining yanada kuchayishiga olib kelishi shubhasizdir.

Tayanich so'zlar: Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, Mintaqaviy birlashmalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, nohukumat nodavlat tashkilotlari, institusional omillar, iqtisodiy siyosat, barqaror rivojlanish.

12-BOB. JAHON MOLİYAVIY IQTISODIY INQIROZLAR

12.1. Buyuk depressiya.

12.2. Osiyo moliyaviy-iqtisodiy inqirozi.

12.3. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozlar: kelib chiqish sabablari, salbiy oqibatlari va bartaraf etish dasturlari.

12.4. COVID-19 pandemiyasi savdo va rivojlanishga ko'rsatgan ta'siri

12.1. Buyuk depressiya.

Ushbu iqtisodiy inqiroz "Buyuk depressiyasi" nomi bilan mashhur bo'lib, o'zining juda katta salbiy oqibatlari va dunyo iqtisodiyotiga ko'rsatgan ijtimoiy-iqtisodiy zararining ko'lamdorligi bilan eng ko'p o'rganilgan hamda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan inqirozlardan biri bo'lib hisoblanadi. Inqiroz iqtisodiy faollikning keskin pasayganligi, asosiy jahon valyutalarining oltin standartidan voz kechganligi, ishsizlar sonining keskin oshganligi va o'zining iqtisodiyotga ko'rsatgan zarari, iste'mol hajmining pasayib ketganligi bilan tarixda chuqur iz qoldirgan.

Mazkur inqiroz Nyu-York fond birjasida sodir bo'lgan tanazzuldan boshlangan bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra 1929 yilning 28-29 oktabr kunlari birjaning asosiy indeksleri birdaniga 25 foizga pasayib ketishi sodir bo'lgan. Ushbu holatni bartaraf etish va oldingi holatga keltirish uchun qilingan sa'y-harakatlarga qaramasdan narxlarining qulashi davom etavergan. 1933 yilda o'zining yuqori cho'qqisiga chiqib, Dou-Djons indeksining 83 foizga pasayishi, ya'ni 365 dan 63 punktga pasayib kyetganligi qayd etilgan. Mazkur holat asta-sekinlik bilan butun Amerika iqtisodiyotini, xususan, tarmoq va sohalarning butunlay parokanda bo'lishiga olib kelgan.

Fond birjasining tanazzulidan bir yil o'tar-o'tmas tijorat banklarining birma-bir yopilishi sodir bo'la boshlagan. 1929-1933 yillar oralig'ida AQShda 9000 tijorat banki o'z faoliyatini to'xtatishga majbur bo'lgan. O'sha paytda faoliyat yuritgan korxonalarning 2/3 qismi yopilib, moliyaviy tizim qariyb majruh holga tushib qolgan edi. Buning oqibatida xalqaro kapitallarning ayirbolanishi va harakatining izdan chiqishi vujudga keladi.


1929-1933 yillar oralig'ida AQShning yalpi ichki mahsuloti 46 foizga, iste'mol tovarlari narxi indeksi esa, 32 foizga pasaygan. Fermerlarning talofati esa, boshqa tarmoq va sohalarga qaraganda yanada ayanchliroq kasb etib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi 60 foizga pasayib, iqtisodiyotda ishsizlar soni o'zining misli ko'rilmagan darajasiga yetib keladi. 1933 yil holatiga jami mehnat resurslarining 25 foizi o'z ish o'rinlaridan ayrilib, ishsizlar armiyasini yuzaga keltirgan edi.

Birinchilardan bo'lib, o'sha paytda AQSH bilan o'zaro savdo aloqalari katta bo'lgan davlatlar, xususan, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya mamlakatlari iqtisodiyoti katta talofat ko'ra boshlaydi. Inqiroz mobaynida (1929-1933 yy.) sanoat ishlab chiqarish hajmi Buyuk Britaniyada 24 %ga, Germaniyada 41 %ga va Fransiyada 32 foizga pasayishi sodir bo'lgan edi. Buning natijasida ushbu

korxonalarning aksiyalari qiymati Buyuk Britaniyada 48 %ga va Fransiya 60 foizga pasayib ketadi.

Yevropaning eng yirik davlatlarida sodir bo'lgan inqiroz butun Yevropani qamrab ola boshlaydi. Statistik ko'rsatkichlarning guvohlik berishicha, sanoat ishlab chiqarish indeksi Chexoslovakiya 40 %, Polshada 45 %, Yugoslaviya 50 %ga pasayib ketadi. Bundan ham yomon mazkur inqiroz ijtimoiy xarakter kasb etib, ommaviy ishsizlikni ham keltirib chiqaradi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra 1933 yilda 32 ta mamlakatga o'z ta'sirini o'tkazgan Buyuk depressiya oqibatida ishsizlar soni 44 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, shundan 14 mln. nafari AQShga to'g'ri kelgan.

Jahon iqtisodiy inqirozi qariyb 10 yil davom etadi. Bu o'z navbatida mamlakatlar iqtisodiyotini izdan chiqarishi bilan birga, ularning siyosiy tizimlarga ham jiddiy ta'sir ko'rsata boshlagan edi. Ushbu yillarda bozorni egallash uchun nohalol kurashlar, xalqaro savdo erkinligiga har tomonlama tajovuzlar, import tovarlari uchun belgilangan davlat bojlari va kvotalarning avj olganligi, savdo va valyuta urushlari, demping siyosatining qo'llanilishi kabi bozor iqtisodiyotiga zid bo'lgan chora-tadbirlarning tatbiq etilishi natijasida davlatlar o'rtasidagi o'zaro nizolarning illat olishi va kuchlilarning kuchsizlar ustidan hukmronlik o'rnatishi bilan bog'liq gegemonlik ishtahalarining yuzaga keltirishiga sabab bo'lgan.




Buning oqibatida millatchilik, kommunistik va fashistik qarashlar, harakatlarning yanada urchushi, shuningdek, dunyo sahnasida Adolf Gitler kabi doxiylarning yuzaga kelganligini tarix yaxshi eslaydi. Alaloqibat, Amerikada boshlangan "Buyuk depressiya" Yevropa maydonlarida ikkinchi jahon urushining boshlanishiga olib keladi.

Buyuk Depressiya shiddatli dunyo bo'ylab iqtisodiy tushkunlik boshlanishiga sabab bo'ldi. Katta depressiya vaqti butun dunyoda turlicha bo'lgan, aksariyat mamlakatlarda u 1929 yilda boshlangan va 1930 yillarning oxiriga qadar davom etgan. Bu 20-asrning eng uzun, eng chuqur va keng tarqalgan depressiyasi hisoblangan. Jahon iqtisodiyoti qanchalik keskin pasayishi mumkinligi misolida Buyuk Depressiya odatda qo'llaniladi. Buyuk depressiya Qo'shma Shtatlarda 1929-yil 4-sentyabrda boshlangan aksiyalar narxining katta pasayishidan so'ng boshlandi va 1929 yil 29-oktabrda (qora seshanba deb nomlanuvchi) fond bozorining qulashi bilan dunyoning qo'rqinchilik yangiliklariga aylandi. 1929-1932 yillarda butun dunyoda yalpi ichki mahsulot (YAIM) taxminan 15% ga kamaydi. Taqqoslash uchun, butun dunyoda YAIM katta tanazzul davrida 2008 yildan 2009 yilgacha 1 foizdan kamga kamaydi.

Ba'zi iqtisodiyotlar 30 yillarning o'rtalariga kelib ayoqqa turishni boshladi. Biroq, ko'plab mamlakatlarda Buyuk Depressiyaning salbiy ta'siri Ikkinchi Jahon urushi boshlangunga qadar davom etdi. Buyuk depressiya boy va kambag'al

mamlakatlarda ham halokatli ta'sir ko'rsatdi. Shaxsiy daromadlar, soliq tushumlari, foyda va narxlar ko'rsatkichlari keskin pasayib ketdi, xalqaro savdo esa 50% dan ko'proqqa kamaygan.

AQShda ishsizlik 23 foizga, ayrim mamlakatlarda esa 33 foizgacha ko'tarilganligi ma'lum qilingan. Dunyo bo'ylab shaharlarga, ayniqsa og'ir sanoatga qaram bo'lgan shaharlarga qattiq zarba berildi. Ko'pgina mamlakatlarda qurilish deyarli to'xtatildi. Dehqonchilik jamoalari va qishloq joylari katta zarar ko'rdi, chunki ekinlar narxi taxminan 60 foizga pasaygan. Ishning muqobil manbalari kamligi sababli talabning keskin pasayishi, tog'-kon sanoati va yog'ichni kesish kabi birlamchi tarmoq sanoatiga bog'liq bo'lgan joylar eng ko'p zarar ko'rdi.



12.1-rasm.Buyuk Depressiya vaqtida (1929-1939) AQShning real yillik Yalpi Ichki Mahsuloti (milliard dollarda)

Iqtisodiy tarixchilar odatda Buyuk Depressiyaning katalizatorini 1929 yil 24-oktabrdan boshlab AQSH fond bozori narxlarining to'satdan halokatli qulashi deb hisoblashadi. Biroq, ayrimlar ushbu xulosaga qarshi chiqishadi va aksiyalarning qulashini alomatlar deb biladilar, aksincha Buyuk Depressiya sababi ekanligiga shubha qilishmaydi.


1929 yildagi Uoll Strit halokatidan keyin ham bir muncha vaqt optimizmlik saqlanib qoldi. Jon D. Rokfeller «Bu kunlar ko'pchilikning tushkunlikka tushgan kunlari. Mening hayotimning 93 yilida tushkunliklar paydo bo'la boshladi va o'tib keta boshladi. Farovonlik har doim qaytib keladi va қайтади» deb ta'kidladi u. Qimmatli qog'ozlar bozori 1930 yil boshida ko'tarilib, aprel oyiga qadar 1929 yil boshiga qaytdi. Bu 1929 yil sentyabr oyining eng yuqori cho'qqisidan hali ham deyarli 30 foiz past ekanligini anglatar edi.

Hukumat va biznes birgalikda 1930 yilning birinchi yarmida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ko'proq mablag' sarfladilar. Boshqa tomondan, iste'molchilar, aksariyati o'tgan yili qimmatli qog'ozlar bozorida jiddiy yo'qotishlarga duch kelishgan, va xarajatlarni 10 foizga qisqartirishgan.

Bundan tashqari, 1930 yillarning o'rtalaridan boshlab qattiq qurg'oqchilik AQShning qishloq xo'jaligi markazini vayron qildi.Foiz stavkalari 1930 yil o'rtalariga kelib eng past darajaga tushib qoldi, ammo kutilgan deflyasiya va

odamlarning qarz olishda davom etish istagi yo‘qligi iste’mol xarajatlari va investitsiyalari tushkunlikka tushganligini anglatadi.

1930 yil may oyiga kelib avtomobillar savdosi 1928 yildagidan pastlashdi. Maoshlar 1930 yilda barqaror saqlanib tursada, umuman, narxlar pasayishni boshladi. So‘ng, deflyasion spirali 1931 yilda vujudga kelgan. Dehqonlar sa‘yi xarakatlari salbiy istiqbolga duch kelishdi; ekinlar narxining pasayishi va Buyuk tekislikning qurg‘oqchiligi ularning iqtisodiy istiqbollari vayron qildi. Buyuk Depressiya eng yuqori cho‘qqisida Buyuk Tekislik fermer xo‘jaliklarining deyarli 10% federal yordamga qaramay qo‘llarini almashtirgan.




Ushbu pasayish chet el investisiyalarining barcha asosiy shakllarini qamrab oldi (7-jadval). Soni va qiymati investisiya loyihasining yangi yashil investisiya e'lonlari - kelajakdagi xorijiy investisiyalar yo'nalishlarining ko'rsatkichi - ikkalasi ham 2020 yilning birinchi sakkiz oyida 37 foizga pasaygan (8-jadval). Rivojlanayotgan qiymat jihatidan iqtisodiyotlari rivojlangan iqtisodiyotlarga (-17 foiz) nisbatan katta pasayish kuzatildi (-49 foiz), ular ko'proq global zanjir talab qiladigan va qazib olish sohalariga ko'proq ishonishlari va ular ishlab chiqilganga nisbatan iqtisodiy qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish uchun vositalar kamroq iqtisodiyot qayta tiklangan. Yashil investisiyalar to'g'risidagi e'lonlarning qiymatini ham keskin tushirib yubordi (dastlab -58 syent). Ko'pgina kam rivojlangan mamlakatlar (LDC) qazib olish sanoatida to'g'ridan-to'g'ri tashqi investisiyalarga bog'liq bo'lgan. Shuningdek ko'plab kichik orol rivojlanayotgan davlatlar turizmga investisiyalarga bog'liq va ta'minot zanjiri blokirovkalari dengizga chiqmaydigan rivojlanayotgan mamlakatlarga nomutanosib ta'sir ko'rsatmoqda.

Chet el sarmoyalari to'g'ridan-to'g'ri oqimi yashil mintaqa loyihasi chegaralararo birlashmalar sotib olishi moliyaviy loyiha

12.5-Jadval

2020 yil uchinchi choragidan boshlab xalqaro investisiyalar tendensiyalari.



Chetdan qo'shilish va qo'shilishlar soni birinchi uchlikda o'tgan yilga nisbatan 2020 yilning choraklari 15 foizga kamaydi. Rivojlangan iqtisodiyotlarda, chet el investisiyalarining katta qismi 21 foizga kamaygandi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ularning qiymati 12 foizga o'sdi, chunki Afrika (-44 foiz) va Lotin Amerikasi va Karib dengizi (-73 foiz) Osiyodagi 60 foiz o'sish bilan qoplangan edi. Raqam transchegaraviy qo'shilishlar va qo'shilishlar (84 foizga) o'tish iqtisodiyotida ham o'sdi, ammo juda past bazadan va asosan korporativ restrukturizasiyadan bosh tortmoqda. 2020 yilning birinchi uch choragi

Transchegaraviy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlar soni 25 foizga kamaydi, uchinchi chorakda esa eng katta pasayishlar kuzatilmoqda. 2020 yilda e'lon qilingan loyihalar soni tufayli transport infratuzilmasi va qazilma yoqilg'i energiyasi eng ko'p tushib ketdi.


Chegaraviy investisiyalarning barcha turlari uchun 2020 yilga va undan keyingi yillarga mo'ljallangan prognozlar noaniqlik zimmasida qolmoqda. Chet el investisiyalarining qarzdorligi nuqtai nazaridan pandemiyaning ikkinchi to'ldini umumiy iqtisodiy tiklanish sari harakatlarni susaytiradi, 2020 yilning birinchi yarmidagi 50 foizga yaqin pasayish kuzatilishi tahmin qilingan. 2021 yilga nisbatan qo'shimcha pasayish 10 foizga prognoz qilingan, prognozini dastlabkisiga qaraganda keskinroq, uzoqroq davom etishi mumkin. Investisiya qarzlarning istiqboli ushbu sog'liqni saqlash inqirozi va iqtisodiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha siyosat tadbirlarining samaradorligi muddatga bog'liq bo'ladi.

Global ishlab chiqarish va ish bilan bandlik pandemiya davrida yomonlashdi.

2020 yilning birinchi choragida global ishlab chiqarish hajmi taqqoslaganda qariyb 6 foizga kamaydi (6-jadvalda ko'rsatilganidek), Buning ortidan 2020 yilning ikkinchi choragida 11 foizdan ko'proq chuqur pasayish kuzatildi. Bu 2008/09 yillardagi eng katta jahon moliyaviy inqirozida yuz bergan pasayishdan beri jahon ishlab chiqarish mahsulotlarining pasayishi xisoblanadi. O'sha davrlarda ishlab chiqarish 14 foizga kamaygan edi.

12.6-Jadval

Jahon miqyosida ishlab chiqarishning ko'rsatkichlari



COVID-19 ning turli sanoat tarmoqlariga ta'siri notekis bo'lgan. Farmasevtika kabi muhim tovar va materiallarni ishlab chiqarish, boshqa sanoat tarmoqlariga qaraganda kamroq ta'sir ko'rsatdi. 2020 yilning ikkinchi choragida barcha mamlakat guruhlar bo'yicha asosiy farmasevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish o'rtacha o'sishni qayd etdi. Boshqa barcha sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmining pasayishi kuzatildi, xususan, motor transport vositalari, mashinalar va uskunalar va


kiyim-kechaklar. Ammo 2020 yilning ikkinchi choragiga kelib, Xitoy ishlab chiqarishning pasayishi birinchi marta qayd etilgan bo'lsa, allaqachon ijobiy o'sishni bir nechta sanoat tarmoqlari bo'ylab boshlagan.

Ishsizlikning o'sishi, ish vaqtini qisqartirish, vaqtincha ishdan bo'shatish va ish qidirish tushkunlikka tushish umumiy ish vaqtining pasayishiga olib keldi, 2020 yilning ikkinchi choragida 2019 yilning to'rtinchi choragiga nisbatan 14 foiz pasayish kuzatildi. Ushbu pasayish global ish vaqtining 400 millioni doimiy ish joyiga tengdir.

Uchinchidan, pandemiya ko'plab mikrofirmalarning va kichik biznes hayotini saqlab qolish uchun juda qiyin muammolarni keltirib chiqardi. Inqiroz paytida naqd pul juda muhimdir. O'z vaqtida tashqi yordam bilan yordam berilishi kompaniya bo'ladim korporasiya bo'ladimi o'zini tiklashga sabab bo'ladi. Xitoyda umumiy ovqatlanish sanoatida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, tanlanganlarning 79 foizi pul mablag'lari bilan kompaniyalar uch oy davomida omon qololmagan.

12.7-jadval

Pandemiya xar xil turdagi firmalarga ko'rsatgan ta'siri



Nihoyat, Afrika, Osiyo va Yevropaning 11 mamlakatidagi KMK sub'yektlari ma'lumotlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, yirik firmalar bilan kichik firmalarni taqqoslaganda pandemiya natijasida kichik firmalarning mahsulotlariga bo'lgan talab va mablag'larni yetkazib berish yoxud to'lov likvidlilik darajasi pastlaganligi ma'lum bo'lgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizday pandemiya firma xajmining xar qanday turlariga yechimsiz bo'lgan salbiy oqibatlarini va katta miqdordagi zarar keltirdi. Bunday korxonalar orasida ish o'rinlarini yo'qotish darajasining tez sur'atlarda o'sib borishi global darajadagi og'ir ishsizlik inqirozi deb ta'kidlasa aslo mubolog'a bo'lmaydi. Yuqorida ko'rsatilganidek, XMT hisob-kitoblarga ko'ra butun dunyo bo'ylab 2020 yil ikkinchi choragi uchun ish o'rinlari 400 million kishi to'liq ish kuniga teng ish soatlari kamayagani e'lon qilingan edi.

Mikro korxona va muassalar zaifligi yuqori darajada bo'lganligi uchun pandemiya ko'rsatgan ta'siri muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Misol uchun, Yevropa mintaqasida uch ish o'rindan ikkitasi xavf ostida bo'lgan. Extimol ular orasida eng ko'p zarar ko'rganlar mexnat bozori va norasmiy iqtisodiyot xodimlari bo'lishi extimoldan xoli emas. Birinchi oyda ularning global kirim daromadlari 60 foizga kamaygan, Afrika va Amerikada 81 foizga, Markaziy Osiyo va Yevropada 70 foizga va Osiyoda 22 foizga kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Dunyodagi 2 milliard norasmiy ishchilarning 1,6 milliardga yaqini tirikchilik qilish qobiliyatiga jiddiy zarar yetkazgan.

Nazorat uchun savollar:

1. Birinchi jahon iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari nimalardan iborat?
2. AQSH Prezidenti Franklin Ruzvelt iqtisodiy inqirozdan chiqish maqsadida qanday siyosatni amalga oshirdi?
3. 1873 - 1879 yillardagi inqiroz qaysi davlatlar uchun juda og'ir kechgan?
4. Amerika Qo'shma Shtatlarida inqirozning boshlanishiga sabab nima bo'lgan?
5. Dou-Djons indeksi haqida ma'lumot bering.
6. 1929-1933 yillar oralig'ida AQSHda ishsizlar soni qanday o'zgargan?
7. Jahon iqtisodiy inqirozi – “Buyuk depressiya” necha yil davom etdi?
8. Fisherning ta'kidlashicha Buyuk Depressiyani keltirib chiqaradigan asosiy omillar nima?
9. Ikkinchi jahon urushidan keyingi birinchi xalqaro iqtisodiy inqiroz o'z ichiga qaysi davlatlarni qamrab olgan?
10. Friksion ishsizlik haqida ma'lumot bering.
11. Yalpi talab gipotezasini tushuntirib bering.
12. Rossiya inqirozining kelyib chiqish sabablari nimalardan iborat?

13-BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING XAVFSIZLIK MASALALARI

13.1. Iqtisodiy xavfsizlik masalalari: “Global iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi va mohiyati, ta’minlash mexanizmi.

13.2. “Milliy iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi, ko’rsatkichlari va chegaraviy miqdorlari.

13.3. Global oziq-ovqat xavfsizligi: globallashuv sharoitida oziq-ovqat muammosi tushunchasi va mohiyati.

13.1. Iqtisodiy xavfsizlik masalalari: “Global iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi va mohiyati, ta’minlash mexanizmi

Iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash davlatning eng muhim vazifalaridan biri bo’lib, u mamlakat mustaqilligining kafolati, jamiyat barqarorligi va samarali hayotining zaruriy shartidir. Iqtisodiy xavfsizlik davlatning ishonchli mudofaasini ta’minlash, jamiyatda ijtimoiy tinchlikni saqlash, ekologik ofatlardan himoya qilish va boshqalar kabi asosiy tarkibiy qismlar bilan bir qatorda milliy xavfsizlik tizimining bir qismidir. Davlat qarzi darajasini baholash, ilmiy-texnik salohiyatning zaiflashishi, mintaqaviy iqtisodiy parchalanish, daromadlarning keskin farqlanishi, mablag'larning chet elga chiqib ketishi zamonaviy mamlakatlar uchun iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash juda dolzarb muammo ekanligini ko’rsatadi.

Iqtisodiy xavfsizlik muammolari hamma vaqt dolzarb bo’lib qolmoqda. Misol uchun, iqtisodiy inqiroz 1923-1933 yillar davlatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash, uning iqtisodiy tizimining barqarorligi va iqtisodiy siyosatni ijtimoiylashtirish bo'yicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qildi. Bu yondashuv Prezident Franklin Ruzvelt tomonidan taklif etilgan iqtisodiy siyosatning “yangi yo’nalishi”da o’z ifodasini topdi va pul-kredit va bank tizimini qo’llab-quvvatlash, xususiy investitsiyalarni rag’batlantirish, narxlarni barqarorlashtirish, inflyatsiya va raqobatni tartibga solish bilan ajralib turdi. Bu chora-tadbirlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy ta’minotini mustahkamladi, zamon talablariga mos samarali ijtimoiy siyosat olib borish imkonini berdi. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash uchun shart-sharoit yaratish, mamlakatda ijtimoiy ta’minotning davlat kafolatlarini ta’minlash orqali sezilarli iqtisodiy natijalarga erishildi, tegishli institutsional o’zgarishlar va qonunchilik tashabbuslari kiritildi. 1934 yilda Iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha Federal qo'mita, 1935 yilda esa Ijtimoiy xavfsizlik kengashi (Ijtimoiy xavfsizlik kengashi) tuzildi, u vaqt o'tishi bilan ma'muriyatga aylantirildi (Ijtimoiy xavfsizlik admiralti). Xuddi shu yili shaxsning iqtisodiy xavfsizligi to'g'risida qonunlar qabul qilindi.

70-90-yillar davomida. XX asr iqtisodiy vaziyat "neft shoki" holatlari, global oziq-ovqat va xom ashyo inqirozi, G'arb mamlakatlari moliyaviy tizimlari inqirozlari bilan tavsiflanadi. Bu davrda yoqilg'i-xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash sohasida xalqaro va milliy xavfsizlik konsepsiyalari ishlab chiqildi; alohida G'arb davlatlari va butun dunyo uchun qo'llab-quvvatlash tizimining birinchi tarkibiy elementlari shakllanishi sodir bo'ldi; Davlatning iqtisodiy barqarorligiga erishish jahon yetakchiligining eng muhim omili, umuman mamlakat milliy manfaatlarini, xususan, iqtisodiy manfaatlarini eng samarali ta'minlash degan pozitsiya ishonchli tarzda tasdiqlandi.

Amerika Qo'shma Shtatlarida milliy iqtisodiy manfaatlarni ishonchli himoya qilishning samarali usullarini izlashning uzoq muddatli jarayoni iqtisodiy xavfsizlik uchun samarali va samarali normativ-huquqiy bazani yaratishga imkon berdi. Qo'shma Shtatlarning iqtisodiy xavfsizligi alohida va ajralmas masala sifatida na kontseptual va strategik hujjatlarda, na qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlarda shakllantirilmagan. U faqat Milliy xavfsizlik strategiyasida AQSh milliy xavfsizligining ajralmas va eng muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqiladi va uni qonunchilik bilan ta'minlash bilan bog'liq alohida jihatlar shaklida taqdim etiladi. Jahon iqtisodiyotining beqarorligi sezilarli darajada kuchaygan, milliy iqtisodiyotlar darajasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalariga e'tibor kuchaygan bir sharoitda Qo'shma Shtatlar tajribasi eng ko'rsatkichli va foydali hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi darajasini baholashning ham nazariy, ham uslubiy yondashuvlari mavjud.

Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlari umumiy iqtisodiy tizimning holati, uning barqarorligi va harakatchanligi haqida umumiy tasavvur beradigan eng muhim quyidagi parametrlarni o'z ichiga oladi:

- *YaIMning o'sishi, aholining aksariyat qismining turmush darajasi va sifati;*
- *inflyatsiya darajasi;*
- *ishsizlik darajasi;*
- *iqtisodiy tuzilma;*
- *aholining mulkiy tabaqalanishi;*
- *iqtisodiyotning kriminallasuvi;*
- *iqtisodiyotning texnik bazasining holati;*
- *ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlar*
- *raqobatbardoshlik;*
- *importga qaramlik;*
- *iqtisodiyotning ochiqqligi;*
- *davlatning ichki va tashqi qarzi.*

Globallashuv sharoitida mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligi – ko'p qirrali tushuncha bo'lib, hozircha uning yagona talqini qabul qilinmagan. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish va tashqi iqtisodiy aloqalar jadallik bilan chuqurlashib, milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallashuvi kuchayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash nafaqat mamlakat darajasida, balki mintaqa darajasida ham eng muhim masalalardan biriga aylanib boradi.

13.2. “Milliy iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi, ko'rsatkichlari va chegaraviy miqdorlari

Iqtisodiy xavfsizlik – iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. U iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlangan, ijtimoiy ehtiyojlar optimal darajada qondirilgan, ratsional boshqarish amalga oshirilgan, milliy va xalqaro darajalarda iqtisodiy manfaatlarning himoyalangandagi holatini ifodalaydi. Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi, uning moddiy asosi bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiy kategoriya sifatida davlatchilik shakllangan hamda jamiyat o'z manfaatlarini anglab yetgan davrlardan paydo bo'la boshlagan. Iqtisodiy xavfsizlik o'zining ob'ekt va sub'ektlariga ega bo'lib, uning ob'ekti deganda mamlakatning iqtisodiy tizimi hamda uni tashkil etuvchi elementlari tushuniladi.

Ilmiy adabiyotlarda va darsliklarda «iqtisodiy xavfsizlik» tushunchasining turlicha talqinlari berilgan. Bir guruh olimlar mazkur tushuncha mazmunini mamlakatning yetarli mudofaa salohiyatini, davlat siyosatining ijtimoiy yo'naltirilganligini, milliy manfaatlarni himoya qilishni kafolatlashga qodir bo'lgan iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining ahvoli sifatida ta'riflaydi⁴³.

Iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi darajalari mavjud:


- xalqaro (global va mintaqa darajasida);
- milliy, lokal (mamlakat ichidagi mintaqa yoki tarmoq darajasida);
- xususiy (firma va shaxs darajasida).

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik – bu har bir davlat, ya'ni dunyo hamjamiyati a'zosining o'z ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti strategiyasini erkin tanlash va amalga oshirish imkoniyatlarining ta'minlangandagi holatidir. Xalqaro iqtisodiy xavfsizlikni amalga oshirishda taraqqiyot modellarini zo'rlab o'tkazish, iqtisodiy va siyosiy jihatdan majburlashdan voz kechish, har qanday xalqning o'z mustaqil yo'lini tanlash huquqini tan olish, turli mulkchilik shakllari va manfaatlarning mavjudligini qonuniy ekanligini hurmatlash yo'lidan boriladi.

⁴³ Экономическая безопасность. Производство, финансы, банки. М.: ЗАО «Финстатинформ», 1998, с.12

Milliy iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining milliy manfaatlarni kafolatli himoyalanganligi, mamlakat rivojlanishining ijtimoiy yo'naltirilganligi, yetarli iqtisodiy va mudofaa salohiyatining ta'minlangandagi holatini ifodalaydi.

Korxona (firma)ning iqtisodiy xavfsizligi – ma'muriyat va personal tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy, tashkiliy- iqtisodiy va injener-texnik chora-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarning ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatidir⁴⁴.



13.1.1-rasm. Milliy xavfsizlik turlari⁴⁵

“Iqtisodiy xavfsizlik” deganda iqtisodiyotning mamlakat ijtimoiy, siyosiy va mudofaa qobiliyatining yetarli darajasini ta'minlash imkonini beradigan holati tushuniladi. “Iqtisodiy xavfsizlik” – bu xalqning (davlat orqali) mustaqil ravishda, tashqaridan bo'ladigan aralashish va taziqlarsiz o'z iqtisodiy taraqqiyot yo'li hamda shakllarini belgilashidir. “Iqtisodiy xavfsizlik” – bu nafaqat milliy manfaatlarni himoyalanganligi, balki hokimiyat institutlarining mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish borasidagi milliy manfaatlarni amalga oshirish va himoyalash mexanizmlarini yaratishga bo'lgan tayyorligi va qobiliyati hamdir⁴⁶.

⁴⁴ Abulqosimov X.P. Iqtisodiy xavfsizlik. T.: Akademiya, 2006, 111 – b.

⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Oliy Va O'rta Maxsus ta'lim vazirligi Termiz davlat universiteti, «IQTISODIY XAVFSIZLIK» fanidan ma'ruza matnlari to'plami, Termiz 2014, 6-b.

⁴⁶ O'sha manba, 14-b.

13.3. Global oziq-ovqat xavfsizligi: globallashuv sharoitida oziq-ovqat muammosi tushunchasi va mohiyati

“Jamiyatning oziq-ovqat xavfsizligi”, “Global oziq-ovqat xavfsizligi” va “oziq-ovqat xavfsizligi” tushunchalarini metodologik jihatdan aniq farqlash zarur.

Oziq-ovqat xavfsizligi - bu davlatning xalq salomatligini mustahkamlash va uning genofondini saqlash, umr ko'rish davomiyligini oshirish, hayot sifatini yaxshilash maqsadida jamiyatning barcha a'zolarini etarli, oqilona, ekologik toza va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash qobiliyatidir. Aholining mehnat faolligini nafaqat o'zini-o'zi ta'minlash, balki xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklaridan faol foydalangan holda ham oshirish. Oziq-ovqat xavfsizligi deganda mamlakatning butun mamlakat aholisining joriy va favqulodda ehtiyojlarini oziq-ovqat bilan ta'minlash, har bir alohida shaxsni esa ilmiy asoslangan me'yorlarga muvofiq oziq-ovqat bilan o'z mablag'lari hisobidan ta'minlash imkoniyati tushuniladi.

Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mezonini sifatida import qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining mamlakatda iste'mol qilinadigan umumiy hajmidan kelib chiqqan holda olinadi. Bu ko'rsatkichning ko'p mamlakatlardagi chegara qiymati 25% dan oshmasligi kerak. Bu darajadan oshib ketish oziq-ovqat import qiluvchi mamlakatlarga strategik qaramlikni keltirib chiqarishi mumkin.

Shunisi e'tiborga loyiqki, rivojlangan mamlakatlarda, masalan, AQShda, 70-yillarda mamlakatning qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash va uning tabiiy resurslarini saqlash, shuningdek, yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlarini ta'minlash, ularning ichki va tashqi bozorlarda yuqori raqobatbardoshligini ta'minlash orqali barqaror oziq-ovqat ta'minotini ta'minlashga qaratilgan “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida”gi qonun qabul qilindi.

Shu nuqtai nazardan quyidagi tadbirlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi ustuvor vazifalar e'tirof etilishi kerak:

- mamlakatda yagona oziq-ovqat kompleksini shakllantirish va uni ilmiy asoslangan standartlarga muvofiq aholining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun yetarli hajmda, assortimentda va sifat jihatidan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning maqbul darajasiga erishish;
- oziq-ovqat importi (tropik va subtropik ekinlar) tarkibining optimal variantlarini ishlab chiqish;
- mamlakat aholisining ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va aholini ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash; (bu aholi salomatligi va umr ko'rish davomiyligini, millat genofondini belgilab beradi)

- oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy to'plamiga iqtisodiy qulaylikni ta'minlash; (bu aholining asosiy ijtimoiy guruhlarini o'rtasida talabning to'lov qobiliyatini ta'minlash va ochlik va to'yib ovqatlanmaslikni bartaraf etishni anglatadi)
- daromadlarni qayta taqsimlash;
- aholi bandligini kengaytirish va sifatli oziq-ovqat iste'molini oshirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini tartibga solish bo'yicha davlat siyosati zarur;
- ekstremal holatlarda ishlatilishi mumkin bo'lgan oziq-ovqat zahiralarini yaratish va saqlash;
- oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlarni o'z vaqtida aniqlash, prognozlash va bartaraf etish, chegaraviy qiymatlarni aniqlash.
- hududlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan yanada to'liq ta'minlash uchun hududlararo oziq-ovqat va xomashyo yetkazib berishni davlat tomonidan tartibga solishni kuchaytirish. (masalan, Rossiyaning 23 ta viloyatida ortiqcha don yetishtirilmoqda, 50 ta viloyatda esa g'alla yetishmaydi, davlatda Rossiya g'alla bozorini tartibga solishning samarali vositalari yo'q, bu ba'zi hududlarga monopoliya narxini belgilash imkonini beradi, boshqalari esa import qilinadigan donni import qiladi. Don va transport xarajatlarini hisobga olgan holda, mahalliy don raqobatbardosh bo'lib qoladi.)
- transaksiya xarajatlarini kamaytirish, tovar va moliyaviy oqimlarni optimallashtirish va korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beruvchi integratsiya va hamkorlikni rivojlantirishni faol qo'llab-quvvatlash.
- Bozor infratuzilmasini rivojlantirish: hududiy ulgurji bozorlar va kredit tashkilotlarini tashkil etish. (bu esa samarali ichki va mintaqalararo ayirboshlashni amalga oshirish imkonini beradi)

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlanishi bozor baholarini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy usullaridan foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Bundan tashqari oziq-ovqat xavfsizligi davlatning mamlakat va uni mintaqalarini oziq-ovqat bilan ta'minlash tizimida turli tabiiy ofatlar va favqulotda holatlar natijasida yuzaga keladigan buzilishlarni oldini olishga bo'lgan qodirligini ham ko'zda tutadi. Buning uchun esa doimo yangilanib va o'rni to'ldirib turiladigan strategik oziq-ovqat zahiralarini va ularni taqsimlash hamda ulardan foydalanish tizimini yaratish zarur bo'ladi.

Demak, oziq-ovqat xavfsizligi ichki imkoniyatlardan foydalangan holda mamlakat aholisining asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada

ta'minlanishini, import mahsulotlarga bogliqlikni kamaytirishga erishishni ifodalaydi.

Bugungi kunda yer yuzida 6 milliarddan ziyod aholi istiqomat qilmoqda. Har sohada kechayotgan globallashuv jarayoni taraqqiyot sari tashlangan dadil qadam sifatida talqin etilayotgan bo'lsada, qishloq xo'jaligi, energetika, ekologiya kabi ayrim masalalarda muammo keltirib chiqarayotgani hech kimga sir emas. Bunday holat tabiiyki, jahon hamjamiyati muammolarga jiddiy munosabat bildirishi va ularning yechimini topishda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi lozimligini taqozo 69 etadi. So'nggi paytlarda jahon miqyosida oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshib borishi nafaqat kambagal mamlakatlar, balki rivojlanayotgan, hatto dunyoning yetakchi davlatlarini ham tashvishga solmoqda.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, yaqin vaqtlar ichida dunyodagi qator mamlakatlar oziq-ovqat mahsulotlari ta'minotida jiddiy muammolarga duch kelishi mumkin. Oziq-ovqat taqchilligi ayrim mamlakatlarda tartibsizliklar, g'alayonlar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligini ifoda etuvchi parametrlar tarkibiga aholining oziqovqat bilan ta'minlanganligi, uning assortimentining xilma-xilligi, oziq-ovqat mahsulotlarining kaloriyaliligi, unda foydali elementlarning mavjudligi, sogliq uchun xavfsizligi kabilar kiritiladi⁴⁷.

Nazorat savollari:

1. O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga, global iqtisodiy makonning bir qismiga aylayotganligi nimalarda namoyon bo'lmoqda?
2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda davlat qanday o'rin tutadi?
3. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash omillari to'g'risida gapirib bering.
4. Iqtisodiy xavfsizlik ob'yektlariga nimalar kiradi. Ularga qisqacha ta'rif bering.

⁴⁷ O'zbekiston Respublikasi Oliy Va O'rta Maxsus ta'lim vazirligi Termiz davlat universiteti, «IQTISODIY XAVFSIZLIK» fanidan ma'ruza matnlari to'plami, 72-b

14-BOB. JAHON IQTISODIYOTI GLOBALLASHUVINING RIVOJLANISH MODELLARI

- 14.1. Iqtisodiy rivojlanish modellari: rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar.
- 14.2. Markaziy Osiyo mamlakatlarining rivojlanish modellari. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi masalalari.
- 14.3. O'zbekistonning jahon iqtisodiyoti globallashuvida tutgan o'рни.

14.1. Iqtisodiy rivojlanish modellari: rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar.

Dunyo mamlakatlarida so'ngi 25 yil davomida (1990-2014-yillar) iqtisodiy o'sish va innovatsion investitsiyalar hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni taxlil qilganimizda quyidagi natijalami olish mumkin. Birinchidan, yuqori va o'rta daromadli mamlakatlarda YAIM va innovatsion investitsiyalar hajmining yillik o'rtacha o'sishi o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud. Quyi daromadli davlatlarda esa bu holat kuzatilmaydi. Ikkinchidan, o'rta daromadli mamlakatlarda innovatsion investitsiyalar hajmining YAIM dagi ulushi muttasil oshib bormoqda.

Past daromadli davlatlarda ham ushbu ulush o'sib bormoqda, lekin o'sish sur'ati o'rta daromadli davlatlamikidan sekinroq. Yuqori daromadli davlatlarda esa aksincha innovatsion investitsiyalar ulushi ozroq tushsada, barqaror 20% dan bo'lib turibdi. Shu o'rinda turli davrlarda jadal rivojlangan va rivojlanayotgan 2*3 mamlakatlar tajribasi, jumladan, janubiy sharqiy Osiyo davlatlari tajribasi diqqatga sazovor. "Osiyo yo'lbarzlari" deb ataluvchi to'rt davlatdan (Singapur, Gonkong, Janubiy Koreya, va Tayvan) ikkitasi - Koreya va Singapur tajribasining ko'rsatishicha iqtisodiy rivojlanishning ma'lum bosqichiga chiqquncha innovatsion investitsiyalar hajmi, shuningdek YAIM yuqori sur'atlarda o'sgan.

Yangi industrlashgan (sanoatlashgan) davlatlar-Malayziya va Taylandda Osiyodagi moliyaviy tanazzulgacha (1997—1998) innovatsion investitsiyalar va YAIM jadal sur'atlarda o'sganligi kuzatildi. Hozirgi kunda jadal rivojlanayotgan davlatlar sifatida ko'rsatiladigan Xitoy va Vetnamda esa innovatsion investitsiyalar hajmi muttasil uzoq muddatda yuqori sur'atlarda o'sib kelmoqda. Xitoy iqtisodiyotining yana bir ajralib turadigan jihati shuki, innovatsion investitsiyalarning YAIMdagi hajmi tobora o'sib bormoqda⁴⁸.

Tadqiqotlarga ko'ra jahon YAIMda turli mintaqalar va mamlakatlar valuta kurslarida baholangandagi ulushi, ulaming valutarining HQP bo'yicha baholangan ulushiga nisbatan katta farqlar mavjud. Shu bilan birga rivojlanayotgan va bozor

⁴⁸ M.A.Mamatov. Iqtisodiy o'sish. O'quv qo'llanma. - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021. 214-b.

iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarning valuta kurslari bo'yicha hisoblangan YAIMning jahon YAIMdagi ulushi kamaymoqda va aksincha rivojlangan mamlakatlar bo'yicha bu farq deyarli 2 martagacha o'smoqda. Buning asosiy sababi jahon darajasiga nisbatan bu rivojlanayotgan mamlakatlarda tovarlar narxlarining pastligidir. Masalan, jahonning yuqori texnologik rivojlanish darajasiga ega bo'lgan mamlakatlarda valuta kursi bo'yicha baholangan Jahon YAIM ishlab chiqarishdagi ulushi 60,16% ni va XQP bo'yicha baholanganda 42,8% ni (dunyo aholisining 14,27% to'g'ri kelgan holda) tashkil etmoqda.

Shu bilan birga rivojlanayotgan qator davlatlar va shu bilan birga MDH mintaqasi davlatlarida (dunyo aholisining 3,94% to'g'ri kelgan holda) valuta kursi bo'yicha baholangan Jahon YAIM ishlab chiqarishdagi ulushi 4,8%ni, XQP bo'yicha baholangan YAIM esa-3,7%ni tashkil etmoqda.

Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra 2014-yilda O'zbekistonda YAIMni aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichi Bangladeshga nisbatan 2,3 barobar, Pokistonga nisbatan 1,4 va Hindistonga nisbatan 1,25 baravar yuqoridir. Ayni vaqtda aholi jon boshiga ishlab chiqarish hajmi O'zbekiston Respublikasiga nisbatan Xitoyda 3,5 barobarga, Turkiyada 5,8, barobarga va Rossiya 7,7 barobarga yuqoridir.

Xulosa qilib aytilganda, turli mintaqalar va mamlakatlarning ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy rivojlanish darajalarini va YAIMni XQP bo'yicha baholash, voqelikka eng real baho beruvchi, samarali uslub bo'lib hisoblanadi. Bu barcha omillar ularning valuta kurslari nisbatlari bo'yicha YAIMni baholaganda yuqori texnologik rivojlanish darajasiga ega bo'lgan mamlakatlarning ishlab chiqarish hajmi anchagina oshishi, o'rtacha rivojlanish va ayniqsa kam rivojlanish darajasidagi mintaqalar va mamlakatlarda uning anchagina kamayishiga olib keladi.

Jahon iqtisodiyotini iqtisodiy o'sishida so'nggi yillarda asosiy iste'mol omili talabni rag'batlantirish bo'lgan bo'lsa, bugungi globalizatsiya sharoitida bu omillar imkoniyatlari cheklanib yangi innovatsion texnologiyalarga asoslangan omillar birinchi o'ringa chiqmoqda. Natijada bugungi globalizatsiya sharoitida yuqori texnologik rivojlanish darajasiga ega bo'lgan davlatlarda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish shart-sharoitlari va imkoniyatlari yuqori bo'lganligi sababli bu davlatlarda iqtisodiy o'sish sifatida katta imkoniyatlarga ega bo'lmog'da.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan chiqish uchun ko'plab mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston ham iqtisodiyotni modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish yo'lini tanlagan. Innovatsion rivojlanish yo'li sanoat ishlab chiqarishini texnologik jihatdan yangilash, mahsulotni va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, iqtisodiyotni xomashyo va oraliq mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishidan voz kechish va qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan mahsulotlar

ishlab chiqarishga o'tish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishda ifodalanadi. Ammo innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish, yuqori texnologik mahsulotlar bozoriga kirib borish, innovatsion texnologiyalar bozorida o'z o'rnini egallash uzoq bozor davrini va katta miqdordagi moliyaviy mablag'larni talab etadigan murakkab jarayondir⁴⁹.

Hozirgi kunga qadar ko'pchilik kitoblardagi iqtisodiy g'oyalar Shumpeter kuzatuvlari kelajakdagi iqtisodiy o'sish va kapitalizmning shakllanishi haqida borganligini tasdiqlaydi. Marks kapitalizmning batamom yemirilishi qarama-qarshiliklar kelib chiqishi natijasida sodir bo'lganligini taxmin qilgan bir davrda, Shumpeter uning tugashini muvaffaqiyat mahsuli sifatida faraz qilgan⁵⁰.

Bir tizimda paydo bo'layotgan o'zgarishlarni boshqa bir tizimda amalga oshirilgan qator o'zgarishlar orqali amalga oshirib bo'lmaydi. Imkon boricha pochta xodimlarini ko'proq jalb qilingi, temir yo'l xizmatiga hojat qolmasin⁵¹.

Shumpeter bezori tadbirkorlarning jasoratli amallariga asoslangan iqtisodiy o'sishning romantik qarashlariga ega bo'lgan ideologik konservativ iqtisodchi edi. U ushbu jarayonning davomiyligini ko'rishni niyat qildi, shunga qaramasdan, tadbirkorning kapitalizm sharoitlarida bankrot bo'lishini hamda jamiyatda intellektual qatlamning yuqori darajadagi o'rnining paydo bo'lishini kutdi. Muvaffaqiyatli tadbirkor sanoat sohasida riskdan qochuvchi, kam samara bilan ishlayotgan korxonalar o'rtasidagi raqobat orqali g'olib chiqqan katta korxonalar rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Ammo katta firma tezda riskdan qochishga moyil hamda ehtiyotkor bo'ladi va u innovatsiyaviy tadbirkorlar tomonidan emas, balki byurokratik tashkilot tomonidan boshqariladi. Sotsializmning haqiqiy izdoshlari, – deydi Shumpeter Vanderbilt, unga da'vat etuvchi intellektual shaxs yoki targ'ibotchilar emas, Karnegi va Rokfellerlar esa bundan mustasno⁵².

14.2. Markaziy Osiyo mamlakatlarining rivojlanish modellari.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi masalalari

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan mintaqalararo hamkorligini mustahkamlash masalalarini mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiy o'sishining muhim manbai sifatida talqin etidilar.

O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini kengaytirish iqtisodiyotda davom etayotgan tarkibiy o'zgarishlarning muhim elementi bo'lib,

⁴⁹ O'sha manba. 219-b.

⁵⁰ Iqtisodiy ta'limotlar tarixi: O'quv qo'llanma / D.Djumonov, Z.Allaberganov; – T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. – 319 b.

⁵¹ J. A. Schumpeter, *The Theory of Economic Development*, trans. Redvers Opie (Cambridge, Mass.: Harvard University Press, 1934), p. 64. Italicized in the original

⁵² J. A. Schumpeter, *Capitalism, Socialism, and Democracy*, 3rd ed. (New York: Harper, 1950), p. 134

barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun muhim zamin bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish strategiyasida mamlakat va uning mintaqalarini eksportga yo‘naltirilgan rivojlanish modeliga o‘tish, jumladan, hududlarning eksport salohiyatini oshirish va qo‘llab-quvvatlash, ichki bozordagi tovar va xizmatlarni jahon bozorlariga kiritish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarurligi bayon etilgan⁵³.

Shu tufayli davlatimiz rahbari BMT bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida mintaqalararo hamkorlikni kuchaytirish muhimligini ta’kidlab, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida qator konstruktiv g‘oya va tashabbuslarni ilgari surganligi bejiz emas.

Demak, O‘zbekiston va xorijiy davlatlar o‘rtasidagi mintaqalararo hamkorlikni mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Shularni inobatga olgan holda, mualliflar, O‘zbekiston bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasidagi mintaqalararo hamkorlikni mustahkamlash masalalarini mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiy o‘rta muhimi muhim manbai, deb hisoblashadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, mintaqalararo iqtisodiy hamkorlik faoliyat turlarini diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning zamonaviy shakllarini joriy etish hamda mahalliy mahsulot va xizmatlarni sotish, xomashyo sotib olish, mamlakatlar mintaqalari o‘rtasida investitsiya va mehnat resurslari harakatida kuzatiladigan to‘siqlarni bartaraf etishga ko‘maklashadi⁵⁴.

2017-2019 yillar bo‘yicha “Tovar va xizmatlar eksport, import” O‘zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo‘mitasining statistik byulletenlari axborot bazasi bo‘lib xizmat qildi⁵⁵. Tadqiqotda qiyosiy baholash, guruhlash, tizim va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

2016 yilda boshlangan yangi iqtisodiy siyosatda iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarning eng muhim elementlaridan biri O‘zbekistonning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvining sezilarli darajada faollashuvi bo‘ldi. Mamlakat va uning mintaqalaridagi mavjud tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo hajmini bosqichma-bosqich oshirish imkonini berdi.

⁵³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017y., 6-son, 70-modda

⁵⁴Lukin Ye.V. Mejrionalnoye sotrudnichestvo kak faktor regionalnogo razvitiya. J.: Rossiya: tendensii i perspektiva razvitiya, 2016 g.

⁵⁵O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan tayyorlangan 2019 yil bo‘yicha “Eksport, import” statistik to‘plami.

2017-2019 yillarda O‘zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari eksport salohiyatini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko‘lamini kengaytirish va import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarish jarayonlarini chuqurlashtirish bo‘ldi. Tahlil qilingan davrda O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2,9 barobar oshdi, bu mamlakat savdo aylanmasining umumiy qiymati o‘shidan yuqori (O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining umumiy hajmi shu davr mobaynida 1,5 barobar oshdi) bo‘ldi. Natijada Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi savdodagi hissasi 2017 yilda 10,2% dan 2019 yilda 19,1% gacha oshgan bo‘lib, bu mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashdan dalolat beradi (14.2.1-jadval).

14.2.1-jadval.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan 2017-2019 yillardagi tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari, mln AQSh dollarida

Kўrsatkichlar	Yillar	Jami	Shu jumladan, Markaziy Osiyo mamlakatlari				O‘zbekistonning umumiy savdo aylanmasida Markaziy Osiyo mamlakatlari ulushi, %
			Qozog‘iston	Qirg‘iziston	Tojikiston	Turkmaniston	
Tashqi savdo aylanmasi	2017	26983,2	2069,8	255	237,9	177,9	10,2
	2018	33553	2919,6	402,8	390,5	302,8	12,0
	2019	41751	3334,9	3334,9	820,3	480,5	19,1
Maхsulot va хизматлар экспорти	2017	12094,6	1071,6	179,6	186,1	69,9	10,8
	2018	13990,7	1352,2	269,7	237,5	59,5	13,7
	2019	17458,7	1392,9	669,6	327,6	144,3	14,5
Maхsulot va хизматлар импорти	2017	12137,6	998,2	75,4	51,8	108	9,4
	2018	19562,3	1567,4	133,1	153	243,3	10,7
	2019	24292,3	1942	150,7	152,9	410	10,9
Savdo aylanlasining sальдоси	2017	-43	73,4	104,2	134,3	-38,1	
	2018	-5571,6	-215,2	136,6	84,5	-183,8	
	2019	-6833,6	-549,1	518,9	174,7	-265,7	
Tashqi savdo aylanmasining ўсиши, %	2017-2019	154,7	161,1	1307,8	344,8	270,1	
shu jumladan:							
maхsulot va хизматлар экспорти, %		144,4	130,0	372,8	176,0	206,4	
maхsulot va хизматлар импорти, %		20,1	194,6	199,9	295,2	379,6	

Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси томонидан тайёрланган 2017-2019 йиллар бўйича “Экспорт, импорт” статистик тўплами.

Shuni ta’kidlash joizki, ayrim iqtisodiy faoliyat turlarida o‘ziga xos xususiyatlar va raqobat ustunliklariga ega bo‘lgan O‘zbekiston tovar va xizmatlarni eksport qilishda munosib o‘rin egallaydi (2019 yilda mamlakat tovar va xizmatlarini eksport qilishda Markaziy Osiyo mamlakatlari ulushi 14,5% ni tashkil etdi, bu esa 2017 yilga nisbatan yuqoridir).

Shu bilan birga, mintqa mamlakatlari orasida asosiy importchilar Qozog‘iston (umumiy eksportning 8,0%) va Qirg‘iziston (3,8%) hisoblanadi, Tojikiston va Turkmaniston esa o‘rtacha ko‘rsatkichlarga ega (1,9% va 0,8%, mos ravishda).

Tovarlar va xizmatlar eksport tarkibining tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston kimyo mahsulotlari va undan olinadigan mahsulotlar, mashina va uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistonga), shuningdek, qora metallar (Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikistonga eksport) ishlab chiqarish va eksport qilishda raqobat ustunligiga ega (14.2.2-jadval).

14.2.2-jadval.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasini rivojlantirishda tovarlar va xizmatlar eksportining raqobat ustunliklari, ixtisoslashuv koeffitsientlari asosida

Маҳсулотлар тури	Қозоғистон	Қирғизистон	Тожикистон	Туркменистон
Кимёвий маҳсулотлар ва ундан тайёрланган маҳсулотлар	1,699	1,426	2,347	2,139
Рангли металллар	0,645	0,232	0,068	0,003
Қора металллар	2,550	1,174	2,120	0,021
Ёқилғи ва нефт маҳсулотлари	2,172	0,096	0,786	0,016
Машина ва ускуналар	4,213	1,531	1,893	2,844
Озиқ-овқат маҳсулотлари	2,479	5,720	1,887	1,165
Хизматлар	0,498	0,180	1,906	3,221
Бошқалар	0,251	0,753	0,346	0,200

Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси томонидан тайёрланган 2017-2019 йиллар бўйича “Экспорт, импорт” статистик гуҗлами.

Shu bilan birga, O'zbekiston Markaziy Osiyodan energiya va neft mahsulotlari, rangli va qora metallar va boshqa mahsulotlarning asosiy importyori hisoblanadi.

Umuman olganda, bugungi kunga kelib, Markaziy Osiyo hukumatlari tomonidan sanoat va ilmiy-texnikaviy hamkorlik, mintaqalararo hamkorlik, sarmoyalarni o'zaro rag'batlantirish va himoya qilish, ta'lim-tarbiya hujjatlarini o'zaro tan olish to'g'risida shartnomalar imzolandi. O'zbekiston mashinasozlik, elektr, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati sohalarida ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hamkorlik uchun yaxshi istiqbollarni ko'rmoqda.

Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston iqtisodiy mintaqalararo rivojlanish va mintaqada ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida ham O'zbekiston uchun muhim hamkorlardir. Bu mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar xalqlarning tarixiy yaqinligi va o'zaro siyosiy va iqtisodiy manfaatlarga asoslanadi.

Hamkorlikni kengaytirishning muhim omili qo'shma va xorijiy korxonalarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishidir. Hozirgi kunda O'zbekistonda qozoq sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 200 dan ortiq korxona (83% qo'shma korxona

va 100% qozoq sarmoyasi bilan 17% korxona) va qirg'iz sarmoyadorlari ishtirokida tuzilgan 96 ga yaqin kompaniya mavjud. O'z navbatida, Qozog'iston hududida 150 ga yaqin korxona, Qirg'izistonda esa keng turdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan 200 dan ortiq qo'shma qirg'iz – o'zbek korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mintaqalararo hamkorlikni amalga oshirishning ijobiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, hududiy klaster, savdo zonalarini tashkil etish;

- yuqori texnologiyali faoliyat turlarini (mashinasozlik, farmatsevtika, asbobsozlik, axborotlashtirish va aloqa) rivojlantirish va amalga oshirishda tuman va shaharlarda sanoatni rivojlantirish maqsadida hududlarga investitsiya resurslarini jalb qilish;

- mahalliy mahsulotlar, masalan, to'qimachilik mahsulotlari uchun o'z brendini shakllantirish, Markaziy Osiyoda savdo uylari va markazlarini tashkil etish;

- mahalliy mahsulotlarning tashqi bozorlarga, xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlariga, erkin savdo zonalarini to'g'risidagi bitimlarni amalga oshirish doirasida chiqarish;

- ta'lim, sog'liqni saqlash, biznesni rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirish sohasida tajriba almashish, ilg'or texnika va texnologiyalar ishlab chiqarishga jalb etish;

- mahalliy quvvatlar va resurslarga asoslangan qo'shma loyihalar orqali uzoq va chegara hududlarini (qishloq joylarini) rivojlantirish va boshqalar.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan tadqiqot ishlari doirasida o'tkazilgan mintaqalarning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini baholash O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ko'p tomonlama hamkorligi uchun istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash imkonini berdi⁵⁶.

Birinchidan, ishlab chiqarishni joylashtirish (paxta-to'qimachilik va agrosanoat klaster) zamonaviy shakllarini joriy etish asosida qayta ishlab chiqarishni chuqurlashtirishga qaratilgan davlat sanoat siyosati iqtisodiyotning xomashyoga yo'naltirilgan ixtisoslashuvini kamaytirish va tayyor mahsulotlar (qishloq xo'jaligi mahsulotlari, tayyor meva va sabzavot, go'sht va sut mahsulotlari, to'qimachilik, farmatsevtika, va hokazo) eksport salohiyatini oshirish uchun zaxira ekanligini ta'kidlash lozim. Shu munosabat bilan mintaqalararo loyihalarni amalga oshirishda xorijiy investitsiyalarni jalb etish, to'plangan tajribani (masalan, Farg'ona vodiysining yerga ishlov berish, qurilish ishlari bo'yicha tajribasi va boshqalar) joriy

⁵⁶Ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish va mintaqalar iqtisodiyotini diversifikatsiyalashning metodologik asoslarini takomillashtirish mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha hisobot, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti, 2017 y.

etish, tovarlar va xizmatlarni sotishga yordam berish uchun qo‘shni mamlakatlarda biznes markazlari va savdo uylari yaratish mumkin.

Ikkinchidan, O‘zbekiston yo‘lovchilar va yuklarni transchegaraviy tashishni yanada rivojlantirish uchun yetarli darajada rivojlangan transport infratuzilmasiga ega. Markaziy Osiyo davlatlarini birlashtiruvchi va tashqi bozorlarga chiquvchi eng muhim transport yo‘laklarini barpo etish va modernizatsiya qilish loyihalarini amalga oshirish, transport logistikasini rivojlantirish xarajatlarni kamaytiradi, mamlakatlar o‘rtasidagi savdoni oshiradi va Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab turizmni rivojlantirish istiqbollarini ochadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston chegara hududlari bilan qo‘shni davlatlarning tegishli chegara hududlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan transchegaraviy savdoni tashkil etish nuqtai nazaridan yagona yo‘lak yaratish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, aholi nisbatan zich joylashgan hudud va mehnat resurslarining mavjudligi bilan ajralib turadigan O‘zbekiston uchun aholining faol mehnat migratsiyasi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi - mehnat va malakali kadrlarning mamlakat hududlaridan iqtisodiy jihatdan nisbatan rivojlangan mamlakatlarga chiqishi bilan izohlanadi. O‘zbekiston aholisining Markaziy Osiyo davlatlari bilan bandligini ta‘minlash bo‘yicha mintaqalararo hamkorlikni tashkil etish doirasida barcha tomonlar uchun qulay bitimlarga erishish mumkin. Bu yo‘nalishda ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohasini kengaytirish, keyinchalik aholi bandligini ta‘minlash imkoniyatlari ham mavjud.

To‘rtinchidan, Markaziy Osiyo mintaqalarining umumiy muammosi suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik vaziyatni barqarorlashtirishdir⁵⁷.

Yagona energetika tizimining qayta tiklanishi O‘zbekiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘izistonga umumiy quvvatlardan foydalanish va energiya ta‘minoti bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. Yagona elektr energiyasi bozori iste‘molchilarga oshkora narxlar belgilash imkonini beradi va a‘zo davlatlarning iqtisodiy o‘sishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo mintaqalaridagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha birgalikdagi sa‘y-harakatlar doirasida “suvning quyi qismi”dagi davlatlarda (Qozog‘iston, O‘zbekiston va Turkmaniston) suv tanqisligini bartaraf etish, “suvning yuqori qismi”dagi mamlakatlarni (Qirg‘iziston va Tojikiston) esa gidroelektr stansiyalaridan elektr energiyasi bilan ta‘minlash, shuningdek, qishloq

⁵⁷ Экологические проблемы Центральной Азии. Электронный источник: <https://ural-eurasia.ru/pro-zasedaniya/news/159-ekologicheskie-problemy-tsentralnoj-azii>

xo'jaligini intensivlashtirish orqali suv sarfini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar o'tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday qilib, mintaqaviy va mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarni yanada kuchaytirish Markaziy Osiyo davlatlari uchun yagona iqtisodiy bozorni yaratish, mintaqaviy va jahon bozorlarida mahsulotning raqobatbardosh-ligini oshirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish, innovatsion jarayonlarni jadallashtirish, yagona ilmiy va ta'lim salohiyatini shakllantirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali ularning taraqqiyotiga sezilarli ijobiy turtki beradi⁵⁸.

14.3. O'zbekistonning jahon iqtisodiyoti globallashtirishda tutgan o'rni

Globallashtirish liberalizatsiyalashgan xalqaro almashinuv asosida xo'jalik hayoti integratsiyalashuv jarayonlarining kuchayishi, milliy rivojlangan iqtisodiyotning ochiq-ligi va o'zaro bog'liqligining yuqori darajadagi yangi bosqichidir. Bugungi rivojlanish davri va jarayonlari globallashtirishning ob'ektiv zaruriyat sifatida e'tirof etilishini ko'rsatmoqda.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining ob'ektiv jarayoniga aylangan globallashtirish o'z ahamiyatiga ko'ra juda ko'plab xususiyatlarni namoyon etmoqda:

- turli mamlakatlar xo'jaligining o'zaro aloqalari (savdo, iqtisodiy, moliyaviy, bank, ishlab chiqarish, kapital, sug'urta, texnologiya, energetika, ta'lim, innovatsiya, ishchi kuchi, turizm, madaniy, gumanitar, sog'liqni saqlash, ekologiya va boshqa yo'nalishdagi);

- xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning faollashuvi;
- ilm-fan va texnika-texnologiyalar yutuqlari almashuvining tezlashishi;
- davlatlarning ilmiy texnikaviy taraqqiyotiga ko'maklashuvi asosida raqamli iqtisodiy taraqqiyotning jadallashtirish;
- kadrlar tayyorlash va inson kapitali samaradorligini oshirish;
- cheklangan resurslardan foydalanish samaradorligini va yuqori qo'shilgan qiymat darajasini oshirish.

Globallashtirishning chuqurlashuvi va kengayib borishi xalqaro hamjamiyatning o'zaro aloqalari va bog'liqligi kuchayib borishini, umumjahon global tizimning shakllanishini, amal qilishini va rivojlanishini anglatuvchi jahon iqtisodiy globallashtirishni ifoda etadi. Globallashtirishning yuzaga kelishi va chuqurlashib borishi mamlakatlar o'rtasidagi tashqi iqtisodiy faoliyatning tobora rivojlanib borishi bilan bevosita bog'liqdir.

⁵⁸ O.Olimjonov, E.Yakubova, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligini kuchaytirish - davr talabi, maqola. <https://review.uz/uz/post/ozbekistonning-markaziy-osiyo-davlatlari-bilan-hamkorligini-kuchaytirish-davr-talabi>

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining hududida doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga haqlidir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat organlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishlari mumkin. Bu esa O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Dastlab 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 2000 yil 26 mayda yangi tahrirda qabul qilingan bo'lsa-da, biroq, mazkur yangi tahrirdagi Qonun ham butunlay yangicha tahrirda qayta ishlab chiqilishi jarayonini boshidan kechirmoqda⁵⁹. Bunga esa O'zbekistonning bugungi kundagi ochiqlik darajasining kuchayib hamda xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlar, xorijiy davlatlar bilan hamkorlik, xususan, tashqi iqtisodiy faoliyat munosabatlarining tobora chuqurlashib va u bilan bog'liq xalqaro me'yorlar, standartlar va tamoyillarni milliy iqtisodiyotda joriy etishga qaratilgan islohotlar samaradorligi natijasida mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyat soha va yo'nalishlarining rivojlanib borayotganligi muhim omil sifatida ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon banki tomonidan qo'llab-quvvatlangan yangi loyiha hukumatga bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlashga qodir bo'lgan milliy innovasion tizimni rivojlantirishga yordam beradi. Bu ilmiy va innovasion mahsulotlar va xizmatlarni ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlanmalari va tijoratlashtirish sohasida davlat, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi.


Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi davlat tashqi qarzining hajmi 2021 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, 21,1 mlrd. AQSh dollari yoki YaIMga nisbatan 36,5 foizni tashkil etdi. Shundan:

- O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan tashqi qarz – 15,1 mlrd. AQSh dollari ekvivalenti yoki jami davlat tashqi qarzining 71,4 foizi;
- O'zbekiston Respublikasining kafolati ostida jalb qilingan tashqi qarz – 6,0 mlrd. AQSh dollari ekvivalenti yoki davlat tashqi qarzining 28,6 foizi.

⁵⁹ TDIU mualliflar jamoasi, Yangi O'zbekiston: Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish odimlari. O'quv qo'llanma. – T.: "Ma'naviyat", 2021. – 682 bet.

O'zbekiston xalqining farovon hayotini va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun, avvalo, infratuzilmani rivojlantirish talab etiladi. Aholining yashashi, ishlab chiqarish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish uchun zarur bo'lgan energetika, suv ta'minoti, transport va kommunikasiya infratuzilmalarini rivojlantirish uchun esa davlat tomonidan katta miqdordagi sarmoyalar talab etiladi. Ichki imkoniyatlar cheklangan holatda, davlat tashqi qarzi, asosan infratuzilma, sanoat va qishloq ho'jaligi loyihalariga yo'naltirib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro moliyaviy institutlaridan jalb qilgan tashqi qarz portfeli hajmi 10,1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etib, mazkur kreditlar uzoq muddat (30 yilgacha) hamda imtiyozli foiz stavkalarida taqdim etilgan.



14.3.1-rasm. O'zbekiston Respublikasining davlat tashqi qarz kreditlar kesimida⁶⁰

Shuning bilan birgalikda, Moliya vazirligi Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki va AQSh G'aznachiligi bilan hamkorlikda davlat qarz portfelini diversifikatsiyalash hamda valyuta xatarlarini kamaytirish maqsadida ichki moliyalashtirish manbalardan keng foydalanish, davlat qimmatli qog'ozlar bozorini faollashtirish uchun mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etish, davlat byudjeti

⁶⁰ O'sha manba

taqchilligini, avvalo, davlat qimmatli qogʻozlarini ichki moliya bozorlarida joylashtirish orqali moliyalashtirish sohasida zarur ishlar olib borilmokda. Jumladan, JB va XVJ bilan hamkorlikda 2020-2022 yillar uchun “Oʻzbekiston Respublikasining davlat qarzini boshqarish strategiyasi” ishlab chiqildi. Mazkur strategiya har yili makroiqtisodiy parametrlarning oʻzgarishi nuqtai nazardan qayta ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Strategiya doirasida davlat qarzini diversifikasiyalash hamda valyuta xatarlarini kamaytirish maqsadida Davlat byudjeti taqchilligini, avvalo, davlat qimmatli qogʻozlarini ichki bozorda joylashtirish va suveren xalqaro obligasiyalarni xalqaro moliya bozoriga joylashtirish orqali qoplashga harakat qilinmoqda.

Xususan, ichki bozorda joylashtirilgan davlat qimmatli qogʻozlari 2018 yildagi qariyb 0,6 trln. soʻmdan 2019 yilda 1,6 trln. soʻmgacha oshdi. 2020 yilda esa 5,0 trln. soʻmga teng davlat qimmatli qogʻozlari chiqarildi.

Xalqaro moliya bozoriga joylashtirilgan suveren xalqaro obligasiyalar ikki transhda – 10 yillik muddat bilan 555 mln. AQSh dollarida va 3 yillik muddat bilan ilk bora milliy valyutamiz – oʻzbek soʻmida 2 trln. soʻm miqdorida joylashtirildi⁶¹.

Nazorat savollari:

1. Oʻzbekiston Respublikasi jahonning qaysi mamlakatlari bilan ustun darajada iqtisodiy hamkorlikka ega?
2. Pandemiya sharoitida Oʻzbekiston qaysi xorijiy mamlakatlarga begʻaraz iqtisodiy yordamlarni taqdim qildi?
3. Oʻzbekistonning tashqi savdodagi eng asosiy hamkor mamlakatlarini ayting?
4. 2020-yilda boʻlib oʻtgan SHHTning navbatdagi Sammitida yurtboshimiz tomonidan qanday taklif va tashabbuslar bilan chiqdilar?

⁶¹ Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2020-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasi davlat tashqi qarzi holati va dinamikasi sharhi. <http://mf.uz>

GLOSSARIY

ASEAN – Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarining submintaqaviy uyushmasi. 1967 yilda tashkil etilgan bo'lib, ushbu uyushmaga Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Filippin, Vetnam, Kambodja, Bruney, Myanma va Laos mamlakatlari a'zo.

“Aqlli kishilarning ketib kolishi” - mamlakatdan “intellektual elita” vakillarining chet elda ishg joylashish maqsadida chiqib ketishi.

Biznes – foyda olishga qaratilgan (ehtiyoj va muhtojlikni qondirish natijasida) tadbirkorlik faoliyatini anglatadi. U o'zining mulkiy javobgarligi ostida xususiy yoki qarz mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan, asosiy maqsadi foyda olish va o'z ishini rivojlantirish nuqtai nazaridan yuritiluvchi iqtisodiy faoliyat.

Bojxona boji — tovar davlat chegarasini kesib o'tganda solinadigan maxsus pul solig'i.

Bojxona ittifoqi — ikki va undan ortiq davlatlarning bir-biriga va uchinchi mamlakatlarga nisbatan soddalashtirilgan tarif siyosatini o'tkazishidir.

Bojxona tarifi — tovar oqimlarining chegarani kesib o'tishida davlat tomonidan olinadigan soliq miqdori ko'rsatilgan tartiblangan tovarlar ro'yxati.

Byurokratik to'siqlar – iqtisodiyotning turli darajalarida xo'jalik faoliyatini tashkil etish, xo'jalik echimlarini samarali hal etishga to'sqinlik qiluvchi, asossiz ravishdagi va sub'ektiv tavsifdagi rasmiyatchilik, tartib-qoidalar.

Valyuta bozorlari — milliy valyuta ishtirokida talab va taklif ta'sirida yuzaga keluvchi valyuta kursiga muvofiq xorijiy valyutalarini oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlar.

GATT — Savdo va tariflar bo'yicha Bosh kelishuv — tashqi savdo operatsiyalarini o'tkazishda belgilangan tamoyillarga amal qilishga rozi bo'lgan mamlakatlarni birlashtiruvchi savdo va tarif masalalari bo'yicha xalqaro akt.

Global moliyaviy-iqtisodiy bozor – jahon mamlakatlari o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo'jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

Global muammolar — olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan va o'z echimini topishida jahondagi barcha mamlakatlarning birgalikdagi harakatlarini talab etuvchi tsivilizatsiyamizning eng dolzarb masalalari.

Diversifikatsiya – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko'paytirish.

Dividend – aktsionerlik jamiyati sof foydasidan aktsiya egalariga to'lanadigan qismi bo'lib, u aktsionerlarga naqd pul yoki aktsiyalar bilan to'lanadi.

Dollar – dollar, birinchidan AQSh pul birligi, 100 tsentga teng. 1786 yilda kumush dollar, 1965 yilda esa oltin, kumush, mis-nikelli dollar zarb qilingan. AQSh dollari xalqaro valyuta hisob-kitoblarida keng qo'llanadi. Muomalada 100, 50, 20, 10, 5, 2, 1 dollarli qog'oz pullar. Dollar, ikkinchidan Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Liberiya, Efiopiya, Malayziya, Singapur, Bermud orollari, Britaniya Gonduras kabi davlatlarining pul birligi hisoblanadi.

Yevro - universal Yevropa hisob-kitob-to'lov birligi bo'lib, YIga a'zo mamlakatlar hududida EKYU o'rniga joriy etilgan.

Yevropa valyuta tizimi (YVT) - YI a'zolarining hududiy valyuta guruhi.

Yevropa Ittifoqi (YI) - Yevropaning 27 ta davlatini birlashtiruvchi iqtisodiy va siyosiy guruh.

Yevropa erkin savdo uyushmasi (YESU) – Yevropadagi qator yetakchi sanoati va savdosi rivojlangan mamlakatlarning savdo-iqtisodiy tashkiloti bo'lib, 1960- yilda Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi tashabbusi bilan Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati davlatlari ishtirokida tashkil topdi. “Umumiy bozor”ga qo'shilishi munosabati bilan 1973-yili Buyuk Britaniya va Daniya, 1986-yili Portugaliya YESUdan chiqdi. Bu uyushmaning hozirgi a'zolari Avstriya, Islandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Shveytsariya, Finlyandiya. Kotibiyatining shtab-kvartirasi Jeneva shahridir.

Jahon banki – 1944 yilda Xalqaro valyuta fondi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946 yil 25 iyundan boshlagan.

Jahon bahosi - talab va taklif egri chiziqlari ta'sirini hisobga olgan holda milliy narx ko'rsatkichlari ta'sirida xalkaro savdo markazlarida xosil bo'ladi.

Jahon bozori — moddiylashtirilgan va moddiylashtirilmagan ko'rinishidagi ijtimoiy mahsulotni ishlab chikarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol boskichlarni o'z ichiga oluvchi XIM sub'ektlari (milliy va hududiy iqtisodiyotlar, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar)ning o'zaro iqtisodiy ta'sirlashish global muhitidir.

Jahon bozori kon'yunkturasi - jahon tovar bozorlaridagi sotish sharti, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendentsiyalari.

Jahon valyuta-moliya tizimi (JVMT) — xalqaro iqtisodiy munosabatlar doirasida uzoq davom etgan evolyutsiya natijasida shakllangan va davlatlararo bitimlar orkali mustahkamlangan valyuta munosabatlarini tashkil etish ko'rinishidir.

Jahon ishchi kuchi bozori (JIKB) — milliy xo'jalik tizimlari va jahon iqtisodiyoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarning darajasi, tabiati va joylashuviga sezilarli ta'sir etuvchi iqtisodiy faol aholining mamlakatlar va hududlar o'rtasida jami migratsion aylanmasi.

Jahon puli – xalqaro miqyosda hamma uchun umumiy xarid vositasi, umumiy to'lov vositasi, boylikning umumiy moddiy timsoli, baynalminal qiymat ifodasi bo'lgan puldir. Jahon puli vazifasini dastlab ma'lum vazifadagi oltin yombilari bajargan, so'ngra xalqaro miqyosda obro'-e'tiborli milliy pul (dollar, funt sterling) jahon pullari deb e'tirof etilgan.

Jahon savdo tashkiloti (JST) — (World Trade OrganizationWTO). Bu tashkilot GATT (Tariflar va savdolar to'g'risidagi bosh bitim) doirasidagi Urugvay raundi muzokaralari natijasida paydo bo'lgan. Uning shtab-kvartirasi Jeneva shahrida joylashgan. JST GATT, GATS (Xizmatlar ko'rsatish savdosi to'grisidagi bosh bitim) va TRIPS (Intellectual mulk xuquqining savdo aspektlari to'grisidagi bosh bitim)lar asosida tashkil etilgan ko'ptomonlama savdo-iqtisodiy tashkilotdir. Shuningdek, u - xalqaro savdoni institutsional va xuquqiy asosini tashkil etuvchi mustaqil davlatlararo tashkilot.

Immigrant – muhojir, boshqa mamlakatdan ko'chib kelgan kishi.

Immigratsion kvota — xorijiy fuqarolarning kirib kelishini davlat tomonidan miqdoriy cheklash.

Import – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtni tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.

Investitsiya – bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aktsiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar asbob-uskunalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.

Investitsiya dasturi – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish uchun ishlab chiqilgan dastur.

Investitsiyaviy muhit — mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning samarali aylanishi zarur bo'lgan shart-sharoitlar kompleksi.

Investitsiya faoliyati - investitsiya maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq faoliyat. Investitsiya kompleksi tashkilotlari orqali amalga oshiriladi.

Investitsiyaviy siyosat – savdo menejmenti umumiy strategiyasining bir qismi bo'lib, korxonani rivojlantirish uchun aktivlarni kengaytirishning eng samarali yo'llarini tiklashni nazarda tutadi.

Investitsiyaviy hamkorlik - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning bir ko'rinishi bo'lib, resurslarni ratsional taqsimlash, xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijasidagi ustunliklaridan foydalanish orqali davlat tomonidan iqtisodiyotda nisbatan yuqori natijalarga erishish, texnologik ishlab chiqarish tuzilmasini yangilash kabilarni maqsad qilgan.

Innovatsiya – fan yutuqlari va ilg'or tajribadan foydalanishga asoslangan texnika, texnologiya, mehnatni tashkil qilish, boshqaruv sohasida yangilik kiritish.

Innovatsion faoliyat — Nazariy modelni bozor talabiga mos texnologiya-tovarga aylantirishdan iborat uzoq jarayondir.

Innovatsion texnologiyalar – iqtisodiyotga yangiliklarni tadbiq etish bosqichlarida qo'llaniluvchi usul va vositalar majmui bo'lib, o'z ichiga joriy etish, trening, konsalting, transfert, audit, injiniring kabi turlarini oladi.

Integratsiya – bir necha elementlarni bir butunga birlashtirish. Iqtisodiyotda xo'jalik hayotni baynalminallashtirishning oliy shakli bo'lib, bunga xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish ob'ektiv ravishda sabab bo'ladi.

Inflyatsiya – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o'sishi.

Informatsiya va texnologiyalar jahon bozori (ITJB) — intellektual faoliyat natijalari ayirboshlash xalqaro sohasi.

Infratuzilma – tovar ishlab chiqarish shartlarini ta'minlovchi ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari kompleksi: yo'llar, aloqa, transport, maorif, sog'liqni saqlash.

Inqirozga qarshi mo'ljallangan choralar dasturi – jahon mamlakatlari tomonidan va xususan O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan iqtisodiy inqirozga qarshi ishlab chiqilgan choralar dasturi bo'lib, mazkur dasturda talabni

rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tadbirlar majmui o'z aksini topgan.

Islom taraqqiyot banki (ITB) – islom bank-moliya sohasida keng qamrovli faoliyat yurituvchi yetakchi islom moliya muassasasi hisoblanadi. ITB Saudiya Arabistoni Podsholigining Jidda shahrida joylashgan bo'lib, unga 1973 yil 18 dekabrda Islom Konferentsiyasi Tashkiloti (hozirgi Islom Hamkorlik Tashkiloti) moliya vazirlarining birinchi konferentsiya-sida asos solingan. ITB o'z faoliyatini rasman 1975 yil 20 oktyabrda boshlagan. Bank tarkibiga 54 ta hissador a'zo mamlakatlar kiradi.

Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) – (2011 yilgacha “Islom konferentsiyasi tashkiloti” nomi bilan yuritilgan) 1969 yil 25 sentyabrda islom mamlakatlari va hukumatlari rahbarlarining Robot (Marokash) shahrida o'tkazilgan birinchi konferentsiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohada islomiy birdamlikni ta'minlash, mustamlakachilikka qarshi kurashish, Falastin ozodlik tashkilotini qo'llab-quvvatlash maqsadida asos solingan.

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash (EKOSOS) — BMTning asosiy boshqaruv organlaridan biri bo'lib, uning XIM sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib turadi.

Iqtisodiy integratsiya — hududiy miqyosda sifat jihatdan yangi iqtisodiy muhitni yaratish yo'li orqali milliy xo'jalik komplekslarini o'zaro yaqinlash va bir-biriga kirib borishi jarayoni.

Iqtisodiy ittifoq — iqtisodiy integratsiyaning oliy ko'rinishi, u umumiy xuquqiy me'yorlar, soliq bazasini soddalashtirilishi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalarda yagona standartlarni joriy etish, yagona valyutaga o'tish kabilar bilan tavsiflanadi.

Iqtisodiy o'sish – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o'sishi.

“Katta yettilik” (G7) – norasmiy tashkilot bo'lib, yetakchi industrial yetti davlati (AKSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va Italiya). Bu tashkilot har yili jahon xo'jaligidagi dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan yuksak darajadagi uchrashuvlarni uyushtiradi.

“Katta sakkizlik” (G8) – norasmiy tashkilot bo'lib, yetakchi industrial yetti davlat (AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va Italiya) hamda Rossiya davlatini o'z ichiga oladi. “Katta yettilik” tashkilotiga 1997 yilda

Rossiya Federatsiyasi a'zo bo'lganidan keyin tashkil bo'lgan “Katta sakkizlik” tashkilotidir. Biroq, 2014 yili Qrim mojarosi tufayli mazkur tashkilot a'zolidan Rossiya chiqarib yuborilgan va oldingidek “G7” tashkiloti sifatida yuritiladi.

“Katta yigirmalik” (G20) – jahonning 20 ta yirik mamlakatlar guruhi bo'lib, unga jahondagi eng boy mamlakatlar va yirik rivojlanayotgan davlatlar kiradi va ular hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 90 foiz ulushi to'g'ri keladi.

Kon'yunktura – bu bozorda ma'lum bir vaqtda yuzaga kelgan iqtisodiy holatdir (asosan talab hamda taklif nisbati va u bilan bog'liq bo'lgan narxlar darajasi orqali yuzaga keladi).

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o'lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi – mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati.

“Maasrixt shartnomasi” – shartnoma 1993-yilning 1 fevralida imzolangan bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo bo'lgan 12 davlat o'rtasidagi kelishuv.

Maxsus qarz olish xuquqi — Xalqaro valyuta fondining maxsus hisoblaridagi kredit yozuvlari ko'rinishidagi xalqaro aktivlar (ya'ni, zahira va to'lov vositalari) bo'lib, ularning mikdori XVFga a'zo-mamlakat-larning kvotalariga mos keladi.

Mehnat bozori – mehnatga qobiliyatli aholining ish bilan band bo'lgan va band bo'lmagan qismlari va ish beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni hamda ularning shaxsiy manfaatlarini hisobga oluvchi shartnomalar asosida ishchi kuchi xarid qilish - sotishni amalga oshiruvchi, shuningdek, unga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nisbatlarni bevosita tartibga soluvchi, bozor iqtisodiyotining murakkab, ko'p aspektli, o'suvchi va ochiq ijtimoiy-iqtisodiy tizimchasidir.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – iqtisodiyotning to'lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyati.

Modernizatsiya – ob'ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

Moliya tizimi – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

Moliya-bank tizimi – tarixan shakllangan va belgilangan qonun qoidalar asosida faoliyati yurituvchi mamlakatdagi moliya–kredit muassasalari majmuidir.

Moliyaviy institutlar – belgilangan qonun-qoidalar doirasida faoliyat yurituvchi mamlakatdagi moliya-kredit tashkilotlari.

Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB)- (Asian Development Bank, ADB)- Tinch okeani havzasida va Osiyo mamlakatlaridagi rivojlanish loyihasi uchun beriladigan uzok muddatli kreditlar bilan shug'ullanuvchi mintaqaviy davlatlararo bank.

Offshor hududlar - milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, bu yerda xorijiy xuquqiy va jismoniy shaxslar tijoriy operatsiyalarni chet el valyutasida amalga oshirashadi.

Portfel investitsiyalar — xo'jalik ob'ektini ekspluatatsiya qilish tufayli daromad olish xuquqini kafolatlovchi kapital qo'yilmalari.

Proteksionizm – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamlakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman ta'qiqlanadi.

Pul - kredit siyosati – davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

Savdo va taraqqiyot bo'yicha BMT Anjumani (YUNKTAD) — BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Savdoda eng qulay sharoit yaratish rejimi — mamlakatlar o'rtasida kelishilgan xolda o'rnatilgan savdo operatsiyalarining imtiyozli tartibi.

Sanoat taraqqiyoti bo'yicha BMT Anjumani (YUNIDO) — BMT tizimi doirasidagi maxsus muassasa.

Tashqi qarz – mamlakat hukumati, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tashqi nodavlat qarzlar – mamlakatdagi xususiy shaxslar (moliya muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

Tashqi savdo – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

Tashqi savdo siyosati – bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. **Bunga teng**

xuquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko'zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

TIFni tartibga solishning tarifli usullari — soliq cheklashlari (bojxona yigimlari, bojlar, aktsizlar va boshqalar) yordamida tashqi savdoga ta'sir o'tkazish vositalari yig'indisi.

TIFni tartibga solishning tarifsiz usullari — tashqi savdoga ta'sir o'tkazishning bevosita, ma'muriy vositalari guruhi (kvotalash, litsenziyalash, texnik standartlarni joriy qilish, sanitar me'yorlar va boshqalar).

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) — bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo'lib, filiallari esa dunyo bo'ylab tarqalib ketgan kompaniyalar.

Transmilliylashuv indeksi (TMI) — TMKning xorijdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga jalb etilganlik darajasi.

Transmilliy banklar (TMB) — jahon ssuda kapitali va moliyakredit xizmatlari bozorida faol qatnashish imkonini beruvchi kapitalga ega yirik banklar.

Xavfsizlik, xalqaro — xalqaro munosabatlar miqyosidagi beqarorlik.

Xalqaro valyuta fondi — xalqaro savdo va valyuta hamkorligini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatish maqsadida 1944 yilda tashkil etilgan xalqaro valyuta-moliya tashkiloti. Xalqaro valyuta fondi — a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solib turish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va uzoq muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilot. XVF o'z amaliy faoliyatini 1947 yil 1 martdan boshlagan. XVF — yirik hukumatlararo valyuta-moliya tashkilot bo'lib, BMTning maxsuslashtirilgan muassasasi sifatida tartibga solish, maslahat berish va moliya-kredit sohasidagi vazifalarni bajaradi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar — mamlakatlar va hududlar o'rtasidagi, xalqaro tashkilotlar va korporatsiyalar ishtirokidagi xo'jalik aloqalari tizimi.

Xalqaro kredit — valyuta va tovar resurslarini qaytarishlik, shoshilinchlik va to'lovlilik shartlarida berish.

Xalqaro savdo — milliy xo'jaliklar o'rtasida to'lanadigan jami tovar aylanmasi ko'rinishidagi mehnat mahsulotlari ayirboshlashning o'ziga xos shakli.

Xalqaro tashkilotlar — ularning har biri xalqaro siyosatda o'zlarining faoliyat maqsadlari yo'nalishlariga qarab, yer yuzi taraqqiyotida egallab turgan mavqelariga

qarab, umuman xalqaro siyosiy-amaliy munosabatlar jarayonida harakatlarga kirishadigan boshqa xalqaro tashkilotlar tizimidagi maqomlariga qarab ahamiyat kasb etadilar.

Xalqaro tranzit - xorijiy yuklarni jo'natish va qabul qilib olish punktlari berilgan mamlakat hududidan tashqarida bo'lishi shartida tashilishidir. Agar tovarlar bojxona omboriga joylashtirilmasdan tashilsa bevosita xalqaro tranzit, bojxona omboridan foydalanilsa – bilvosita xalqaro tranzit hisoblanadi.

Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR) — eng rivojlangan industrial mamlakatlar birlashmasi.

Xeksher—Olin—Samuelson tamoyili — mamlakatning eksportga ixtisoslashuvi milliy iqtisodiyotdagi ortiqcha ishlab chiqarish omillarining mavjudligiga asoslangan.

Umumiy bozor — ishlab chiqarish omillarini milliy chegaralar orqali erkin ko'chib o'tishi ta'minlanadigan iqtisodiy integratsiya ko'rinishi.

Fond bozori – qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy vositalarning oldi-sotdi jarayonlari amalga oshiriluvchi maxsus tashkillashtirilgan bozor.

Franchayzing — bir kompaniyaning boshqa yirikroq yoki bosh kompaniyaning savdo markasi, tovar belgisi va boshqa atributlaridan foydalanish.

Eksport – tovarlar, xizmatlar, investitsiya, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar va boshqalarni tashqi bozorga chiqarish.

Eksport kvotasi - mamlakat eksporti hiymatining unig yalpi ichki mahsuloti (YaIM)ga nisbati (foizlarda).

EKYU – Yevropa valyuta tizimida 1979-1998 yillarda foydalanilgan valyuta birligidir.

Embargo - alohida mamlakat yoki davlatlar guruhi bilan savdoni butunlay ta'qiqlash.

Erkin iqtisodiy hududlar - mamlakatning shunday hududiki, bu yerga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyasidan tashkarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va solikka tortishdan ozod etiladi, ya'ni - bu milliy iqtisodiyotning bir kismini tashkil etib, bu yerda mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan o'ziga xos imtiyozlar va ragbatlantirishlar tizimidan foydalaniladi.

Erkin savdo hududlari (ESX) — preferentsial hudud hisoblanib, uning doirasida bojxona va miqdoriy cheklashlardan xoli savdo tartibiga rioya qilinadi.

Erkin industrial - iqtisodiy zona – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakllardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi. Mazkur zonalarda maxsus imtiyozli shart-sharoitlar, jumladan, imtiyozli soliqlar, bojxona to'lovlari, ijara, viza olish, valyuta ayirboshlash, mehnatga yollashning qulay tartiblari belgilangan bo'ladi.

Yangi industrial mamlakatlar (YaIM) — iqtisodiy jihatdan eng tez rivojlanayotgan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi davlatlar guruhi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik– har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”,2017
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.- 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. - 488 b.
5. SH.I.Mustafakulov Investitsion jozibadorlikning nazariy, metodologik va amaliy talqini. T: “Manaviyat”, 2021-352 bet
6. SH.I.Mustafakulov, N.O'rmonov, Q.Isayev. Iqtisodiyot ilmi osmonida yulduzga aylanganlar. Ilmiy ommabop risola. T: “Manaviyat”, 2021-357 bet
7. SH.I.Mustafakulov, O.Raximberdiyev, M.SH.Egamberdiyeva Iqtisodiy atamalarning izohli lug'ati. T: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2019 - 489 bet
8. Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc Melitz International Finance: Theory and Policy, Global Edition 2017 y
9. International Finance Fourth edition Maurice D. Levi
10. A Handbook on International Finance and Foreign Exchange May 2020 Himalaya Publishing House Nandini Gopalaswamy Jagannarayan. Ramniranjan Jhunjhunwala College.
11. A.Sh.Bekmurodov, I.U.Majidov, U.V. G'afurov, Sh.I.Mustafaqulov “Buyuk va muqaddassan, mustaqil vatan”, ilmiy-ommabop risola, “Oqituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2011, 198 b.
12. A.Vahobov, G.A.Qosimova Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv qo‘llanma T.: “Iqtisod-moliya”, 2008. 260 b.
13. A.P.Kireev Xalqaro iqtisodiyot. 2 soatda - I qism. Xalqaro mikroiqtisodiyot: tovarlar harakati va ishlab chiqarish omillari. Universitetlar uchun darslik. - M.: 416 s
14. Kireev A. P. K43 Xalqaro iqtisodiyot. 2 soat ichida - Ch. P. Xalqaro makroiqtisodiyot: ochiq iqtisodiyot va makroiqtisodiy dasturlash. Universitetlar uchun darslik. - M.: Xalqaro munosabatlar, 2001. - 488 p.
15. Samuel Xantington. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi.
16. Acem og'lu, Deaton, Dixit: 100 yilda. Etakchi iqtisodchilar Gaidar instituti nashriyoti, 2017 yil
17. Acem og'lu, Robinson: Tor koridor, AST, 2021 yil

18. Acem ogly, Robinson: Nima uchun ba'zi mamlakatlar boy, boshqalari esa kambag'al. Kuch, farovonlik va qashshoqlikning kelib chiqishi, ACT, 2020.
19. Daron Acem ogly: Zamonaviy iqtisodiy o'sish nazariyasiga kirish. 2 kitobda. 1-kitob, Case, 2018
20. Daron Acem ogly: Zamonaviy iqtisodiy o'sish nazariyasiga kirish. 2 kitobda. 2-kitob, Case, 2018
21. Acem ogly, Robinson: Diktatura va demokratiyaning iqtisodiy kelib chiqishi, HSE nashriyoti, 2020.
22. Masahiro Kawai and Eswar S. Prasad. Financial Market Regulation and Reforms in Emerging Markets. Asian Development Bank Institute, Tokyo 100-6008, Japan. The Brookings Institutions, Washington DC 20036, US. 2011.
23. S.Elmirzayev va boshqalar. Moliya bozori. Darslik. Iqtisod-moliya. Toshkent. 2019. 298-bet.
24. S.P.Abdullaev. Mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda moliya bozori salohiyatidan foydalanish yo'nalishlari. «Xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuv sharoitida O'zbekiston bank-moliya sohasini modernizatsiyalashning zamonaviy tendensiyalari» mavzusida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2015.
25. Sh.Shoha'zamiy. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. Darslik.-T.:»Fan va texnologiya», 2012. 289-bet.
26. Paul R. Krugman. International Economics theory & policy eleventh edition global edition. Princeton University Maurice Obstfeld University of California, Berkeley Marc J. Melitz Harvard University.
27. Paul R. Krugman, International Economics: Theory and Policy, Pearson a Text, Global Edition. The Graduate Center, City University of New York, Princeton University, University of California, Berkeley. Maurice Obstfeld, University of California, Berkeley. Marc Melitz, Harvard University. ©2018
28. Paul R. Krugman, International Economics: Theory and Policy, 10th Edition. The Graduate Center, City University of New York, Princeton University, University of California, Berkeley Maurice Obstfeld, University of California, Berkeley Marc Melitz, Harvard University ©2015
29. UNCTAD /DITE. International Investment Instruments: a Compendium. Vol.1- IX .UN , New York and Geneva, 2020
30. Bilateral Investment Treaties 2019-2020. UN, New York and Geneva, 2020.
31. International Financial Statistics Yearbook/IM F. Wash. 2018-2020.
32. Balance of Payments Statistics Yearbook. Parts 1&2. Washington, 2020.

33. Schumpeter J. Essay on Economic Topics N.Y. 2020.
34. IMF, World Economic Outlook, 2019.
35. R&D Magazine. 2019 Global R&D Funding Forecast
36. World Investment Report 2019. UNCTAD. New York and Geneva, 2019.
37. World Investment Report. 2019: Trend and Determinants. UNCTAD. New York and Geneva, 2019.
38. World Investment Report 2020: Transnational Corporations, Extractive Industries and Development. UNCTAD. New York and Geneva, 2020.
39. World Investment Report 2009: Transnational Corporations, Agricultural Production and Development. UNCTAD. New York and Geneva, 2020.
40. 19. World Investment Report 2020: Investing in a Low-carbon Economy. UNCTAD, -New York and Geneva, 2020.
41. UNCTAD HANDBOOK OF STATISTICS 2020.
42. World Economic Outlook: Rebalancing Growth. April 2020.
43. External Statistics: Guide for Compilers and Users (The Guide). IMF. 2018.
44. Migration and Remittances Factbook 2020. Second edition. The World Bank Washington, 2019.
45. The Global Competitiveness Report 2019-2020 World Economic Forum. Geneva, Switzerland 2019.
46. Global Employment Trends 2019: The challenge of a jobs recovery / International Labour Office. - Geneva: ILO, 2019
47. World Economic Outlook: September 2019. IMF
48. World Economic Outlook: Slowing Growth, Rising Risks. September 2019 IMF.
49. World Economic Outlook: October 2020. IMF, 2020.
50. World Development Report 2020 World Bank.
51. World Development Report 2020. World Bank.
52. World development report 2020. Conflict, Security, and Development. The World Bank. Washington.
53. Trade Profiles 2019. WTO. Geneva, 2019.

54. Economic Report of the President Washington. 2020.
55. ECB Convergence Report. May 2020.
56. United Nations. 2019. Report of the World Food Conference, Rome 5-16 November, 2018 New York.
57. Barroso, J. M. D. Counting the Cost of Counterfeits: Fakes Cost More: Speech at die Global Anti-Counterfeit Summit, Brussels, 10 March 2019.
58. FAO . 2020. The State of Food Insecurity in the World 2020. Rome.
59. Measurements: A Technical Review. New York and Rome: UNICEF and IFAD. Migration and Remittances Factbook 2019.
60. Second edition. The World Bank - Washington, 2020.
61. Migration and Development Brief 19 November 8, 2020.
62. Sh. Sh. Shoxa‘zamiy . Moliya bozori va qimmatli qog‘ozlar.-T.: Fan va texnologiya. 2012 y. 440 bet.
63. Sh. Shoxa‘zamiy va boshqalar. Qimmatli qog‘ozlar. O‘quv qo‘llanma.-T.: —Iqtisod-moliya, 2010.-140 b

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3-4
I BOB	“Jahon iqtisodiyoti va globallizatsiya” faniga kirish.....	5-17
1.1.	“Jahon iqtisodiyoti va globallizatsiya” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	5-6
1.2.	“Jahon iqtisodiyoti globallashuvi” tushunchalari va ularning tasnifi.....	6-12
1.3.	Xalqaro mehnat taqsimoti jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosi sifatida.....	12-13
1.4.	Jahon iqtisodiyoti globallashuvining asosiy sub’yektlari.....	13-17
II BOB	Jahon iqtisodiyotining globallashuvining xususiyatlari va rivojlanish omillari.....	18-36
2.1.	Jahon iqtisodiyoti globallashuvining mohiyati va o’ziga xos xususiyatlari.....	18-23
2.2.	Jahon iqtisodiyoti globallashuvining obyektiv manbalari va asosiy omillari.....	23-27
2.3.	Jahon iqtisodiyoti globallashuvining rivojlanish bosqichlari....	27-36
III BOB	Baynalminallashuv, transmilliylashuv va globallashuv jarayonlari.....	37-45
3.1.	Globallashuv taraqqiyotining tarixiy davri.....	37-40
3.2.	Baynalminallashuv va transmilliylashuv jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari.....	40-42
3.3.	Transmilliylashuv indeksi.....	42-45
IV BOB	Jahon iqtisodiyoti globallashuvining rivojlanish indikatorlari.....	46-59
4.1.	Investision ochiqlik indeksi. Global barqaror rivojlanish indeksi.....	46-51
4.2.	Global iqtisodiy rivojlanishning umumiy indikatorlari.....	52-56
4.3.	Ishlab chiqarishning transmilliylashuv indeksi.....	56-57

4.4.	Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining rolining yaxshilash.....	57-59
V BOB	Global iqtisodiyotning institusional jihatlari.....	60-79
5.1.	“Institut” tushunchasi va global iqtisodiyotning institusional jihatlari.....	60-69
5.2.	Markazlashtirilgan va bozor iqtisodiyotiga ta’luqli institutlarning xususiyatlari.....	70-74
5.3.	Xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar va ularning faoliyat yo‘nalishlari.....	74-77
5.4.	Xalqaro hukumatlararo va nohukumat tashkilotlar (G7, G20 va boshqalar).....	77-79
VI BOB	Global moliya va valyuta tizimining shakllanishi.....	80-92
6.1.	Global moliya bozori tushunchasi, tarkibiy tuzulmasi va uning asosiy ishtirokchilari.....	80-81
6.2.	Global moliya bozorlari markazlari va asosiy vazifalari.....	81-83
6.3.	Jahon iqtisodiyoti moliyaviy bozori va globallashtirish jarayonlari.....	83-84
6.4.	Jahon kapital bozori tahlili. Kapital eksporti - xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ilg‘or shakli sifatida.....	84-85
6.5.	Jahon valyuta tizimini shakllanishi.....	85-92
VII BOB	Jahon iqtisodiyoti globallashtirish rivojlanishining ekologik va innovatsion omillari.....	93-113
7.1.	Jahon iqtisodiy globallashtirishda texnologik rejimlar.....	93-99
7.2.	“Innovatsion iqtisodiyotning” xususiyatlari va rivojlanish jihatlari.....	99-102
7.3.	Innovatsiyalarning sohalar bo‘yicha turlari.....	102-108
7.4.	“Yashil iqtisodiyotning” mazmun-mohiyati va rivojlanish mexanizmi: BMTning atrof-muhitni saqlash va rivojlanishida Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi.....	108-113
VIII BOB	Jahon iqtisodiyoti globallashtirishining geoiqtisodiy vektori...	114-127

8.1.	Global xudud va uning xususiyatlari.....	114-117
8.2.	Global taraqqiyotning asosiy jihatlari va yo‘nalishlari.....	117-121
8.3.	Jahon iqtisodiyoti globallasuvi va geoiqtisodiy modellar.....	121-122
8.4.	Markaziy Osiyoning geosiyosiy, geoiqtisodiy, geostrategik xususiyatlari.....	122-127
IX BOB	Jahon iqtisodiyoti globallasuvda tmklarni tutgan o‘rni...	128-142
9.1.	Jahon iqtisodiyoti globallasuvda ko‘p millatli va transmilliy koroprsiyalar (TMK)lar faol va dinamik ishtirokchisi sifatida	128-132
9.2.	TMKlarning tashkiliy-iqtisodiy faoliyat shakllari.....	132-134
9.3.	TMK larning rivojlanishining sohaviy va hududiy jihatlari.....	134-136
9.4.	Markaziy Osiyoda global TMKlarning faoliyati.....	137-142
X BOB	Jahon savdo tashkiloti (JST) va xalqaro savdoning erkinlashuvi.....	143-181
10.1.	JST ning maqsadi, vazifalari va faoliyat jihatlari.....	143-149
10.2.	JST ga a‘zo bo‘lish jarayonlarining bosqichlari va kirish tartibi.....	149-159
10.3.	O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi uchun amalga oshirilayotgan amaliy vazifa va chora-tadbirlar.....	159-162
10.4.	O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishining iqtisodiy oqibatlari.....	163-172
10.5.	O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishining iqtisodiyot tarmoqlariga ta’siri va istiqbollari.....	172-181
XI BOB	Jahon iqtisodiyoti globallasuvining ziddiyatlar va tahdidlarining xususiyatlari va bartaraf etish mexanizmi...	182-193
11.1.	Jahon iqtisodiyoti globallasuvda ziddiyatlar va tahdidlar.....	182-187
11.2.	Jahon xamjamiyatining (BMT) va G7, G20 mazkur tahdidlarni bartaraf etish doirasidagi chora – tadbirlari.....	187-190
11.3.	Global tahdidlarni bartaraf etish mexanizmi.....	190-193
XII BOB	Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozlar.....	194-220

12.1.	Buyuk depressiya.....	194-204
12.2.	Osiyo moliyaviy-iqtisodiy inqirozi.....	204-207
12.3.	Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozlar: kelib chiqish sabablari, salbiy oqibatlari va bartaraf etish dasturlari.....	207-212
12.4.	COVID-19 pandemiyasi savdo va rivojlanishga ko'rsatgan ta'siri.....	212-220
XIII BOB	Jahon iqtisodiyoti globallashtiruvining xavfsizlik masalalari	221-227
13.1.	Iqtisodiy xavfsizlik masalalari: "Global iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi va mohiyati, ta'minlash mexanizmi.....	221-223
13.2.	"Milliy iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi, ko'rsatkichlari va chegaraviy miqdorlari.....	223-224
13.3.	Global oziq-ovqat xavfsizligi: globallashtiruv sharoitida oziq-ovqat muammosi tushunchasi va mohiyati.....	225-227
XIV BOB	Jahon iqtisodiyoti globallashtiruvining rivojlanish modellari	228-239
14.1.	Iqtisodiy rivojlanish modellari: rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar.....	228-230
14.2.	Markaziy Osiyo mamlakatlarining rivojlanish modellari. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi masalalari.....	230-236
14.3.	O'zbekistonning jahon iqtisodiyoti globallashtiruvda tutgan o'rnini.....	236-239
	Glossariy.....	240-249
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	250-253

CONTENTS

	INTRODUCTION.....	3-4
CHAPTER I	Introduction to the World economy and globalization.....	5-17
1.1.	Purpose and tasks of the subject “World economy and globalization”.....	5-6
1.2.	"World economy and globalization" concepts and their classification.....	6-12
1.3.	International work distribution World economy and globalization...	12-13
1.4.	Main subjects of World economy and globalization	13-17
CHAPTER II	Characteristics and development factors of the globalization of the world economy	18-36
2.1.	The essence and characteristics of the globalization of the world economy.....	18-23
2.2.	Objective sources and main factors of the globalization of the world economy.....	23-27
2.3.	Stages of development of the globalization of the world economy.....	27-36
CHAPTER III	Internationalization, transnationalization and globalization processes.....	37-45
3.1.	Historical period of development of globalization.....	37-40
3.2.	Development trends of internationalization and transnationalization processes.....	40-42
3.3.	Transnationalization Index.....	42-45
CHAPTER IV	Development indicators of the globalization of the world economy.....	46-59
4.1.	Investment openness index. Global Sustainable Development Index.....	46-51
4.2.	General indicators of global economic development.....	52-56
4.3.	Transnationalization index of production.....	56-57
4.4.	Improving the role of the Republic of Uzbekistan in international rankings and indexes.....	57-59
CHAPTER V	Institutional aspects of the global economy.....	60-79

5.1.	The concept of "institute" and institutional aspects of the global economy.....	60-69
5.2.	Features of centralized and market economy institutions.....	70-74
5.3.	International economic and financial organizations and their areas of activity.....	74-77
5.4.	International intergovernmental and non-governmental organizations (G7, G20, etc.).....	77-79
CHAPTER VI	The formation of the global financial and currency system.....	80-92
6.1.	The concept of the global financial market, its structural structure and its main participants.....	80-81
6.2.	Centers and Key Functions of Global Financial Markets.....	81-83
6.3.	The financial market of the world economy and the processes of globalization.....	83-84
6.4.	Analysis of the world capital market. Capital export as an advanced form of international economic relations.....	84-85
6.5.	The formation of the world monetary system.....	85-92
CHAPTER VII	Ecological and innovative factors of the development of the globalization of the world economy.....	93-113
7.1.	Technological regimes in world economic globalization.....	93-99
7.2.	Features and development aspects of "Innovative economy".....	99-102
7.3.	Types of innovations according to sectors.....	102-108
7.4.	The essence and development mechanism of the "Green economy": The UN Declaration of Rio de Janeiro on environmental protection and development.....	108-113
CHAPTER VIII	The geo-economic vector of the globalization of the world economy.....	114-127
8.1.	Global area and its features.....	114-117
8.2.	The main aspects and directions of global development.....	117-121
8.3.	Globalization of the world economy and geoeconomic models.....	121-122
8.4.	Geopolitical, geoeconomic, geostrategic features of Central Asia...	122-127
CHAPTER IX	The role of TNCs in the globalization of the world economy.....	128-142
9.1.	Multinational and transnational corporations (TNCs) as an active and dynamic participant in the globalization of the world economy	128-132
9.2.	Forms of organizational and economic activity of TNCs.....	132-134

9.3.	Sectoral and regional aspects of the development of TNCs.....	134-136
9.4.	Activities of global TNCs in Central Asia.....	137-142
CHAPTER X	World Trade Organization (WTO) and international trade liberalization.....	143-181
10.1.	Purpose, tasks and activities of the WTO.....	143-149
10.2.	Stages of the WTO membership process and the procedure for entry.....	149-159
10.3.	Practical tasks and measures being implemented for Uzbekistan to become a member of the World Trade Organization.....	159-162
10.4.	Economic consequences of Uzbekistan's membership in the World Trade Organization.....	163-172
10.5.	Impact and prospects of Uzbekistan's membership in the World Trade Organization on economic sectors.....	172-181
CHAPTER XI	Characteristics of conflicts and threats of the globalization of the world economy and the mechanism of elimination.....	182-193
11.1.	Conflicts and threats in the globalization of the world economy.....	182-187
11.2.	Actions of the World Community (UN) and G7, G20 within the framework of eliminating these threats.....	187-190
11.3.	Global Threat Management Mechanism.....	190-193
CHAPTER XII	World financial economic crises.....	194-220
12.1.	The Great Depression.....	194-204
12.2.	Asian financial and economic crisis.....	204-207
12.3.	World financial and economic crises: causes, negative consequences and elimination programs.....	207-212
12.4.	The impact of the COVID-19 pandemic on trade and development	212-220
CHAPTER XIII	Security issues of the globalization of the world economy.....	221-227
13.1.	Issues of economic security: the concept and essence of "Global economic security", the mechanism of provision.....	221-223
13.2.	Concept, indicators and threshold amounts of "National economic security".....	223-224
13.3.	Global food security: the concept and nature of the food problem in the context of globalization.....	225-227
CHAPTER XIV	Development models of the globalization of the world economy	228-239

14.1.	Models of economic development: developed and developing countries.....	228-230
14.2.	Development models of Central Asian countries. Issues of Uzbekistan's cooperation with the countries of Central Asia.....	230-236
14.3.	Development models of Central Asian countries. Issues of Uzbekistan's cooperation with the countries of Central Asia.....	236-239
	Glossary	240-249
	List of used literature	250-253